

A. ORTIQOV
M. ISAKOV
INDUSTRIAL
IQTISODIYOT
"IQTISODIYOT"

338(07)
O-75

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

A. Ortiqov, M. Isakov

INDUSTRIAL IQTISODIYOT

O‘quv qo‘llanma

114157
TDIU
kutubxonasi
4/3

TOSHKENT - “IQTISODIYOT” – 2019

UDK: 347.214.21(075)
BBK: 65.02

Abdurahim Ortiqov, Musaxon Isakov. Industrial iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. -T.: «IQTISODIYOT», 2019. – 242 bet.

O‘quv qo‘llanmada «Industrial iqtisodiyot» fanining predmeti va vazifalari, iqtisodiyotning eng muhim, yetakchi tarmog‘i bo‘lgan sanoatning milliy iqtisodiyotdagi roli, o‘rni va ahamiyati, tarkibiy muammolar, boshqarish va rejalashtirishning ilmiy asoslari, fan-texnika taraqqiyoti, kadrlar va mehnatga haq to‘lash, asosiy va aylanma fondlar, mahsulot sifati va raqobatbardoshlik, qiymat va tannarx, foyda, rentabellik hamda Respublikada sanoat korxonalarini mahalliylashtirish dasturi, uning mazmun-mohiyati masalalari yoritilgan. Qo‘llanmada shuningdek, uslubiy masalalar va sanoat sohasida yuz beradigan iqtisodiy jarayonlarning mohiyatini ochib berishga alohida e’tibor qaratilgan.

Ushbu qo‘llanmada mamlakat prezidentining mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish samaradorligini oshirish va sanoat korxonalari faoliyatini samarali tashkil etish, uni xalqaro talablar darajasida boshqarish yo‘llariga oid belgilab bergan vazifalari o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Oliy o‘quv yurtlarining iqtisodiyot sohasi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etgan.

Mas’ul muharrir: prof. Sh.Mustafaqulov.

Taqrizchilar: dots. A. Mullajonov

prof. B.Salimov

ISBN-978-9943-5186-7-4

UDK: 347.214.21(075)
BBK: 65.02

© «IQTISODIYOT», 2019.
© A. Ortiqov, M. Isakov, 2019.

Kirish

Iqtisodiyotda tub burilish kechayotgan bir vaqtda iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish va shu asosda jamiyat a'zolarining moddiy va ma'naviy farovonligini ta'minlashda iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i bo'lgan sanoatning mavqei alohida o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018 yil 28 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish borasidagi aniq fikr va g'oyalar belgilab berildi, o'rtaga qo'yilgan dolzarb muammolar, ularning mohiyati va ahamiyati atroflicha tahlil qilinishi kerakligini aytdi. Bunda, "O'zbekiston sanoati rivojlanishining asosiy maqsadi nafaqat ushbu iqtisodiyot sektorida o'sish sur'atlarini oshirishga intilish, balki boy tabiiy resurslar salohiyatidan foydalanish orqali ustuvor tarmoqlar va ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning zamonaviy tarkibini shakllantirish, tashqi va ichki bozorda mamlakat sanoati raqobatdoshligi va samaradorligini oshirish uchun chora-tadbirlar majmuasini shakllantirishdan iborat" [1]deb ta'kidlab o'tdi.

Buni iqtisodiyotdagi tizimli o'zgarishlar natijasida yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi 2018 yildagi 35 foizdan 2019 yilda 37 foizga[2] ortishi kutilayotganligidan ham ko'rish mumkin.

Sanoatning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida asosiy e'tibor tarkibiy o'zgarishlarga qaratilgan bo'lib, ular sanoat tarmoqlaridagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va tarkibiy siljishlar bilan birgalikda bashorat qilinadi. Sanoatning tarmoq tarkibini 2030 yilga qadar takomillashtirish YaIMda sanoat ulushini rivojlangan davlatlarda YaIM tarkibidagi xarakterlarga xos bo'lgani kabi 2017 yildagi 33,5 foizdan 2030 yilda 40 foiz oshirish bilan asoslanadi. Bu maqsadga erishi uchun, shuni aytish kerakki, bugungi kunda mamlakatimizda bu boradagi ishlar boshlab yuborilgan. Ayni vaqtda bu ishlar har bir turdagi istiqbolli xomashyo va yarim fabrikat bo'yicha chuqur qayta ishlashning 2020, 2025, 2030 yillarga mo'ljallangan aniq dasturiga ega bo'lish uchun mutlaqo yangi dasturiy kompleks yondashuvni talab etadi.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbariyati tomonidan tanlab olingan taraqqiyot strategiyasi raqobatdosh, eksportbop hamda import o'rnini bosuvchi, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan bo'lib, u sanoatning barqaror va mutanosib ravishda o'sishi hamda ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash asosida uning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Buni yurtimizda amalga oshirilayotgan ochiq iqtisodiyot, sog'lom raqobat, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash uchun zarur sharoitlarni yaratilayotganligi, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy sektorni jadal rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini ko'paytirishga alohida e'tiborni kuchayayotganligi, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish orqali

[1]O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so'zi, 29 dekabr 2018 yil.

[2] O'sha yerda.

yuqori iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga erishish borasidagi olib borilayotgan islohotlardan, «yashirin» iqtisodiyotga qarshi kurashish, uning hajmini keskin qisqartirish borasidagi, valyutani erkinlashtirish siyosatini izchil davom ettirish, barqaror monetar siyosatni amalga oshirish, iqtisodiyotni rivojlantirishga doir strategik vazifalarni ro‘yobga chiqarishga qodir malakali kadrlarni tayyorlashga qaratilgan yo‘nalishlarning samarali amalga oshirilayotganligidan va mamlakat iqtisodiyotda tizimli o‘zgarishlar amalga oshirilib, iqtisodiyotini barqaror rivojlanishiga erishishda yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi oshirishga qaratilayotganligidan ko‘rish mumkin.

Yurtimizda iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarni samarali tashkillashtirish va bunda sanoatning o‘rnini alohida kasb etishidan kelib chiqib, har bir sohada bo‘lgani kabi respublikamizning ayrim tumanlarida ham sanoatning ulushi viloyat ko‘rsatkichining 1 foiziga yetmayotganligidan kelib chiqib, **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019 yilda mamlakatni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to‘g‘risida parlamentga qilgan Murojaatnomasida “....**har bir tuman va shahar sanoatini rivojlantirish bo‘yicha o‘rta va uzoq muddatli dasturlar ishlab chiqish kerak”[1]ligini ta’kidlab o‘tdi.

Ana shu juda muhim soha iqtisodiy asoslarining ham nazariy, ham amaliy mohiyati va ahamiyatini tushunadigan, bu boradagi barcha yangiliklar va tashkiliy o‘zgarishlarni his eta oladigan iqtisodchilarni tayyorlashda **« Industrial iqtisodiyot»** fani alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu fanning asosiy maqsadi ilm-toliblarda zamonaviy iqtisodiy fikrlashni, mamlakat milliy ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish tizimida sanoat majmuining o‘rnini tavsiflash, iqtisodiyot va aholining sanoat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘laroq qondirish, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish va sanoat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish zaruriyati to‘g‘risidagi umumlashgan tasavvurni shakllantirishdan iborat.

«Industrial iqtisodiyot» fani talabalarga nafaqat muayyan axborot, ma’lumotlar, bilim va ilm berishi, balki ularni o‘z faoliyatining eng muhim yo‘nalishlarini to‘g‘ri tanlab olishga, murakkab iqtisodiy muammolar yechimini topa bilishga o‘rgatishi kerak.

Talabalarda bu fan bo‘yicha bilim va ilm, hamda malakalarini shakllantirishning asosini ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar, mustaqil ishlar, ilmiy-tadqiqotlar jarayoni tashkil etadi.

Bu fan bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilar bilimlarini mustahkamlash, fanni chuqur o‘rgatish, mavzularni yozma va og‘zaki bayon etish san’atini egallashga yordam beradi.

«Industrial iqtisodiyot» fani umumiqtisodiy mutaxassislik bo‘yicha iqtisodchi kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash bo‘yicha iqtisodiy ta’lim asoslaridan biri bo‘lgani bois uni o‘qitish alohida o‘quv qo‘llanma va o‘quv qo‘llanma asosida amalga oshirilishi zarur.


[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so‘zi, 29 dekabr 2018 yil.

1-BOB. «INDUSTRIAL IQTISODIYOT» FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI

1.1. «Industrial iqtisodiyot” fanining ob’ekti, sanoatning ta’rifi va tavsifi

Har qanday fan o‘zining o‘rganish ob’ektiga ega bo‘ladi. «Industrial iqtisodiyot” fani ob’ekti umuman sanoat, xususan, O‘zbekiston sanoati hisoblanadi. shu bois eng avvalo, ushbu fanning ob’ekti hisoblangan sanoat haqidagi ta’limot bilan tanishish zururiyati tug‘iladi.

Sanoat ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Demak, sanoat ob’ektiv reallik (borliq)ning in’ikosi va yuksak umumlashmasidir. Uning alohida tarmoq, ya’ni ijtimoiy ishlab chiqarishning alohida sohasi bo‘lib yuzaga kelishi ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy mehnat taqsimotining rivoji bilan tarixiy jihatdan bog‘liqdir. Sanoat ham ob’ektiv borliqning muhim hodisalari qatorida ma’lum davr (vaqt va fazo)da dunyoga kelgan, muayyan qonun va qoidalar asosida rivojlangan, ma’lum miqdor va sifatlarga, zarurat va imkoniyatlarga ega bo‘lgan hamda ziddiyatlar qurboni ham bo‘lgan.



1.1-rasm. O‘zbekiston sanoati taraqqiyoti bosqichlarni[1]

O‘zbekistonda: hunarmandchilikning juda ko‘p turlari, ya’ni kulolchilik, duradgorchilik, toshtaroshlik, binokorlik, o‘ymakorlik, kashtado‘zlik, ko‘nchilik, to‘quvchilik va tikuvchilik, temirchilik, misgarlik va zargarlik, degrezlik, rixtagarlik, zardo‘zlik, bo‘yoqchilik, tunukasozlik va boshqalar keng tarqalgan.

[1] Muallif ishlanmasi

Hunarmandchilik ("xonaki sanoat") bronza asrida dehqonchilikdan ajralib chiqqan. **Milodning dastlabki asrlarida** hozirgi O‘zbekiston hududida anchagina hunarmandchilik markazlari tashkil topgan.

9—10 asrlarda ip, mato, gilam bo‘yicha Xiva va Shosh mis va temirdan aslaha, pichoq tayyorlash bo‘yicha Farg‘ona, shoyi matolar, shisha mahsulotlar tayyorlash bo‘yicha Buxoro dunyoga tanilgan.

12—13 asrlarda rivojlanish pasayib, Temuriylar davlatining vujudga kelishi bilan hunarmandchilik yana rivoj topgan. Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent, Shaxrisabz kabi shaharlarning ishlab chiqarish munosabatlarida hunarmandchilik alohida ahamiyat kasb etgan.

18-asrning 60-70-yillarda Angliyada ro‘y bergan sanoat to‘ntarilishidan keyin O‘zbekistonda asta-sekin manufakturadan mashinalashgan industriyaga o‘tish boshlandi. Xom ashyoga birlamchi ishlov beradigan sanoat sohalari (paxta tozalash, ipak tortish, vino, konserva, moy zavodlari) vujudga keldi.

19- asrda O‘zbekiston sanoatida juda katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Agar asr boshlarida sanoat mahsulotining eng muhim turlaridan 5-10 xili (paxta tolasi, xom ipak, o‘simlik moyi, uzum vinosi, g‘isht, ganch va boshqalar) ishlab chiqarilgan bo‘lsa, asr oxiriga kelib yuzlab-minglab turlari tayyorlangan.

19-asr oxiriga kelib, O‘zbekistonda hunarmandchilikning 30 ga yaqin turi rivojlangan. 20-asr boshlarida esa hunarmandchilikning asosiy qismi artellarga, keyinchalik zavod va fabrikalarga, badiiy buyumlar korxonalariga aylantirilgan.

1.2-rasm. O‘zbekiston sanoati taraqqiyoti bosqichlarni[1]

Sanoat moddiy ishlab chiqarishning asosiy va etakchi tarmog‘idir. Sanoatning vujudga kelishi va rivojlanishi ishchilar sonining oshishi va uning jamiyatdagi mavqeining ko‘tarilishiga olib keladi.

Sanoat mamlakat mudofaa qobiliyatining moddiy asosi, el-yurtda tinchlik va barqarorlikni saqlashning muhim omili, qo‘shni mamlakatlar mustaqilligini, hamkorligi va birdamligini ta’minlovchi muhim sohadir. O‘zbekiston davlati mudofaasini kafolatlashda sanoatning roli bebahodir.

Sanoat shunday tarmoqki, barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy intilishlari, ularning xo‘jalik jihatdan birlashishi, ya’ni iqtisodiy integratsiya tavsifida o‘z ifodasini topadi. Natijada barcha mamlakatlarning tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslaridan, fan-texnikaning barcha yutuqlaridan oqilona foydalanish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishni ta’minlovchi buyuk harakatlantiruvchi kuch — raqobat, ya’ni bellashuv, raqiblar kurashi ham **sanoat**

[1] Muallif ishlanmasi


sohasida rivoj topadi. Ilg‘or texnika va texnologiyalardan foydalanish, materiallarning yangi turlarini yaratish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini yuqori darajaga ko‘tarish, ishlab chiqarishning boshqa bir qator texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash asosida uning samaradorligini ko‘tarish uchun harakat va boshqa mehnat an’analari ham **avvalo, sanoat sohasida vujudga kelgan va kelmoqda**.

1.2. «Industrial iqtisodiyot” fanining predmeti va boshqa fanlar bilan bog‘liqligi

Iqtisodiyot sohasida ro‘y berayotgan barcha voqeliklardan habardor bo‘lish, ularning mohiyati va ahamiyatini to‘g‘ri tushunish, iqtisodiy muammolarni oqilona hal etish korxonalar, firmalar, tarmoqlar va komplekslar oldida turgan vazifalarni o‘z vaqtida amalga oshirish uchun iqtisodiy bilimlar bilan qurollanmoq, ularni chuqur egallamoq kerak. Bunday bilimlarni bizga iqtisodiy fanlar tizimi o‘rgatadi (1.2 va 1.3-rasmlar).

Birinchi guruhga eng avvalo «Iqtisodiy nazariya» fani kiradi. Uning o‘zi o‘z nomi bilan boshqa fanlardan ajralib turadi va umum iqtisodga nazariy jihatdan yondashadi, unga xos qonun va qoidalarni o‘rganadi.

«Iqtisodiy nazariya» — insonlarning ishlab chiqarish munosabat- larini ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan o‘zaro aloqada o‘rganuvchi fandir.



1.3 -rasm. Iqtisodiy fanlarning guruhlari[1]


Lekin «Iqtisodiy nazariya» iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va tarmoqlararo komplekslarida iqtisodiy qonunlarning namoyon bo‘lish, ro‘y berish shakllari va xususiyatlarini o‘rganmaydi. Bu bilan aniq iqtisodiy fanlar shug‘ullanadi. Ana shunday fanlardan biri «Industrial iqtisodiyot” fani hisoblanadi. Bu fan jamiyatning iqtisodiy qonunlari va zaruriy qoidalari sanoat va uning tarmoqlari sohasida namoyon bo‘lishi, ro‘y berishi, tuzilmaviy o‘zgarishlarning «falsafasini», boshqarishning ilmiy asoslarini, rejalashtirish va bashoratlashning metodologiyasi va metodikasini, fan-texnika tarakqiyotining asosiy yo‘nalishlari, sanoat resurslarining mohiyati, ahamiyati

[1] Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.:”Sano-standart”, 2014.-11 bet.

va turlari hamda ulardan foydalanishni yaxshilash shart-sharoitlari va sanoatning boshqa qator muammolarini o‘rganadi.

«Industrial iqtisodiyot” fani bir qator iqtisodiy fanlar bilan chambarchas bog‘langan. Ular jumlasiga «Ekonomiks», «Iqtisodiy nazariya», «Makroiqtisodiyot», «Mikroiqtisodiyot», «Statistika», ayniqsa, «Iqtisodiy statistika», «Mehnat iqtisodiyoti», «Marketing», «Menejment», «Buxgalteriya hisobi va audit», «Moliya va kredit» va boshqa bir qator fanlar kiradi.

«Industrial iqtisodiyot” fanining predmeti deganda jamiyatning ob’ektiv iqtisodiy qonunlari va zaruriy qoidalarining shu sohada namoyon bo‘lish shakllarini, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish jarayonida jonli va buyumlashgan mehnatning eng optimal xarajatlari asosida eng yaxshi natijalarga erishishni ta’minlaydigan shart-sharoitlar va omillarni o‘rganish tushuniladi.



1.4-rasm. Iqtisodiy fanlar tizimi[1]

[1] Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.:”Sano-standart”, 2014.-11 bet.

1.3. «Industrial iqtisodiyot” fanini o‘rganish metodologiyasi va usullari

Ilm-fan metodologiyasi va usullari deyilganda, uni bilish va o‘rganish faoliyatining shakllari va usullari majmuasi tushuniladi.

Metodologiya - tadqiqot yoki bilish, anglash yo‘li, voqelikni amaliy va nazariy o‘zlashtirish usullari majmuasidir.

«Industrial iqtisodiyot” fanining nazariy, metodologik asosini sanoatning vujudga kelishi va rivojlanish muammolari bo‘yicha hozirgi nazariya, o‘zbekistonlik va xorijiy mamlakatlar iqtisodchilarining ilmiy asarlari, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Respublika Prezidentining asarlari tashkil etadi.



1.5-rasm. «Industrial iqtisodiyot” fanining o‘rganish usullari[1]

[1] Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.:”Sano-standart”, 2014.-11 bet.

Dialektika usuli muammolar o‘rganilayotgan omillar, shart-sharoitlarning namoyon bo‘lishi va yuz berishi ziddiyatlarga, qarama-qarshiliklarga boy ekanligini inobatga olishni taqozo etadi.

1.4. «Industrial iqtisodiyot” fanining vazifalari

Har qanday fan kabi «Industrial iqtisodiyot» fani ham eng avvalo, o‘z yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy qarash va nazariyalarga tayanadi. Uning asosiy vazifasi sanoat sohasiga taalluqli iqtisodiy bilim va ilm hamda muayyan ko‘nikma bilan qurollantirishdan iboratdir.

Bu fan, birinchidan, iqtisodiyotning sanoat sohasidagi sir- asrorlarini bilib olishga; ikkinchidan, bu tarmoq iqtisodiyotida qo‘llaniladigan barcha iqtisodiy tushunchalarni tavsiflashga, ular real iqtisodiy voqelikning ilmiy in’ikosi, ifoda etilishi ekanligini anglashga ko‘maklashadi; uchinchidan, ishlab chiqarish san’atini egallash bo‘yicha bilim va ko‘nikma beradi. Demak, «Industrial iqtisodiyot» fani faqat nazariy tomondangina emas, balki amaliy jihatdan ham bilim berish vazifasini bajaradi. Bu fanni puxta egallagan har bir iqtisodchi mavjud iqtisodiy ko‘rsatkichlarning mohiyati va ahamiyatini yaxshi tushunadigan, ularni to‘g‘ri hisoblash va aniqlashni biladigan, ular dinamikasidan tegishli xulosalar chiqara oladigan bo‘ladi.

Har qanday bilim ham, hatto, jamiyat hayotining chuqur negizlariga kirib boruvchi ilm ham muayyan harakat uchun qo‘llanma bo‘lganligi, jamiyatni tubdan o‘zgartirishning amaliy maqsadlariga xizmat qilganligi uchun qimmatlidir. Shu sababli «Industrial iqtisodiyot» ham fundamental fanlar qatoridan o‘rin olib, iqtisodiy taraqqiyotning muhim qonun-qoidalaridan sanoat sohasida foydalanish yo‘llarini ko‘rsatib berayotganligi tufayli ahamiyatli hisoblanadi.

«Industrial iqtisodiyot» fanining muhim vazifalaridan biri — bu metodologik vazifadir. «Industrial iqtisodiyot» iqtisodiy fanlar majmuida alohida o‘rin egallaydi, chunki barcha iqtisodiy-metodologik masalalarning ilmiy va amaliy talqini, eng avvalo, sanoat sohasida amalga oshiriladi.

«Industrial iqtisodiyot» fanining vazifalari respublika ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining ob’ektiv sharoitlari, davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari va unga binoan amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati, ahamiyati va mazmuni bilan belgilanadi.

Ulardan eng muhimlari quyidagi rasm da keltirilgan:

Ushbu fanning yana bir eng muhim vazifasi - bu sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun sarflanayotgan xarajatlar tizimi, mahsulot tannarhi, narhlarning shakllanishi, foyda va rentabellik, moliyalash va kreditlash masalalari bo‘iicha bilim, ilm va ko‘nikmalar berishdan iborat.



1.6-rasm. «Industrial iqtisodiyot” fanining vazifalari [1]

[1] Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.:”Sano-standart”, 2014.-11 bet.

Qisqacha xulosalar

«Industrial iqtisodiyot» fan sifatida sanoat yo‘nalishidagi jarayonlarni izohlash, tushuntirish va kelajakka tegishli voqeliklarni bashorot qilish imkonini beruvchi nazariya va metodoligiyaga asoslanadi;

- ilmiy kurs sifatida umum-iqtisodiy qonunlarni chuqurlashtiradi, aniqlashtiradi va o‘z yo‘nalishi bo‘yicha o‘ziga xos qonuniyatlarni shakllantiradi; bu qonuniyatlar, shuningdek, fundamental qoidalar sanoat tarmoqlarining tipik guruhlariga muvofiq tarzda o‘rganiladi;
- tarmoq korxonalarida sodir bo‘ladigan voqealarni bashoratlash, tahlil etish, hisob va hisobot ishlarini yuritish bo‘yicha zarur bilimlar bilan qurollantiradi;
- mamlakat ichida va xorijda yuz berayotgan iqtisodiy jarayonlarni bilishga imkon yaratib beradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. «Industrial iqtisodiyot» fani nima uchun o‘qitiladi?
2. «Industrial iqtisodiyot» fanining ob’ekti deganda nimalarni tushunasiz?
3. «Industrial iqtisodiyot» fani yordamida qanday qonunlar va qonuniyatlar o‘rganiladi?
4. «Industrial iqtisodiyot» fani qanday fanlar bilan chambarchas bog‘liq?
5. Jamiyatni demoqratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalash va islox qilish ushbu fan oldiga qanday vazifalar qo‘yadi?

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so‘zi, 29 dekabr 2018 yil.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida»gi №PF-4947 sonli Farmoni. //Xalq so’zi. 2017 yil 8 fevral.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlanishining beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2017 yil 15 avgustdagi №3-5024 sonli Qarori.
4. Sh. M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak . Tashkent : O‘zbekiston, 2017 y.,104 b.
5. Church J., and R.Ware. (CW) Industrial Organization. A Strategic Approach. Irwin. 2000.
6. Schmalensee, Richard, and Robert Willig, eds. (HB) Handbook of Industrial Organization. Vols. 1-2. North-Holland, 1989.
7. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.:”Sano-standart”, 2014.-304 b.
8. www.webofscience.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi
9. www.search.ebscohost.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi

2-BOB. SANOAT - MILLIY IQTISODIYOTNING YETAKCHI TARMOG‘I

2.1. Sanoatning milliy iqtisodiyot rivojidagi roli va o‘rni

Sanoat – moddiy ishlab chiqarishning eng yirik, yetakchi tarmog‘idir. Unda mehnat qurollari (vositalari), mehnat buyumlari va xalq iste’mol tovarlarining ko‘pchilik qismi yaratiladi; mashina va mexanizmlarning barcha turlari, bino va inshootlarning konstruktiv elementlari ishlab chiqariladi; yer osti boyliklari qazib olish amalga oshiriladi; mineral, o‘simlik va hayvon xom ashyosiga ishlov beriladi, keng iste’mol mollari tayyorlanadi va h.k.lar.

2.1- j a d v a l

O‘zbekiston Respublikasining asosiy rivojlanish ko‘rsatkichlari - ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar

	2011y.	2012y.	2013y.	2014y.	2015y.	2016y.	2017 y.	2018y.
Yalpi ichki mahsulot *(mlrd. so‘m)*	**78 764,2**	**97 929,3**	**120861,5**	**145 846,4**	**171 808,3**	**199 325,1**	**302 536,8**	**407 514,5**
Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot *(ming so‘m)*	2 684,6	3 289,0	3 996,3	4 741,8	5 489,3	6 258,6	11970,6	12 365,6
YaIMda xizmatlar hajmi *(mlrd.sum)*	34 407,3	43 465,4	53 941,4	64 673,5	76 412,1	90 202,9	116795,7	133847,9

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Sanoat iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari bilan ta’minlaydi. Milliy iqtisodiyot, fan, maorif, madaniyat, sog‘liqni saqlash, sport, turizm va boshqa sohalar rivoji sanoatning taraqqiyot darajasiga bog‘liq.

Ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari taraqqiyotida sanoatning tarixiy roli beqiyosdir. Shu sababli uning rivoji va samaradorligi qanchalik yuqori bo‘lsa, davlatning mavqei shunchalik kuchli bo‘ladi va aholi turmush darajasi yanada yaxshilanib boradi.

Sanoat jamiyatning yetakchi kuchi bo‘lgan ishchilar sinfini o‘zida birlashtiradi. Sanoat rivoji tufayli unda band bo‘lgan xodimlarning soni ko‘payadi, ularning bilimi va ilmi, mahorati ortadi, kadrlar salohiyati yuqori darajaga ko‘tariladi.

Sanoat sohasida mehnatni ijtimoiy tashkil etishning eng oliy turi bo‘lgan konsentratsiyaning yuqori darajasi va shu asosda ijtimoiy ishlab chiqarishni uyushtirshning ilg‘or usullari - mahalliylashtirish, ixtisoslashtirish va diversifikatsiyalash, kooperativlashtirish va kombinatlashtirish sohasida ustunlik qiladi.

Faqat yirik mashina industriyasigina fan va texnika hamda innovatsiyaning barcha yutuqlarini mujassamlashtirib, mehnatni texnika bilan qurollantirishi va

unumdorligini yuqori darajaga ko‘tara oladi.

Sanoat va ayniqsa, uning eng muhim sohasi bo‘lgan og‘ir sanoat mamlakatda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning asosi hisoblanadi. U moddiy-texnika vositalarini o‘zi va boshqa tarmoqlar uchun takror ishlab chiqarish bilan bir vaqtda jamiyat a’zolari o‘rtasidagi ijtimoiy-ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirib ham boradi.

2.2- j a d v a l

YaIMning tarmoqlar bo‘yicha tuzilmasi, %

	2011y.	2012y.	2013y.	2014y.	2015y.	2016y.	2017y.	2018y.
I. Jami YaIM	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**
shu jumladan:								
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	91,4	91,7	91,8	91,4	91,2	91,3	91,3	91,5
Mahsulotlarga sof soliqlar	8,6	8,3	8,2	8,6	8,8	8,7	8,8	9,1
II. tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	19,4	19,2	19,0	18,9	18,3	17,6	17,9	18,2
Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	32,8	32,4	32,4	32,6	33,0	32,9	33,5	35,6
Xizmatlar	47,8	48,4	48,6	48,5	48,7	49,5	50,0	51,3
YaIMda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushi	**54,0**	**54,6**	**55,8**	**56,1**	**56,5**	**56,9**	**55,4**	**49,5**
YaIMda AKTning ulushi	**x**	**x**	**2,3**	**2,3**	**2,3**	2,6	**2,9**	**3,2**

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Sanoat qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini qayta qurishning negizi hisoblanadi. Uni yangi texnika bilan ta’minlash orqali fermer, shirkat, dehqon xo‘jaliklarini va boshqa shakllarda faoliyat ko‘rsatayotgan sub’ektlarni iqtisodiy va madaniy jihatdan yuqori darajaga ko‘tarishga, shahar bilan qishloq o‘rtasidagi muhim tafovutlarni yo‘qotishga, dehqon mehnatini industrial mehnatga aylantirishga yordam beradi.

Sanoat mamlakat mudofaa qobiliyatining moddiy manbai, dunyoda tinchlikni saqlashning muhim omili, mamlakatlar mustaqilligini va birdamligini ta’minlovchi muhim sohadir. Chunonchi, mamlakatimiz mudofa qobiliyatini mustahkamlashda sanoatning roli va ahamiyati beqiyosdir.

Barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy intilishlari, xo‘jalik jihatidan hamkorligi sanoat sohasida ham o‘z ifodasini topadi. Tabiiy va mehnat resurslaridan, fan va texnika yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlari kengayishida sanoatning ahamiyati kattadir.

Sanoat uchun fan-texnikaning uzluksiz taraqqiyoti va ishlab chiqarishning yutuqlari bilan qurollanishi darajasining o‘sishi xarakterlidir. Unda elektrlashtirish va elektronizatsiyalash, kompyuterlashtirish va kimyolashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta qurish sohasidagi ilg‘or

yutuqlardan keng foydalaniladi. Ularni faqat tinchlik maqsadlarida qo‘llaydi.

Sanoat moddiy ishlab chiqarishning bosh tarmog‘i, iqtisodiyotning poydevoridir. Milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qayta qurishga qodir bo‘lgan yirik mashinalashgan sanoatgina mustaqillikning birdan - bir moddiy negizi bo‘lishi mumkin.

Mamlakat aholisining ish bilan bandligini oshirishda sanoatning roli beqiyosdir.

2.3-jadval

Iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha aholi bandligi va uning 2008-2018 yillardagi dinamikasi (ming kishi hisobida)

Ko‘rsatkichlar	**2008**	**2015**	**2018**
Band bo‘lganlar soni, jami	11628,4	12223,8	15223,8
Shu jumladan, sanoatda	1539,6	1589,9	1789,9
Qishloq va o‘rmon xo‘jaligida	3127,5	3260,8	3860,8
Qurilishda	1065,1	1130,3	1430,3
Transport va aloqada	603,8	638,7	668,7
Savdo, umumiy ovqatlanish, ta’minot, sohasida	1243,2	1330,0	1380,0
Uy-joy-kommunal xo‘jaligi va aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish	400,5	432,7	435,7
Sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya, sport va ijtimoiy ta’minot sohasida	894,1	924,1	924,1
Ta’lim, madaniyat, san’at, fan va ilmiy xizmat ko‘rsatishda	1609,9	1642,9	1689,9
Moliya, kredit va sug‘urta	66,3	65,5	64,5
Boshqa sohalarda	1307,2	1265,2	1235,2

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

O‘zbekistonda mehnatga layoqatli aholining 13 foizi sanoat ishlab chiqarishida band. Bu o‘rinda ta’kidlash kerakki, respublika sanoatining jadal sur’atlar bilan ta’minlanishi yanada yaxshilanib, mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg‘ul bo‘lishi, ya’ni bandlik darajasi anchagina yuksaladi. Tarmoqning yanada jadal rivoji sanoat kadrlari soni va ularning jamiyatdagi mavqei yanada oshishiga olib keladi.

Mamlakatimiz sanoatining taraqqiyoti yuqori malakali ishchi kadrlar, muhandis va texnik xodimlar safini kengaytirdi. Hozirgi paytda O‘zbekiston sanoatida 1,6 millionga yaqin xodim ishlamoqda. Ulardan 650 ming nafari oliy, 950 ming nafardan ortig‘i o‘rta va o‘rta maxsus ma’lumotli xodimlardir.

Taraqqiyot qonunlari xodimlarning madaniy texnik saviyasi o‘sishini, ishlab chiqarish malakasi va tajribasi tinmay oshib borishini ta’minlaydi. Bu O‘zbekiston sanoatida ham namoyon bo‘lmoqda.

Ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot jadallashuvini ta’minlovchi kuch raqobat ham avvalo, respublika sanoatida vujudga keldi va rivojlana boshladi. Tadbirkorlar, ishbilarmonlar bellashuvning asosiy faol qismi bo‘lib maydonga chiqdi. Respublika sanoatida ham raqobat o‘zining oddiy bosqichidan eng yuqori bosqichiga ko‘tarilib,

chinakam umumiy dastakka aylanmoqda.

Mustaqillikning afzalliklari davlat iqtisodiy siyosatining yetakchilik rolini yanada oshirmoqda. Oliy Majlis Senatining qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, eng avvalo, sanoat sohasida amalga oshirilmoqda va sezilarli samara bermoqda.

Sanoat tabiatda uchraydigan moddiy boyliklarni qazib chiqarish va tayyorlashni, ularni va qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlashni o‘z ichiga qamrab oladi.

Sanoat barcha iqtisodiyot tarmoqlari uchun ishlab chiqarish kuchlarining asosiy elementlaridan biri hisoblangan jamiyatning tabiat ustidan hukmronligini birmuncha orttiradigan, texnika taraqqiyotini belgilaydigan, inson mehnatining unumdorligini oshirishga imkon beradigan mehnat va ishlab chiqarish qurollarini yaratadigan sohadir.

Sanoat taraqqiyoti ishlab chiqarish kuchlarining bir tomonlama rivojlanishiga xotima beradi, mamlakat va uning ajralmas qismi bo‘lmish viloyatlarda tabiiy boyliklardan, xom ashyo va mehnat resurslaridan kengroq va har tomonlama foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Bizga ma’lumki, sanoat ishlab chiqarishining milliy iqtisodiyotdagi roli yildan-yilga oshib bormoqda.

2.4-***jadval***

O‘zbekiston Respublikasi sanoatining milliy iqtisodiyotdagi ulushi va ko‘rsatkichlari (haqiqiy bahoda, mlrd. so‘m va foizda)*

Ko‘rsatkichlar	**2008y.**	**2015y.**	**2018y.**
Yalpi ichki mahsulot	62388,3	96589,8	407 514,5
shu jumladan, sanoatning yalpi qo‘shilgan qiymati	14882,5	23133,7	107176,3
Sanoatning salmog‘i, foizda	23,9	24,0	26,3
Iqtisodiyotdagi foyda	5956,1	7699,8	32485,5
shu jumladan, sanoatda	3197,8	4609,8	19491,3
Sanoatning salmog‘i	53,7	59,9	60,0
Iqtisodiyotda band bo‘lgan aholining soni, mln. kishi	11,6	12,2	14,5
shu jumladan, sanoatda	1,5	1,6	1,9
Sanoatning ulushi, foizda	13,2	13,0	13,2
Asosiy kapitalga investitsiyalar	15338,7	28517,3	107333,0
shu jumladan, sanoatda	4659,9	7794,0	35915,5
Sanoatning salmog‘i foizda	30,4	27,3	33,4

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

2.4-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki, sanoat ishlab chiqarishining milliy iqtisodiyotdagi roli yildan-yilga oshib bormoqda. Agar XX asrning oxirgi yillarida mamlakat yalpi ichki mahsulotida uning ulushi 14 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2018 yilda u 26,3 foizga teng bo‘ldi. Asosiy kapitalga investitsiyalarning 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida O‘zbekiston

Respublikasida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 107333,0 mlrd. so‘m, (dollar ekvivalentida 13,3 mlrd. AQSh doll.) yoki 2017 yilga nisbatan 118,1 % asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar yillar bo‘yicha dinamikasini kuzatadigan bo‘lsak, 2005 yilda – 2,0 trln. so‘m yoki 12,0 % o‘sishni, 2010 yilda – 10,8 trln. so‘m yoki 9,0 % o‘sishni, 2015 yilda – 28,5 trln. so‘m yoki 8,1 % o‘sishni tashkil etgan bo‘lib, joriy yilda eng yuqori ko‘rsatkich 18,1 % qayd etilganini ta’kidlash lozim.

Joriy yilda asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o‘sish sur’atlariga erishilishiga katta hissa qo‘shgan Davlat rivojlanish dasturiga kiritilgan yirik investitsiya loyihalari quyidagilar:

Tozalangan metan asosida sintetik suyuq yoqilg‘i ishlab chiqarishga mo‘ljallangan Sho‘rtan gaz-kimyo kompleksi qurilishi;

Buxoro viloyatida: Kandim konlar guruhini ishlab chiqarishga tayyorlash va gazni qayta ishlovchi zavodning qurilishi, Xauzak va Shadi konlarini ishlab chiqarishga tayyorlash, shuningdek Quvachi-Olot konlarini kengaytirish;

Qashqadaryo viloyatida: Xisor investitsiya bloki va Ustyurt hududida mahsulotni taqsimlash bo‘yicha bitim asosida konlar bilan ishlash va uglevodorod qazib chiqarishni tashkil etish;

Namangan viloyatida: To‘raqo‘rg‘on tumanida quvvati 450 MVt dan bo‘lgan ikki bug‘-gaz qurilmasidan tarkib topgan jami quvvati 900 MVt bo‘lgan yangi issiqlik elektr stansiyasi qurilishi;


Taxiatosh issiqlik elektr stansiyasida 230-280 MVt quvvatli ikkita bug‘-gaz qurilmasi qurilishi;

Navoiy issiqlik elektr stansiyasida 450 MVt quvvatli 2 bug‘-gaz qurilmasini kengaytirish bo‘yicha qurilish ishlari;

Polivinilxlorid (PVX), kaustik soda va metanol ishlab chiqarish kompleksining qurilishi

Bu ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki, mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishi tarmoqlarda sezilarli tarzdi o‘zgarmoqda.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 175,4 trln. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 76,6 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog‘ning ulushi 1,6 % ni (2017 yil yanvar-dekabr oylarida – 1,9 %), o‘rta-yuqori texnologiyalini – 29,7 % (21,7 %), o‘rta-quyi texnologiyalini – 29,8 % (27,0 %) va quyi texnologiyalini – 38,9 % (49,4 %) tashkil etdi.




2.1-rasm. Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi[1]

Respublika bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotining o‘sishiga o‘rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish sezilarli hissa qo‘shgan holda 9,6 % ko‘rsatkich bilan 2017 yilning mos davriga nisbatan 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida o‘sish sur’ati 138,8 % ni tashkil yetdi. Qishloq xo‘jaligiga yetkazib berilayotgan qishloq xo‘jaligi texnikalari ishlab chiqarishni mahalliylashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar ham respublika bo‘yicha o‘rta va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish mahsulotlarining oshishiga imkon berdi. 2017 yil yanvar-dekabrga nisbatan 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarish hajmlari: pluglar 64,5 martaga, traktorlar 3,4 martaga, g‘alla o‘rish kombaynlari 19,4 % ga oshirildi. Texnologik jihozlarni kapital ta’mirlash ishlari kimyo korxonalari ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, kaliy xlorid (2017 yil yanvar-dekabrga nisbatan 108,6 %), ammoniy sulfat (108,6 %), ammoniy nitrat (111,1 %), boshqa azotli o‘g‘itlar va ularning aralashmalari (114,2 %), formaldegid (118,3 %), akril asosli bo‘yoq va laklar (134,5 %), superfosfatlar (1,8 m.), azot, fosfor va kaliyli mineral o‘g‘itlar (2,1 m.) o‘tgan yilning shu davriga nisbatan ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari oshishi ta’minlandi. Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan natura ko‘rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun)

Mamlakat iqtisodiyotida sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ulushi oishb bormoqda. Bunda hududiy sanoat ishlab chiqarishning ham alohida o‘rni bor.

[1] Manba: O`zbekiston Respublikasining statistika ko`mitasi. stat.uz

Hududlarning sanoat salohiyatini oshirish bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan izchil choralar natijasida Andijon (2017 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 155,8 % ga), Xorazm (117,3 % ga), Surxondaryo (115,7 % ga), Toshkent (115,6 % ga), Namangan (111,9 % ga) viloyatlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining o‘sishi ta’minlandi.



2.2-rasm. Hududlar bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish hajmining o‘sish sur’atlari (2018 yil yanvar-dekabr oylari uchun) (o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)

Bizga ma’lumki, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va qo‘shimcha qiymat yaratuvchi sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy strategiya respublikaga yaxshi natijalar keltirmoqda.

O‘zbekiston o‘zining oltini, misi, paxta tolasi va ipagi, nefti va gazi, avtomobillari, shisha va qorametallar hamda ulardan tayyorlangan buyumlari, kimyo mahsulotlari, vino va konservalari hamda bir qator boshqa sanoat mahsulotlari bilan dunyoga mashhur.

O‘zbekiston Respublikasining industrial qiyofasini energetika, kon-ruda, oltin qazib oluvchi, avtomobilsozlik sanoatlari, elektrotexnika va elektronika, ko‘p tarmoqli mashinasozlik va qurilish materiallari sanoatlari belgilab bermoqda.

2.2. Sanoat tarmoqlari va ularning rivojlanishi

Sanoat ishlab chiqarishining tarixiy rivojlanishi va uning asosiy yakunlari to‘g‘risida so‘z yuritilganda shuni ta’kidlash kerakki, hozirgi O‘zbekiston hududida «Uy sanoati»ning rivoji bundan 12-15 ming yil muqaddam — mezolit davrida boshlangan. Bu davrda juda oddiy mehnat qurollari va buyumlari tayyorlangan.

Yangi tosh asri (neolit, miloddan avvalgi 5-ming yillikning boshi) davrida kemachilik, to‘qimachilik vujudga kelgan. Neolit davrining oxirida metalldan qurol yasash boshlangan.

Arxeologik topilmalardan ma’lum bo‘lishicha, milloddan avvalgi 3 ming yillikning oxiridayoq hozirgi O‘zbekiston hududida yashagan aholi misdan qurol yasashni bilgan.

Quldorlik tizimi (miloddan avvalgi 1-ming yillik o‘rtalari, V asr) davrida mehnat qurollarini yasash jarayonining taraqqiy etishi, metalga ishlov berishning takomillashuvi hunarmandchilikning yuksalishiga, ayirboshlash va savdo-sotiq kuchayishiga olib keldi.

Feodalizm tuzumining boshlarida (VI-VIII asrlarda) Farg‘ona bilan So‘xda oltin, mis, temir, Ilokda qo‘rg‘oshin, kumush, oltin, Shahrisabzda toshtuz qazib chiqarilgan.

IX asrda Samarqand sifatli qog‘ozi va lampa shishasi bilan mashhur bo‘lgan, Shosh viloyati ko‘pchilik mahsulotlari bilan dong taratgan. O‘sha davrda O‘rta Osiyodan Sharqiy Yevropa, Xitoy va boshqa yurtlarga Buyuk Ipak yo‘li orqali charm, mato, ipak, jun, kiyim-kechak chiqarilgan.

X-XIII asrlarda yuz bergan feodal tarqoqlik, qabila va elatlar o‘rtasidagi nizolarning avjiga chiqishi tufayli hunarmandchilikda yirik o‘zgarshlar ro‘y bermagan.

XIV asrning 2-yarmida Amir Temur Samarqandda hokimiyatni qo‘lga kiritib**,** markazlashgan davlatga asos soldi va natijada davlatning iqtisodiy va ijtimoiy ravnaqiga katta yo‘l ochib berdi.

XV asrning oxiriga kelib Movaraunnahrda yuzaga kelgan ziddiyatlar tufayli Temuriylar davlatining iqtisodiy negiziga putur yetadi va rivojlanish to‘xtab qoldi.

XVI-XVIII asrlarda Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklarining vujudga kelishi iqtisodiyotning, shu jumladan, sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi XIX asrga kelib Turkistonda hunarmandchilikda yog‘och va metall o‘ymakorligi, idishlarga naqsh solish, matolarga gul bosish, qurollarni badiiy bezash rivojlandi. Bu asrning ikkinchi yarmida O‘zbekiston hududida taraqqiyot tezlashib sanoat, ayniqsa, ip-gazlama sanoati rivoj topdi.

XX asr boshlarida ko‘plab paxta tozalash, yog‘-moy zavodlari qurilib ishga tushirildi. 1925-1926 yillarda elektrostansiyalar qurila boshlandi. Birinchi bo‘lib Toshkent yaqinida qurilgan Bo‘zsuv gidroelektrostansiyasi 1926 yil 1 mayda ishga tushirildi.

Samarqand, Buxoro, Qo‘qon, Termiz va Asaka shaharlarida issiklik elektrostansiyalari qurilishi boshlandi. Bunday elektrostansiyalar soni 1930 yilda 30 ga yetdi. O‘sib borayotgan energetika bazasi bir qancha yangi sanoat korxonalari qurishga imkoniyat yaratdi.


Ikkinchi jahon urushigacha bu yerda 500 dan ortiq sanoat korxonalari, jumladan, «Tashselmash», Toshkent to‘qimachilik kombinati, Chirchiq elektrokimyo kombinati, Kattaqo‘rg‘on yog‘ zavodi, Bekobod va Quvasoy sement korxonalari qurildi. Neft va rangli nodir metallar qazib chiqarish, qurilish sanoati mahsulotlarini tayyorlash rivoj topdi.

Sanoat tarmoqlarini isloh qilish, tarkibiy o`zgartirish va diversifikatsiyalash dasturlarining amalga oshirilishi, moddiy-texnika bazasini mustahkamlanishi, respublika sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga zamin yaratdi.


2018 yilning yanvar-dekabr oylarida respublika korxonalari tomonidan 228,9 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,4 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o’sishining asosiy omili bo’lib, ishlab

chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 13,2 % ga, tog’-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 25,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 4,1 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 22,6 % ga o’sishi hisoblanadi.



2.3 -rasm. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



2.4-rasm. 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o’sishiga qo’shgan hissasi

Yoqilg‘i-energetika majmuasi (YoEM) – bu yoqilg‘i-energetika resurslarni qazib chiqarish, ularni qayta ishlash, transportda tashish, taqsimlash va iste’mol qilish bo‘yicha ishlab chiqarish, jarayonlar, moddiy qurilmalar majmuini o‘z ichiga olgan murakkab tarmoqlararo tizimdir.

Uning tarkibiga yoqilg‘i sanoati va elektroenergetika kiradi va ular iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Yoqilg‘i-energetika majmuasi mashinasozlik, metallurgiya sanoatlari mahsulotlaridan foydalanadi hamda transport majmuasi bilan bog‘liq. YoEM uchun yagona tarmoqlarni hosil qiladigan yuqori quvvatli liniyalar va quvur yo‘llari (neft, neft mahsulotlari va tabiiy gazni tashish uchun) ko‘rinishidagi rivojlangan ishlab chiqarish infratuzilmasi xarakterlidir.

Mamlakatda YoEM ning rivojlanishidan ko‘p hollarda ijtimoiy ishlab chiqarish, birinchi navbatda sanoatning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari va miqyoslari, dinamikasi bog‘liq. Shu bilan birga, yoqilg‘i va energiya manbalariga yaqinlashish sanoatni hududiy tashkil qilishning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. YoEM ning barcha tarmoqlari o‘zaro bog‘liq. Turli xil yoqilg‘ini qazib chiqarish, energiyani ishlab chiqarish va ularni turli iste’molchilar o‘rtasida taqsimlashdagi mutanosiblik yoqilg‘i-energetika balansi bilan xarakterlanadi.

Yoqilg‘i-energetika balansi (YoEB) – bu turli xildagi yoqilg‘ini qazib chiqarish va elektroenergiyani ishlab chiqarish (kirim) hamda ularni iqtisodiyotda ishlatish (chiqim) o‘rtasidagi nisbatdir. YoEB ni hisob chiqish uchun, har xil issiqlik chiqarish qobiliyatiga ega bo‘lgan turli xildagi yoqilg‘i shartli yoqilg‘iga o‘tkaziladi, ya’ni ularning 1 kg ni yonishi 7000 kkal ga teng.

O‘zbekiston Respublikasida gidroenergetika resurslari salohiyati va ulardan foydalanish

Respublikaning daryolari oqimining nazariy gidroenergetik umumiy saloxiyati 88,5 mlrd.kVt s ni tashkil etadi, shundan texnik gidroenergetik umumiy saloxiyati esa 21,09 mlrd. kVts.ni tashkil etadi.

Xozirgi paytda gidroenergetikaning texnik saloxiyatining 25 % (yiliga5,5-6 mlrd.kVts.) miqdordan foydalanilmoqda.

Iqtisodiyotda yoqilg‘i-energetika siyosati alohida ahamiyatga ega:

Birinchidan, bu mamlakatning geografik joylashuvi va iqlim sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular yil davomida to‘xtovsiz issiqlik va yorug‘lik bilan ta’minlashni talab qiladi;

Ikkinchidan, energetika eng muhim infratuzilma tizimlari va ob’ektlarini (transport, aloqa, maishiy xizmat), shuningdek iqtisodiyot bazali tarmoqlari (xom ashyo resurslarini qazib chiqarish, og‘ir va mudofaa sanoati, mashinasozlik) faoliyatini ta’minlash uchun zarur;

Uchinchidan, yoqilg‘i-energetika majmuining mahsulotlari eksport predmeti hisoblanib, undan tushadigan daromad davlat budjetiga soliq tushumlarining muhim qismini tashkil etadi.

Sanoat taraqqiyotida yoqilg‘i — energetika majmuasining o‘rni alohida. Uning tarkibiga energetika, neft va neftni qayta ishlash, gaz va gaz kondensati, ko‘mir qazib olish va boshqa bir qator kichik sohalar kiradi. Bu majmua sanoat ishlab chiqarishining ¼ qismini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi jahonda gaz ishlab chiqaruvchi 10 ta mamlakatdan biridir.

Energetika tarmog‘i respublika iqtisodiyotning negizi, iqtisodiyot va fan-texnika taraqkiyotining mustahkam poydevori hisoblanadi.

2.5- jadval

O‘zbekiston elektr stansiyalarida o‘rnatilgan quvvatlarining tarkibi[1]

O‘zbekiston elektr stansiyalarining o‘rnatilgan quvvatlari (MVt), jami	13002,2
1. «O‘zbekenergo» AJ shu jumladan:	12526,7
Issiqlik elektr stansiyalar (IES)	11097,0
Gidravlik elektro stansiyalar (GES)	1429,7
2. Blokstansiyalar	475,5

O‘zbekiston energetika tizimi umumiy quvvati 12,5 ming. MVt bo‘lgan 37 issiqlik va gidro elektrostansiyalarni o‘z ichiga olgan. Ular yiliga 60 mlrd. kVt/soat dan ortiq elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. O‘zbekiston energetika tizimining barcha kuchlanishlardagi elektr tarmoqlari umumiy uzunligi qariyb 300 ming km.ni tashkil etadi. Tarmoq transformatorlarining umumiy quvvati 42,6 ming MVt.ga teng. Hozir respublika energetika tizimida 47 mingga yaqin xodim ishlaydi.

«O‘zbekenergo» aksionerlik kompaniyasi tarkibidagi qurilish-montaj, sozlash, ta’mirlash va boshqa bir qator tashkilotlarning to‘la majmui O‘zbekiston energetika tizimi ishonchli ishlashini, izchil rivojlanishini ta’minlamoqda.

Quyosh kollektorlarining ishlab chiqarilishini tashkillashtirish

Quyosh kollektorlaridan foydalanilganda 1 kv m kollektor yiliga:
214 kg shartli yoqilg‘ini
183 kub m tabiiy gazni
1684 kVt soat elektroenergiyasini
1,45 Gkal issiqlik energiyasini tejash imkoniyatini yaratadi.
Respublikamiz quyosh nurining umumiy saloxiyati 700 mlrd kVt soatdan yuqoriroqdir.

Elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan birlamchi energiya resurslari tarkibida gaz ulushi 90,8 foizni, mazut ulushi 5,3 foizni, ko‘mir ulushi 3,9 foizni tashkil etadi. Bu tendensiya yaqin kelajakda ham saqlanib qoladi – asosiy yoqilg‘i tabiiy gaz bo‘lib qoladi, yoqilg‘i tabiiy gaz bo‘lib qoladi, yoqilg‘i balansida ko‘mirning ulushi 10 – 12 foizga ortadi**.**

Shamol energiyasining umumiy salohiyati

2015 yil nemis mutaxassislari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida Respublikamiz xududlaridagi umumiy shamol energiyasining saloxiyati 400 mlrd. kVt soatdan ortiq deb baholangan.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalashda elektr energiya ishlab

[1] Manba: O`zbekiston Respublikasining statistika ko`mitasi. stat.uz

chiqarish hajmining 3,0 % ga oshib, 60 mlrd. kVt/s tashkil etganligini, issiqlik energiyasini esa 4,5% ga kamayganligini kuzatish mumkin.

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash. Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2018 yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 36,9 trln.so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 16,1 % ni tashkil etdi.

2.6-jadval

Tog‘- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan natura ko‘rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

	O‘lchov birligi	**2018 yil yanvar dekabr**	**2017 yil yanvar dekabr oyiga nisbatan, % da**
Neft	ming. t	746,4	91,8
Gaz kondensati	ming. t	2143,6	109,9
Tabiiy gaz	mln. kub. m	59842,2	106,1
Ko‘mir	ming. t	4174,4	103,4
Shag‘al	ming. t	401,4	87,7
Chaqiq tosh	ming. t	1191,1	119,8

*****Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Tog‘-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo‘yicha chaqiq tosh qazib olish o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan – 1,2 martaga, gaz kondensati – 9,9 % ga, tabiiy gaz – 6,1 % ga, ko‘mir qazib olish hajmining – 3,4 % ga oshganligini, shu bilan birga shag‘al – 12,3 % ga va neft qazib olish – 8,2 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.

Yoqilg‘i sanoati. Respublika yoqilg‘i sanoati yer qa’rida topilgan va qazib olinayotgan ko‘mir, neft, gaz konlari negizida shakllangan va rivojlanib bormoqda. Respublikada 160 dan ortiq neft va gaz konlari ochilgan, ularning 115 tasi Buxoro va Xiva geologik provinsiyasida, 27 tasi Farg‘ona vodiysi, 10 tasi Surxondaryo, 7 tasi Ustyurtda joylashgan. Hozir 71 ta neft, gaz va gaz kondensat, 3 ta ko‘mir konidan foydalanilmoqda. 50 dan ortiq neft, gaz va gaz kondensat koni esa kelajakda ishga tushirish uchun tayyorlab qo‘yilgan.


Yoqilg‘i sanoati respublika yoqilg‘i-energetika majmuasining asosiy tarmog‘ini tashkil etadi va barcha turdagi yoqilg‘ini qazib olish, tabiiy gazni tozalash va yetkazib berish, neft mahsulotlarini qayta ishlash korxonalaridan iborat. Ular iqtisodiyotning barcha bo‘g‘inlarida xizmat ko‘rsatadi. Yoqilg‘i sanoatining yirik korxonalari Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida joylashgan.

Yoqilg‘i sanoatining yana bir muhim tarmog‘i bu ko‘mir sanoatidir. O‘zbekiston qidirib topilgan ko‘mirning 1900 mln. tonna miqdoridagi zahiralariga egadir, shu jumladan qo‘ng‘ir ko‘mir zahiralari - 1853 mln. tonnani, toshko‘mir zahiralari - 47 mln. tonnani tashkil etadi. Prognoz resurslari 5,7 mlrd. tonnadan ko‘proqdir. Toshko‘mirning katta zahiralari respublikaning janubiy hududlarida – Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida to‘plangan. Hozirgi paytda 3ta konda: Angren, Sharg‘un va Boysun konlarida ko‘mir qazib chiqarilmoqda.



O‘zbekistonda ko‘mir qazib chiqarishni «O‘zbekko‘mir» AJ, shuningdek «Sharg‘unko‘mir» AJ va «Apartak» AJ amalga oshiradi. Angren konidagi «Angren» ko‘mir razrezi ko‘mir zahiralarini ochiq usulda qazib oladi, bundan tashqari «Yerostigaz» OAJ tomonidan yer ostida gazlashtirish usuli bilan qo‘ng‘ir ko‘mirdan gaz ishlab chiqariladi.

«O‘zbekko‘mir» AJ har yili 3 mln.tonnaga yaqin ko‘mir qazib chiqaradi. Ko‘mir yoqilg‘isining asosiy iste’molchisi elektr energetikasi sektori bo‘lib, uning ulushiga umumiy iste’mol qilinadigan ko‘mirning 85 foizi to‘g‘ri keladi. Sanoat, ijtimoy va kommunal soha korxonalari ham ko‘mir yoqilg‘isiga bo‘lgan talabni shakllantiradilar.



2.5-rasm. **O‘zbekiston Respublikasining mavjud ko‘mir xavzalari.**

«O‘zbekko‘mir» AJda ko‘mir qazib olish yer osti va ochiq usullarda amalga oshiriladi. «O‘zbekko‘mir» AJda ko‘mir qazib olish yer osti va ochiq usullarda amalga oshiriladi. Ko‘mirni ochik usulda qazib olish «Angren ko‘mir xavzasi» va «Apartak koni» filiallari tomonidan amalga oshiriladi.

Ushbu korxonalar o‘z faoliyatida ko‘mir, kaolin va boshka yuldosh foydali

kazilmalarni qazib olish, hamda boshqa xizmat ko‘rsatish turlari va ishlarni amalga oshiradi.

2.7-jadval

2030 yilga qadar ko‘mir yoqilg‘isini qazib olish rejasi, ming tonna[1]

№	Nomlanishi	2016	2020	2025	2030
	Jami	**3 700,0**	**6 940,0**	**15 200,0**	**15 900,0**
1.	“O‘zbekko‘mir” AJ	3 380,0	5 040,0	13 000,0	13 000,0
1.1.	"Angren” ko‘mir xavzasi	3 340,0	4 000,0	4 000,0	4 000,0
1.2.	“Yer osti ishlari” shaxtasi	40,0	40,0	3 000,0	3 000,0
1.3.	“Shimoliy” shaxtasi		1 000,0	6 000,0	6 000,0
2.	"Apartak” ko‘mir xavzasi	160,0	1 000,0	1 200,0	1 900,0
3.	"Shargunkumir” AJ	160,0	900,0	900,0	900,0
4.	“Baysun” shaxtasi			100,0	100,0

Ko‘mir sanoatini ustuvor rivojlantirish uchun asosiy omillar:

• qimmatroq energiya resurslarini mamlakat iqtisodiyotining ehtiyojlari uchun bo‘shatish maqsadida, ularni ko‘mir bilan almashtirishning maqsadga muvofiqligi;

• mamlakatning yoqilg‘i – energetik balansi tarkibida ko‘mir ulushini oshirish zarurati.

• Ko‘mir sanoatini yanada rivojlantirish dasturi korxonalarni texnik jihatdan qayta jihozlash, modernizatsiya qilish, kon ishlarining samaradorligini oshirishga yordam beradigan, resurslarni tejaydigan yangi, progressiv texnologiyalarni joriy etish.

2.8- jadval

Respublikamizda aniqlangan ko‘mir zaxiralari[2]

[1] Manba: O`zbekiston Respublikasining statistika ko`mitasi. stat.uz

[2] “O‘zbekko‘mir” AJ ma’lumotlari asosida tuzilgan.

T.r.	Ko‘mir xavzalari nomi	Zaxira xajmi (mln.tn)	Amaldagi xolati
Amaldagi ko‘mir xavzalari			
1.	Angren ko‘mir xavzasi	1 537,9	777,8 mln.tonnasi “O‘zbekko‘mir” jamiyati tomonidan ochiq va yopiq usulda ko‘mir qazib olinmoqda. (Nishbosh, Nougarzon xavzalari to‘liq o‘rganilmaganligi bois 325,7 mln.tonna ko‘mir zaxirasi dastlabki geologik qidiruv ishlari natijasida aniqlangan)
2.	Apartak ko‘mir koni	237,2	Ochiq usulda qazib olinmoqda.
3.	Yer osti ishlari filiali xududida	146,3	Yer osti usulida qazib olinmoqda.
4.	Shargun ko‘mir xavzasi (toshko‘mir)	32,9	“Sharg‘unko‘mir” jamiyati tomonidan yopiq usulda ko‘mir qazib olinmoqda.
5.	Boysun ko‘mir xavzasi (toshko‘mir)	13,0	Avval “Sharg‘unko‘mir” jamiyati tomonidan yopiq usulda ko‘mir qazib olingan.
Istiqboldagi qo‘ng‘ir ko‘mir xavzalari			
1.	Vodil ko‘mir xavzasi	132,5	Kon g‘arbida geologiya qidiruv ishlari natijasida 20,4 mln. tn ko‘mir zaxirasi aniqlangan. Kon chuqurligi 500 m.gacha va axoli zichligini inobatga olib keyingi geologiya ishlari to‘xtatilgan.
2.	Qoraqalpog‘iston va G‘arbiy Qizilqum (Navoiy) xavzalari	1 100,0	Geologiya qidiruv ishlariga loyixa xujjatlari tayyorlangan. G‘arbiy Qizilqumda chuqurligi 80 m.dan 730 m.gacha. xavza aniqlangan
Istiqboldagi toshko‘mir xavzalari			
1.	Nilyu uchastkasi (Surxandaryo)	138,3	Geologiya qidiruv ishlariga loyixa xujjatlari tayyorlangan. Budjet xisobidan dala geologiya qidiruv ishlari olib borilmoqda.
2.	Xovuz, Oqsuv, Fangart uchastkasi (Surxandaryo)		Geologiya qidiruv ishlariga loyixa smeta xujjatlari tayyorlanmoqda.
3.	Guldara, Vuari, Zarmas, Qumurli, Toshqo‘rg‘on (Qashqadaryo)		Geologiya qidiruv ishlarini amalga oshirish masalasi qo‘shimcha o‘rganilishi talab etiladi.

2.9-jadval

2030 yilgacha rejalashtirilgan sohada innovatsion loyihalar[1].

[1] Manba: O`zbekiston Respublikasining statistika ko`mitasi. stat.uz

№	Loyixa nomi	Ishlab chiqariladigan mahsulot
1	Angren ko‘mir konida tarkibida ko‘mir mavjud bulgan chiqindilardan organik mineral o‘g‘itlarni ishlab chiqarish	Organik mineral o‘g‘itlar
2	Angren ko‘mir konida ikkilamchi kaolinlar va oxaktoshlardan glinozem-sement ishlab chiqarishni tashkil etish.	glinozem, sement M500-M600, glinozemli sement, oltingugurtli alyuminiy, goidrooksid alyuminiy
3	«Uzbekko‘mir» AJ xududiy distribyutorlik markazlari bazasida briket ishlab chiqarishni tashkil etish.	briketlangan ko‘mir
4	Kamyob elementlarni aniqlash maqsadida birlamchi kaolinlarda geologiya qidiruv ishlarini olib borish.	kamyob elementlarning konsentrati
5	Baysun ko‘mir konida aktivlangan ko‘mir ishlab chiqarishni tashkil etish.	aktivlangan ko‘mir
6	Shargun ko‘mir konida gips va ohaktoshlar qidiruv ishlarini ohiriga yetkazish, hamda qazib olininishini tashkil etish.	gips va ohaktoshlar
7	Tarkibida Germaniy mavjud bo‘lgan ko‘mirni selektiv usulda qazib olish va uni kayta ishlash, hamda tarkibidagi Germaniyni ajratib olish bo‘ycha ishlab chiqarishni tashkil etish.	Germaniy

Neft sanoati yoqilg‘i sanoatining eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi va neftni qayta ishlash korxonalaridan tashkil topadi. Hozirgi davrda sanoatning bu tarmog‘i mamlakat iqtisodiyot va aholining neftga bo‘lgan talabini to‘la qondirish imkoniyatlariga ega bo‘ldi. Shu sababdan ham bu tarmoqning ahamiyati beqiyos.

Neftni qayta ishlash sanoati sohasida Oltiariq, Farg‘ona, Buxoro neftni qayta ishlash zavodlari ishlab turibdi. Farg‘ona zavodi surkov moylar va yonilg‘i ishlab chiqarishga ihtisoslashgan, ishlab chiqarish bo‘yicha 50 ga yaqin texnologik qurilmaga ega. Oltiariq neft zavodi esa yonilg‘i yo‘nalishida, Ko‘kdumaloq neft-gaz koni ochilgandan keyin 1993 yildan Fransiyaning TEKNEP firmasi bilan hamkorlikda Buxoro viloyatining Qorovulbozor tumanida Buxoro neftni qayta ishlash zavodi qurilishi boshlandi. Uning yiliga 2,5 mln. tonna gaz kondensatini qayta ishlash quvvatiga ega bo‘lgan 1-navbati 1997 yil avgustda ishga tushirildi. Neftni qayta ishlash zavodlarida yuqori oktanli benzin, dizel yoqilg‘isi, koks, parafin, motor moylariga qo‘shilmalar, yengil mashinalar uchun motor va surkov moylari (kompressor, turbina, urchuq moylari), kerosin, bitum, suyultirilgan neft gazlari (butan, texnik propan va b.), mazut kabi 50 dan ortiq turdagi neft mahsulotlari ishlab

chiqariladi. Yangi mahsulot turlari ishlab chiqarish dasturiga muvofiq yangi texnologiyalar o‘zlashtirilmoqda.

Neft va gaz kondensatini qayta ishlash 2 ta zavodda amalga oshiriladi:

Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi (1959 yilda ishga tushirilgan, 2000 yilda rekonstruksiya qilingan)

Buxoro neftni qayta ishlash zavodi (1997 yilda ishga tushirilgan)

Gazni qayta ishlash 3 ta zavodda amalga oshiriladi:

Muborak gazni qayta ishlash zavodi (1971 yilda ishga tushirilgan bo‘lib, gaz kondensati, suyultirilgan gaz, gazli texnik oltingugurt kabi mahsulotlarni ishlab chiqaradi)

SHo‘rtan gazni qayta ishlash zavodi (har yili 20 mlrd. kub m gazni qayta ishlaydi)

SHo‘rtan gaz-kimyo kompleksi (2001 yil ishga tushirilgan)

Ustyurt gaz-kimyo kompleksi kelgusida respublikada to‘rtinchi gazni qayta ishlash zavodi bo‘ladi (har yili 4,5 mlrd. kub m gazni qayta ishlaydi, 2016 yilga ishga tushirilgan)

Metallurgiya sanoati. Hozirgi O‘zbekiston hududida rudadan metal olish 4-5 ming yildan ziyod tarixga ega. Qadimda misdan turli buyumlar tayyorlangan. Keyinroq rudadagi metallardan qalay, kumush, oltin va boshqalarni eritish, quyish va qizdirib ishlash o‘zlashtirilgan, dastlabki tanga pullar zarb qilingan. Ilk o‘rta asrlarda Farg‘onada, Zarafshon, Chirchiq, Ohangaron vodiylaridagi bir qancha hududlarda zargarlik, mis-garlik, temirchilik, degrezlik, rixtagarlik rivojlangan. Rux, surma, margimush, vismut, kobalt kabi rangli metallar ma’lum bo‘lmasada, ularning qotishmalaridan keng foydalanilgan.

Qora metallurgiya sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan yagona korxona Bekobod shahridagi “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” Aksiyadorlik ishlab chiqarish birlashmasidir. Unda po‘lat va po‘lat prokatlar, turli aylanma xajmdagi po‘lat soqqalar, va po‘lat trubalar hamda chiroyli va bejirim sirli idishlar ishlab chiqariladi.

Rangli metalurgiya — respublika metalurgiyasining eng muhim, yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Sanoatning bu turi O‘zbekistonda XX asrning 25-yillaridan jadal rivojlana boshladi. Rangli, nodir va qimmatbaho metal (mis, qo‘rg‘oshin, rux, volfram, molibden, kumush, oltin, simob) konlari topildi.

Rangli metallar sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish jarayonlarini intensivlashtirish, turli foydali qazilmalarning yangi konlarini o‘zlashtirish hisobiga rangli metallurgiya ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish mo‘ljallanmoqda, shu bilan birga, yangi fabrika va konlar barpo etiladi. Jizzax viloyatida O‘zquloq ko‘rg‘oshin-ruh koni, Surxondaryo viloyatida Xonrizm kon boyitish korxonasi quriladi. Olmaliq kon - metallurgiya kombinatida mis, ruh, sulfat kislotasi va yo‘ldosh elementlarni ishlab chiqarish ko‘paytiriladi.

Oltin qazib olish sanoati. Markaziy Osiyoda, xususan, hozirgi O‘zbekiston yerlarida miloddan avvalgi VI–V asrlardayoq oltin qazib olingan va undan turli taqinchoqlar, zargarlik buyumlari, bezaklar yasalgani mavjud arxeologik

topilmalardan ma’lum. Tug‘ma (erkin uchraydigan) oltin konlarini o‘zlashtirishga qadar oltin asosan sochma konlarda juda ibti-doiy usullarda oltin zarralari aralash qumni qo‘y terisi qore-jagan yog‘och tog‘oralarda yuvib, ajratib olingan. Sochma oltin olish X-XI asrlarda Chotqol, Chirchiq, Norin, Koson, So‘x, Zarafshon, Darvoz daryolari vodiylarida olib borilganlagi haqida ma’lumotlar bor.

O‘rta asrlarda oltinli qumlarni yuvish bilan birga mo‘g‘ullar bosqiniga qadar kovlangan Chotqol-Qurama, Nurota tog‘larida, markaziy Qizilqumdagi konlarda tug‘ma oltin kon lahmlari hozirgacha saqlanib qolgan. O‘zbekistonda ma’lum bo‘lgan konlarning ko‘pchiligidan qadimgi konchilar qisman foydalanganlar.

XIX asrning 80-yillaridan boshlab, Markaziy Osiyoning xom ashyo resurslarini o‘rganila boshlandi. O‘lkaning barcha joylarida tadqiqotlar o‘tkazildi, geologik kartalar to‘zildi, ayrim konlar tavsiflandi. Chirchiq, Piskom va Chotqol daryolari vodiylarida kichik-kichik oltin izlovchi korxonalar oltin olish bilan shug‘ullana boshladilar, 1913-1917 yillarda esa Obirahmat darasi (Toshkent viloyati) dagi oltin konidan foydalanildi.

Noyob metall konlarini qidirib topish va ulardan foydalanish muammolarini hal qilish ishlarida markaziy ilmiy muassasalar faol ishtirok etdilar. 30-yillar boshida «O‘zbekoltinnoyobmet» tresti tashkil etildi. O‘sha yillari Ohangaron, Chirchiq daryolari vodiylarida, Qurama tog‘larida oltin izlovchilar oltin qumini yuvish usulida ajratib olganlar, lekin yillik oltin olish bir necha o‘n kilogrammdan oshmagan.

1941-1945 yillarda oltin izlovchilik (artel) yo‘li bilan oltin ajratib olish jadal olib borildi, olingan yillik oltin miqdori qariyb 50 kg. ga yetdi. Rudali oltin izlash va qidiruv bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida Qoraqo‘ton, Bichanzor, Pirmurob, G‘o‘saksoy, so‘ngra Ko‘chbuloq, Muruntov, Chormiton, Maryayunbuloq, Kauldi, Qizilolmalisoy, Sarmich va boshqa rudali oltin konlari topildi. 1965 yilda Metallurgiya vazirligiga bo‘ysinuvchi «O‘zbekoltin» birlashmasi va boshqa oltin qazib olish korxonalari tashkil etildi. Birlashma qazib olgan flyus rudalaridan Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining kimyo eritish zavodida oltin ajratib olish yo‘lga qo‘yildi. 1970 yili Chodak oltin koni ishga tushirildi. O‘sha vaqtdan respublikada oltin qazib olish sanoati shakllandi, oltin olish oldingi yillardagiga nisbatan uch marta ko‘paydi. 1972 yilda Ko‘chbuloq koni va Angren oltin ajratish fabrikasi loyiha quvvatlarida ishlay boshladi. 1977 yili Kauldi, 1980 yili Marjonbuloq oltin qazib olish majmui, 1989 yili Zarafshon va Qizilolmachisoy konlari foydalanishga topshirildi.

Respublika mustaqillikka erishishi bilan O‘zbekiston hukumati uzoq yillar davomida sobiq ittifoq ixtiyorida bo‘lgan oltin qazib olish sanoatini respublika mustaqilligini mustahkamlash yo‘lida rivojlantirish bo‘yicha bir qancha tashkiliy choralar ko‘rdi.

Respublikada 40 dan ortiq oltin koni aniqlangan. Oltinning asosiy zahiralari Markaziy Qizilqumdagi oltin konlarida mujassam. O‘zbek oltini jahonning eng yuqori sifat standartlariga mos bo‘lib, to‘rtta to‘qqiz raqami bilan baholanadi va u oxirgi 25 yilda e’tiroz (reklamatsiya) olgani yo‘q. So‘nggi yillarda u sifati uchun bir necha bor halqaro sovrinlar bilan taqdirlandi.

Yevroosiyo qit’asida eng katta hisoblanadigan, rudasi tarkibida oltin ko‘p bo‘lgan Muruntov koni dunyodagi gigant konlari jumlasiga kiradi. Ushbu konning

topilishi halqaro geologiya jamoatchiligi tomonidan oltin qazib chiqarish bo‘yicha XX asr ikkinchi yarmining eng katta kashfiyoti deb e’tirof etildi.

Muruntovdagi affinit korxonasida zamonaviy oltin tozalash texnologiyasi joriy etilgan bo‘lib, u bir qancha nou-xauni o‘z ichiga oladi. Bu esa, juda yaxshi tovar ko‘rinishiga ega bo‘lgan yuqori probali oltin olish imkoniyatini beradi.

Mamlakat mustaqilligining dastlabki yillarida infratuzilmasi yuqori darajada rivojlangan Samarqand va Toshkent viloyatlarida oltin rudali konlar aniqlandi va razvedka qilindi. Dunyoning eng yirik oltin rudali provinsiyasi bo‘lgan Qizilqumdagi Muruntov koni bilan bir qatorda Aji-bugut, Bulutkon, Balpantov, Aritontov, Turbay va boshqa yangi konlar aniqlandi va o‘rganildi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, oltin qazib chiqarish bo‘yicha juda katta ishlar amalga oshirildi. Natijada O‘zbekiston oltin qazib chiqarish bo‘yicha dunyoda sakkizinchi, MDH da esa ikkinchi (Rossiyadan keyin) o‘ringa chiqib oldi! Aholi jon boshiga oltin ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha O‘zbekiston MDHda birinchi va dunyoda beshinchi o‘rinda turadi.

Respublika kumush konlariga ham ega. Bular Navoiy viloyatidagi Visokovoltnoye, O‘qjetpes, Kosmonavtchi va Namangan viloyatidagi Oqtepa konlaridir. Katta miqdordagi tasdiqlangan zaxiralar oltin va mis-porfir konlarida mavjud. Oqtepa koni kumush qazib chiqarish bo‘yicha eng istiqbolli va chet ellik investorlar uchun jozibali kondir.

O‘zbekistonda qimmatbaho metallar bilan bir qatorda uran ham qazib olinadi. Uni olish uchun mineral xom ashyo bazasi mavjud. Uran eng samarali va ekologiya nuqtai nazaridan optimal hisoblangan usul - yer ostida ishqorlarni yuvish usuli bilan olinadi.

Mis, ko‘rg‘oshin, ruh sanoati asosan Ohongaron-Olmaliq kon sanoati rayonida Qo‘rg‘oshinkon-Oltintopgan polimetall konlari, Qalmoqqir mis konlari negizida shakllana boshlagan. Ushbu sanoat tarmog‘ining yetakchi korxonasi tugal metallurgiya sikliga ega bo‘lgan Olmaliq kon-metallurgiya kombinati hisoblanadi. Kombinatning mis majmuasi Qalmoqqir mis koni, ruda boyitish fabrikasi, metallurgiya zavodidan, qo‘rg‘oshin - ruh majmuasi Qo‘rg‘oshinkon, Oltintopgan, Chalaga va boshqa konlar, ruda boyitish fabrikasi, metallurgiya zavodlarini o‘z ichiga oladi. Ular asosan tozalangan misni eksport qilmoqda. Har yili bir necha o‘n ming tonna mis ishlab chiqarayotgan O‘zbekiston mis zahiralari bo‘yicha dunyoda 10-o‘rinda turadi. Ruda konidagi rangli metallar qatlamlari asosan Toshkent viloyatining Olmaliq rudali maydonida joylashgan. Bu yerdagi uchta konda bir necha mis zahiralari bor deb taxmin qilinmoqda. Bundan tashqari, Dalneye koni razvedka qilingan. Zahiralarning kattaligi, qazib chiqarish tannarxi, rudadagi misning tarkibi jihatidan MDH mamlakatlarida hali unga teng keladigan kon yo‘q. Volfram, molibden, litiy sanoatining yirik korxonasi O‘zbekiston qattiq qotishmalar va o‘ta chidamli Chirchiq metallar kombinati hisoblanadi. Kombinat ingichka volfram (Samarqand) va Qo‘ytosh volfram, molibden (Jizzax) konlari rudalari hamda mis rudalaridan ajratib olinadigan molibden negizida ishlaydi. Kombinatda birinchi molibden quyilmasi 1956 yili olingan. 1957 yildan esa qattiq qotishmalar ishlab chiqarish boshlangan. Kombinat mahsulotlari (100 turdan ortiq) elektrotexnika, po‘lat eritish, kon burg‘ilash sohalarida keng qo‘llaniladi.

2010 – 2013 yillar mobaynida Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida umumiy qiymati 146 million dollar bo‘lgan Xonjiza konida polimetall rudalari, ya’ni rux, qo‘rg‘oshin, mis va kumushning katta zahiralarini qayta ishlash bo‘yicha yirik loyihalar amalga oshirildi.

Respublikada yana bir qator nodir va sochma metallar — reniy, selen, tellur, skandiylar ishlab chiqariladi, rangli metallarning ikkilamchi quyilmalarini olish yo‘lga qo‘yilgan. Alyuminiy parchalarini qaytadan eritib, yiliga bir necha o‘n ming tonna ikkilamchi alyuminiy iqtisodiyotga yetkazib berilmoqda.

Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati — iqtisodiyot uchun mashina va mexanizmlar, jihozlar, agregat va apparatlar, asbob-uskunalar, madaniy-maishiy mollar, shuningdek, mudofaa ahamiyatiga ega bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi og‘ir sanoat tarmoqlari majmuidir. Ushbu sanoat butun iqtisodiyotni texnika bilan ta’minlashda moddiy asos hisoblanadi. Fan-texnika taraqqiyoti, xalqning moddiy-madaniy farovonligi va mamlakat qudrati mashinasozlik sanoati taraqqiyotiga bog‘liq. Uning ahamiyati, eng avvalo, fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga va insonlar hayotining barcha sohalariga joriy etish asosida qo‘l mehnatini mashina mehnatiga aylantirish, yengillashtirish, mashinani mashina bilan yaratish, tejamkorlikni ta’minlash va mehnatning mazmuni va xarakterini o‘zgartirishdan iborat. Mashinasozlik sanoati mahsulot sifatini yaxshilash, ishlab chiqarishning samaradorligini yuqori darajaga ko‘tarishga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi kunda mashinasozlik sanoatining 10dan ortiq tarmog‘i mavjud.

Ular qatoriga avtomobilsozlik, samolyotsozlik, traktorsozlik va qishloq xo‘jalik mashinasozligi, elektrotexnika va vagonsozlik, asbobsozlik va kabelsozlik kabi yirik tarmoqlar kiradi.

Yengil sanoat. Hozirgi davrda O‘zbekiston yengil sanoati ko‘p tarmoqli industrial kompleks bo‘lib, uning tarkibida paxta tozalash

zavodlaridan tashqari, to‘qimachilik, trikotaj, shoyi to‘qish, tikuvchilik, ko‘npoyabzal, gilamchilik, chinni-fayans buyumlari va attorlik mollari ishlab chiqarish sohalarida 300 ta yaqin yirik korxonalar bor.

Qurilish materiallari sanoati. Respublika qurilish materiallari ishlab chiqaradigan ko‘p tarmoqli sanoatga ega. Sement, asbest-sement, devorbop materiallar, yumshoq yopqich va gidroizolyatsiya materiallari, tabiiy toshlardan qoplama material (plita)lar, noruda qurilish materiallari, qurilish keramikasi, issiqlik izolyatsiyasi materiallari, ohak, gips, bog‘lovchi materiallar va ulardan buyumlar, sanitariya-gigena jihozlari, polimer xom ashyodan qurilish materiallari va buyumlar, temir-beton konstruksiyalari va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari mavjud. O‘zbekistonda tabiiy xom ashyodan qurilish materiallari sifatida foydalanish tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Ayniqsa, binolar qurilishida xom g‘isht, guvala, yog‘och sinch, oddiy tuproq(loy)dan tiklanadigan paxsa asrlar davomida asosiy qurilish materiali bo‘lib kelgan. Xumdonlarda pishirilgan g‘isht, sopol, chinni koshin, ganch, yo‘nilgan granit, marmar toshlar saroy, madrasa, masjid, rabotlar qurilishida keng qo‘llanilgan.

2.3. Sanoat korxonalarining belgilari, funksiyalari va vazifalari

Zamonaviy korxonalar mulkchilik shakliga ko‘ra, davlat va nodavlat, tarmoq

belgilariga ko‘ra, mashinasozlik, energetika, metallurgiya, neft va gaz sanoati, qurilish kompleksi, oziq-ovqat, yengil sanoat, savdo va hokazolar, ishlab chiqarish miqyosi va xodimlar soniga ko‘ra, yirik, mikrofirma va kichik, faoliyat yuritish muddatiga ko‘ra, uzluksiz, mavsumiy va uzlukli korxonalarga bo‘linadi.

Sanoat korxonalarini turli belgilariga ko‘ra tavsiflash mumkin:

- *ishlab-chiqarish va texnika munosabatlarida korxona* – bu, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va turlari, ularni tayyorlash texnologiyasiga miqdor va sifat jihatidan mos keluvchi mashinalar tizimi;
- *ijtimoiy munosabatlarda korxona* – bu, turli kategoriyadagi xodimlar o‘rtasida ularning huquq va majburiyatlari asosida yuzaga keluvchi munosabatlar ;
- *tashkiliy-huquqiy munosabatlarda* korxona huquqiy shaxs sifatida faoliyat yuritadi;
- *moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarda korxona* – bu, tarmoqning mustaqil bo‘g‘ini bo‘lib, o‘z-o‘zini moliya bilan ta’minlash, o‘z-o‘zini boshqarish, ya’ni bozor munosabatlari tamoyillarida faoliyat yuritadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida sanoat korxonalari **faoliyatining asosiy yo‘nalishlari** quyidagilar hisoblanadi:

- bozor va uning rivojlanish istiqbollarini kompleks ravishda o‘rganish yordamida, xaridorlarning mahsulot va xizmat turlariga mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan talablarini aniqlash;
- mahsulotning yangi modellari va namunalarini yaratish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil qilish;
- xaridorlar talablariga mos keluvchi tovarlarni ishlab chiqarish;
- ishlab chiqarishni rejalashtirish, dasturlash, muvofiqlashtirish va moliyalashtirish;
- mahsulotni taqsimlash va sotish tizimini tashkil qilish va uni mukammallashtirish;
- korxonaning barcha faoliyatini, jumladan, ishlab chiqarish, sotish, reklama, texnik xizmat ko‘rsatish va hokazolarni boshqarish.

Zamonaviy korxonalarning faoliyati quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilishi zarur:

- korxona egasining daromad olishi;
- iste’molchilarni ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan ta’minlash;
- xodimlarni ish haqi bilan ta’minlash;
- korxonaga yaqin joylarda yashovchi aholi uchun ish joylari yaratish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- korxona faoliyatida to‘xtab qolishga yo‘l qo‘ymaslik;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish shakllarini mukammallashtirish;
- ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida tejamkorlikka rioya qilish.

Xo‘jalik faoliyatining joriy va istiqboldagi vazifalarini bajarish korxonalardan quyidagi funksiyalarni amalga oshirishni talab qiladi:

- ishlab chiqarish va shaxsiy iste’mol uchun mahsulotlarni tayyorlash;
- mahsulotlarni iste’molchilarga yetkazib berish va sotish;

- sotuvdan keyin xizmat ko‘rsatish;
- ishlab chiqarishning moddiy-texnika asosini ta’minlash;
- xodimlar mehnatini tashkil qilish va boshqarish;
- soliqlarni to‘lash, budjetga to‘lanuvchi ixtiyoriy yoki majburiy badal va to‘lovlarni amalga oshirish ;
- amaldagi standartlar, normativlar va davlat tomonidan chiqarilgan qonun-qoidalarga rioya qilish.

2.4. Sanoat korxonalarini tasniflash

Xususiy korxona deb, mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot e’tirof etiladi[1]. Xususiy korxona tadbirkorlik sub’ektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Mas’uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilab qo‘yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo‘lingan jamiyat tan olinadi[2]. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zarar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.

Qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyat sifatida bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi ta’sis hujjatlarida belgilangan miqdorlardagi ulushlarga bo‘lingan jamiyat tan olinadi va uning ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo‘yicha o‘z mol-mulklari bilan qo‘shgan hissalari qiymatiga nisbatan hamma uchun bir xil bo‘lgan, jamiyatning ta’sis hujjatlarida belgilanadigan karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo‘ladilar.

Xo‘jalik shirkati deganda muassislarning (ishtirokchilarning) ulushlariga (hissalariga) bo‘lingan ustav fondiga (ustav kapitaliga) ega bo‘lgan tijorat tashkiloti tushuniladi, bunday shirkatda muassislar (ishtirokchilar) yoki ulardan ayrimlari shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati yuritishda shaxsan ishtirok etadilar[3].

Xo‘jalik shirkati to‘liq shirkat yoki kommandit shirkat turlariga bo‘linadi.

To‘liq shirkat deb ishtirokchilari (to‘liq sheriklari) o‘z o‘rtalarida tuzilgan shartnomaga muvofiq shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadigan hamda uning majburiyatlari bo‘yicha o‘zlariga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradigan shirkat hisoblanadi.

Shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan hamda shirkatning majburiyatlari bo‘yicha o‘zlarining butun mol-mulklari bilan javob beradigan ishtirokchilar (to‘liq sheriklar) bilan bir qatorda shirkat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalar doirasida javobgar bo‘ladigan hamda shirkat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etmaydigan bir yoki bir necha ishtirokchi (hissa qo‘shuvchi, kommanditchi) mavjud bo‘lsa, bunday shirkat

[1] O‘zbekiston Respublikasining «Xususiy korxonalar to‘g‘risida»gi Qonuni. Qonun va qarorlar. -T.: O‘zbekiston, 2011.

[2] «Mas’uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 2001 yil 6 dekabr // Tadbirkorlikka oid qonun hujjatlari to‘plami. 1-tom. - T.: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2002..

[3] «Xo‘jalik shirkatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining 2001 yil 6 dekabrdagi Qonuni.//lex.uz

kommandit shirkat deb hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyati deb ustav fondi jamiyatning aksiyadorlarga nisbatan majburiyatlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan xo‘jalik yurituvchi sub’ekt hisoblanadi[1].

Sho‘‘ba xo‘jalik jamiyati. Agar bir (asosiy) xo‘jalik jamiyati yoki shirkati ikkinchi xo‘jalik jamiyatining ustav fondida undan ustunlik mavqeiga ega bo‘lgan holda ishtirok etishi tufayli yoxud ular o‘rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq yo bo‘lmasa boshqacha tarzda ikkinchi xo‘jalik jamiyati tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni belgilab berish imkoniga ega bo‘lsa, ushbu ikkinchi xo‘jalik jamiyati sho‘‘ba xo‘jalik jamiyati hisoblanadi.

Sho‘‘ba xo‘jalik jamiyati yuridik shaxs hisoblanadi. Sho‘‘ba xo‘jalik jamiyati o‘zining asosiy jamiyati (shirkati)ning qarzlari bo‘yicha javob bermaydi.

Qaram xo‘jalik jamiyati. Xo‘jalik jamiyatida ishtirok etuvchi boshqa jamiyat xo‘jalik jamiyatiga qarashli ovoz beradigan aksiyalarning yigirma foizidan ko‘prog‘iga ega bo‘lsa, bunday xo‘jalik jamiyati qaram jamiyat deb hisoblanadi. Qaram xo‘jalik jamiyati yuridik shaxs hisoblanadi.

Unitar korxona. O‘ziga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkka nisbatan mulkdor tomonidan mulk huquqi berilmagan tijoratchi tashkilot unitar korxona hisoblanadi.

Unitar korxonaning mol-mulki bo‘linmasdir va u qo‘shilgan hissalar (ulushlar, paylar) bo‘yicha, shu jumladan korxona xodimlari o‘rtasida ham, taqsimlanishi mumkin emas.

Xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxona. Xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxona mulkdorning yoki u vakil qilgan organning qaroriga muvofiq tashkil etiladi.

Operativ boshqaruv huquqiga asoslangan davlat unitar korxonasi. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, davlat organining qaroriga muvofiq davlat mulki bo‘lgan mol-mulk negizida operativ boshqaruv huquqiga asoslangan davlat unitar korxonasi (davlat korxonasi) tashkil etilishi mumkin.

Qaysi tarmoqqa qarashliligiga ko‘ra korxonalar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish (mashinasozlik, ko‘mir qazib chiqarish, sug‘urta va hokazo) sohalariga mansub bo‘lishi mumkin.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi va ko‘rinishiga ko‘ra, korxonalar sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, moliya-kredit va boshqalarga bo‘linadi.

Texnologik umumiyligiga ko‘ra, korxonalar ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz va diskret ravishda, kimyoviy yoki mexanik jarayonlarning ustunligi asosida yurituvchilarga bo‘linadi.

Tayyor mahsulotning maqsadlariga ko‘ra, barcha korxonalar ikkita katta guruhga bo‘linadi: ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchilar va iste’mol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar.

Foydalaniluvchi xom ashyo turiga ko‘ra, sanoat korxonalari qazib chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalarga taqsimlanadi.

[1] «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 6 may, O‘RQ-370-sonli Qonuni // «Xalq so‘zi» 2014 yil 7 may, 88 (6018)-soni.

Yil davomida ishlash muddatiga ko‘ra, korxonalar mavsumiy va yil bo‘yi faoliyat yurituvchilarga bo‘linadi.

Hajmiga ko‘ra, korxonalar yirik, mikrofirma va kichik korxonalarga taqsimlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra[1] kichik tadbirkorlik sub’ektlari quyidagilardir:

1) yakka tartibdagi tadbirkorlar;

2) ishlab chiqarish tarmoqlaridagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan yigirma kishi, xizmat ko‘rsatish sohasidagi va ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa tarmoqlardagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan o‘n kishi, ulgurji, chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlaridagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan besh kishi bo‘lgan mikrofirmalar;

3) quyidagi tarmoqlardagi:

engil, oziq-ovqat sanoatidagi va qurilish materiallari sanoatidagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan ikki yuz kishi;

metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog‘ochsozlik, mebel sanoatidagi, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalaridagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan yuz kishi;

mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va ularni qayta ishlash, qurilish hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalaridagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan ellik kishi;

fan, ilmiy xizmat ko‘rsatish, transport, aloqa, xizmat ko‘rsatish sohalari (sug‘urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa sohalardagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan yigirma besh kishi bo‘lgan kichik korxonalar.

Faoliyatning bir necha turini amalga oshiruvchi (ko‘p tarmoqli) yuridik va jismoniy shaxslar yillik aylanma hajmida ulushi eng ko‘p bo‘lgan faoliyat turi mezonlari bo‘yicha kichik tadbirkorlik sub’ektlariga kiradi

Ixtisoslashuv darajasiga ko‘ra, korxonalar ixtisoslashgan, universal va aralash korxonalarga bo‘linadi. Ixtisoslashgan korxonalar qatoriga nomenklaturasi cheklangan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar, universal korxonalar qatoriga turli xil mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar, aralash korxonalar tarkibiga esa ixtisoslashgan va universal korxonalar o‘rtasidagi oraliq guruhni tashkil qiluvchi korxonalar kiritiladi.

Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish usullariga ko‘ra, korxonalar ishlab chiqarishning oqim, partiyali va donalab ishlab chiqarish usullari ustuvor turuvchi korxonalarga bo‘linishi mumkin.

Ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish darajasiga ko‘ra, korxonalar to‘liq va qisman avtomatlashtirilgan yoki

[1] «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 2 may, O‘RQ-328-sonli Qonuni // «Xalq so‘zi» 2012 yil 3 may, 86 (5506)-son.

mexanizatsiyalashtirilgan, qo‘l-mashina va faqat qo‘l mehnatiga asoslangan korxonalarga bo‘linadi.

Firma - korxona tushunchasidan kengroq tushunchadir, ya’ni u ma’lum nom bilan biznes olib boruvchi tashkilotdir. Firma - tovar ishlab chiqarish va barcha sohalarda xizmat ko‘rsatish ishlarini bajarish uchun foyda olish maqsadida resurslarni jamlaydigan va undan foydalanadigan tadbirkorlik shaklidir. Ularning kengroq uchraydigan turlari: faktoring firmasi, lizing firmasi, injiring firmasi, konsalting firmasi, venchur firmalar va boshqalardir.

Iqtisodiyotimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biri sanoat ishlab chiqarishini jahon iqtisodiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan raqobatbardosh korxonalar tashkil qilish maqsadidagi tuzilmaviy qayta qurishdan iborat. Buning uchun integratsiya hamda turli tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalarni vaqtinchalik yoki doimiy ravishda kooperatsiya yoki konsentratsiya asosida birlashtirish amalga oshiriladi.

Kooperatsiya jarayonida konsern, konsorsium, xo‘jalik asotsiatsiyasi kabi tashkiliy shakllar vaqtnchalik yoki doimiy ravishda tuzilishi mumkin. Ushbu tuzilmaviy birliklarining mohiyatini qisqacha ko‘rib chiqamiz.

Korporatsiya yirik aksioner jamiyatlar birlashmasi hisoblanib, bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchilarni birlashtiradi. Natijada ishlab chiqarish monopollashadi. **Korporatsiya** atamasi lotincha **«korporatio»** so‘zidan olingan bo‘lib, birlashma, hamjamiyat ma’nosini beradi.

Konsern umumiy manfaatlarga ega hamda shartnomalar, kapital va qo‘shma faoliyatda ishtirok etish bilan bog‘liq bo‘lgan korxonalarning yirik birlashuvini aks ettiradi.

Konsern – bu ishlab chiqarish diversifikatsiyasi, ya’ni korxonalarning faoliyat sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulotlari turining kengayishi, yangilanib turishi asosida tarkib topadigan yirik ko‘p tarmoqli korporatsiya.

Konsorsium – bu aniq iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishni maqsad qilgan korxonalarning umumiy kelishuvlar asosida yuzaga keladigan muvaqqat birlashmasidir. Konsorsium buyurtmachilar oldidagi majburiyatlar uchun javobgar hisoblanadi.

Xo‘jalik assotsiatsiyasi jismoniy yoki huquqiy shaxslarning o‘zaro hamkorlik yuritish maqsadida ko‘ngilli ravishda birlashuvini anglatadi va unda birlashuvga kiruvchi sub’ektlar o‘z mustaqilligini saqlab qoladilar.

Korxonalarning konsentratsiya asosida birlashuvi kartel, sindikat, xolding va moliya-sanoat guruhlari ko‘rinishida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish sohasidagi **kartellar** ishlab chiqarish masalalari, narxlar, tovarlarni sotish, ishchi kuchini yollash va shu kabi masalalar bo‘yicha kelishuvga asoslanib faoliyat yuritadi. Integratsining bu shaklida korxonalar mustaqillikni saqlab qolgan holda kooperatsiya asosida birlashadilar.

Sindikat – tijorat faoliyatini (ta’minot, buyurtmalarni taqsimlash, xom ashyo sotib olish, mahsulot sotish, bahoni shakllantirish) hamkorlikda tashkil qilishga asolangan birlashmadir. Sindikat tarkibiga kiruvchi korxonalar huquqiy hamda xo‘jalik yuritish mustaqilliklarini saqlab qoladilar.

Trestlar yuqori darajada markazlashganligi bilan ajralib turadi. Uning tarkibiga kiruvchi korxonalar ishlab chiqarish, tijorat va huquqiy mustaqilliklarini yo‘qotib, yagona reja asosida faoliyat yuritadi.

O‘z tarkibidagi aksiyadorlik jamiyatlarni nazorat paketlarini egallash bilan korporatsiyalar **xolding kompaniya**lariga aylanadi. Xolding iborasi inglizcha «holding» so‘zidan olingan bo‘lib, ega ma’nosini beradi. Xoldinglar ishtirokchilarning moliyaviy imkoniyatlarini birlashtirish va muvofiqlashtirish hamda ishlab chiqarish quvvatlari bilan vaizifalarni tezkor ravishda amalga oshirish imkonini beruvchi boshqaruvning samarali shaklini ifodalaydi.Aktivlari tarkibiga boshqa korxonalarning aksiyalari nazorat paketlari kiradigan aksiyadorlik jamiyati xolding xisoblanadi.

2.5. Sanoat korxonalarini ta’sis etish va davlat tomonidan ro‘yxatga olinishi

Korxona qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan tartibda maxsus davlat organlarida ro‘yxatga olingan kundan boshlab tashkil qilingan hisoblanadi va huquqiy shaxs maqomiga ega bo‘ladi.

Korxonalar faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarida ikki xil ta’sis hujjatlari belgilab berilgan:

Korxona ustavi uning huquqiy maqomini, huquq va majburiyatilarini belgilab beradi.

Ta’sis shartnomasi korxonaning tashkil qilinishi va yakka tarzda yoki hamkorlikdagi faoliyatning boshlanishini tavsiflovchi hujjatdir. U shuningdek, tashkil etilayotgan korxonaning ustavini to‘ldiruvchi hujjat ham hisoblanadi.

Amaliyotda korxona faqat Nizom yoki faqat ta’sis shartnomasi asosida, shuningdek, bir vaqtning o‘zida Nizom va ta’sis shartnomasiga asosan faoliyat yuritish hollari mavjud.

Shuni qayd qilib o‘tish kerakki, korxonaning (huquqiy shaxsning) ta’sis shartnomasi kelishuv asosida tuziladi, Nizom esa muassis (muassislar) tomonidan tasdiqlanadi.

Xususiy korxonaning ta’sis hujjati sifatida uning ustavi qabul qilinadi.

Xususiy korxonaning ustavida quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

- korxonaning firma nomi;
- uning joylashgan yeri va pochta manzili to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- asosiy faoliyat turlarining ro‘yxati;
- mulkdorning familiyasi, ismi, otasining ismi va yashash joyi;
- ustav fondining miqdori.

Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar ta’sis hujjatlari sifatida jamiyatning ta’sis shartnomasi va ustavi qabul qilinadi.

Agar jamiyat bir shaxs tomonidan ta’sis etilsa, shu shaxs tasdiqlagan ustav jamiyatning ta’sis hujjati hisoblanadi. Jamiyat ishtirokchilarining soni ikki va undan ortiq kishiga ko‘paysa, ular o‘rtasida ta’sis shartnomasi tuzilishi kerak.

Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlarning ta’sis shartnomasida jamiyatning muassislari jamiyatni tuzish majburiyatini oladilar va uni tuzish yuzasidan birgalikdagi faoliyat tartibini belgilaydilar. Ta’sis shartnomasida

quyidagilar ham belgilanadi:

- jamiyat muassislarining (ishtirokchilarining) tarkibi;
- jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori va jamiyat har bir muassisi (ishtirokchisi) ulushining miqdori;
- jamiyat ta’sis etilayotganda uning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalarni qo‘shish tartibi, miqdori, usullari va muddatlari;
- hissalarni qo‘shish bo‘yicha majburiyatlarini buzganlik uchun jamiyat muassislarining (ishtirokchilarining) javobgarligi;
- jamiyatning muassislari (ishtirokchilari) o‘rtasida foyda va zararlarni taqsimlash shartlari va tartibi;
- jamiyat organlarining tarkibi va jamiyat ishtirokchilarining jamiyatdan chiqish tartibi.

Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlarning ustavida quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

- jamiyatning to‘liq va qisqartirilgan firma nomi;
- jamiyat faoliyatining predmeti;
- jamiyatning pochta manzili to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- jamiyat organlarining tarkibi va vakolatlari to‘g‘risidagi, shu jumladan jamiyat ishtirokchilari umumiy yig‘ilishining mutlaq vakolatiga kiruvchi masalalar to‘g‘risidagi, jamiyat organlari tomonidan qarorlar qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi, shu jumladan qarorlar bir ovozdan yoki kvalifikatsion ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadigan masalalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- jamiyat har bir ishtirokchisi ulushining miqdori va nominal qiymati to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- jamiyat ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlari;
- jamiyat ishtirokchisining jamiyatdan chiqish tartibi va uning oqibatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushning boshqa shaxsga o‘tishi tartibi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- jamiyatning hujjatlarini saqlash tartibi hamda jamiyat tomonidan jamiyat ishtirokchilariga va boshqa shaxslarga axborot taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- jamiyatning vakolatxonalari va filiallari to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa ma’lumotlar.

Aksiyadorlik jamiyatining ta’sis hujjati sifatida ta’sis yig‘ilishi (muassis) tasdiqlagan ustav qabul qilinadi. Davlat korxonasi aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilayotganda davlat mulkini tasarruf etishga vakolatli organ tasdiqlaydigan emissiya ma’lumotnomasi ham ta’sis hujjati hisoblanadi.

Ustav jamiyatning ta’sis hujjati bo‘lib, unda quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

- jamiyatning to‘liq (agar bo‘lsa qisqartirilgan) firma nomi, joylashgan yeri

(pochta manzili) va elektron pochta manzili;

- faoliyatining sohasi (asosiy yo‘nalishlari) va maqsadi;
- ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori;
- jamiyat aksiyalarining soni, nominal qiymati, turlari (oddiy, imtiyozli);
- jamiyat boshqaruvining tuzilmasi, jamiyat kuzatuv kengashining, taftish komissiyasining va ijroiya organining a’zolari soni, bu organlarni shakllantirish tartibi, ularning vakolatlari.
- Jamiyat ustavida jamiyatning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) bitta aksiyadorga tegishli bo‘lgan ulushning eng ko‘p miqdoriga cheklovlar belgilanishi mumkin.
- Davlat tomonidan jamiyatni boshqarishda ishtirok etishga bo‘lgan maxsus huquq («oltin aksiya») joriy etilayotgan jamiyat ustavida davlatning mazkur maxsus huquqdan foydalanishi to‘g‘risidagi qoidalar ko‘rsatilishi kerak.

Xo‘jalik shirkatining ta’sis etish hujjati bo‘lib, uning ta’sis shartnomasi hisoblanadi.

Ta’sis shartnomasida quyidagi ma’lumotlar bo‘ladi:

- ta’sis etilayotgan xo‘jalik shirkatining turi, uning faoliyat sohasi, maqsadlari va muddatlari;
- muassislarning (ishtirokchilarning) tarkibi;
- ta’sis etilayotgan xo‘jalik shirkatining firma nomi va pochta manzili;
- ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori va uni hosil qilish tartibi;
- xo‘jalik shirkati har bir ishtirokchisi ulushining miqdori va nominal qiymati;
- xo‘jalik shirkati ishtirokchilari hissalarining tarkibi, ularni kiritish muddatlari va tartibi;
- xo‘jalik shirkatining ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish va kamaytirish tartibi;
- xo‘jalik shirkatining faoliyatini boshqarish tartibi;
- foydani taqsimlash va zararni qoplash tartibi;
- xo‘jalik shirkatini qayta tashkil etish va tugatish tartibi;
- qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa shartlar.

Xo‘jalik shirkatining ta’sis shartnomasida, shuningdek uning vakolatxonalari va filiallari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak.

2.10-jadval

Tadbirkorlik sub'ektlari - yuridik shaxslar ustav fondining eng kam miqdoriga qo'yiladigan talablar[1]

T/r	Tadbirkorlik sub'ektlarining - yuridik shaxslarning tashkiliy-huquqiy shakli	Ustav fondining eng kam miqdori
1.	Aksiyadorlik jamiyati	1 600 mln. so'm
2.	Mas'uliyati cheklangan jamiyat	Eng kam oylik ish haqining 40 baravari miqdorida***
3.	Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat	Eng kam oylik ish haqining 40 baravari miqdorida
4.	To'liq shirkat	Eng kam oylik ish haqining 50 baravari miqdorida
5.	Kommandit shirkat	Eng kam oylik ish haqining 50 baravari miqdorida
6.	Unitar korxona	-
7.	Davlat unitar korxonasi	-
8.	Xususiy korxona	-
9	Oilaviy korxona	Eng kam oylik ish haqining 10 baravari miqdorida
10.	Fermer xo'jaligi	-
11.	Ishlab chiqarish kooperativi	-
12.	Yuridik shaxs tashkil etgan dehqon xo'jaligi	-
13.	Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona	600 mln. so'm
14.	Chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxona	Tegishli tashkiliy-huquqiy shakli uchun belgilangandan kam bo'lmagan miqdorda

Har qanday shakldagi korxona joylashgan manzilgohi bo'yicha davlat organlarida ro'yxatga olingan kundan boshlab tashkil qilingan hisoblanadi.

Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va qayta ro'yxatdan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 28 oktyabrdagi PQ–2486-sonli qarorini amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi 2017 yil 9 fevraldagi 66-sonli Hukumat qaroriga muvofiq Davlat xizmatlari markazlari tomonidan amalga oshiriladi[2].

Davlat ro'yxatidan o'tkazish quyidagi usullardan biri bilan amalga oshiriladi:

1. Internet jahon axborot tarmog'i orqali tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimi vositasida Yagona portalda;

2. Ariza beruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun tegishli (pochta manziliga muvofiq joylashgan joydagi - yuridik shaxslar uchun yoki doimiy ro'yxatda turgan joyidagi yoxud doimiy yashash joyidagi -

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2016 yil 28 oktyabrdagi PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 fevraldagi 66-son Qarori.

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2016 yil 28 oktyabrdagi PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 fevraldagi 66-son Qarori.

jismoniy shaxslar uchun) ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga o‘zlari kelib murojaat qilgan holda.

Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va qayta ro‘yxatdan o‘tkazish “Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”da nazarda tutilgan muddatlarda amalga oshiriladi (2.11-jadval).

2.11-jadval

Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish uchun belgilangan muddatlar[1]

T/r	Tadbirkorlik faoliyati shakllarining nomi	Davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning belgilangan muddatlari
I. Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish		
1.	Yakka tartibdagi tadbirkor, shu jumladan dehqon xo‘jaligi, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyati sub’ektlari	real vaqt rejimida, lekin 30 minutdan oshmagan vaqtda
2.	Tadbirkorlik faoliyatining boshqa shakllari	real vaqt rejimida, lekin 30 minutdan oshmagan vaqtda
II. Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan qayta o‘tkazish		
3.	Dehqon xo‘jaligi, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyati sub’ektlari boshlig‘i o‘zgarganda	real vaqt rejimida, lekin 30 minutdan oshmagan vaqtda
4.	Ta’sis hujjatlariga ustav fondi miqdorining oshirilishi, ulushning (hissaning) boshqa shaxsga o‘tishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganda	16 ish soatidan oshmagan vaqtda
5.	Ro‘yxatdan o‘tkazish ma’lumotlariga (ta’sis hujjatlariga) kiritilayotgan boshqa o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalar kiritilganda	real vaqt rejimida, lekin 30 minutdan oshmagan vaqtda

Yuridik shaxsni (tijorat tashkilotini) ro‘yxatdan o‘tkazishda taqdim etilayotgan hujjatlar soni 6 tadan 2 tagacha qisqartirilgan, ya’ni faqatgina ariza va ta’sisi hujjatlari talab etiladi , yakka tartibdagi tadbirkorlar (YaTT) uchun zarur bo‘lgan hujjatlar soni 7 tadan 1 tagacha qisqartirilgan, ya’ni faqatgina ariza taqdim etish talab etiladi.

Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish, Tadbirkorlik sub’ektlari yagona davlat reyestridan ma’lumotlar berish uchun tegishlicha stavkalar bo‘yicha davlat bojlari va yig‘imlar to‘lanadi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida" 2016 yil 28 oktyabrdagi PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 fevraldagi 66-son Qarori.

2.12 - jadval

Tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun davlat bojlari stavkalari[1]

Tadbirkorlik sub'ektlari	Davlat bojlari stavkalari
xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun	hozir bo'lish tartibida murojaat etilganda eng kam oylik ish haqining 32 barovari, Internet butunjahon tarmog'i orqali davlat ro'yxatidan o'tkazilganda esa - eng kam oylik ish haqining 16 barovari miqdorida;
sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlari, auditorlik tashkilotlari, soliq maslahatchilari tashkilotlari, birjalar, lombardlar, investitsiya fondlarini, "O'zbekoziqovqatzaxira" meva-sabzavot mahsulotlarini tayyorlash va g'amlash korxonalari uyushmasi tarkibiga kiruvchi korxonalarni, bozorlarni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining tegishli qarorlari bilan aksiyadorlik jamiyatlari (shu jumladan xolding) shaklida tashkil etilayotgan xo'jalik boshqaruvi organlarini ro'yxatidan o'tkazganlik uchun	hozir bo'lish tartibida murojaat etilganda eng kam oylik ish haqining to'rt baravari, Internet butunjahon tarmog'i orqali davlat ro'yxatidan o'tkazilganda esa - hozir bo'lish tartibida murojaat etganlik uchun belgilangan stavkaning 50 foizi miqdorida";
yuridik shaxslarni - tadbirkorlik sub'ektlarini, yuridik shaxs bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarni hamda yuridik shaxs bo'lmagan oilaviy tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazganlik uchun	hozir bo'lish tartibida murojaat etilganda eng kam oylik ish haqining bir baravari, Internet butunjahon tarmog'i orqali davlat ro'yxatidan o'tkazilganda esa - hozir bo'lish tartibida murojaat etganlik uchun belgilangan stavkaning 50 foizi miqdorida";

Biznes yuritishni boshlash bilan bog'liq bo'lgan barcha rasmiyatchiliklarni inobatga olgan holda korxonani ochish jarayoni *(ushbu vaqtga firma nomini zaxiraga olib qo'yish, ro'yxatdan o'tkazish uchun davlat bojini to'lash, davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma va ro'yxatdan o'tkazilgan ta'sis hujjatlarini olish, muhrni tayyorlash, soliq organlarida, statistika organlarida hamda Xalq bankida hisobga qo'yish, shuningdek bankda hisob raqamini ochish kiradi)* bir kundan kam vaqtni talab qiladi.

2.6. Sanoat korxonalarini tugatish va qayta tashkil qilish

Korxona faoliyatini to'xtatish uni tugatish yoki qayta tashkil qilish shaklida amalga oshirilishi mumkin. Ishlab chiqarishning barqaror emasligi, moliyaviy qiyinchiliklar, surunkali zarar ko'rish va to'lov qobiliyatining yo'qolishini korxonalarni tugatish yoki qayta tashkil qilishga asosiy sabab qilib ko'rsatish mumkin.

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2016 yil 28 oktyabrdagi PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 fevraldagi 66-son Qarori.

Korxonani ***qayta tashkil qilish*** – bu, uning birlashib ketishi, qo‘shilishi, bo‘linishi, ajralib chiqish va shaklini o‘zgartirishi degani. Korxonani qayta tashkil qilish ta’sischi (ta’sischilar) qaroriga muvofiq amalga oshiriladi. Qayta tashkil qilish korxonaning ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari, moliyaviy va iqtisodiy ko‘rsatkichlari avvalgiga nisbatan yaxshilanishiga xizmat qilishi lozim.

Korxonani ***tugatish*** huquqiy xatti-harakat bo‘lib, ishlab chiqarish va xo‘jalik yuritish faoliyatining to‘xtatilishini anglatadi. Korxonani tugatish uning ta’sischilari tomonidan qabul qilinadigan qaror asosida ixtiyoriy tugatish shaklida yoki xo‘jalik sudi qarori asosida amalga oshiriladi.

Korxona tugatilganda u davlat ro‘yxatidan chiqariladi, uning bankdagi hisob raqami yopiladi hamda muhr, shtamp va boshqa rekvizitlari haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Korxonani tugatishga quyidagilar sabab bo‘lishi mumkin:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot(ish, xizmat)ga bo‘lgan talabning pasayib ketishi yoki umuman yo‘qolishi;
- ishlab chiqarishning zarar keltirishi;
- ishlab chiqarishninng atrof-muhit hamda aholi hayotiga xavf tug‘dirishi;
- korxonaning bino va inshootlari, asbob-uskunalari va boshqa vositalaridan iqtisodiy jihatdan unumliroq, yanada sifatli va iste’molchilar talabiga javob beruvchi mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyatining yuzaga kelishi.

Korxonani ixtiyoriy tugatish 2007 yil 27 aprelda qabul qilingan «Tadbirkorlik sub’ektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to‘xtatish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori va unga ilova tarzida berilgan “Tadbirkorlik sub’ektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to‘xtatish tartibi to‘g‘risida Nizom” asosida amalga oshiriladi.

Ushbu xujjatlarda belgilangan tartibga ko‘ra korxonani ixtiyoriy tugatish to‘g‘risidagi qarorda quyidagilar ko‘rsatiladi:

tugatuvchi - tugatish komissiyasi (uning a’zolari tarkibi) yoki jismoniy shaxs (pasporti ma’lumotlari);

mo‘ljallanayotgan tugatish muddati.

Korxonani ixtiyoriy tugatish quyidagi ikki hil holat bo‘yicha alohida tartibda amalga oshiriladi :

1.Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarni ixtiyoriy tugatish.

2.Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan vaqtdan boshlab moliya-xo‘jalik faoliyatini yuritmayotgan korxonalarni ixtiyoriy tugatish.

Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarni ixtiyoriy tugatishda Tugatuvchi korxonani davlat reyestridan chiqarish uchun ro‘yxatdan o‘tkazgan organga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

bir yoki bir necha davriy bosma nashrlarda chiqqan korxonaning ixtiyoriy tugatilganligi to‘g‘risidagi e’lonni;

davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik to‘g‘risidagi guvohnomani;

korxonaning barcha hisob raqamlari yopilganligi to‘g‘risida xizmat ko‘rsatuvchi banklarning ma’lumotnomalarini;

agar mavjud bo‘lsa, korxonaning muhr va shtamplari;

vakolatli organning, agar mavjud bo‘lsa, chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarini bekor qilish to‘g‘risidagi ma’lumotnomasini;

davlat soliq xizmati organining soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarz yo‘qligi to‘g‘risidagi xulosasini;

tugatilayotgan korxona qarzdor sifatida ishtirok etgan va ijro etilmagan ijro hujjati Byuro organlari ish yurituvida mavjud emasligi haqidagi Byuro hududiy boshqarmasining yozma javobini;

korxona hujjatlarining davlat arxiviga topshirilganligini tasdiqlovchi ma’lumotnomani.

Ro‘yxatdan o‘tkazgan organ hujjatlar olingandan keyin ikki ish kuni mobaynida davlat reyestriga korxona tugatilganligi to‘g‘risidagi yozuvlarni kiritadi. Ro‘yxatdan o‘tkazgan organning qarori u qabul qilingan kundan keyin bir ish kuni mobaynida tugatuvchiga beriladi yoki unga pochta orqali jo‘natiladi.

Korxonani ixtiyoriy tugatishning umumiy muddati ro‘yxatdan o‘tkazgan organ ixtiyoriy tugatish to‘g‘risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan boshlab to‘qqiz oydan oshmasligi kerak.

Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan vaqtdan boshlab moliya-xo‘jalik faoliyatini yuritmayotgan korxonalarni ixtiyoriy tugatishda Tugatuvchi korxonani davlat reyestridan chiqarish uchun ro‘yxatdan o‘tkazgan organga ixtiyoriy tugatish to‘g‘risidagi e’lon chiqqan sanadan keyin bir oydan erta bo‘lmagan muddatda quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- korxonaning ixtiyoriy tugatilganligi to‘g‘risida bir yoki bir necha davriy bosma nashrlarda chiqqan e’lonni;
- davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik to‘g‘risidagi guvohnomani;
- banklarda hisob raqamlari ochilmaganligi to‘g‘risidagi xat yoki, agar mavjud bo‘lsa, asosiy hisob raqami yopilgani to‘g‘risidagi bank ma’lumotnomasini;
- tugatilayotgan korxona qarzdor sifatida ishtirok etgan va ijro etilmagan ijro hujjati Byuro organlari ish yurituvida mavjud emasligi haqidagi Byuro hududiy boshqarmasining yozma javobi;
- muassislar (qatnashchilar)ning ular o‘rtasida mol-mulk taqsimlanganligi to‘g‘risidagi qarorini;
- mavjud bo‘lsa, korxonaning muhr va shtamplari;
- korxona hujjatlari davlat arxiviga topshirilganligini tasdiqlovchi ma’lumotnomani

Ro‘yxatdan o‘tkazgan organning qarori qabul qilingan kunidan keyin bir ish kuni mobaynida tugatuvchiga beriladi yoki unga pochta orqali jo‘natiladi.

Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o‘zlarining ustav jamgarmalarini shakllantirmagan korxonalar faoliyatini tugatish tartibi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 iyuldagi Qarori bilan tasdiqlangan “Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o‘zlarining ustav jamg‘armalarini shakllantirmagan korxonalarni tugatish tartibi to‘g‘risida Nizom” ososida amalga oshiriladi. Bankrotlik alomatlari bo‘lgan korxonalarni tugatish tartibi. «Bankrot» atamasi qadimgi italyanchada «banca» – kursi, o‘rindiq va «rota» – singan, ya’ni

singan kursi degan ma’noni anglatadi. Shimoliy Italiyaning savdo shaharlari – Genuya va Venetsiyada barcha bitimlar maxsus binolarda amalga oshirilgan. Har qaysi urug‘, oila savdo uylarida yog‘ochdan yasalgan kursiga ega bo‘lib, urug‘ boshlig‘i yoki uning vakili o‘sha kursida o‘tirib bitimlar tuzgan. Agar urug‘ boshlig‘i o‘zining moliyaviy majburiyatlarini bajara olmasa va nochor bo‘lib qolsa, uning kursisi odamlar ko‘z oldida sindirilgan. Mamlakatimizda kreditorlar da’volarini qondirish maqsadida xo‘jalik yuritish sub’ektlari bo‘lmish yuridik va jismoniy shaxslarni bankrot bo‘lgan deb e’tirof etish shartlari va tartibi “Bankrotlik to‘g‘risida”gi Qonunda belgilab berilgan, lekin u o‘z faoliyatini davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiradigan korxona-tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.O‘zbekiston Respublikasining “Bankrotlik to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini qondirishga va majburiy to‘lovlar bo‘yicha o‘z majburiyatini bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va to‘lovlar majburiyati yuzaga kelgan kundan e’tiboran uch oy davomida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo‘lsa, uning bankrotlik alomatlari deb e’tirof etiladi[1].

Qisqacha xulosalar

Sanoat milliy iqtisodiyotining yetakchi tarmog‘i hisoblanadi. Ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishda, aholining farovonligini oshirishda uning ahamiyati beqiyosdir.

O‘zbekiston sanoati juda katta tarixiy yo‘lni bosib o‘tdi va istiqlol yillarida tubdan o‘zgarib, bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda rivojlana boshladi.

Sanoat ishlab chiqarishi ayniqsa keyingi o‘n yil ichida jadal rivojlandi. Oqibat natijada O‘zbekiston dunyoning sanoati rivojlangan mamlakatlari safidan joy oldi.

Mustaqillik yillarida respublika uchun mutlaqo yangi bo‘lgan avtomobilsozlik, matorsozlik va ularga butlovchi qismlar tayyorlaydigan sohalarga, neft va gazni qayta ishlaydigan, farmatsevtika, zamonaviy televizor va kompyuterlar ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlariga asos solindi.

O‘zbekistonda sanoat tarmoqlarini yana ham rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar, ya’ni – juda katta moddiy, mehnat, moliyaviy va intellektual resurslar mavjud. Ulardan oqilona foydalanish asosida respublika sanoatini qudratli sanoatga aylantirish va samaradorlik jihatidan uni yanada yuqori darajaga ko‘tarish mumkin.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1.Sanoat – milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘i.

2.Sanoatning asosiy xususiyatlari va sanoat ishlab chiqarishining iqtisodiyotning boshqa sohalar bilan o‘zaro bog‘liqligi nimalarda namoyon bo‘ladi?

3.O‘zbekiston sanoatining rivojlanish bosqichlari va sanoat tarmoqlarining taraqqiyoti.

4.Sanoat va bozor xo‘jaligi hamda uning xorijiy bozorga chiqish imkoniyatlari va yo‘llari nimalardan iborat?

5.Sanoat ishlab chiqarishning xalqaro hamkorlik sohasidagi vazifalari nimalarni taqazo etadi?

[1] O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 24 apreldagi “Bankrotlik to‘g‘risida”gi Qonuni(yangi tahriri). //lex.uz

Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro`yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida (yangi tahriri)»gi Qonuni //«Xalq so‘zi» gazetasi. 3 may 2012 yil
2. O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 24 apreldagi “Bankrotlik to‘g‘risida”gi Qonuni(yangi tahriri). //lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasining «Xususiy korxonalar to‘g‘risida»gi Qonuni. Qonun va qarorlar. -T.: O‘zbekiston, 2011.
4. «Xo‘jalik shirkatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining 2001 yil 6 dekabrdagi Qonuni.//lex.uz
5. «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 6 may, O‘RQ-370-sonli Qonuni // «Xalq so‘zi» 2014 yil 7 may, 88 (6018)-soni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida" 2016 yil 28 oktyabrdagi PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 fevraldagi 66-son Qarori.
7. Tirole, Jean (Tir) The Theory of Industrial Organization. MIT Press, 1992.
8. Church J., and R.Ware. (CW) Industrial Organization. A Strategic Approach. Irwin. 2000.
9. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.:”Sano-standart”, 2014.-304 b.
10. www.webofscience.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi

3-BOB. SANOAT TARMOQ TUZILMASI VA TARKIBIY SILJIShLAR

3.1. Tarkibiy siyosat, uning mohiyati va ahamiyati

Tarkibiy (tuzilmaviy) siyosat haqida mulohaza yuritishdan oldin, tuzilmaning o‘zi nima ekanligini bilib olishimiz zarur.

Tarkib (tuzilma) lotincha, «structura» so‘zidan olingan bo‘lib, narsalar tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liq ravishda joylashishini, tuzilishini bildiradi.

Tarkibiy siyosatining moxiyati sohalarning tuzilmaviy jihatlarini belgilab berish, yo‘lga solib turishdan iboratdir.

Rus iqtisodchi olimi S.D. Alekseyevichning fikricha iqtisodiyot tarkibi uzoq muddatli davrda mamlakat iqtisodiy o‘sishining muhim shart-sharoitlarini yuzaga keltiradi. U miqdoriy va sifat xususiyatlariga ega bo‘lib, milliy iqtisodiyotdagi o‘zgarishlarni aks ettiradi. Iqtisodiyot tarkibi mamlakat milliy iqtisodiyotining barqarorligi va havfsizligini tavsiflaydi. Shuning uchun iqtisodiyotda miqdoriy va sifat jihatdan tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish davlat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biridir[1].

Iqtisodiyotda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, ya’ni iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish ishlab chiqarishning texnologik yangilanishi va uning tashqi hamda ichki o‘zgarishlarga moslashishi zaruriyatini aniqlovchi ishlab chiqarish kuchlarining katta miqdordagi tarkibiy o‘zgarishlarini ifodalaydi. Bunda muhim maqsad: ishlab chiqarishni qayta tashkil etish, jumladan korxonalarning samarasiz bo‘g‘inlarini yo‘q qilish yoki qo‘shib yuborish, jismonan va ma’nan eskirgan asosiy vositalarni almashtirish, texnik yangiliklarni kiritish hamda yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishdir. Bularning bari tarmoqlararo, hududiy, texnologik, institutsional va ishlab chiqarishning boshqa muhim tarkibiy siljishlariga olib keladi.

Iqtisodchi olim A.A.Kushnarevning fikricha, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar iqtisodiy samaradorlikni, jahon va milliy bozorlarda raqobatbardoshlikni kamaytiruvchi yoki oshiruvchi iqtisodiyotning turli tarmoqlari, sektorlari, hududlar, korxonalar turlari, texnologik ukladlar va iqtisodiy tizimning boshqa elementlari o‘rtasidagi o‘zaro nisbatlarning mavjud o‘zgarish hisoblanadi.[2]

Ch.K.Karenovichning fikricha tub tarkibiy o‘zgarishlar davrida milliy milliy iqtisodiyot boshqa davrlarga nisbatan yuqori o‘sish sur’atlariga ega bo‘lib, uning alohida tarmoqlari va sohalari rivojlanishida tengsizlik kuchayadi.

Takror ishlab chiqarishning hozirgi sharoitlarida iqtisodiy o‘sish iqtisodiyot ko‘lamining o‘sishi bilangina emas, balki iste’molda ham, ishlab chiqarishda ham tuzilmaviy siljishlar, ularning tezligi va samaradorligi bilan aniqlanadi.

---

[1] Сергеев Дмитрий Алексеевич. Структурные преобразования как фактор экономического роста в трансформационной экономике : Дис. ... канд. экон. наук : 08.00.01 : Казань, 2004 187 с. РГБ ОД, 61:04-8/3995

[2] А.А.Кушнарев. Структурные преобразования экономики как особый объект управления: http://cyberleninka.ru/article/n/strukturnye-preobrazovaniya-ekonomiki-kak-osobyy-obekt-upravleniya

3.2. Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning o‘rni

Iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarda sodir bo‘lishi yoki sustlashuvi ayrim hollarda siklik hususiyatga emas balki aynan davlat siyosatining amalga oshirilishi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Odatda, yuqori sur’atdagi iqtisodiy o‘sish iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarning amalga oshirilayotgan davrga to‘g‘ri keladi.

Mamlakat iqtisodiyoti tarkibining ahamiyati iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashda, ularning samaradorligini oshirishda va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishda ko‘rinadi. Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi mamlakatlar rivojlanishining xususiyatlariga bog‘liq holda o‘zgarib boradi. Iqtisodiyotdagi tarkibiy siljishlar mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlashdagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ko‘pchilik rivojlangan G‘arbiy Yevropa davlatlari, Janubiy-Sharqdagi yangi sanoatlashgan davlatlar yuqori darajada iqtisodiy o‘sishga iqtisodiyotidagi katta tarkibiy siljishlar hamda boshqa sifat jihatdan o‘zgarishlar evaziga erishdilar.

Ma’lumki, iqtisodiyotda tarkibiy siljishlarni amalga oshirish natijasida tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish mumkin. Bugungi kunda mamlakatimizda jadal va mutanosib iqtisodiy o‘sish, chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga katta e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi[1]. Ushbu Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari alohida muhim o‘rin egallaydi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning asosida albatta tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish masalasi turadi.

Tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari:

1. Milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta’minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko‘rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko‘paytirish;

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. // Xalq so‘zi. 8 fevral 2017 yil.

2. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;

3. Yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;

4. Iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;

5. Prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o‘zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta’minlash;

6. Ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni rag‘batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, iste’mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o‘rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;

7. Iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish;

8. Faoliyat ko‘rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalari samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish;

9. Xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o‘rni va ulushini oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o‘zgartirish;

10. Turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish;

11. Eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;

12. Yo‘l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy siljishlarni baholashda iqtisodiyot tarkibi asosan tarmoq, takror ishlab chiqarish, mintaqaviy va tashqi savdo jihatidan qaraladi. Iqtisodiyotdagi tarkibiy siljishlar tarmoq jihatdan qaralganda, asosiy uch tarmoq: sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar ko‘rsatish sohalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi yoki ushbu tarmoqlarda band bo‘lgan aholi soniga qarab aniqlanadi. Mamlakat iqtisodiy o‘sishining dastlabki bosqichlarida mazkur uch tarmoqning iqtisodiyotdagi ulushi jihatidan qishloq xo‘jaligi ustunlik qilsa, iqtisodiy o‘sishning keyingi bosqichlarida sanoat va yuqori iqtisodiy o‘sish pallasida esa xizmatlar ko‘rsatish sohasining yetakchilik qilishi kuzatiladi.

3.1-jadval

Jahondagi ayrim mamlakatlarining tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy o‘sishga ta’siri, YaIM o‘sishi foiz xisobida

Mamlakatlar	Tarkibiy qayta qurish davri	Qayta qurishdan keyingi davr	Inqirozdan keyingi davr
AQSh	4.3 (1983-1990)	3.2 (1993-2007)	2.3 (2010-2013)
Buyuk Britaniya	3.5 (1983-1990)	2.9 (1993-2007)	1.3 (2010-2013)
Germaniya	2.4 (1983-1990)	1.4 (1993-2007)	1.9 (2010-2013)
Yaponiya	4.5 (1983-1990)	1.4 (1993-2007)	1.7 (2010-2013)
Janubiy Koreya	8.0 (1983-2002)	4.3 (2003-2007)	3.7 (2010-2013)
Xitoy	10.8 (1983-2002)	7.5-8.0 (2003-2007)	8.4 (2010-2013)

Mazkur 3.1-jadval ma’lumotlaridan, tarkibiy qayta qurish davrida YaIMning o‘rtacha o‘sishi Buyuk Britaniyada 3,5% (1983-1990 yillarda), AQShda 4,3% (1983-1990 yillarda), GFRda 2,9% (1983-1990 yillarda), Yaponiyada 4,5% (1983-1990 yillarda), Janubiy Koreyada 8,0% (1983-2002 yillarda), Xitoyda 10,8% (1983-2002 yillarda) hamda Rossiyada 5,3% (1997-2007 yillarda)ni tashkil etgan[1].

3.3. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va sanoat tarmog‘ining shakllanishi

Ijtimoiy mehnat taqsimoti ma’lum buyum va mahsulotlar ishlab chiqarish xajmining o‘sishi va fan-texnika taraqqiyoti natijasidir.

Ijtimoiy mehnat taqsimoti uch shaklda: umumiy, xususiy va ayrim, birlamchi shaklda ro‘y beradi.


Iqtisodiyotning yirik sohalari, ya’ni sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport va aloqaning vujudga kelishi umumiy mehnat taqsimotining mahsulidir.

Bu tarmoqlarning har birida sohalarning mustaqil ravishda ajralib chiqishi xususiy mehnat taqsimoti natijasidir.

Birlamchi mehnat taqsimoti esa, ishlab chiqarishni korxona ichida — sexlar, uchastkalar va yangi ish joylari tashkil etish bilan bog‘liqdir. Bunday turkumlarga ajratish va uning mahsulini 3.1-rasmdagi chizmadan ko‘rish mumkin.

Sanoat tarmog‘i - ishlab chiqarish uyushmalari, kombinatlari va korxona (firma)lari yig‘indisidir.

[1] Ч.К.Каренович. Влияние изменений структуры экономики на темпы экономического роста страны.



3.1-rasm. O‘zbekistonning milliy iqtisodiyoti tuzilmasi.

Tarmoq hosil etish uchun korxonalar bir necha umumiy xususiyatlarga ega bo‘lishlari kerak:

- ishlab chiqariladigan mahsulot iqtisodiy mazmunining bir xilligi;
- ishlatiladigan xom ashyo va asosiy materiallarning o‘xshashligi;
- ishlab chiqarish texnik bazasi va texnologik jarayonlarining umumiyligi;
- ma’lum kasbdagi kadrlar tarkibining umumiyligi;
- ijtimoiy mehnatni tashkil etish darajasi va shakllarining bir biriga o‘xshashligi va hakozolar.

Mehnat vositalarning mehnat buyumlariga ta’sir ko‘rsatishiga qarab sanoat qazib oluvchi va ishlov beruvchi tarmoqlarga bo‘linadi.

Ishlab chiqariladigan mahsulotning funksional vazifasiga binoan ham tarmoqlarni guruhlash mumkin. Bunda alohida guruxlar, masalan, yoqilg‘i ishlab chiqaruvchi tarmoqlar - yoqilg‘i sanoatiga, oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlovchi tarmoqlar esa - oziq-ovqat sanoatiga birlashishi mumkin.

Tarmoq tuzilmasi deyilganda, uning tarkibi, tarmoqlar o‘rtasidagi nisbatlar va o‘zaro bog‘liqlik tushuniladi. Tarmoq tuzilmasi sanoat taraqqiyoti darajasini belgilaydi hamda unda yuz bergan va yuz beradigan o‘zgarishlarni aks ettiradi.

Tarmoq tuzilmasiga binoan quyidagi jihatlarni aniqlash mumkin:

- ijtimoiy mehnat taqsimoti va kooperatsiyaning darajasini;
- mamlakatning iqtisodiy jihatdan mustaqil ekanligini;
- sanoat va butun halk xo‘jaligining ilmiy-texnika salohiyatini;
- mamlakat va uning viloyatlari sanoatining rivojlanish darajasini;
- ijtimoiy mehnat unumdorligi yoki ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligining

darajasini;

•mehnatkashlarning moddiy faravonligi va madaniy darajasi o‘sganligini.

3.4. Sanoatning tarmoq tuzilmasi va uni belgilovchi omillar

Tarmoq tuzilmasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

-mustaqil sanoat tarmoqlarining soni;

- tarmoqlarning sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmidagi salmog‘i;


-tarmoq rivojining sur’ati;

-tarmoqning ilgarilab ketish koeffitsiyenti.

Mustaqil sanoat tarmoqlarining soni mamlakat industrial taraqqiyoti, uning iqtisodiy va ilmiy-texnik salohiyati, iqtisodiy jihatdan mustaqilligini ifodalaydi.

Tarmoq tuzilmasi uning yalpi mahsulotining sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmidagi ulushi, xodimlar soni va asosiy fondlar qiymatidagi salmog‘i ko‘rsatkichlari bilan o‘lchanadi.

Sanoat tarmoqlari orasidagi yuzaga kelgan mutanosibliklar va ularning o‘zgarishiga ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi hamda boshqa bir qator omillar ta’sir etadi.



3.2-rasm. 2017 yilda sanoat tarmoqlari tuzilmasi[1],%

[1] Манба: Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари

3.2- j a d v a l

O‘zbekiston Respublikasining sanoat tarmoqlari bo‘yicha tuzilmaviy o‘zgarishlar, foizda

	2014y.	**2015y.**	**2016y.**	**2017y.**	**2018y.**
Yalpi qo‘shilgan qiymat	**100**	**100**	**100**	**100**	**100**
shu jumladan:					
YaQQda sanoatning ulushi (qurilish sohasi bilan birga)	**32,4**	**32,4**	**32,6**	**33,0**	**32,9**
shu jumladan sanoat tarmoqlari ulushi					
To‘qimachilik, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	2,6	2,8	3,2	3,3	3,9
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	0,1	0,2	0,2	0,2	0,2
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	3,7	4,2	4,5	5,3	5,7
Avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish	0,8	1,0	1,1	1,0	0,5

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarmoq tuzilmasini belgilovchi asosiy omillarga quyidagilar kiradi:

-fan-texnika taraqqiyoti va innovatsiyalar, ularning yutuqlarini ishlab chiqarishta joriy etish;

-material va yoqilg‘i, energetika resurslarining iqtisodiy tejalishini kuchaytirish;

-ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, diversifikatsiyalash, ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish darajasi;

-sanoat ishlab chiqarishining o‘sish sur’atlari;

-aholining moddiy va madaniy darajasi o‘sishi;

-ijtimoiy-tarixiy sharoitlar;

-mamlakatning tabiiy resurslari va ularni o‘zlashtirish darajasi;

-mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o‘rni va boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorligi.

Qisqacha xulosalar

Sanoat juda ko‘p tarmoqlardan iborat bo‘lib, ularning har biri korxonalar yig‘indisidan tashkil topadi. Tarmoq hosil bo‘lishi uchun korxonalar bir necha umumiy xususiyatlarga ega bo‘ladilar.

Sanoat tarmoqlari o‘rtasidagi ishlab chiqarishning o‘zaro aloqadorligi va ularning takror ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan miqdoriy nisbatlari tarmoq tuzilmasini tashkil etadi. U sanoat taraqqiyotida ro‘y beradigan texnika va texnologiya hamda innovatsiya rivojining darajasi, ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar

bilan bog‘liq ravishda o‘zgaradi.

Turli sanoat tarmoqlari o‘rtasidagi ishlab chiqarish aloqalari o‘zaro mahsulot almashish, tajribalarni o‘rganish bilan tavsiflanadi.

Ishlab chiqarish tarqqiyotining istiqbolini aniqlash, hisob-kitob ishlarini amalga oshirish, uning ahvolini tahlil etish maqsadida sanoat tarmoqlari guruhlarga ajratiladi. Guruhlarga ajratishning eng muhim tamoyili tayyorlanadigan mahsulot iqtisodiy mazmunining bir xilligidir.

Sanoat tarmoq tuzilmasining o‘zgarishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi: fan-texnika tarqqiyoti va innovatsion faoliyat; ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari-konsentratsiyalash, ixtisoslashtirish, mahalliylashtirish, kooperativlashtirish, diversifikatsiyalash va hududiy joylashtirish.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Siz ijtimoiy mehnat taqsimoti va sanoat sohalari qanday shakllanadi deb o‘ylaysiz?
2. Siz davlatning iqtisodiyot, jumladan, sanoat sohasidagi tarkibiy o‘zgarishlarga tegishli siyosatining mohiyati nimada deb o‘zlaysiz?
3. Siz iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni ta’minlash yana uchun nimalar qilish lozim deb o‘ylaysiz?
4. Tarmoq va tarmoq tuzilmasi tushunchasiga qanday baho berasiz?
5. Sizning tarmoqlarning iqtisodiy guruhlanishi va tuzilmasi bo‘yicha fikrlaringiz qanday?
6. Tarmoqning rivojlanish sur’atlarini aniqlanishing qanday usullarini bilasiz?

Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro`yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida» gi №PF-4947 sonli Farmoni. //Xalq so’zi. 2017 yil 8 fevral.

2. Sh. M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak . Tashkent : O‘zbekiston, 2017 y.,104 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.//Xalq so‘zi, 23 dekabr, 2017 yil

4. Tirole, Jean (Tir) The Theory of Industrial Organization. MIT Press, 1992.

5. Church J., and R.Ware. (CW) Industrial Organization. A Strategic Approach. Irwin. 2000.

6. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.:”Sano-standart”, 2014.-304 b.

7. www.webofscience.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi

8. www.search.ebscohost.com

4- BOB. SANOATDA ZAMONAVIY BOShQARUV TIZIMI

4.1. Boshqaruv ob’ektiv zaruriyat va maqsadga yo‘naltirilgan jarayon sifatida

Har qanday ishlab chiqarish boshqaruvning muayyan tizimisiz oqilona harakat qila olmaydi va rivojlanmaydi. Shu tufayli ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida jamiyat o‘ziga xos va mos boshqaruv tizimini yaratadi.

«Boshqaruv» tushunchasi uzoq va chuqur tarixiy tarakqiyotga ega. Uning yuzaga kelishi esa insoniyat taraqqiyotining eng muhim jarayonlaridan biri hisoblanadi. Boshqaruv faoliyatining dastlabki davrida insonlar o‘z bilim va tajribasiga asoslangan holda ishlab chiqarishni boshqargan bo‘lsalar, asta-sekinlik bilan texnika-texnologiyaning rivojlanishi, ishlab chiqarish sur’atlarining o‘sishi va har xil tashkiliy sharoitlar yuzaga kelishi natijasida faoliyatning mazkur turi ancha murakkablashib bordi. Bunday holatni anglash, chuqurroq o‘rganish va bilish «Boshqaruv fani»ning vujudga kelishiga olib keldi.

Boshqaruv faoliyatining dastlabki davrida insonlar o‘z bilim va tajribasiga asoslangan holda ishlab chiqarishni boshqargan bo‘lsalar, asta-sekinlik bilan texnika-texnologiyaning rivojlanishi, ishlab chiqarish sur’atlarining o‘sishi va har xil tashkiliy sharoitlar yuzaga kelishi natijasida faoliyatning mazkur turi ancha murakkablashib bordi.

Boshqaruvning bir qator nazariy va amaliy vazifalari F.U. Teylor tomonidan asoslab berilgan. U boshqarishga «Nima qilish kerakligini, uni eng yaxshi va qulay usulda amalga oshirishni aniq bilish san’ati», - deb ta’rif bergan.

Boshqaruvning ma’nosi va mohiyati, ahamiyati va mazmuni, tamoyillari va usullari to‘g‘risida buyuk olimlar, mutafakkirlar, mutaxassislar juda ko‘p fikr aytishgan va yozib qoldirishgan.

Har qanday boshqaruv o‘z maqsadi va vazifalariga ega. Maqsad — bu, inson faoliyatining avvaldan fikran o‘ylangan natijasidir. Shunga binoan, boshqaruvning maqsadi deganda, boshqaruv sub’ektining oldindan o‘ylangan, mo‘ljallangan, erishish zarur bo‘lgan natijasi tushuniladi. Sanoatda esa, maqsad — ko‘p va sifatli, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va uni o‘z vaqtida sotish hamda mo‘ljallangan foydani olishdir.

Boshqaruv — alohida funksiya bo‘lib, turli-tuman sohalar (mamlakat va uning hududlari, milliy iqtisodiyot va uning tarmoqlari, korxona va uning bo‘limlari) da insonlar ustidan rahbarlik qilish faoliyatidir.


Boshqaruv — tashkilotning maqsadini ifodalash va unga erishish uchun zarur bo‘lgan bashorat qilish, rejalashtirish, tashkil etish, ishtiyoqni uyg‘otish (motivatsiya) va nazorat qilish bo‘yicha faoliyat turi, jarayonidir.

Boshqaruv — shunday faoliyatki, uning yordamida uyushmagan jamoa (haloyiq yoki to‘da) samarali va aniq maqsadga yo‘naltirilgan unumli (barakali) guruhga aylantiriladi.

Boshqaruv — ma’lum jarayonga, organizm va jamoaga maqsadli ta’sir ko‘rsatishni o‘zida ifoda etuvchi ijtimoiy faoliyatning bir turidir.


Boshqaruv — muayyan axborotga asoslangan va mavjud dasturga muvofiq ob’ektning ishlashini, ya’ni faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga yo‘naltirilgan tadbirlar majmuasidir.

4.1 -**rasm. Boshqaruv tushunchasi**[1]




4.2-rasm. Boshqaruvga klassiklar ta’riflari[2]

[1] Muallif ishlanmasi
[2] Muallif ishlanmasi




4.3-rasm. Boshqaruv ma’nosi[1]




4.4-rasm. Menejment tiplari

[1] Muallif ishlanmasi



4.5-rasm. Menejment turlari[1]

Demak, boshqaruv ob'ektiv zaruriyat va maqsadga yo'naltirilgan jarayon hisoblanadi.



4.6-rasm. Boshqaruvning sub'ekti va ob'ekti[2]

[1] Muallif ishlanmasi
[2] Muallif ishlanmasi

Ko‘rinib turibdiki, u holatda ham, bu holatda ham insonlarni boshqarish ularning o‘zi tomonidan amalga oshiriladi. Faqat kishilar, ularning faoliyati, jumladan, mahsulot ishlab chiqarish, xo‘jalik va boshqa jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatlari boshqaruvning predmeti, ya’ni hozirgi zamon menejmentining asosi hisoblanadi. Boshqaruvning sub’ekti va ob’ektisiz menejment fan va xo‘jalik tajribasi sifatida o‘z mazmun va mohiyatini yo‘qotadi.

Albatta, minglab kishilar ishlaydigan sanoat ham bu tushuncha va mulohazalardan xoli emas. Ayniqsa sanoat ishlab chiqarishida «sub’ekt» va «ob’ekt» tushunchalari boshqa tarmoqlarga nisbatan xiyla ravshanroq ko‘rinadi. Bunda vazirlik, kompaniya va aksiyadorlik jamiyatlaridagi boshqaruvchilar korxonadagi boshqaruvchilarga, korxonadagi boshqaruvchilar esa sex, uchastka boshqaruvchilariga rahbarlik qiladilar.

Sanoat ishlab chiqarishida boshqaruvning vazifalari quyidagilardan iborat:

-kelajakni aniq ko‘rmoq (istiqbolni to‘g‘ri bashorat qilish va unga monand bo‘lgan faoliyat dasturini tuzish);

-tashkillashtirmoq (sanoatning ichki, moddiy va ijtimoiy tuzilmasini barpo etish);

-personalni idora qilmoq (sanoat ishlab chiqarish xodimlarini harakatga keltirish);

-kelishish (harakat va tirishqoqlikni bir-biri bilan uyg‘unlashtirish);

-nazorat qilish va kuzatish (joriy etilgan va berilgan buyruq asosida harakatning, ya’ni faoliyatning qanday tarzda bo‘layotganini mushohada qilish).

4.7-rasm. Sanoat ishlab chiqarishida boshqaruvning vazifalari[1]

Boshqaruv funksiyalari ob’ektiv jihatdan zarur va albatta qaytariluvchi xatti-harakatlar majmuasi bo‘lib, mazmuni va yo‘nalish maqsadlarining bir xilligi tufayli birlashib turadi. Boshqaruv funksiyalari butun boshqaruv jarayoni davomida uzluksiz

[1] Muallif ishlanmasi

tarzda amalga oshiriladi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish va bajarishning turli bosqichlarida turli xil salmoqqa ega bo‘ladi.

Amaldagi tasnifga asosan boshqaruvning quyidagi funksiyalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. *Rejalashtirish* – ishlab chiqarishni kengaytirish va korxonaning gullab-yashnashi uchun ishlab chiqarish maqsadlarini belgilash va uning natijalariga erishish.

2. *Istiqbolni belgilash (prognozlashtirish)* – joriy faoliyatni samarali tarzda olib borish hamda istiqbolni ko‘ra olish va boshqaruv tizimini istiqbolga moslashtirish. Rejalashtirishdan farqli ravishda prognozlashtirish ehtimollik tavsifiga ega bo‘ladi.

3. *Tartibga solish* – ishlab chiqarishni, jamoani boshqarishda belgilangan ko‘rsatkichlardan chetga og‘ishlarni to‘g‘rilab borish.

4. *Tashkillashtirish* – kuch-quvvat va vositalarni ishlab chiqarish dasturini minimal xarajatlar asosida va bu xarajatlarning yuqori samaradorligi orqali amalga oshirishga yo‘naltirish, amaldagi tashkilotchilik tizimini yangi yutuqlarga erishish va yangi vazifalarni bajarishga yo‘naltirish.

5. *Nazorat* – joriy ko‘rsatkichlarning belgilangan (dasturiy) vazifa(norma)larga mos kelish darajasini aniqlash.


6. *Hisobga olish* – korxonaning ma’lum bir vaqt davomida bajargan ishlariga yakun yasash.

7. *Tahlil* – ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash hamda ulardan boshqaruvni asoslash va boshqa vazifalari uchun foydalanish.

4.8-rasm. Boshqaruv funksiyalari[1]

4.2. Boshqarishning asosiy tamoyillari va usullari

Boshqaruv tamoyillari deganda, rahbarlik qilishning fundamental qoidalari tushuniladi. Ular iqtisodiy qonunlar harakati va boshqarish usullari bilan bog‘liq bo‘lgan voqeliklarning mohiyatini aks ettiradi.



4.9-rasm. Boshqaruv mexanizmi[2]

[1] Muallif ishlanmasi
[2] Muallif ishlanmasi

Boshqaruv tamoyillarining shakllanishi chuqur tarixiy ildizga ega. Xususan, O‘zbekistonda bu tamoyillar Amir Temur xukmronligi davrida shakllana va rivojlana boshlagan. Buyuk Sohibqiron davlati o‘zining ixcham, tezkor boshqarish devoniga ega bo‘lib, yakkaxonlik, ierarxiya (bo‘ysunish tartibi), bilimdonlik, ilmiy, javobgarlik, demokratiya kabi tamoyillar asosida boshqarilgan.


Bu borada sohibqiron Amir Temurning quyidagi so‘zlarini keltirish o‘rinlidir. «Tajribamdan ko‘rilganki, ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’i tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir. Chunki tajribali bir kishi ming kishiga ish buyuradi».

4.1-jadval[1]

Menejmentning tamoyillari

Tamoyillar	Mazmuni
Demokratiyalash	Ishlarni ommani boshqarishga keng ko‘lamda jalb qilish, kengash va maslahatlar orqali bajarilishini talab qiladi.
Ierarxiya	Boshqarishning pog‘onaligiga asolanadi.
Rejalashtirish	Boshqarish bo‘g‘inlari o‘rtasidagi taraqqiyot nisbatlarini aniqlaydi, shartnomalarning bajarilishini tashkil qiladi va nazorat qiladi.
Yakkahokimlik	Boshqarish tayinlangan shaxs tomonidan bajarilib, unga boshqariladigan ob’ekt, uning mol-mulki, pul mablag‘lari ishonib toshiriladi YAkkahokimlik boshqarishda qatiy tartib va mehnat intizomini ta’minlaydi. Bunda «Ko‘plashib muhokama qilmoq keragu, lekin mas’uliyat yakka bir kishida bo‘lmog‘i kerak» degan tamoyil amal qiladi.
Ilmiylik	Menejerlardan chuqur bilimni, o‘z sohasi bo‘yicha iqtisod, mantiq, ruhiyat, matematika, chet tili, texnologiya kabi fanlarni yaxshi bilishni talab qiladi.
Qayta aloqalar	Topshiriqni berishda «tushundinglarmi?» deb so‘rash etarli emas. Bunday savolga javobgar shaxsdan tasdiqlovchi javobni, topshiriqni to‘g‘ri tushunganligini so‘rash kerak.
Javobgarlik	Bu eng avvalo, boshqaruvchilarning javobgarligini nazarda tutadi. Bajaruvchanlik madaniyati past, mas’uliyatsiz rahbar korxona va xodimlarning sho‘ri. Menejer uchun xuquqiy javobgarlik o‘ta yuqori bo‘lishi kerak.


[1] Muallif ishlanmasi



4.10-rasm. Zamonaviy menejment tamoyillari[1]

F. Teylor ta’limotining asosiy mazmuni - yollanma mehnat unumdorligini oshirishda g‘oyatda samarador va maqbul usullarni izlashdir.

[1] Muallif ishlanmasi



4.11-rasm. F. Teylor tamoyillari[1]

Teylorning zamondoshi va ishining davomchisi amerikalik iqtisodchi **G. Emerson** mehnatni ilmiy tashkil qilish bo‘yicha yirik mutaxassislardan bo‘lib, u boshqarish va mehnatni tashkil qilishning kompleks, sistemali tizimini ishlab chiqqan. Uning «Mehnat unumdorligining 12 tamoyili» nomli asarida yoritilgan.

[1] Muallif ishlanmasi

G. Emerson ilmiy boshqaruv tamoyilini mohiyatiga ko‘ra quyidagi ketma-ketliqda bayon qilgan.
1. Aniq qo‘yilgan maqsad va goyalar.
2. Oqil, sog‘lom fikr.
3. Jozibali, e’tiborli mahsulot.
4. Intizom.
5. Xodimga nisbatan adolatli bo‘lish.
6. Tezkor, ishonchli, to‘liq, aniq va muntazam hrsob-kitob.
7. Dispetcherlash.
8. Me’yorlar va jadvallar.
9. Sharoit bilan ta’minlash.
10. Operatsiyalarni me’yorlash.
11. Standart yo‘riqnomalarni tayyorlash.
12. Unumdorlikni rag‘batlantirish.

4.11-rasm. G. Emerson tamoyillari[1]

Rahbarlik qilishning fundamental qoidalarini amalga oshirish usullari:
tashkiliy-ma’muriy va huquqiy usullar;
iqtisodiy usullar;
ijtimoiy-ruxiy usullar;
tarbiyaviy usullar.

4.12-rasm. Rahbarlik qilishning usullari[2]

[1] Muallif ishlanmasi
[2] Muallif ishlanmasi


4.2-jadval

Anri Fayolning boshqarish tamoyillari[1]

Tamoyillar	Izoh
Mehnat taqsimoti	Ixtisoslashuv natijasida ko‘p miqdorda va yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqariladi. Bunga e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan maqsadlar sonini keskin qisqartirish evaziga erishiladi.
Vakolat va mas’uliyat	Vakolat - bu buyruq berish uchun berilgan huquq Mas’uliyat esa buning aksi. Qaerda vakolat berilgan bo‘lsa, o‘sha erda mas’uliyat vujudga keladi.
Intizom	Intizom rahbar bilan xodim o‘rtasida o‘zaro hurmatni, quloq solishni talab qiladi. shartnomalarning so‘zsiz bajarilishini taqozo etadi.
Yakkaboshlik	Xodim bevosita boshlig‘idan buyruq olishi kerak.
Yo‘nalishning bir xilligi	Yagona maqsad doirasida faoliyat ko‘rsatayotgan har bir guruh, Yagona reja asosida ishlashi va bitta rahbarga ega bo‘lishi kerak.
Shaxsiy manfaatlarni umumiy manfaatga bo‘ysundirish	Alohida xodim yoki guruhning manfaatlari bir-biriga zid kelmasligi kerak.
Xodimlarni taqdirlash	Xodimlarning ishonchini qozonish va ularning hamdardligini oshirish uchun ularga adolat yuza-sidan barcha mehnatiga haq to‘lash lozim.
Markazlashish	Hamma o‘z o‘rnida bo‘lishi va o‘z burchini ado etishi lozim.
Boshqaruvdagi ierarxiya	Bunda quyi daraja yuqoridan nazorat qilinadi va yuqoriga bo‘ysunadi.
Tartib	Hamma o‘z o‘rnida bo‘lishi va o‘z burchini ado etishi lozim.
Adolat	Tashkilotda adolatning xukm surishi - bu qonunning ustuvorligi bilan raxmdillikning uyg‘unlashuvi.
Xodim uchun ish joyining doimiyligi	yuqori darajadagi qo‘nimsizlik tashkilot faoliyati samaradorligini pasaytiradi. O‘z ish joyini mustahkam egasi bo‘lish harakatida bo‘lgan oddiy rahbar bir joyda muqim ishlashni istamaydigan iste’dodli rahbardan ming chandon yaxshi.
Tashabbus	Tashabbus - bu tom ma’noda rejani ishlab chiqish va uning o‘z vaqtida bajarilishini ta’min-lashdir.
Korporativ ruh	Ittifoq - bu kuch. U esa xodimlar o‘rtasidagi hamjihatlikning va manfaatlarning hamohanglashuvi natijasi bo‘lishi mumkin.

[1] Muallif ishlanmasi


Sanoat ishlab chiqarishini boshqarishda ham bir qator umumfalsafiy usullarni qo‘llash mumkin. Sanoatni boshqarishning sir-asrorlarini ilmiy asosda o‘rganish, tahlil qilish maqsadida quyidagi usullardan ham keng foydalaniladi:



4.13-rasm. Sanoat ishlab chiqarishini boshqarishdagi umumfalsafiy usullar

4.3. Sanoat korxonalari tuzilmasini belgilovchi omillar

Tuzilma (struktura) tushunchasini korxonaning tarkibi, tuzilishi sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Korxona qanchalik yirik bo‘lsa, uning ishlab chiqarish tuzilmasi shunchalik murakkab bo‘ladi.



4.14-rasm. Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish tuzilmalari

Texnologik tuzilmali korxonalarda sexlar va ishlab chiqarish uchastkalari texnologik jihatdan bir xillik tamoyili asosida tashkil qilinadi (masalan, to‘qimachilik kombinatlarida yigiruv va to‘quv sexlari).	Predmetli tuzilmaga asoslangan korxonalarda har bir sex ma’lum bir mahsulot yoki uning bir qismini ishlab chiqaradi (masalan, avtomobil zavodida motor sexi, shassi sexi va hokazo).	Aralash (predmetli-texnologik) tuzilma tayyorlov sexlarini texnologik tamoyilda (temirchilik, cho‘yan quyish, po‘lat quyish va hokazo), ishlov berish va mahsulot chiqarish sexlarini esa predmetli tamoyil asosida tashkil etishni ko‘zda tutadi.

4.15-rasm. Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish tuzilmalari tavsifi[1]

Sanoat korxonasining tuzilmasi quyidagi omillar ta’siri ostida shakllanadi:
texnika va texnologiyaning xususiyatlari;
ishlab chiqarish hajmi;
ishlab chiqarishni tashkil qilish shakllari (ixtisoslashtirish, kooperatsiya, kombinatsiya, koordinatsiya);
ishlab chiqarilayotgan mahsulot va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning murakkabligi va nomenklaturasi;
ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, mexanizatsiyalashtirish va robotlashtirish darajasi;
mulk shakli;
raqobat olib borish usullari hamda shakllari va hokazo.

4.16-rasm. Sanoat korxonasining tuzilmasiga ta’sir etuvchi omillar[2]

[1] Muallif ishlanmasi
[2] Muallif ishlanmasi

4.4. Sanoat korxonalarida boshqaruv tuzilmalari shakllari va ularning xususiyatlari

«Tuzilma (tuzilma)» so‘zi elementlar birlashuvini ular orasidagi o‘zaro munosabat va aloqalarni bir butun tizim ekanligini anglatadi.

Tashkiliy tuzilmaga umumiy tavsif berib, uning ahamiyatini belgilovchi bir necha qoidalarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Firmaning tashkiliy tuzilmai menejmentning barcha vazifalarini muvofiqlashtiruvini ta’minlaydi.
2. Tashkiliy tuzilma boshqaruv darajasining xuquq va javobgarliklarini aniq belgilaydi.
3. Tashkiliy tuzilmaga firmaning samarali faoliyati, uning davomiy rivojlanishi bevosita boshliqning vazifasidir.
4. Firmada qabul qilingan tartib xizmatchilarning tashkiliy aloqalarini belgilaydi shu bilan menejmentning uslubi va jamoaning sifatini aniqlaydi.

4.17-rasm. Tashkiliy tuzilmaning ahamiyatini belgilovchi qoidalar[1]

Tashkiliy tuzilma asosan uch qismni birlashuvi orqali aniqlanadi: murakkablik, rasmiylik va markazlanish.

MURAK-KABLIK
- har xil turdagi boshqaruv faoliyatini bir tekis taqsimlanmaslik darajasini bildiradi, shu jumladan, uning vazifalarini ham. Notekis taqsimlanish qanchalik yuqori darajada bo‘lsa, firmaning tashkiliy tuzilmai shuncha murakkab bo‘ladi.


RASMIY AT-CHILIK
- boshqaruv joyida va muolajalarining bir turlari darajasi bilan aniqlanadi.

MARKAZ-LANISH
- bunda asosan tashkiliy tuzilmada boshqaruvning makarzlanish darajasi tushuniladi. U menejmentning qaysi darajasida qarorlar qabul qilinishiga bog‘liq.

4.18-rasm. Tashkiliy tuzilmaning uch qismi[2]

[1] Muallif ishlanmasi
[2] Muallif ishlanmasi

Ularning barchasi ko‘rsatilgan qismlarning namoyon bo‘lish darajasi asosida ikkita guruhga bo‘linadi: mexanik va organik tuzilmaga.



4.19-rasm. Menejmentning tashkiliy tuzilma turlari[1]

[1] Muallif ishlanmasi

4.5. Sanoatda boshqaruvning zamonaviy yangi organik tarkibiy shakllari

Guruhli (brigadali) tashkiliy tarkib. Bu tarkibni asosiy turlari yuqoridagi loyiha tarkibining ko‘rinishida tavsiflangan. Ammo uning bir qancha turlari mavjudki, u yoki bu darajada klassik loyiha tarkibidan birmuncha farq qiladi.

Brigadani tashkil etilish shakli asosan ishlab chiqarishga taalluqlidir. U o‘zini ishchi markaz qilib, «katakli» tarkibdan tashkil topgan. Oddiy ishlab chiqarish markazida ish konveyer rejimida (tartibida) vazifaviy mehnat taqsimotida tayyorlash, ishlov berish, yig‘ish, sinov ishlari va boshqalar bajariladi. Asosan har bir ishchi o‘z ixtisosligi bo‘yicha bir yoki ikki xildagi operatsiyani bajaradi. Ikki markazni katakli tuzishda barcha zaruriy texnika tizimini bir joyga to‘plagan bo‘lib, barcha brigada a’zolari mahsulotni ishlab chiqarishda ishtirok etadilar, ya’ni bosh bochqichdan oxirgi bosqichgacha.

Brigadali tarkib ko‘proq iqtisod nuqtai nazaridan ishlab chiqarishning bir sexdan ikkinchi sexga uzatish vaqtini kamayish (foydaliroq hisobalanadi) va brigada ichidagi muammo va qiyinchiliklarni tezkor echish imkonining mavjudligi foydaliroq hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda deyarli barcha g‘arbiy korporatsiyalar o‘z tashkiliy tarkiblarga bu kabi avtonom markazlarni boshqaruv tashkilotlari uchun o‘ta tavsiflidir.

Firma ichidagi venchurli va innovatsion tarkiblar . Loyihali (dasturli, maqsadli) tashkiliy tarkibning zamonaviy o‘zgargan turi bu venchurli va innovatsion tarkiblardir. Bu xildagi ikkala nom ham ma’lum darajada biri-biri bilan sinonimdir. Ingliz so‘zi «venture» - tavakkalli ish, tavakkalli korxona ma’nolarini bildiradi. Qoida bo‘yicha tavakkalli biznesda innovatsiyalar ishlanishi, ya’ni tamoyilial yangi texnologiyalar, tovarlar yoki xizmatlar bilan o‘zaro bog‘liq.

Innovatsion (venchur) firma ichidagi bo‘linmalarning turlari

Yirik firmalarda innovatsion tarkibi bir qator omillarga ko‘ra bir necha turlarga ega: ishlayotgan loyihaning ahamiyati, ularning maqsadli yo‘nalishi va murakkabligi, faoliyatning shakllanishi va erkinlik darajasi.

1. YAngi mahsulotning yaratuvchi bo‘lim mohiyatiga ko‘ra loyiha mahsulot tarkibidir. Bo‘lim firma uchun strategik ahamiyatga ega yangiliklarni yaratish va kiritish uchun bunyod etiladi. Innovatsion bo‘limlardagi ishlovchilar bo‘lim rejasiga kiritilmaydilar. U bevosita korporatsiyaning shtab kvartirasiga bo‘ysunadi.

2. Bevosita integratsiya. Bu ham strategik ahamiyatga ega bo‘lgan yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishdir. shu bilan birga innovatsiya asosi ishlab chiqarish faoliyati bilan ham bevosita bog‘liqdir. Uning ustida muvaffaqiyatli ish bajarish uchun texnologik, konstruktorlik va boshqa turdagi xizmatlar turadi. shunday qilib, yangilik yaratish va uni amalda qo‘llash firma boshqaruvi tizimida integratsiya qilinadi. Tabiiyki, faoliyatning yangi tashabbusli turining paydo bo‘lishi tashkilotga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

4.6. Boshqarishning tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari

Boshqaruv tuzilmaiga qo‘yiladigan talablar va ularni belgilovchi omillar mavjud bo‘lib, g‘arbiy menejment nazariyasida uchta guruhga ajratib ko‘rsatish mumkin. Ularni quyidagi jadvalda berilgan.

4.3-jadval

Tashkiliy tuzilma tanlashda ta’sir ko‘rsatuvchi omillar[1]

Ichki	Tashqi	Umumiy
1. Murakkablik	1. Tashkilot strategiyasi	1. Hukmronlik va nazorat samarasi
2. Rasmiyatchilik	2.Tashkilot o‘lchami	2. Axborot jarayonlari kompyuterlashtirish
3. Markazlashtirish	3. Texnologiya (mahsulot)	
4. Boshqarish jarayoni	4. Tashqi muhit	

G‘arbiy adabiyotlarda «Tuzilmani takomillashtirish» termini qoida bo‘yicha ishlatilmaydi. Bu tushuncha neytralroq so‘zlar bilan, masalan: tuzilmani o‘zgartirish, tuzilmani almashtirish, tuzilmani tanlash, integratsiya qilish va boshqalar bilan beriladi. Ko‘rib turibmizki, ular o‘zlarida turdi tashkilot boshqaruv tuzilmaini takomillashuv darajasini olib yubordilar.

Boshqaruv tuzilmasining qayta tashkil qilishning usullari shakllari turli-tumandir. Ularni bir necha yo‘nalishlarga jamlash mumkin:

1. Tuzilmani ichki oddiylashtirishlar hisobiga takomillashtirish.
2. Mexanik turdagi tuzilmani ko‘nikish tuzilmaiga almashtirish.
3. Amaldagi mexanik tuzilmalarni organik tuzilmalar bilan birlashtirish.
4. Konglomerat tuzilmani yaratish.
5. Kelajakdagi mumkin bo‘lgan tuzilmalar modeli va avtokratik tashkilotlar.

«Tuzilmani takomillashtirish» yo‘nalishlari:

1. Tarkibni oddiylashtirish hisobiga takomillashtirish. Bu muntazam tarkiblarni boshqaruv saviyalari sonini kamaytirish hisobiga almashtirish. Bu muntazam tarkiblarni boshqaruv saviyalari sonini kamaytirish hisobiga yassiroq tarkiblarni aylantirish.

2. Mexanik turdagi tarkibni ko‘nikish tarkibiga almashtirish. Bu menejment tarkibini qayta ko‘rishni ko‘proq radikal usulidir. Uni firmaning favquloddagi hollarda, uning hayotiy faoliyatiga xuruj qilishganda ishlatadilar. Avval ta’kidlaganimizdek, shunday qayta ko‘rish uchun kuchli sardor komandasi kerak.

3. Mexanik tarkiblar ichida har xil shakldagi organik tarkiblarni bunyod etish. Bular venchur, innovatsiya bo‘limlari, biznes markazlar, brigada tarkiblari, ekspert guruhlarini bunyod etilishi kerak. Taraqqiyot topgan davlatlarning hozirgi zamon

[1] Muallif ishlanmasi

menejmenti ularning zarurligini, firmaning samarali faoliyati uchun birlamchi sharoiti hisoblanadi.

4. Konglomerat tarkibni tashkil etish. «Konglomerat» tushunchasi har xil turdagi elementlarni birlashtirishini birdiradi.

5. Modelli va avtokratik tashkilotlar - ular balki kelajak tarkiblaridir.

Qisqacha xulosalar

Yirik miqyosda amalga oshiriladigan, har qanday to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat, amaldagi ishlab chiqarish u yoki bu darajada boshqaruvga muhtojdir. Shu sababli boshqaruv ob’ektiv zaruriyat va maqsadga yo‘naltirilgan jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Respublika sanoatiga rahbarlik qilish O‘zbekiston davlatining iqtisodiy strategiyasiga asoslanadi va unga muvofiq amalga oshiriladi.

Boshqaruvning asosiy tamoyillari va usullari mavjud bo‘lib, ular jamiyat taraqqiyotining turli ob’ektlarida turlicha bo‘lishi mumkin. Ularning oqilona va izchil hamda bosqichma-bosqich amalga oshirish sanoat ishlab chiqarishi taraqiyotini jadallashtirishga olib keladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Boshqaruvning mohiyati, ahamiyati, zaruriyati, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Boshqaruvning bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos va xos tamoyillari va usullari-chi?
3. Sanoat boshqaruvining hozir ahvoli qanday?
4. Boshqaruvning istiqboli hamda uni iqtisodiy o‘sish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yo‘naltirish nimalarni taqazo etadi?
5. Boshqaruvda xorijiy mamlakatlar tajribasi va undan keng foydalanish nima uchun zarur?

Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro`yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida» gi №PF-4947 sonli Farmoni. //Xalq so’zi. 2017 yil 8 fevral.

2. Sh. M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak . Tashkent : O‘zbekiston, 2017 y.,104 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.//Xalq so‘zi, 23 dekabr, 2017 yil

4. Tirole, Jean (Tir) The Theory of Industrial Organization. MIT Press, 1992.

5. Church J., and R.Ware. (CW) Industrial Organization. A Strategic Approach. Irwin. 2000.

6. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.:”Sano-standart”, 2014.-304 b.

7. www.webofscience.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi

8. www.search.ebscohost.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi

5-BOB. SANOAT ISHLAB CHIQARISHINING IQTISODIY VA IJTIMOIY SAMARADORLIGI

5.1. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida ishlab chiqarishining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini ta’minlashning ahamiyati.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida davlatning iqtisodiy strategiyasi uzoq vaqtga mo‘ljallangan fundamental maqsadlarni o‘rtaga qo‘yish bilan bir qatorda, bu maqsadlarga erishish vositalari, yo‘llarini belgilashni ham o‘z ichiga oladi. Bular orasida ishlab chiqarish samaradorligini to‘xtovsiz oshirib borish asosiy o‘rinda turadi.

O‘zbekiston davlatining qudratini mustahkamlash, aholining moddiy va ma’naviy ne’matlarga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘laroq qondirish, kalajakda esa, ularni mo‘l-ko‘l yaratish, iqtisodiy va ilmiy-texnika sohasida eng rivojlangan davlatlar qatoridan joy olish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga bevosita bog‘liqdir.

Mustaqillikka erishilganligi, qudratli iqtisodiy va ilmiy-texnik salohiyat yaratilayotganligi, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarning takomillashayotganligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalarini birinchi o‘ringa qo‘ydi. Binobarin, Respublika Prezidentining ma’ruza va nutqlarida, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida ishlab chiqarishning, jumladan, sanoat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning mohiyati va ahamiyati, dolzarb muammolari, iqtisodiyotni ekstensiv va intensiv taraqqiyot yo‘liga o‘tkazish munosabati bilan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar chuqur va har tomonlama tahlil etib berilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasida samaradorlik masalalariga alohida e’tibor qaratilib, “Iqtisodiyot – bu hisob-kitob degani. Eng yomoni, istiqbolli yirik loyihalarni belgilash va amalga oshirishda jiddiy xatoliklarga yo‘l qo‘yilgani, xorijiy kreditlar samarasiz ishlarga sarflangani iqtisodiyot rivojiga xalaqit bermoqda.”-deb ta’kidlandi[1].

Ma’lumki, ishlab chiqarishni rivojlantirishda ikki xil omil: miqdor va sifat, ekstensiv va intensiv, ya’ni kengaytiruvchi (uzaytiruvchi) va zo‘r beruvchi, kuchaytiruvchi omillar harakatda bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, agar ishlab chiqarish sohasi kengaytirilsa, ekstensiv suratda kengaygan takror ishlab chiqarish bo‘ladi; agar yana ham ko‘proq samara beradigan ishlab chiqarish vositalari qo‘llaniladigan bo‘lsa, intensiv suratda kengaygan takror ishlab chiqarish yuzaga keladi.

O‘zbekiston sanoatida ana shu ikki yo‘ldan oqilona foydalanish natijasida ishlab chiqarishning samaradorligi bosqichma-bosqich o‘sib bormoqda.

Samaradorlik eng ko‘p uchraydigan umumiy tushunchalardan biri bo‘lib, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning xilma-xil sohalarida juda keng ishlatiladi. Masalan, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat samaradorligi, o‘qish va o‘qitish samaradorligi, davolash va davolanish samaradorligi, qabul qilingan qonun va qoidalar hamda yechimlarning samaradorligi va hokazolar.

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so‘zi, 23 dekabr 2017 yil.

Samaradorlik sanoat ishlab chiqarish faoliyatining «ko‘zgusi» **h**isoblanadi. Bu «ko‘zguda» ishlab chiqarishning barcha natijalarini ko‘rish mumkin. Ma’lumki, har bir tarmoq, korxona, qolaversa, har bir shaxs o‘zishlab chiqarish faoliyatida maksimum foyda olishga intiladi. Buning uchun ma’lum xarajatlar qiladi. Ana shu foyda bilan harajatlar o‘rtasidagi farq tarmoq va korxona faoliyatining «ko‘zgusi» bo‘lgan samaradorlikda ko‘zga tashlanadi. Ishlab chiqarishning eng yuqori samaradorligi ishlab chiqarish xarajatlarini minimum darajaga keltirishdan iborat.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida samaradorlikning alohida o‘rni mavjud. Bozor iqtisodiyoti natijalilikni, foydalilikni taqazo etadi. Tartibli bozorga asoslangan iqtisodiyotda eng kam resurs sarflab, ko‘p natijaga erishish zarur. Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida 5 turdagi resurslar tizimi harakatda bo‘ladi: a) moddiy resurslar; b) mehnat resurslari; v) moliyaviy resurslar; g) energetik resurslar; d) axborot resurslari; ya’ni informatsion resurslar. Mana shu resurslardan oqilona foydalanib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin. Bunday faoliyat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘nalishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Samaradorlikni butun iqtisodiyotdagi, uning tarmoqlari va sohalaridagi muammolarining dolzarbligi bir qator ilmiy-nazariy va amaliy masalalarni hal qilishni talab qiladi. Ushbu masalalar qatoriga, bizning fikrimizcha quyidagilarni kiritish mumkin:

- samaradorlikning mohiyati va tushunchasi;
- samaradorlik turlarining (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik, texnik-texnologik, jamiyat, hudud, korxona miqyosidagi kabilar) o‘zaro bog‘liqligi, farqlari, bir-biriga ta’sir qilish miqdorlarini aniqlash;
- samaradorlik mezonlarining mohiyati, tushunchasi, belgilarini asoslab berish;
- samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash, bir tizimli holatga keltirish;
- samaradorlik ko‘rsatkichlarini tanlangan ob’ekt doirasida tadqiqot qilish, ularning o‘zgarish tendensiyalarini aniqlash;
- samaradorlikni oshirishning yo‘llarini aniqlash va bashorat qilish kabilar.

Yuqorida keltirilgan masalalar bo‘yicha iqtisodiy adabiyotlarda ko‘plab qarashlar mavjud bo‘lib, ular asosan alternativ xarakterga ega. Ularning umumiy tomoni samaradorlik nisbiy ko‘rsatkich hisoblanib, uni «xarajat» va «natijani» solishtirish orqali aniqlashni tavsiya qilishadi.

B.A.Abdukarimov va boshqalar muallifligidagi “Korxona iqtisodiyoti” darsligida “samaradorlikka bunday bir tomonlama yondoshish muammoli masala bo‘lib, samaradorlikni mohiyati, tushunchasi, mezoni va ko‘rsatkichlarini ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqot qilishda sistemali, keng ma’noda, har tomonlama qarash zarur”-deb ta’kidlanadi[1].

O‘zbek tilining izohli lug‘atida «samara», «samarador», «samaradorlik», «samarali» so‘zlari keltirilib, ularga izoh berilgan. Unda yozilishicha «samara» - natija, oqibat. «Samarador» - kutilganicha yoki undan ham ortiq samara beradigan; samarali, sermahsul. «Samaradorlik» - iqtisodiy samaradorlik. Mehnat samaradorligini oshirmoq. «Samarali» - samarali ish. Samarali mehnat. Samarali

[1]B.A. Adukarimov va boshq. Korxona iqtisodiyoti. Darslik. – T.: «Fan va texnologiya», 2012, – 368 bet.

ta’sir ko‘rsatmoq. Ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanmoq deb ta’kidlangan[1].

Ishlatilayotgan so‘z, atama (termin)ning asl mazmunidan kelib chiqadigan bo‘lsak, samaradorlik, u qaysi turda bo‘lishidan qat’iy nazar, inson faoliyatining «natijasini» anglatadi.

“Samara”, “samaradorlik”, “ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik” kabi tushunchalarning orasidagi farqni anglab olish zarur.

Professor E.X.Maxmudovning ta’kidlashicha «**Samara** – bu, ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat), foyda va daromad hajmini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishni kamaytirish yoki umuman, yo‘q qilish bilan bog‘liq bo‘lgan korxona faoliyatining ijobiy natijalaridir. Bu yutuqlar natural shaklda *ishlab chiqarish samarasini*, pul shaklida esa *iqtisodiy samarani* tavsiflaydi[2].

Samara – bu, ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat), foyda va daromad hajmini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishni kamaytirish yoki umuman, yo‘q qilish bilan bog‘liq bo‘lgan korxona faoliyatining ijobiy natijalaridir. Bu yutuqlar natural shaklda *ishlab chiqarish samarasini*, pul shaklida esa *iqtisodiy samarani* tavsiflaydi.

Samaradorlik, avvalo, korxona faoliyatining sifat jihatlarini tavsiflovchi tushunchadir. U “samara” toifasidan kelib chiqadi hamda unga qaraganda murakkab va kompleks tavsifga ega.

Samaradorlik chora sifatida ko‘plab texnik, iqtisodiy, loyiha va xo‘jalik qarorlarini avvaldan belgilab beradi. Korxona o‘zining xo‘jalik, ilmiy-texnik va investitsion siyosatini belgilashda samaradorlikdan kelib chiqadi.

Iqtisodiy samaradorlik samaradorlikka qaraganda bir muncha tor ma’noni anglatadi. U qabul qilinayotgan qarorlarning xo‘jalik yuritishda maqsadga muvofiqligini tavsiflaydi hamda barcha hollarda samaraning unga erishish uchun ketgan xarajatlar(ishlab chiqarish resurslari)ga nisbati sifatida aniqlanadi. Xarajatlar qanchalik kam bo‘lsa (mahsulot sifatiga ta’sir qilmagan holda), samara shunchalik ortadi, demak, iqtisodiy samaradorlik ham ortadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish samaradorligini mehnat sharoitlarini, uning ijodkorlik mazmunini boyitish, aqliy va jismoniy mehnat o‘rtasidagi farqni yo‘qotishni inobatga olgan holda tavsiflaydi.Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik bir vaqtning o‘zida, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish, korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va uning barcha qobiliyatlaridan foydalanishning sabab va natijasi hisoblanadi. Bevosita ijtimoiy samara, xodimlarning bilim va malakasi, tajriba va madaniyatining o‘sishi, aholi sog‘lig‘ining yaxshilanishi va umr ko‘rishining uzayishida aks ettiriladi.

Ishlab chiqarish samaradorligi ijtimoiy samaradorlikka nisbatan birlamchi hisoblanadi: iqtisodiy yutuqlar korxonaning ijtimoiy muammolarini hal qilishga

[1] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. M.: «Rus tili» nashriyoti. 1981. – B.17

2Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. –T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006, – 208 b.

yordamlashadi. Masalan, foydaning o‘sishi, jamg‘armalarning ortishi korxonaga ijtimoiy vazifalar doirasini kengaytirish va ularni hal qilish imkonini beradi.

Samaradorlik to‘g‘risida fikr yuritilganda shuni ta’kidlash kerakki, har qanday chora-tadbirlar bir tomondan ham iqtisodiy, ham ijtimoiy samara bersa, ikkinchi tomondan iqtisodiy samara berib, har doim, har sohada ijobiy, ijtimoiy natija bermasligi mumkin.

Ishlab chiqarishni takomillashtirish, uni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish natijasida aholining moddiy faravonligini yuksaltirishga, ya’ni ijtimoiy samarani oshirishga, davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosati – minimal ish haqini oshirish, ijtimoiy fondlardan imtiyozlar berish, o‘sib kelayotgan yoshlarni tarbiyalash, kadrlar tayyorlash, sog‘liqni saqlash, ekologiyani yaxshilash, jismoniy tarbiyaga yo‘naltirilgan xarajatlar oxir natijada mehnat unumdorligini oshirishga, YaIMni ko‘payishiga, ya’ni iqtisodiy samarani oshirishga olib keladi.

Ayrim tadbirlar natijasida esa teskari holatlarni kuzatish mumkin. Masalan, davlat miqyosida uzoq muddatga milliy daromadni jamg‘arma va iste’mol fondlariga taqsimlashda jamg‘arma fondi hissasi doimo oshirib borilsa, oxir natijada aholining moddiy faravonlik darajasi pasayish holatiga olib kelishi muqarrar. Bu esa salbiy ijtimoiy holatlarni vujudga keltiradi. Yana bir misol, agar davlat budjetini daromad qismini oshirish niyatida kommunal xizmatlarga, elektroenergiyaga, gazga va neft mahsulotlariga ta’riflar asossiz oshirilsa, bu aholini real daromadlarini kamayishiga va ijtimoiy va siyosiy talofatlarga olib kelishi mumkin.

Shu sababli samaradorlikni tadqiqot qilish, uning natijasiga kompleks qarashlar orqali va natijalarni bir-biri bilan bog‘liqligini e’tiborga olgan holda amalga oshirilishi zarur. Ya’ni samaradorlikni barcha turlarining (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik va boshqa bir-birining natijasidan bog‘liq bo‘lgan) o‘zaro bog‘liqligini hisobga olgan holda o‘rganish ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asosli bo‘ladi. Xuddi shunday qarashlar samaradorlik mezonlari va ko‘rsatkichlarini tanlashda ham amal qilinishi zarur.

Ilmiy-nazariy nuqtai-nazardan samaradorlikni uchta yirik guruhga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: birinchidan, jamiyat miqyosida; ikkinchidan, xududlar miqyosida; uchinchidan, xo‘jalik tuzilmalari, sub’ektlari miqyosida (konsern; xolding; assotsiatsiyalar; har xil boshqa birlashmalar; korxonalar; muassasalar va h.k.).

Ushbu umumiy yo‘nalishlar ichida samaradorlikni turlarga ajratib tadqiqot qilish zarur. Samaradorlik turlarini umumiy va funksional nuqtai nazardan tasniflash mumkin.

Umumiy samaradorlikka: «ijtimoiy-iqtisodiy»; «iqtisodiy»; «ijtimoiy»; «siyosiy»; «texnik-texnologik»; «ekologik» kabilarni kiritish mumkin.

Funksional samaradorlikka: «ijtimoiy ishlab chiqarish»; «transport»; «aloqa»; «savdo»; «umumiy ovqatlanish»; «maishiy xizmat»; «turizm» va boshqa iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari. Ushbu guruhga iqtisodiyotni harakatga keltirayotgan omillarning samaradorligi, ya’ni yer, kapital, mehnat samaradorligi kiradi. Ushbu omillar ichida ishlatilayotgan resurslar turlari bo‘yicha ham samaradorlik tasniflanishi mumkin.

Biz yuqorida keltirganimizdek, iqtisodiy adabiyotlarda samaradorlikning

mohiyati, tushunchasiga ko‘plab har xil qarashlar mavjudligi kabi, uning har xil mezonlari va ko‘rsatkichlari tasnif qilinadi. Ko‘pchilik mualliflar samaradorlik nisbiy ko‘rsatkich deb ta’kidlab, u olingan (erishilgan) natija bilan xarajatlar nisbati orqali aniqlanishini tavsiya qilishadi.

Bizning fikrimizcha «samara», «natija» o‘z tabiatiga binoan son va sifat ko‘rsatkichlarida ifodalanadi. Son ko‘rsatkichlar sifatida absolyut miqdorlar – qiymat, natural va shartli o‘lchov birliklarida ifodalansa, sifat ko‘rsatkichlari sifatida har xil solishtirma, ya’ni nisbiy ko‘rsatkichlar ishlatilishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlarini asoslash uchun ayrim amaliy misollar keltiramiz.

- ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, yangi progressiv texnika va texnologiyalarni har qanday tarmoq, soha va korxonalarga joriy qilinishi ular faoliyatining hajmini, mehnat unumdorligini, ish haqini oshirishga olib keladi va boshqa ko‘rsatkichlarning ijobiy o‘zgarishlarini ta’minlaydi. Ushbu ko‘rsatkichlarning absolyut miqdorini ortishi xo‘jalik faoliyatining samarasini ifodalaydi;
- transport vositalarining modernizatsiyalanishi, ularning tezligini yuqorilanishi, komfort sharoitlarni yaratilishi natijasida transport xo‘jaliklarining miqdor ko‘rsatkichlarini ortishiga (pasajirlar sonini ortishi, yuk tashish hajmini ortishiga, daromadni ko‘payishi, xarajatlarni kamayishi) va sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilanishiga (rentabelligini ortishi, yo‘l bosishdan foydalanish koeffitsiyenti, yuk ko‘tarish koeffitsiyenti, yo‘l yurishning o‘rtacha tezligi) olib keladi. Bular tabiati bo‘yicha transport vositalarining samaradorligi natijasini ifoda qiladi;
- savdo, umumiy ovqatlanish va boshqa xizmat sohasi korxonalarida xizmatni progressiv shakllarini joriy etilishi ularning iqtisodiy, ijtimoiy samaradorligini va boshqa ko‘rsatkichlaridan foydalanishning samarasini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, iqtisodiyotning har qanday tarmog‘i va sohasini misolga olmang, ilmiy-texnik progress natijasida faoliyat natijasi miqdorini ortishi, daromadini ko‘payishi, xarajatlarni qisqarishi va boshqa ijobiy ijtimoiy xodisalarni ro‘y berishini kuzatish mumkin.

Yuqorida keltirilgan misollar samaradorlik kategoriyasini, uning mezonlarini va ko‘rsatkichlarini keng ma’noda tadqiqot etish zarur ekanligiga ishonchimizni oshiradi.

Shu sababli bizning fikrimizcha, har qanday samaradorlik, har qanday tarmoq, soha faoliyati, korxona faoliyati samaradorligi bo‘lishidan qat’iy nazar absolyut miqdorlarda (qiymat, natural, shartli birliklarida) va nisbiy (koeffitsiyentlar, indekslar, foizlar) ko‘rsatkichlar orqali aniqlanishi lozim.

5.2. Ishlab chiqarish samaradorlignning mohiyati, mezoni va ko‘rsatkichlari. Xarajatlarning umumiy va qiyosiy samaradorligi

Mezon masalasi iqtisodiy samaradorlik nazariyasining eng muhim sohasi hisoblanadi. Falsafiy ma’noda mezon-bu, asosiy o‘lchov, muhimfarqli belgi, asosiy nuqtai nazardir. Shular asosidagina u yoki bu sohadagi bizning bilimlarimizning ob’ektiv haqiqatligini, to‘g‘riliginiva ishonchliligini aniqlash, haqiqatni anglashmovchiliklardan farqqilish mumkin.

Ishlab chiqarishning asosiy maqsadiga erishish uchun barcha resurslardan oqilona foydalanish, tayyorlanadigan mahsulotning har bir birligiga sarflanadigan harajatlarni kamaytirish kerak. Demak, samarani o‘lchaganda mezon sifatida jami ijtimoiy mehnatni tejash, uning unumdorligini oshirish qabul etiladi.

«Kriteriya» so‘zi grekcha «Kriterion» so‘zidan olingan bo‘lib, uning asosida nimagadir baho berish alomati, nimadir aniqlanishi yoki tasnifi, o‘lchovi degan ma’noni bildiradi[1]. «Kriteriya» atamasining o‘zbekcha ma’nosi «mezon» so‘zini anglatadi.

Mezonni xodisalar, jarayonlar, holat va boshqalarni sifat mazmunini o‘lchovi, ular to‘g‘risidagi fikrning alomati deb tushunish lozim. Uning son o‘lchovlari ko‘rsatkichlarda o‘z aksini topadi.

Korxonaning samaradorlik mezoni to‘g‘risida fikr yuritganda tizimli tahlil, tizimli munosabatni ishlatish lozim. Samaradorlik mezoni xodisalar, jarayonlar va holatni sifat belgisi sifatida tizimni, tarmoqni yoki korxonani faoliyat yuritishining maqsadini aks ettirishi zarur.

Samaradorlikning mohiyati, mezoni va ko‘rsatkichlarini aholi iste’mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar misolida ko‘rib chiqamiz.

Sanoat korxonalarining maqsadi ikki tomonlama xarakterga ega bo‘lib, bir tomondan, aholining iste’mol tovarlariga bo‘lgan talabini to‘laroq qondirish bo‘lsa, ikkinchi tomondan optimal miqdorda foyda olish yoki optimal rentabellikka erishishdir.

Ushbu ko‘rsatkichlarni maksimallashtirish korxona samaradorligining mezoni bo‘lib hisoblanadi.

Xorijiy davlatlar tajribasidan shunday xulosa qilish mumkin: bosh maqsad eng yuqori iqtisodiy natijaga erishish, ya’ni maksimal foyda olish. Ushbu maqsadga erishish vositasi sifatida aholini iste’mol tovarlarga talabini to‘laroq qondirish hisoblanadi. Ushbu maqsad va unga erishish vositasi o‘rtasida sabab va oqibat aloqalari yotadi. Sabab o‘zaro ta’sir bo‘lsa, oqibat – bu o‘zaro ta’sir natijasidir. Bunday holatdan kelib chiqsak sabab aholining iste’mol tovarlariga bo‘lgan talabini qondirish bo‘lsa, natija maksimal (yoki optimal) foyda olish bo‘lib hisoblanadi.

Shunday qilib, yuqori foyda olishni ta’minlovchi sabab sifatida aholining iste’mol tovarlariga bo‘lgan talabini qondirish hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan nazariy xulosalardan kelib chiqsak, savdo sohasi, korxonasi samaradorligining o‘lchov birligi sifatida ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur ekanligini asoslamoqda.

Korxonaning samaradorligini o‘lchash va baholashni quyidagi alomatlar bo‘yicha guruhlash zarur:

birinchidan, umuman milliy iqtisodiyot manfaati nuqtai nazaridan;

ikkinchidan, iste’molchi (aholi) manfaati nuqtai nazaridan;

uchinchidan, korxona (mulkdor, boshqaruv xodimlari hamda ishchilar) manfaati nuqtai nazaridan.

[1] Словарь иностранных слов. М.: Русский язык. 1985. С. 262.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik - chegaralangan resurslardan oqilona foydalangan holda erishilgan, aholining ijtimoiy iqtisodiy iste'mol darajasini yuksaltirishdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarning qondirilishi - inson kamolotining yuksalishi, moddiy va ijtimoiy farovonligining o'sishi, madaniy va ma'naviy jihatdan rivojlanishida ko'rinadi. Inson farovonligi hamda kamoloti naqadar yuksalsa, shu qadar yuqori ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikga erishgan bo'ladi.

Ishlab chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi uning pirovard maqsad natijasida o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik tarkibida iqtisodiy samaradorlik alohida e'tiborga ega.

Iqtisodiy samara ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan iqtisodiy ne'matlar hajmi bilan ifodalanadi. Iqtisodiy samaradorlikning mezoni xarajatlar bilan erishilgan iqtisodiy ne'matlar munosabatidir. Ishlab chiqarish jarayonida omillar (er, kapital, mehnat, tadbirkorlik) xarajat qilinadi va uning natijasida ma'lum miqdordagi ne'matlar yaratiladi. Xarajat bilan natijani taqqoslash orqali iqtisodiy samaradorlik ifodalanadi.

Ishlab chiqarishning natijasi ijtimoiy samaradorlik orqali ham ifodalanadi. Korxonaning ijtimoiy samaradorligi mezoni iste'molchilarni ehtiyojlarini qondirilish darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy samaradorlikning ko'rsatkichlari aholining daromadlar miqdori, ish bilan bandligi, salomatligini saqlash, mehnat malakasini yuksaltirish, madaniy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, bo'sh vaqtlari kabilarni aniqlash bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi - murakkab kategoriyadir. Unda ishlab chiqarish natijalariga hamda, xarajatlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar mujassamlangandir. Unda ishlab chiqarish natijalarining o'sishi, mahsulot sifatining yaxshilanishi hamda mahsulot assortimenti tuzilishining ijtimoiy ehtiyojlar tuzilishiga to'g'ri kelishida o'zining aksini topadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi o'sishining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

* Mahsulot sifati va tarkibining yaxshilanishi;
* Jonli mehnat unumdorligining o'sishi;
* Material sarfining kamayishi;
* Fond samarasining oshishi.

Samaradorlik - bu, foydalilik, natijalilikdir. Ma'lumki, qandaydir natija olish uchun mehnat qilish, ishlash, mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish va ma'lum miqdorda xarajat qilish kerak.

Samaradorlikni aniqlash uchun natijani shu natijaga erishishga sarflangan xarajatlar yoki resurslar bilan taqqoslash kerak. Demak, samaradorlik ishlab chiqarish faoliyati natijalari bilan ularga erishish uchun sarflangan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarning o'zaro nisbatidir.

S = natija/ xarajatlar = natija/ mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar

Ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini farqlaydilar. Samaradorlikni iqtisodiy va ijtimoiy turlarga bo'lish shartli bo'linish hisoblanadi.

Moddiy ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan va mehnat xarajatlari bilan bog‘liq bo‘lgan natijalarning hammasini iqtisodiy va ma’lum ma’noda, ijtimoiy samara deb aytish mumkin.

Bu yerda: shuni eslatib o‘tish kerakki, iqtisodiy va ijtimoiy tushunchalarning sun’iy bo‘lishi haqida bahslashish mumkin. Lekin, iqtisod ijtimoiy hayotdan tashqarida bo‘lmagani kabi, ijtimoiy hayot ham iqtisodsiz bo‘lmaydi. Demak, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Chunki amalga oshirilgan har bir ish ayni vaqtda ham iqtisodiy, ham ijtimoiy samara keltiradi.

Iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarishning iqtisodiy natijasini ko‘rsatadi. Masalan, mahsulot ishlab chiqarish — boshqaruv, yangi texnika va texnologiyani joriy etish, mehnat sifatini oshirish va hokazolarning natijasi. Iqtisodiy samara — material, mehnat, pul va boshqa resurslarni tejash tufayli erishilgan miqdor. U vaqtni tejash, qurilish muddatlarini qisqartirish, mehnat sarfini tejash ish vaqtining zoye ketishini kamaytirish, mablag‘lar oborotini tezlashtirish, mahsulot yetishtirish hajmini o‘stirish, ishlar sifatini yaxshilash va boshqa natijalar bilan tavsiflanadi.

Ijtimoiy samaradorlik shaxsning har tomonlama kamol topishiga yordam beradigan tadbirlarni amalga oshirish samaradorligini ifodalaydi. U mehnat va turmush sharoitlari yaxshilanishida, xodimlar malakasini oshirishda aks etadi va asosiy oziq-ovqat, sanoat tovarlarining aholi jon boshiga iste’mol qilinishi, ijtimoiy iste’mol fondlaridan beriladigan nafaqa va imtiyozlar, kadrlar tayyorlash bo‘yicha xarajatlarning o‘sishi bilan tavsiflanadi.

Ushbu samaralar ishlab chiqarishning o‘zida vujudga kelayotganini va birlashib bajarilgan mehnat tufayli ishlovchilar o‘rtasidagi munosabatlar ta’riflanishini nazarda tutsak, ularni ijtimoiy-iqtisodiy samara deb atasak bo‘ladi.

Iqtisodiy samaradorlikning mohiyati uning mezoni va ko‘rsatkichlar tizimida aks etadi.

Ishlab chiqarishning umumiy (mutloq) samaradorligi deganda, harajatlar va resuralarning ayrim turlari bilan solishtirilgan yoki taqqoslangan iqtisodiy samaraning umumiy miqdori tushuniladi.

Ishlab chiqarishning umumiy samaradorligi xarajatlar va resurslarning ayrim turlaridan foydalanish darajasini aniqlash va baholash uchun qo‘llaniladi va umuman, iqtisodiyot bo‘yicha, tarmoqlar, korxonalar, kapital qurilish ob’ektlari bo‘yicha hisoblab chiqiladi. Bunday samaradorlikni aniqlash xarajatlar va resurslar samaradorligi darajasini, samaradorlikning asosiy yig‘imlarini aks ettiruvchi differensiyalangan ko‘rsatkichlarni hisoblab chiqishga asoslanadi. Bunday ko‘rsatkichlarga ishlab chiqarishning yoki unda tayyorlanadigan mahsulotning mehnat sig‘imi, material sig‘imi, fond sig‘imi, kapital sig‘imi kiradi.

Mehnat sig‘imi milliy daromad, sof, yalpi, tovar mahsulotning yoki natural shaklda ifodalangan mahsulot birligiga sarflangan xarajat miqdorini tavsiflaydi.

Mahsulotning sermehnatliligi - muayyan turdagi mahsulotni (masalan, bitta traktorni, kostyumni yoki ko‘ylakni) ishlab chiqarishga sarf bo‘lgan ish vaqti miqdorini ifodalovchi ko‘rsatkichdir.

Mehnat sig‘imining uch turi bo‘ladi: texnologik, to‘la va iqtisodiyot mehnat sig‘imi. Mehnat sarfini hisobga olish jihatiga qarab, u yana uch turga: rejali mehnat, normativ mehnat va haqiqiy (amaldagi) mehnat sig‘imlariga bo‘linadi.

Mehnat sig‘imi bevosita sarf (asosiy hodimlar sarf qilgan mehnat) bo‘yicha, to‘la sarf (yordamchi hodimlar sarf qilgan mehnat) bo‘yicha hamda umumiy ijtimoiy mahsulot yoki milliy daromad qiymatiga nisbati bilan belgilanadi. Ayrim komplekslar va ularning tarmoqlarida, korxonalarda esa, moddiy sarflar miqdorining qiymatiga nisbatan belgilanadi:

$$Ms = Mx / Tmx$$

Ko‘pincha amaliyotda mehnat sig‘imining boshqacha ma’nosini bildiruvchi mehnat unumdorligi (Mu) ko‘rsatkichidan foydalaniladi:

$$Mu = Tmx/Mx$$

Mehnat unumdorligi - inson mehnatining muayyan vaqt ichida ozmi - ko‘pmi mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatidir.

Ishlab chiqarishning material sig‘imi — mahsulot (ish bajarish yoki xizmat ko‘rsatish) birligiga ketadigan va unda ifodalanadigan moddiy resurslar (xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, sotib olinadigan butlovchi buyumlar va yarimfabrikatlar, yoqilg‘i va energiya) yalpi sarfini tavsiflovchi ko‘rsatkichdir. U quyidagi formula yordamida ifodalanadi:

$$Ms = Mr/Tmx$$

Ishlab chiqarishning fondtalabligi mahsulot birligiga (natural yoki qiymat doirasida) to‘g‘ri keladigan asosiy ishlab chiqarish fondlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichdir. Fond sig‘imi (Fs) asosiy va aylanma fondlardan foydalanishning samaradorligini ko‘rsatadi va bu fondlar o‘rtacha yillik qiymatining (F) mahsulot hajmiga (Mx) nisbatini ifodalaydi:

$$Fs = F/Mx$$

Bu miqdorning teskarisi fond samarasi (natijasi) yoki fond qaytimi (Fk) deb yuritiladi va quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$F_k = Mx/F$$

Ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini baholashda kapital qo‘yilmalardan foydalanish ko‘rsatkichlariishlab chiqarish fondlarini qayta takror ishlab chiqarishning yangi asosiy va aylanma fondlarini yaratish uchun zarur bo‘lgan jam-g‘arma fondlari samaradorligini tavsiflaydi. Bunday ko‘rsatkichlardan eng muhimi kapitaltalablik yoki kapital sig‘imi hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich (Ks) kapital mablag‘lar (K) yordami bilan tayyorlangan mahsulotning ko‘paygan qismiga nisbati bilan ifodalanadi:

$$Ks = K/\Delta Mx$$

Yuqorida keltirilgan va boshqa bir qator tabaqalashtirilgan (differensiyalangan) ko‘rsatkichlar ishlab chiqarish samaradorligini baholash va tashkil etishda muhim o‘rin egallaydi, xarajatlar va resurslar asosiy turlarining qaytarib berilishini tavsiflaydi. Lekin, faqat bu ko‘rsatkichlar asosida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi o‘zgarishiga baho berish qiyin, chunki ular o‘zgarishning xarakteri va dinamikasini taqqoslay olmaydi. Undan tashqari, ba’zi davrlarda ular har xil yo‘nalishda o‘zgaradilar. Masalan, sanoatda mehnat unumdorligi juda sekinlik bilan oshmoqda.

5.1-jadval

Asosiy vositalar va aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi[1]

Ko‘rsatkichlarning nomi	Nimani ifodalashi (mazmuni)	Aniqlanish formulasi
Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi:		
1. Asosiy vositalar rentabelligi	Asosiy vositalar o‘rtacha qiymatiga nisbatan sof foyda nisbatini ko‘rsatadi	SF*100 / $AV_{o‘.y.q.}$
2. Asosiy vositalar daromadliligi	Asosiy vositalar o‘rtacha qiymatiga necha foiz daromad to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi	YaD*100/ $AV_{o‘.y.q.}$
3. Asosiy vositalar natijaviyligi (fond qaytimi)	1 so‘m asosiy vositalar o‘rtacha qiymatiga qancha miqdorda natijaviy ko‘rsatkich (sotilgan mahsulot, tovar mahsuloti, tovar oboroti va h.k.) to‘g‘ri kelishini ifodalaydi	YaM (SM, TM)/$AV_{o‘.y.q.}$
Aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligi:		
Aylanma mablag‘larning aylanuvchanligi, kunlarda	Aylanma mablag‘larning bir aylanish davrining necha kunga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi	AYM.Ks/ Q Ks – davrdagi kunlar soni
Aylanma mablag‘larning aylanuvchanlik koeffitsiyenti, martada	Tahlil davrida aylanma vositalarga qo‘yilgan mablag‘ning necha marta aylanishini ifodalaydi	Q /AYM
Aylanma mablag‘larning rentabelligi	100 so‘mlik aylanma mablag‘lar summasiga to‘g‘ri keladigan foydani ko‘rsatadi	YaF (SF)*100/AYM
Aylanma mablag‘larning daromadliligi	100 so‘mlik aylanma mablag‘lar summasiga to‘g‘ri keladigan yalpi daromadni (YaD) ifodalaydi	YaD*100/AYM

[1] Abdukarimov I.T. va boshqalar. Korxona iqtisodiy salohiyati tahlili. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2015, – 256 b.

Korxonalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari muhim ahamiyatga ega. Bu ko‘rsatkichlar moliyaviy hisobotning ichki va tashqi foydalanuvchilarda qiziqish uyg‘otib, korxona resurslaridan foydalanish samaradorligi hamda uning investitsiyalarni jalb qilish qobiliyatini aniqlaydi.

Bu ko‘rsatkichlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- kapital tarkibi ko‘rsatkichlari;
- to‘lovga qobillik (likvidlik) ko‘rsatkichlari;
- ish faolligi ko‘rsatkichlari;
- rentabellik ko‘rsatkichlari.

Kapital tarkibi ko‘rsatkichlari korxonalarga uzoq muddatli moliyaviy mablag‘lar (quyilmalar) kiritgan kreditorlar va investorlarning himoyalanish darajasini aks etiradi. U korxonaning uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlarini bajarish qobiliyatini ifodalaydi.

To‘lov qobiliyati deyilganda, xo‘jalikning muddati kelgan to‘lov majburiyatlarni bajarish uchun zurur bo‘lgan mablag‘larning yetarli yoki kamchiligini aniqlash tushuniladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning to‘lov qobiliyatiga ega bo‘lishi muhim va bu uning o‘z vaqtida zarur bo‘lgan qarzlarni qaytarish imkoniyatlarini belgilaydi. Korxona balansi ma’lumotlarga asoslanib, to‘lov qobiliyatining qay ahvoldaligi hisoblanadi. Buning uchun, korxonaning to‘lash uchun zarur bo‘lgan mablag‘lari bilan qarz majburiyatlarini solishtirish mumkin.

To‘lov mablag‘lariga pul mablag‘lari, jo‘natilgan tovar va mahsulotlar qiymati (hali pul kelib tushmagan), debitor sotishdagi tushum va boshqalar kiradi. Qimmatli qog‘oz, aksiya, obligatsiya sotishdan olingan mablag‘ va qo‘shimcha korxonalarda qatnashishdan kelgan daromadlar ham to‘lov majburiyatlarini bajarishdagi manba bo‘lishi kerak. To‘lov majburiyatlariga mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga, budjet va sug‘urtaga, mehnat haqi, turli xil kreditorlarga bo‘lgan va boshqa turdagi qarzlar kiradi.

Ish faolligi koeffitsentlari korxonaning o‘z moliyaviy mablag‘laridan qanchalik samarali foydalanayotganini aniqlash maqsadiga xizmat qiladi.

Ish faolligi koeffitsentlari korxonaning moliyaviy mablag‘lari aylanishi tezligi, ya’ni mablag‘larning pul ko‘rinishiga o‘tishi tezligini ifodalaydi va xo‘jalikning to‘lovga qobilligini ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlar sifatida yuzaga chiqadi. Shuningdek, mablag‘lar aylanishining tezlashuvi korxonaning ishlab chiqarish quvvati oshishiga ham sabab bo‘ladi.

Rentabellik ko‘rsatkichlaribarcha korxonalar faoliyatining eng asosiy va yakuniy ko‘rsatkichidir.

Korxona faoliyatini tahlil qilishda foydaning umumiy summasi bilan birga, u qanday xarajatlar evaziga olinayotganlini, mablag‘lar qanday darajada aylanayotlanligini bilish mulkdorlar, sheriklar va kreditorlar uchun o‘ta ahamiyatli hisoblanadi.

5.2-jadval

Korxonalarning moliyaviy holatini aniqlash ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Mazmuni va aniqlanish tartibi
I. Kapital tarkibi ko‘rsatkichlari:	
1.1. Mulk koeffitsenti	korxona jami kapitalida xususiy kapitalining ulushini ko‘rsatadi (O‘MM/JA $_{yq}$)
1.2. Moliyaviy qaramlik koeffitsenti	jamiyatning tashqi qarzlarga bog‘liqlik darajasini (majburiyatlarini) ifodalaydi (M/O‘MM)
1.3. Qarzdorlik koeffitsenti	jami aktivlari summasidan kreditorlarga to‘lanishi lozim pul mablag‘lari hajmini ifodalaydi (*M/JA $_{yq}$*)
1.4.Kreditorlarning himoya-langanligi koeffitsenti	kreditorlar tomonidan berilgan kreditlarning joriy yilda qaytarilishi lozim bo‘lgan qismining to‘lanmasligidan himoyalanganligi darajasini belgilaydi (*STF/FT*)
II. To‘lov qobiliyati (likvidlik) ko‘rsatkichlari:	
2.1. Joriy likvidlik	yil davomidagi qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash uchun mablag‘lari yetarli yoki yetarli emasligini aniqlash uchun ishlatiladi (*PM+D+TMZ/M_{qm}*)
2.2. Tezkor likvidlik	qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash uchun likvidligi yuqoriroq mablag‘lari nisbatini aks ettiradi (*PM+D/M_{qm}*)
2.3. Absolyut likvidlik	qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash uchun absolyut likvidlikka ega bo‘lgan pul mablag‘lari nisbatini aks ettiradi (*PM/M_{qm}*)
2.4. Sof aylanma kapital	qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash uchun zarur bo‘lgan joriy aktivlar nisbatini aks ettiradi (*SAK = JA –M_{qm}*)
III. Ish faolligi ko‘rsatkichlari:	
3.1. Aktivlarning aylanishi	jami aktivlariga qo‘yilgan mablag‘larning har bir so‘mi qancha so‘mlik sotilgan mahsulot qiymatini keltirganini ko‘rsatadi (*SST/JA_{yq}*)
3.2. Debitorlik schetidagi mablag‘larning aylanishi	sotishdan sof tushum evaziga bir yilda necha marta debitorlik qarzlar undirilayotgani va pul mablag‘lariga aylantirilayotganini ko‘rsatadi (*SST/D*)
3.3. Debitorlik qarzlarining o‘rtacha undirilishi muddati	debitor qarzlarni undirish uchun o‘rtacha necha kun kerakligini ko‘rsatadi (*365: SST/D*)
3.4. Kreditor qarzlarning aylanishi	mol yuboruvchilardan kreditorlik qarzlarini uzishi uchun necha oborot zarurligini ko‘rsatadi (*SMT/K_{yq}*)
3.5. Kreditorlik qarzlarini o‘rtacha to‘lash muddati	kreditor qarzlarini mol yuboruvchilardan o‘z qarzini uzish uchun o‘rtacha kun kerakligini ko‘rsatadi (365: *SMT/K_{yq}*)
IV. Rentabellik ko‘rsatkichlari:	
4.1. Aktivlar rentabelligi	aktivlarga qo‘yilgan mablag‘larning har bir so‘miga to‘g‘ri keladigan sof foydani kцrsatadi (*SF/JA_{yq}*)
4.2. Sotilgan mahsulot rentabelligi	sotilgan mahsulotning har bir so‘mi qancha yalpi foyda keltirganini ko‘rsatadi (*YaF/SST*)
4.3. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari rentabelligi	mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlarning bir so‘miga olingan yalpi foydani ifoda qiladi (*YaF/SMT*)

Manba: Tegishli adabiyotlarni umumlashtirish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Korxonalarning moliyaviy barqarorligini baholashda ularning yillik

“Buxgalteriya balansi” (1-shakl) va “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot”i (2-shakl) ma’lumotlaridan foydalaniladi.

Iqtisodiy samaradorlikni rejalashtirish va tahlil etish nafaqat xarajat va resurslar asosiy turlaridan foydalanish darajasini tahlil etishni, balki uning butunlay o‘zgarishini, yig‘indi (integral) samaradorligini baholashni ham o‘z ichiga oladi. Mana shu maqsadda iqtisodiy samaradorlikning umumlashtiruvchi, kompleks ko‘rsatkichlari hisoblab chiqiladi va ishlab chiqarishning oqibat-natijalari shu ko‘rsatkichlar yordamida tahlil etiladi. Bunday ko‘rsatkichlar turli xarajatlar va resurslarning darajasini yig‘ilgan turda, har xil omillarning ta’sirini hisobga oladi.

Ishlab chiqarish - texnik vazifani hal etishning biror variantining ijtimoiy-iqtisodiy afzalligini asoslab berish, taqdim etilgan variantlardan eng samaralisini tanlab olish maqsadida aniqlanadigan samaradorlik qiyosiy samaradorlik deb ataladi. Qiyosiy samaradorlik ikki va undan ortiq variantni taqqoslash va shu asosda bir variantning boshqa variantlardan ustunligi va optimalligini aniqlab beradi.

Optimal variantni tanlash hamda uni asoslash uchun qo‘shimcha kapital mablag‘larning qoplanish muddati yoki qiyosiy samaradorlik koeffitsiyentini hisoblab chiqish va ular miqdorini normativ qiymati bilan taqqoslash kerak.

Qo‘shimcha kapital mablag‘larning o‘zini qoplash muddati (V) qo‘shimcha kapital mablag‘larning (K_2-K_1) mahsulot tannarxini pasaytirishdan olingan tejam (T_1-T_2) ga nisbati bilan aniqlanadi:

$$\mathbf{V = (K_2 – K_1)/(T_1 – T_2)}$$

Bu yerda:

V - qoplanish muddati (yil hisobida);

K_2va K_1- variantlarni joriy etish uchun kerak bo‘lgan mablag‘lar miqdori;

$T_1 – T_2$- taqqoslanadigan variantlarning ekspluatatsiya harajatlari.

Qo‘shimcha kapital mablag‘larning siyosiy samaradorlik koeffitsiyenti (Ye) qoplanish muddatining teskari ifodasi hisoblanadi va tannarxni pasaytirishdan olingan tejamning qo‘shimcha kapital mablag‘lar miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi:

$$\mathbf{Ye = (T_1 – T_2)/(K_2 – K_1)\ yoki\ 1/V}$$

Keltirilgan harajatlar, ularning vazifasi va ularni hisoblash usuli. Keltirilgan harajatlar kapital mablag‘larning **iqtisodiy**samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkich bo‘lib, texnikaviy va iqtisodiy masalalarni hal qilish variantlarining eng yaxshisini tanlab olishda qo‘llaniladi. Biron bir texnikaviy vazifani hal etishning, ratsionalizatorlik va ixtirochilik takliflari, texnikaviy va tashkillashtirishning mumkin bo‘lgan variantlarini, mahsulot sifatini oshirishning turli usullarini taqqoslaganda boshqa shartlari teng bo‘lib qolsa, keltirilgan xarajatlar minimum bo‘lishini talab qiladigan variant eng yaxshisi hisoblanadi. Bir necha variantlardan eng yaxshisini tanlab olish uchun quyidagi keltirilgan xarajatlar formulasidan foydalanish kerak:

$$\mathbf{S + Yen * K \rightarrow min}$$

Bu yerda: S - muayyan variant bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi;

Yen - kapital mablag‘lar samaradorligining normativ koeffitsiyenti;

K - bir yo‘la solinadigan kapital mablag‘larning yig‘indisi.

Iqtisodiyotda yangi texnika, ixtirolar va ratsionalizatorlik takliflaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini belgilash metodikasida samaradorlikning normativ koeffitsiyenti iqtisodiyotning hamma tarmoqlari uchun 0,15 ga teng qilib olingan.

Keltirilgan xarajatlarni aniqlash eski texnika o‘rniga yangisini yaratish va qo‘llash natijasida hosil bo‘ladigan iqtisodiy samarani baholashga iqtisodiyot nuqtai nazaridan yondoshishni taqozo etadi.

Yillik iqtisodiy samara — bu, yangi texnika, texnologiya va progressiv mahsulot turlarining, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etishning iqtisodiy samaradorligini tahlil etish va baholashda qo‘llaniladigan muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Bu ko‘rsatkich qiyos qilinadigan variantlar bo‘yicha sarflangan harajatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida quyidagi formula yordamida hisoblab chiqiladi:

$$Y = [(T_1 + Yen * K_1) - (T_2 + Yen * K_2)] * A_2$$

Bu yerda: Y — yillik tejam;

T_1 — yangi texnika bo‘yicha tadbirlar joriy qilingungacha bo‘lgan mahsulot yoki ish birligining tannarxi (so‘m hisobida);

T_2—shuning o‘zi, tadbirlar joriy qilingandan so‘ng (so‘m hisobida);

K_1 —tadbirlar joriy qilingungacha mahsulot birligaga sarflangan kapital mablag‘lar miqdori;

K_2— shuning o‘zi, tadbirlar amalga oshirilgandan so‘ng;

A —yangi tadbirlar amalga oshirilgandan boshlab tayyorlanadigan yillik mahsulot yoki ishlarning natura birligi.

Yen —kapital harajatlarning normadagi qiyosiy samaradorligi koeffitsiyenti.

U yangi kapital qo‘yilmalarning minimal darajadagi iqtisodiy samaradorligini hamda bir so‘mlik kapital qo‘yilma bir yilda mahsulot tannarhini necha tiyinga kamaytira olishni bildiradi. Masalan, sanoat tarmog‘i uchun belgilangan samaradorlik koeffitsiyenti normasi 0,15 bo‘lsa, bu shu tarmoqda har bir so‘m kapital qo‘yilmalar mahsulot tannarxining pasayishi hisobiga eng kami bilan 15 tayinlik tejam, foyda berishi zarur. Samaradorlik koeffitsiyenti «0»dan «1»ga qancha tez intilsa, samaradorlik shuncha yuqori, xarajatlarning rejali qoplanish muddati esa shuncha qisqa bo‘ladi.

Ishlab chiqarishning samaradorlik darajasi xilma-xil, bir-biriga bog‘liq bo‘lgan omillar ta’sirida tashkil topadi va shakllanadi. Har bir kompleks, tarmoq va korxona uchun uning texnik-iqtisodiy hususiyati sababli samaradorlikni oshirishning o‘ziga xos omillari mavjud.

5.3. **Sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligi monitoringi va tahlilini o‘tkazish mezonlari**

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, fan-texnika taraqqiyotini yana xam jadallashtirish, ishlab chiqarish saloxiyatidan oqilona foydalanish, resurslarning xamma turlarini xar tomonlama tejash va ishlab chiqarishni boshqarishning bozor iqtisodiyoti qonulariga mos ravishda olib borish mamlakatimiz iqtisodiy strategiyasining eng muxim tarkibiy qismidir.

Yuqorida keltirilgan xo‘jalik samaradorligini baholash usullari va ko‘rsatkichlaridan tashqari bugungi kunda amaliyotda korxonalarning iqtisodiy

nochorlik belgilarini aniqlash uchun mezonlar tizimi ham qo‘llaniladi.

“Korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy ahvoli monitoringi va tahlilini o‘tkazish mezonlarini aniqlash tartibi to‘g‘risida»gi Nizomga ko‘ra korxonalar quyidagi guruxlarga bo‘linadi:

- iqtisodiy barqaror korxona
- iqtisodiy xatarli korxona
- iqtisodiy nochor korxona:
- o‘z to‘lov qobiliyatini tiklash imkoniyatiga ega;
- o‘z to‘lov qobiliyatini tiklash imkonyatiga ega bo‘lmagan korxonalar.

Korxonalarning iqtisodiy nochorlik belgilarini aniqlash uchun mezonlar tizimi ham qo‘llaniladi. Ularning qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- to‘lov qobiliyati koeffitsienti (K_{tq});
- xususiy aylanma mablag‘lar bilan ta’minlanganlik koeffitsienti (Kxm);
- Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari rentabelligi (Rix),
- Aktivlar rentabelligi. (Ra):
- xususiy va qarzga olingan mablag‘lar nisbati koeffitsienti (Kxq);
- Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti:
- Eskirish koeffitsenti (Kesk)

To‘lov qobiliyati koeffitsienti (K_{tq}) korxonaning debitorlar bilan o‘z vaqtida hisob-kitob qilish hamda tayyor mahsulot va boshqa moddiy vositalarini sotishning qulay sharoitlarda sotish orqali baholanadigan to‘liq imkoniyatlarini ko‘rsatadi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$Ktq = \frac{\text{Joriy (aylanma) aktivlar}}{\text{Joriy majburiyatlar}} \quad \frac{\text{A2}}{\text{P2 - DO}}$$

Bu erda: A_2 – aylanma aktivlar (ishlab chiqarish zahiralari, tayyor mahsulot, pul mablag‘lari, debitorlik qarzlari va hokazolar);

P_2 – majburiyatlar (qisqa muddatli qarzlar, qisqa muddatli kreditlar, byudjet oldidagi qarzlar, kreditorlik qarzlari va hokazo), buxgalteriya balansining 770 satri;

DO– uzoq muddatli qarz va kreditlar,buxgalteriya balansining 490 satri

Agar **to‘lov qobiliyati koeffitsienti**hisobot yilining oxirida 1.25 dan kichik bo‘lsa korxona to‘lov qobiliyatini yo‘qotgan hisoblanadi

Xususiy aylanma mablag‘lar bilan ta’minlanganlik koeffitsienti (K_{xm}) korxonaning barqaror ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatini yuritish uchun zarur bo‘lgan aylanma vositalar mavjudligini tavsiflaydi. shuningdek u, korxona egalari va kreditorlar manfaatlaridagi munosabatlarni ham aks ettiradi. Mazkur koeffitsient quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$\mathbf{Kxm = ((P1 + Dzk2) - A1)/ A2}$$

Bu erda: A_1 – uzoq muddatli aktivlar (asosiy vositalar, kapital qo‘yilmalar, nomoddiy aktivlar va hokazo).

Dzk2 – uzoq muddatli aktivlarni sotib olish uchun yo‘naltirilgan uzoq

muddatli qarz va kreditlar, buxgalteriya balansining 570 va 580 satrlaridan hisoblanadi.

Ushbu koeffitsientning minimal qiymati - 0,2.

Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari rentabelligi (*Rix*),

$$Rix = SF / MIT$$

Bu erda: *SF* – sof foyda;

MIT – mahsulot ishlab chiqarish tannarxi.

Aktivlar rentabelligi. (*Ra*):

$$Ra = SF / JAyk$$

u erda: SF – sof foyda;

JAyk – korxona jami aktivlarining o‘rtacha yillik qiymati.

Agar rentabellik koeffitsientlari nolda kichik bo‘lsa korxona zarar bilan ishlayotgan deb hisoblanadi

Agar 0.05 dan kichik bo‘lsa past rentabellik deb hisoblanadi.

Xususiy va qarzga olingan mablag‘lar nisbati koeffitsienti (K_{xq}) (joriy moliyaviy mustaqillik koeffitsienti) ularning shakllanish manbalarini inobatga olgan holda, pul mablag‘lari bilan ta’minlanganlik darajasini aniqlaydi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$Kxq = \frac{P1}{P2 - DO}$$

Bu erda: P_1 – xususiy mablag‘lar manbalari (Nizom jamg‘armasi, qo‘shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda va hokazo).

DO– uzoq muddatli qarz va kreditlar,buxgalteriya balansining 490 satri

Agar xususiy va qarzga olingan mablag‘lar nisbati koeffitsientining qiymati yil oxirida birdan kichik bo‘lsa, korxonada moliyaviy xavf xatar (risk) mavjudliging alomati bo‘ladi. Xususiy va qarzga olingan mablag‘lar nisbati koeffitsientining kamayishi korxonaning moliyaviy xatarini ortishini bildiradi.

Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti:

$$Kqf = \frac{Q\ haqiqiy}{Qloyiha. - (Qijara. + Qkonserv.)}$$

Q haqiqiy. – haqiqiy ishlab chiqarilgan mahsulot xajmi;

Qloyiha.- maksimal, loyihaviy ishlab chiqarish quvvati

Qijara. –ijaraga berib yuborilgan quvvatlarga mos keluvchi mahsulot xajmi;

Q konserv. – konservatsiya qilingan quvvatlarga mos keluvchi mahsulot xajmi;

Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti 0.5 dan yoki tarmoq bo‘yicha o‘rtacha qiymatdan kichik bo‘lsa, korxonada ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish past darajada deb qabul qilinadi.

Eskirish koeffitsenti (Kesk) eskirish summasining asosiy vositalar boshlang‘ich qiymatiga nisbati sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

Kesk= Av.es/Av.bq

Bunda:Av.es – asosiy vositalar eskirish summasi;

Avbq – asosiy vositalarninig boshlang‘ishlab chiqarish qiymati;

Asosiy vositalarni eskirish koeffitsenti 0.5 dan yuqori bo‘lmasligi lozim.

“Korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy ahvoli monitoringi va tahlilini o‘tkazish mezonlarini aniqlash tartibi to‘g‘risida»gi Nizomga ko‘ra korxonalarning to‘lovga qobiliyatligi yoki nochorligini aniqlovchi parametrlar belgilab berilgan.

Iqtisodiy xatarli korxona uchun to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti hamda xususiy va qarzga olingan mablag‘lar nisbati koeffitsiyenti me’yordan dan kichik bo‘lsa, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti 0,5 dan kichik bo‘lsa, xususiy aylanma mablag‘lar bilan ta’minlanganlik koeffitsiyenti 0,2 dan kichik bo‘lsa korxonalar iqtisodiy xatarli korxona deb topiladi.

Iqtisodiy nochor korxona uchun pul majburiyatlari va majburiy to‘lovlar bo‘yicha 3 oydan ortiq qarzi bor bo‘lishi lozim.

* Pul majburiyatlari va majburiy to‘lovlar bo‘yicha 3 oydan ortiq qarzi bor bo‘lib, shu bilan birga To‘lov qobiliyati tiklash imkoniyati bor bo‘lsa, ya’ni to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti (K_{tq})me’yorda, rentabelli va xususiy aylanma mablag‘lar bilan ta’minlanganlik koeffitsiyenti (Kxm) yuqori bo‘lsa “To‘lov qobiliyati tiklash imkoniyati bor” deb qabul qilinadi

*Pul majburiyatlari va majburiy to‘lovlar bo‘yicha 3 oydan ortiq qarzi bor bo‘lib, uning qiymati eng kam ish xaqining 500 baravaridan yuqori bo‘lsa va Aktivlar rentabelligi. (Ra)past, to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti (K_{tq})kichik, xususiy aylanma mablag‘lar bilan ta’minlanganlik koeffitsiyenti (Kxm)past bo‘lsa korxona “To‘lov qobiliyati tiklash imkoniyati yo‘q” deb qabul qilinadi

Korxona nochorligi, demak, xo‘jalik faoliyatining samarasizligi to‘g‘risidagi yakuniy qaror, nochorlik parametrlarining umumiy summasi yuqoridagi me’yorlardan kichik bo‘lgan holda qabul qilinadi.

Xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirish juda ham murakkab jarayon bo‘lib, buning hamma uchun to‘g‘ri keluvchi yagona yo‘li mavjud emas. Har bir korxona bu masalani yechishda o‘z imkoniyatlari va yuzaga kelgan iqtisodiy shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda harakat qiladi. Biroq barcha hollarda ham samaradorlikning asosida *foydani maksimallashtirish* yoki *xarajatlarni minimallashtirish* yotadi.

5.4. Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati samaradorligini baholash

O‘zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida», «Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida»gi qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2015 yil 24 apreldagi PF-4720-son Farmoniga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan korxonalarning samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-son qaroriga muvofiq

ishlab chiqilgan hamda ustav kapitalida davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari, mas’uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar, davlat korxonalari faoliyatining samaradorligini baholash mezonlari ishlab chiqildi. Mazkur mezonlarni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28 iyuldagi 207-son “Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori asosida qabul qilingan nizom belgilaydi.

Samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari – (Key Performance Indicators) korxona uchun nima eng muhim ekanligini yaqqol tasvirlaydi, menejerlarga asoslangan qaror qabul qilinishida ko‘maklashadi hamda risklarni boshqarishga imkon yaratishi orqali noaniqliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Agarda tizimda, ishlab chiqarishda salbiy holatlar kuzatilayotgan bo‘lsa, “samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari” bu haqda barvaqt xabar beradi. Shu sababli ham kompaniya uchun eng muhim samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlarini ishlab chiqib, joriy etish aksiyador (ulushdor)lar tomonidan muvaffaqiyatga erishishning kaliti sifatida e’tirof etiladi

Samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari – bu korxona o‘zining strategik va katta moliyaviy maqsadlariga qanchalik samarali erishayotganligini namoyish eta oladigan o‘lchov qiymatlaridir. Korxona xodimlari, rahbariyati va, umuman, korxona faoliyatiga baho berish uchun foydalaniladigan koeffitsiyentlar yig‘indisidir

Kompaniyalar faoliyatiga samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari joriy etilganda xodimlarni rag‘batlantirishning aniqligi va shaffofligi ta’minlanadi. Modomiki ko‘zlangan maqsadlar va ulardan erishilgan aniq miqdorlarga qarab xodimni nima uchun va qanday rag‘batlantirish rahbarlarga ravshanlashadi. O‘z navbatida, xodim yoki direktorlar qanday sharoitda qancha mukofot bilan taqdirlanishini va nimani talab etishni yaxshi bilishi hamda shunga yarasha samarali natija ko‘rsatishga harakat qilishi ushbu tizim joriy etilishi natijasida yaqqol aniqlashtiriladi

Qisqacha aytganda, samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari xodimlar va direktorlar tomonidan erishilgan natijalarni miqdoriy jihatdan aniqlash imkoniyatini beradi. Kompaniya aksiyadorlari, direktorlari yoki departament boshliqlariga belgilangan oliy maqsadlariga erishishda qanday yutuqlar va kamchiliklar mavjudligini namoyish qiladi hamda ularni o‘z vaqtida rag‘batlantirish yoki bartaraf etish uchun aniq tasavvurni yaratib beradi. Bu esa investorlar va emitentlar uchun ayni muddaodir

Shuningdek, samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari foydali qaror qabul qilish vositasidir, desak yangilishmagan bo‘lamiz. Darhaqiqat, samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari korxonalarning murakkab tashkiliy faoliyatini oson va tushunarli sonlar orqali namoyon qila oladi. Bu esa, o‘z navbatida, korxona faoliyatining samaradorligini oshirishga yordam beradi

Tasavvur qiling, okeanda suzib ketayotgan kemadagilar kema belgilangan rejaga asosan suzayotganligini aniqlash maqsadida kompas va navigatsiya tizimi ma’lumotlaridan foydalanishadi. Kemaning GPS joylashuv ma’lumoti, tezlik, yoqilg‘i darajasi yoki ob-havo ma’lumotlari kabi ko‘rsatkichlar kemaning ayni

damda qayerdaligini va keyin qaysi yo‘nalishda harakat qilishi zarurligini oydinlashtiradi

Shunday holat kompaniyalar faoliyatiga ham xosdir. Bunda samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari menejerlar tomonidan kompaniya muvaffaqiyatli suzish rejasiga muvofiq harakatlanayotgani yoki belgilangan yo‘nalishdan chiqib ketayotganini aniqlashtirish uchun foydalaniladigan navigatsiya vositasidir. To‘g‘ri, joriy etilgan samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari kompaniya faoliyatining muhim jabhalarini yoritadi va e’tibor berilishi zarur bo‘lgan holatlarnigina aniq ko‘rsatib beradi. Xalqaro nazariyada samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari ko‘proq harorat va havo bosimini o‘lchashga moslashgan vositalarga o‘xshatiladi. Havo harorati ko‘tarilgani yoki pasayganini bilishga qiziqish tabiiy, lekin dovul yaqinligini bilish undan-da muhimroqdir. Ko‘rsatkichlar umumiy vaziyat to‘g‘risida to‘liq taassurot uyg‘otishga xizmat qiladi

Samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari yaratilish tarixi XX asrning 60-70-yillaridan boshlanadi. Bu davrda Piter Druker tomonidan samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari ishlab chiqilib, u orqali yutuqlarni baholash tizimiga asos solingan. Ushbu holat belgilangan maqsad sari boshqaruv uslubi paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Mazkur boshqaruv uslubi korxona rahbariga butun diqqat-e’tiborini eng yaxshi natijaga erishishga qaratish imkonini beruvchi izchil va tartibli yondashuvdir. Samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlarining jadal rivojlanish bosqichi uning 1990-yillar boshida Robert Kaplan va David Norton tomonidan o‘ylab topilgan Balanslashgan ko‘rsatkichlar tizimiga kiritilganidan keyin boshlangan

Samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari (qisqartirilgan shaklda SMK) tashkilotlarning ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini aniqlash uchun foydalaniladigan baholash mezonlarining miqdoriy o‘lchovidan iborat bo‘ladi.

SMK ro‘yxati faoliyatning iqtisodiy, energetika, ishlab chiqarish, innovatsion samaradorligi ko‘rsatkichlarini va samaradorlikning boshqa ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga olishi mumkin.

SMKni hisoblashning davriyligi har chorakdan iborat bo‘ladi va tashkilotning vakolatli boshqaruv organi qarori bilan belgilanadi.Manbai faqat yillik hisobot bo‘lgan ko‘rsatkichlar bir yilda bir marta hisoblanadi.

Tashkilotning ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash uchun 5.3-jadval va 5.4-jadvalda ko‘rsatilgan SMK tatbiq etiladi.

5.3-jadval

Samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari ruyxati

1. Foizlar, soliqlar va amortizatsiyani chiqarmasdan oldingi foyda. (**EBITDA —** Earnings Before Interest, Taxes, Depreciation & Amortization)
2. Xarajatlar va daromadlar nisbati (**CIR —** Cost Income Ratio)
3. Jalb etilgan kapital rentabelligi (ROCE — Return on Capital Employed)
4. Aksionerlik kapitali rentabelligi (**ROE —** Return On Equity)
5. Aksionerlar investitsiyalari rentabelligi (**TSR —** Total shareholders Return)
6. Aktivlar rentabelligi
7. Mutlaq likvidlik koeffitsienti
8. moliyaviy mustaqillik koeffitsienti
9. Kreditor qarzdorlikning aylanuvchanligi, kunlarda
10. Debitor qarzdorlikning aylanuvchanligi, kunlarda
11. Qoplanish (To‘lov qobiliyati) koeffitsienti
13. dividendning chiqishi koeffitsienti
13. Debitor qarzdorlikning kamayishi ko‘rsatkichi (belgilangan topshiriqqa nisbatan % da)

Ayrim SMKni tatbiq etish imkoniyati mavjud bo‘lmaganda, bu to‘g‘ridagi qaror ijro etuvchi organning taklifiga binoan tashkilotning vakolatli boshqaruv organi tomonidan tasdiqlanadi.

Tashkilotning vakolatli boshqaruv organi qarori bilan tashkilot faoliyatining tarmoq bo‘yicha mansubligidan, rivojlanish strategiyasidan va faoliyatining xususiyatidan kelib chiqqan holda SMK sifatida boshqa koeffitsientlardan foydalanish mumkin.

Baholash maqsadi uchun har bir SMKga uning tashkilot uchun ahamiyatini aks ettiruvchi salmoq o‘lchovi belgilanadi. Tashkilotga nisbatan tatbiq etiladigan barcha SMK salmoq o‘lchovlari jami 100 foizni tashkil qiladi.

Har bir SMKning salmoq o‘lchovi, uning tashkilot faoliyati uchun ahamiyatini hisobga olgan holda, tashkilotning vakolatli boshqaruv organi qarori bilan belgilanadi.

Samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlarini hisoblashda quyidagilar axborot manbai hisoblanadi:

tashkilotning buxgalteriya hisobi hujjatlari ma’lumotlari;

davlat organlariga taqdim etiladigan hisobotlar (moliyaviy, statistik, soliq hisobotlari va boshqalar)ma’lumotlari;

biznes-rejadagima’lumotlar;

belgilangan tartibda olingan yoki ishlab chiqilgan boshqa materiallardagi ma’lumotlar.

Samaradorlikning qo‘shimcha muhim ko‘rsatkichlarining prognoz (maqsadli) ko‘rsatkichlari har bir davr uchun biznes-rejada, uning ajralmas qismi hisoblanadigan alohida ilova sifatida aks ettiriladi.

5.4-jadval

Samaradorlikningqo‘shimcha muhim ko‘rsatkichlari ruyxati

1. Asosiy vositalarning eskirish koeffitsienti
2. Asosiy fondlarning yangilanish koeffitsienti
3. Mehnat unumdorligi
4. Fond qaytimi
5. Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti
6. Energiya samaradorligi (mahsulot tannarxi tarkibida energiYaga xarajatlarning ulushi)
7. Sotilgan mahsulotning umumiy xajmida innovatsion mahsulot ulushi
8. Korxonaning umumiy xarajatlarida innovatsion faoliyatga qilingan xarajatlar ulushi
9. hodimlarni o‘qitishga qilingan xarajatlar, bir ishlovchi hisobiga to‘g‘ri keladigan
10. Kadrlar qo‘nimsizligi koeffitsienti
11. Investitsion dasturning bajarilishi indikatori, qiymat shaklida
12. Quvvatlarni ishga tushirish indikatori (belgilangan topshiriqqa nisbatan % da)
13. Eksport ko‘rsatkichlarini bajarilishi (pul ko‘rinishidagi opshiriqqa nisbatan % da)

Samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari kompaniya faoliyatiga to‘g‘ri jalb qilingandagina foydali vosita sifatida xizmat qila oladi. Chunki bugungi kunda samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlarining juda ko‘p turlari mavjud bo‘lib, ulardan aynan mosini korxona faoliyatiga tanlab jalb qila olish ham katta mahorat talab qiladi. Aks holda kompaniya xodimlari va menejerlar o‘rtasida turli tushunmovchiliklar kelib chiqishi mumkin

Shuningdek, samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari alohida sohalar, ishlab chiqarish, turizm, moliyaviy va davlat xizmatlari sektorlari uchun yaratilishidan kelib chiqib, bir sohaga mos tushgan ko‘rsatkich keyingi sohaga umuman to‘g‘ri kelmasligi mumkin

Odatda rahbarlar va ekspertlar samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlarini o‘z kompaniyasi faoliyati uchun ishlab chiqishda qiyinchiliklarga duch keladi va quyidagi holatlarda vaziyat yanada murakkablashadi. Agar:

kompaniyaning strategik va muhim maqsadlari aniqlanmagan bo‘lsa, hisob-kitoblar faqat moliyaviy natijalarga e’tibor qaratiladi;

faqat moliyaviy ko‘rsatkichlarga bog‘lanib qolish korxonaning moliyaviy holati to‘g‘risida har xil va noto‘liq tasavvur uyg‘otadi;

bir soha uchun muhim bo‘lgan ko‘rsatkichlar ikkinchi soha uchun kamroq ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin;

– agar xodimlarning rag‘batlantirilishi samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlariga bog‘liq bo‘lib qolsa, manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi va noroziliklar tug‘dirishi mumkin .

Tizimni joriy etish uchun zarur shart-sharoitlar. Ustav fondida davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik boshqaruv organlari faoliyati

samaradorligini baholash uchun samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlarini joriy etishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim:

- korxonaning uzoq muddatga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish;
- samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari ro‘yxati va uning har bir davr uchun ahamiyatga ega bo‘lgan maqsadi ham aks ettirilgan yillik biznes rejasini qabul qilish;
- samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari bo‘yicha har bir ko‘rsatkichni hisoblash tartibi ko‘rsatilgan korxona faoliyatini baholash uslubi haqidagi qoidalarni ishlab chiqish;
- samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholash natijalari hisobga olingan holda mukofotlash va mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qoidalar hamda boshqa hujjatlarni ishlab chiqib, hayotga tatbiq etish.

Aksiyadorlik jamiyatlarida samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari kuzatuv kengashi qarori bilan, u mavjud bo‘lmagan taqdirda esa yuqori boshqaruv organi (xo‘jalik jamiyatlari uchun) yoki muassis (davlat korxonalari uchun) qarori bilan tasdiqlanadi.

Hisoblash yo‘li bilan samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari miqdorlari ularning biznes rejasida belgilangan reja (maqsadli) miqdorlari bilan hisoblangan va maqsadli miqdorning foizli nisbati tarzida taqqoslanadi. Barcha samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘rtacha hisoblangan miqdor tashkilotning ijro etuvchi organi faoliyati samaradorlikning yig‘indi ko‘rsatkichi (SYK) sifatida ifodalanadi.

Ijro etuvchi organ rahbari va a’zolariga to‘lanadigan mukofot miqdori korxonada qanday ko‘rsatkichlarga erishilganiga bog‘liq. U biznes rejada nazarda tutilgan ijro etuvchi organni moddiy rag‘batlantirish puli miqdorini samaradorlikning yig‘indi ko‘rsatkichiga ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlanadi. Xususan, korxonaning vakolatli boshqaruv organi (kuzatuv kengashi, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi va h.k.) o‘z qarori bilan ijro etuvchi organning tashkilot faoliyati natijalarini shakllantirishdagi haqiqiy ishtirokidan kelib chiqib, tuzatish koeffitsiyentini qo‘llashi mumkin. Agar samaradorlikning yig‘indi ko‘rsatkichi va uning bajarilishi foizi barcha samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari ning kamida yarim belgilangan rejasidan oshsa, ijro etuvchi organ rahbari va a’zolarini mukofotlash miqdori biznes rejada nazarda tutilgan mukofotlash miqdoriga nisbatan ikki barobar oshirilishi mumkin

Korxonaning vakolatli boshqaruv organi qaroriga asosan, ijro etuvchi organ faoliyati samaradorligi qoniqarsiz, past darajada, yetarli darajada emas, o‘rtacha darajada, yetarli darajada va yuqori darajada kabi e’tirof etiladi.

Ijro etuvchi organ faoliyati samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari si qoniqarsiz yoki past darajada deb topilgan taqdirda ustamalar, mukofot puli va boshqa moddiy rag‘batlantirishlar to‘lashga yo‘l qo‘yilmaydi1. (3)

Respublika hududidagi xususiy va chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarda, jumladan, GM Powertrain Uzbekistan, Tashkent Lotte Hotel, Office

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28 iyuldagi 207-son “Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida” Qarori.//lex.uz

market va shu kabi boshqa kompaniyalarda tegishli samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlari joriy qilingan va samarali foydalanib kelinmoqda

O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28 iyuldagi “Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori ushbu yo‘nalishdagi ishlarning jadal sur’atlarda amaliyotga tatbiq etilishida katta turtki bo‘ldi

Xususan, bugungi kunda ustav kapitalida davlat ulushi mavjud jami 1367 ta xo‘jalik yurituvchi korxona o‘z faoliyatlariga samaradorlikning muhim ko‘rsatkichlarini joriy qilgan. Shundan 1072 tasi davlat unitar korxonasi, 136 tasi mas’uliyati cheklangan jamiyat va qolgan 159 tasi aksiyadorlik jamiyati shaklidagi ustav kapitalida davlat yoki xo‘jalik boshqaruv organlari ulushi mavjud korxonalardir.

5.5. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning omillari va yo‘llari

Ishlab chiqarishni rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarining muhimlariga quyidagilar kiradi:

-ishlab chiqarish strukturasini yaxshilash;

-fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, ishlab chiqarish va mahsulotning texnik-iqtisodiy darajasini ko‘tarish, fan va texnika yutuqlarini joriy etish muddatini qisqartirish;

-ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, ixtisoslashtirish, kooperatsiyalash, mahalliylashtirish va hududiy joylashtirish darajasini oshirish;

-boshqarishning strukturasini, moliyalash, baholash va kreditlash hamda rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish;

-inson omilini kuchaytirish asosida mehnatkashlarning ijodiy faolligini va tashabbusini oshirishni yo‘lga qo‘yish.

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirishning muhim omillaridan yana biri sifatida *mavjud ishlab chiqarish salohiyati* - asosiy va aylanma fondlar, ishchi kuchidan tejamkorlik asosida, iloji boricha unumliroq foydalanishni ko‘rsatish mumkin.

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirishda *tashkiliy-iqtisodiy omillar*, jumladan, boshqaruv ham muhim o‘ringa ega. Ularning ahmiyati ishlab chiqarish miqyosining o‘sishi va xo‘jalik aloqalarining murakkablashishi bilan ortib boradi. Bu omillar qatoriga birinchi o‘rinda, oqilona ishlab chiqarish shakllarini yaratish va mavjudlarini takomillashtirish - konsentratsiya, ixtisoslashtirish, kooperatsiya va kombinatsiya qilishni kiritish mumkin.

Boshqaruvda esa, boshqarish, rejalashtirish, iqtisodiy rag‘batlantirishning usul va shakllarini, ya’ni korxona faoliyatining butun xo‘jalik mexanizmini takomillashtirishda ifodalanadi.

Rejalashtirishda rejalarning balanslashtirilishi, ko‘rsatkichlar tizimini optimal shakllantirish, rejalashtirilayotgan maqsadlar resurslar bilan ta’minlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Qisqacha xulosalar

Ishlab chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi muhim kategoriya sifatida, umuman olganda, ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini, erishilgan natija bilan jonli va buyumlashgan mehnat o‘rtasidagi nisbatlarni o‘rganadi.

Sanoat ishlab chiqarishi samaradorligining doimiy oshib borishi ob’ektiv zaruriyat hisoblanadi va milliy daromadning keskin ko‘payishiga imkoniyat yaratib beradi.

Samaradorlik umumiy nazariyasida mezon muammosi, ya’ni baholash o‘lchovi, asosiy nuqtai nazar masalasi alohida o‘rin egallaydi. Jami ijtimoiy mehnatni tejash, uning unumdorligi o‘sishi samaradorlikning mezoni hisoblanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Samaradorlik tushunchasi nimani anglatadi? Uning qanday turlari bor? Mezoni va ko‘rsatkichlari nimalardan iborat?
2. Mutlaq iqtisodiy samaradorlik nima? U qaysi usulida hisoblanadi?
3. Ishlab chiqarishning qiyosiy-iqtisodiy samaradorligi deganda nimani tushunasiz?
4. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaysi omillar ta’sir etadi?
5. Sanoat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning qanday asosiy yo‘llari bor?

Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro`yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28 iyuldagi 207-son “Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida” Qarori.//lex.uz
2. Abdukarimov I.T. va boshqalar. Korxona iqtisodiy salohiyati tahlili. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2015, – 256 b.
3. B.A. Adukarimov va boshq. Korxona iqtisodiyoti. Darslik. – T.: «Fan va texnologiya», 2012, – 368 bet.
4. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. –T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006, – 208 b.
5. Tirole, Jean (Tir) The Theory of Industrial Organization. MIT Press, 1992.
6. Church J., and R.Ware. (CW) Industrial Organization. A Strategic Approach. Irwin. 2000.
7. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.:”Sano-standart”, 2014.-304 b.
8. www.webofscience.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi
9. www.search.ebscohost.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi

6-BOB. SANOATDA FAN-TEXNIKA TARAQQIYOTI

6.1. Fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va ahamiyati

Fan-texnika taraqqiyoti — bu, juda murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. U ijtimoiy va shaxsiy hayotning hamma tomonlarini o‘z ichiga oladi. shu sababli ham fan-texnika taraqqiyoti harakatdagi jarayon hisoblanadi.

Fan — inson faoliyatining ma’lum sohasi. U shunday sohaki, voqea-hodisalar haqidagi bilimlar yaratiladi va ular nazariy nuqtai nazardan bir yo‘lga solinadi. Fan — ijtimoiy fikrlash va bilishning shakllaridan biridir.

Fan yoki ilm — bu, o‘qish, o‘rganish va hayotiy tajriba asosida fikrlanadigan bilim va malakalar majmuasidir. Uning asosiy vazifasi, avvalo, voqea va hodisalarni, shu jumladan, texnik va texnologik hodisalarni tasvirlash, tushuntirish, oldindan aytib berish, bashorat qilishdan iborat.

Texnika — bu, eng tor ma’noda mehnat quroli, mehnat vositasi. Keng ma’noda esa, u ishlab chiqarish vositalari, texnologiya usullarini, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish shakllarining yig‘insidir. U ishlab chiqarish kuchlarining eng faol elementi hisoblanadi.

Texnologiya (yunoncha «technue» — san’at, mahorat, uddalash va ...logos - ta’limot) — ishlab chiqarish jarayonida tayyor mahsulot olish uchun ishlatiladigan xom ashyo, material yoki yarim fabrikatlarning holati, xossasi va shakllarini o‘zgartirish, ularga ishlov berish, tayyorlash usullari majmuidir.


Fan-texnika taraqqiyoti — bu, mehnat vositalarini, ishlab chiqarishning eng yangi xom ashyosi va materiallarini, yoqilg‘i va energiyaning, texnologik jarayonning, boshqarishning, mehnatni texnik jihatdan qurollantirish va yuqoridagilarning hammasini yangidan yaratishni o‘z ichiga oladi.

Fan-texnika taraqqiyotining vazifasi quyidagilardan iborat:

- tejamkorlikni amalga oshirish (vaqtni, xom ashyo va materiallarni, yoqilg‘i, elektr energiyasi va h.k.larni tejash);
- ishlab chiqarish jarayonlarini osonlashtirish, mehnatni engillashtirish;
- mehnatning mazmuni va xarakterini o‘zgartirish;
- ishlab chiqarishning ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini yanada yuqori darajaga ko‘tarish.

Fan, ta`lim va ishlab chiqarish o`rtasidagi aloqadorlikni chizma ko`rinishida quyidagicha tasvirlash mumkin (6.1-rasm).

Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari tadqiqotlar yoki amaliy tajribalar natijasida olingan va yangi materiallar, mahsulotlar, jarayonlar, qurilmalar, xizmatlar, tizimlar yoki usullarni yaratishga yo‘naltirilgan mavjud bilimlarga asoslangan tizimli ravishda amalga oshiriladigan ishlar kiradi. Ishlanmalar tarkibiga konstruktorlik, loyihaviy va texnologik ishlar kiradi.



6.1-rasm. Fan, ta`lim va ishlab chiqarish o`rtasidagi o`zaro aloqadorlik[1]

So‘nggi o‘n yetti yil mobaynida respublikamizda ilmiy muassasalar tomonidan o‘z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini moliyalashtirish manbasi tarkibida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Xususan, 2000 yilda bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirishga asosan buyurtmachi mablag‘lari (jami xarajatlarning 44,3 foizi) jalb qilingan bo‘lsa, so‘nggi yillarda ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirishda ko‘proq davlat byudjeti mablag‘lari (57,7 foizi) va o‘z mablag‘laridan (22,3 foizi) foydalanilmoqda. Bundan tashqari ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirishda xorijiy manbalar va byudjetdan tashqari fondlar mablag‘laridan foydalanish ham sezilarli ortgan.

2000 yilda asosan buyurtmachilar mablag‘lari hamda davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan (jami moliyalashtirishning 84 foizi) moliyalashtirilgan bo‘lsa, 2016 yilda davlat byudjeti mablag‘lari qatorida o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirishning ham ulushi ortgan.

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari bilan band bo‘lgan tadqiqotchi mutaxasislar soni 2016 yilda 2000 yilga nisbatan 27,4 foizga oshdi va 31966 nafarni tashkil etdi.

2016 yilda tadqiqotchi-mutaxassislarning 26,2 foizi (8391 nafar) tabiiy fanlar sohasida, 20,2 foizi (6457 nafar) gumanitar fanlar sohasida, 18,3 foizi (5852 nafar) ijtimoiy fanlar sohasida, qolgan 35,2 foizi (11266 nafar) texnika, tibbiyot, qishloq xo‘jaligi fanlari sohasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan[2].

6.2. Fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida fan-texnika taraqqiyotining uchta asosiy yo‘nalishidan foydalanish mumkin:

a) an’anaviy yo‘nalish;

b) zamonaviy yo‘nalish;

v) istiqbolli, ustuvorlik yo‘nalishlar.

[1] Xotamov I., Aliev Y. “Innovatsion iqtisodiyot” fani bo‘yicha ishchi daftar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018 yil,174 bet.

2 Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

An’anaviy yo‘nalishga elektrlashtirish, mexanizatsiyalash, qisman avtomatlashtirish, kimyolash kiradi.

Zamonaviy yo‘nalishga elektronizatsiyalash, kompleks mexanizatsiyalash, kompleks avtomatlashtirish (robotlashtirish, kompyuterlashtirish), atom energetikasini jadal rivojlantirish, yangi materiallarni ishlab chiqarish va ularga ishlov berish, hozirgi davr talabiga javob beradigan texnologiyalarni qo‘llash, texnologiyaning ekologiYaga salbiy ta’sirini kamaytirish kiradi.

Istiqbolli, ustuvor yo‘nalishlarga quyidagilar kiradi:

- elektronizatsiyalash, biotexnologiyani keng joriy etish, iqtisodiy informatikani ko‘paytirib, rivojlantirib, ishlab chiqarishni to‘la axborotlashtirish, fundamental fanlar bo‘yicha izlanishlarni kuchaytirish;
- yangi, ilg‘or (progressiv) texnologiyalarni joriy etish;
- texnika va texnologiya, elektr energiyasi va yoqilg‘ilarning, xom ashyo va materiallarning eng yangi turlarini yaratish;
- mavjud mashina va mexanizmlarni, asbob-uskuna hamda jihozlarni modernizatsiyalash.

«Nou-xau» — bu, texnik, tashkiliy-iqtisodiy, tijorat bilimlari va tajribaning yig‘indisi bo‘lib, almashish predmeti hisoblanadi.

“Innovatsiya” – atamasi “yangilik kiritish” yoki “yangiliklar” tushunchalarining sinonimidir.

Lizing — mashina, asbob-uskuna, transport vositalari, ishlab chiqarish inshootlarini uzoq muddatli ijaraga olish; uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar eksportini kreditlash shakllaridan biri. Lizingning asosan moliyaviy va oddiy turi mavjud.

Venchur —mohiyati ilmiy-muhandislik ishlari, yangi texnika, texnologiya, tovar namunalarini yaratish, ishlab chiqarishni boshqarish, tijorat ishini tashkil qilish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, yirik firmalar va davlat ijara kontrakti buyurtmalarini bajarishdan iborat.

Injiniring (ixtirochilik), muhandislik maslahat xizmatlari — tijoratchilik qoidalariga asoslangan holda ishlab chiqarishni tashkil etishni ta’minlash, mahsulot sotishni uyushtirish, ishlab chiqarish ob’ektlarini qurib, ishga tushirish yuzasidan maslahat berish.

Fan-texnika taraqqiyotining muhim an’anaviy yo‘nalishlaridan biri ishlab chiqarishni elektrlashtirishdir.

Elektronizatsiyalash deganda, ishlab chiqarish jarayonlarida elektronikadan keng foydalanish, ya’ni ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan axborotni kompyuterlarda yig‘ish, o‘tkazish va ishlash tushuniladi.

Avtomatlashtirish — ilgari odam bajaradigan, boshqarish va nazorat qilish vazifalari asboblar, avtomatik qurilmalar zimmasiga yuklanadigan mashinali ishlab chiqarishni rivojlantirish jarayoni.

Modernizatsiyalash – bu barcha voqea, hodisa va jarayonlarni, jumladan ishlab chiqarishni zamonaviy talabga moslab o‘zgartirish, ya’ni zamonaviylashtirish va yashartirishdir. Modernizatsiya (fransuzcha modernisation, moderne – yangi, zamonaviy) jamiyat hayot faoliyatining barcha sohalarida kechadigan murakkab global jarayon bo‘lib hisoblanadi.

Kimyolashtirish — ishlab chiqarishning hamma sohalarida kimyo fanining barcha yutuqlaridan keng foydalanish, ishlab chiqarishning barcha jarayonlariga kimyoviy

materiallarni, xom ashyo va materiallarni qayta ishlashning kimyoviy usullarini joriy etishdash iboratdir. Kimyolashtirish yordami bilan oldindan belgilangan xususiyatli xom ashyo materiallarni tayyorlash mumkin. Masalan, bo‘yoq va laklar, sintetik kauchuk, sintetik tola, plastmassalar va h.k.lar.

6.3. Sanoatda innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi va xarajatlari dinamikasi

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar nafaqat korxonalarda ishlatiladigan texnika va texnologik jarayonlarni yangilashni, balki boshqaruv va hisobini tashkil etishda innovatsion yondashuvni talab etadi. shu nuqtai nazardan korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni baholashning amaliyotda qo‘llaniladigan ayrim jihatlarini tadqiq etish katta ahamiyatga ega.



6.4. Sanoatda ilmiy va ilmiy-texnik salohiyat

Ilmiy salohiyat - bu yangiliklarni yaratish uchun zarur bo‘lgan qobiliyatga malakaga ilmiy axborotga, asbob-uskunalarga va boshqa vositalarga ega bo‘lgan tadqiqotchilar ishlab chiqaruvchilar (razrabotchiki) va sinov ishlab chiqarish ishchilarining to‘plami tushuniladi.

Ilmiy salohiyat 4ta tarkibiy qismlardan iborat, ya’ni: kadrlar, moddiy texnik baza, axborot va tashkiliy qismlar.

Axborotlarni mazmuniga ko‘ra 5 turga ajratish mumkin.

1. Me’yoriy-texnik xujjatlar (texnik vazifalar, tavsiyanomalar, uslubiyatlar, normativlar, standartlar va texnik sharoitlar patentlar);

2. Ilmiy hisobotlar (ko‘pincha fundamental tadqiqotlar natijalari to‘g‘risida);

3. Yangiliklarning namunalari (texnologik jarayonlar, rejimlar, labarotor va sinov

na’munalari);

4. Loyixa- konstruktorlik xujjatlar;

5. Nashrlar va dissertatsiyalar.

Ilmiy texnik salohiyat - bu ITTning ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlariga erishishda foydalanilishi mumkin bo‘lgan resurslarning o‘zaro bog‘liq yig‘indisi tayyor yangilik yoki ishlanmalarning miqdori va sifati bilan aniqlanadi.

Axborot mehnatning mahsuli sifatida o‘zining xuquqiy aksini ilmiy-texnik litsneziyada topadi.

Ilmiy-texnik litsenziya- bu kashfiyotlar va ixtirolarga asoslangan yangiliklar to‘g‘risidagi axborotlardan (ishlab chiqarishga qo‘llash uchun tayyor bo‘lgan) foydalanish imkonini beruvchi ruxsatnoma.

Texnik jihatdan yangilik darajasiga qarab yangiliklar (ishlanmalar) besh guruhga bo‘linadi:

1. Tayyor qaror va konstruksiyalardan, mavjud ma’lumotlardan foydalanadigan;

2. bir konsepsiya doirasidagi bir necha qarorlar ichidan bittasini tanlaydigan;

3. dastlabki konstruksiyani, qarorni, konsepsiyani o‘zgartiradigan;

4. yangi konsepsiya, konstruksiya va qarorni topadigan;

5. Tubdan yangi konsepsiya, konstruksiya, tizim va boshqalarni yaratuvchilarga bo‘linadi.

Mahsulot sifati - bu mahsulotning jamiyat va shaxs talablarini qondira olish qobiliyati hisoblanadi.

Mahsulotning texnik darajasi- bu uning konstruksiyasining, texnologiyasining va ishlatiladigan materiallarning mukamallik darajasi.

Istiqbolli standartlar - bu ishlab chiqarish va texnik maqsadlar uchun mo‘ljallangan mahsulot etalonlari bo‘lib, ular mahsulot sifatini bashorat qilishga asoslangan.

Eng yangi texnika- bu istiqbolli standartlar talablariga javob bera oladigan texnika bo‘lib, u yangi texnologik tamoyillar, kashfiyotlar va ixtirolarga asoslanadi. U ijtimoiy mehnat unumdorligini ko‘p martalab oshishini, bir-birlik mehnat sarfi o‘rtacha qiymatini kamayishiga olib keladi.

Yangi texnika DST, TST va texnik shartlarga to‘liq javob berib va ixtirolardan foydalanib xalq xo‘jaligida samara bo‘lishni ta’minlaydi va ishlab chiqarilgan vaqtiga muvofiq mahsulotni yangilash me’yorlariga mos keladi.

Modernizatsiya qilingan texnika DST, TST va texnik shartlarga, texnikani yangilash me’yorlariga mos kelib, avval qo‘llanilgan texnikaga nisbatan samarani ta’minlaydi.

Mahsulotning texnik darajasi- bu nisbiy ko‘rsatkich bo‘lib, etalonga (dunyoda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning eng yaxshisiga) yoki patent va boshqa ilmiy texnik ko‘rsatkichlar to‘plamiga solishtirish yo‘li bilan aniqlanadi.

Mahsulotning texnnik darajasi hajm ko‘rsatkichlari (natural va qiymat shaklida) va quyidagilarning salmog‘i (foizda) orqali aniqlanadi.

- oliy sifatli, dunyodagi eng yaxshi na’munalarga mos keluvchi va ulardan o‘tib ketuvchi mahsulotlarning;
- ishlab chiqarishda birinchi marta o‘zlashtirilayotgan eskirgan va uch yilgacha

ishlab chiqariladigan mahsulotlarning;

- dunyo narhlaridan past bo‘lmagan narhlarda eksport qilinayotgan mahsulotlarning salmog‘i.

6.5. Ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va litsenziyalash

Patent idorasi sanoat mulki obektlariga patent berish haqidagi talabnomalarni ko‘rib chiqish uchun qabul qiladi, ular bo‘yicha davlat ekspertizasini o‘tkazadi, ularni davlat ro‘yxatiga oladi, sanoat mulki obektlariga patentlar beradi, rasmiy axborotnoma nashr etadi, sanoat mulki obektlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining qo‘llanilishiga doir qoidalar qabul qiladi va tushuntirishlar beradi.

Kashfiyot deb bilim darajasiga tubdan o‘zgartirish olib kiradigan ilgari noma’lum bo‘lgan, ammo obektiv mavjud moddiy nuqtaning hodisa, xossa va qonuniyatlarini tushuntirib beruvchi ta’limotga aytiladi.

Kashfiyotni himoya qilish maqsadi:

• Ilmiy mazmun ishonchliligini tasdiqlash uchun;

• Muallif va davlat ustunligini o‘rnatish;

• Kashfiyot muallifining xususiyatlarini tan olish va unga tegishli imtiyozlar berish;

• Kashfiyot bilan bog‘liq ilmiy-texnologik masalalarni hal qilishda ko‘maklashish;

• Fan va texnikada, foydalanish uchun kashfiyotlarni davlat tomonidan ma’lumot uchun qabul qilinishi va hisobga olinishi.

Dasturiy ta’minot yoki EHM uchun dastur bu EHM, uning tarmoqlari va boshqa kompyuter vositalarining muayyan natijalar olish maqsadida ishlash uchun mo‘ljallangan ma’lumotlar va buyruqlar majmuidir.

6.6. Fan-texnika taraqqiyotining samaradorligini baholash

Yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish uchun uning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligni aniqlash kerak.

Fan-texnika taraqqiyoti tadbirlari iqtisodiy samarasini hisoblash tartibi uslubiyoti:

- kapital qo‘yilmalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash bo‘yicha Namunali metodika;
- iqtisodiyotda yangi texnika, ixtirochilik va ratsionalizatorlik takliflaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash metodikasi;
- korxonalar va ishlab chiqarish birlashmalari boshqaruvining avtomatlashtirilgan tizimining iqtisodiy samaradorligini hisoblash metodikasi;
- boshqaruvning avtomatlashtirilgan tizimi samaradorligini aniqlash metodikasi (GOST-24.702.85).
- mehnatni ilmiy tashkil etish, ya’ni MIT bo‘yicha chora-tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash metodikasi;
- atrof-muhitni muhofaza etish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun sarflangan xarajatlarning iqtisodiy samarasini aniqlash uchun vaqtinchalik metodika.

Yangi texnika samaradorligini hisoblash qiyosiy samaradorlikni aniqlash tamoyillariga asoslanadi. Hozirgi kunda bunday hisob-kitoblar iqtisodiyotda yangi

texnikadan, ixtirochilik va ratsionalizatorlik takliflaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash metodikasi asosida amalga oshiriladi.

$$S = (X_1 - X_2) \times A_2$$

Bu erda: S — yillik iqtisodiy samara, so‘m;

X_1 va X_2 — yanga texnika yordami bilan tayyorlangan mahsulot birligiga sarflangan, keltirilgan xarajatlar ($T+E_n$ x K);

A_2—hisobot yilida yangi texnika yordamida ishlab chiqarilgan mahsulotning yillik hajmi.

Qisqacha xulosalar

Sanoatning ilmiy-texnika bazasi — bu, uning ilmiy-texnik salohiyati va barcha mehnat vositalarining majmuidir. Bu salohiyat, avvalo, sanoat, so‘ngra, iqtisodiyotning boshqa sohalari rivojini ta’minlaydi.

Mustaqillik yillarida bu salohiyatni yuqori darajaga ko‘tarish uchun barcha imkoniyatlar ishga solindi. Sanoat ishlab chiqarishiga eng samarali ilmiy tadqiqotlarning natijalarini, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlanmalarni joriy etish yo‘lga qo‘yildi. Natijada ilg‘or texnologiyalar va innovatsion g‘oyalar samarasi yildan yilga oshib bordi.

Mamlakat sanoatining yanada izchil va barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun Fan-texnika rivojining ustuvor va eng istiqbolli yo‘nalishlaridan to‘la-to‘kis foydalanish zarur.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va ahamiyati nimada?
2. Texnika va texnologiyaning tavsifi va uning turlari.
3. Fan-texnika taraqqiyotining yo‘nalishlari: Ishlab chiqarishni elektrlashtirish va elektronizatsiyalash; ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash, ishlab chiqarishni kimyolashtirish, yangi mehnat buyumlari va qurollari, energiya va yoqilg‘ining yangi turlarini yaratish.
4. Yangi texnikani ishlab chiqarishga joriy etishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash usuli nimalarni ko‘zda tutadi?

Asosiy adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida» gi №PF-4947 sonli Farmoni. //Xalq so’zi. 2017 yil 8 fevral.
2. Xotamov I., Aliev Y. “Innovatsion iqtisodiyot” fani bo‘yicha ishchi daftar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018 yil,174 bet.
3. Sh. M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak . Tashkent : O‘zbekiston, 2017 y.,104 b.
4. Sengupta J.Theory of Innovation, A New Paradigm of Growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p.154.
5. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.:”Sano-standart”, 2014.-304 b.
6. www.webofscience.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi
7. www.search.ebscohost.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.

7- BOB. ISHLAB CHIQARISHNI IJTIMOIY TASHKIL ETISH

7.1. Diversifikatsiyalash tushunchasi, mohiyati va iqtisodiy ahamiyati

Davlat rahbari tomonidan Harakatlar strategiyasida[1] yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish zarurati alohida ta’kidlandi.

Ishlab chiqarishni tashkil etishning assimetrik shakllari hisoblangan ixtisoslashuv va diversifikatsiya jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida turli xil nisbatlarda ishlab chiqarishda qo‘llanilgan.

Diversifikatsiya:

1) tovar strategiyasi turi, unga asosan korxona ishlab chikarilayotgan maxsulotlar sonini kengaytiradi;

2) yangi bozorlarni egallab olish va kushimcha foyda olish maksadida ishlab chikarishning bir-biri bilan boglik bulmagan ikki yoki undan ortik turini bir vaktning uzida kengaytirish va rivojlantirish.

«Diversifikatsiya» lotincha (diversificatio) so‘zidan olingan bo‘lib o‘zgarish, har xillik, bir oz narsaga ko‘p tomonlama, kombinatsiyalashgan, ko‘p tarmoqli tus berish kabi ma’nolarni anglatadi[2].

Diversifikatsiya jarayoniga berilgan zamonaviy ta’riflar orasida angliyalik iqtisodchilar Bennok, Bakster va Devnslar tomonidan keltirilgan ta’rifga e’tiboran «**diversifikatsiya**-bu biror firma yoki geografik mintaqada tovarlar va xizmatlar doirasini kengaytirishdir».

Quyidagi ta’rif birmuncha aniqroq va kengroq bo‘lib, unda diversifikatsiya jarayon va muayyan sub’ektlar tomonidan amalga oshiriladigan tadbir sifatida talqin qilinadi: «**diversifikatsiya** — alohida olingan korxona yoki konglomerat yoxud iqtisodiyot tomonidan ishlab chiqariladitan tovarlar va xizmatlar turining oshishidir. Diversifikatsiya iqtisodiyotda tabiiy jarayon sifatida ro‘y beradi. Ayrim hollarda esa biznes sohiblari yoki davlat tomonidan tor doiradagi mahsulotlarga (ayniqsa ularga bo‘lgan talab o‘zgaruvchan bo‘lgan sharoitda) bog‘liq bo‘lib qolish xatarini kamaytirish uchun amalga oshiriladi».

Britaniyalik Syuzan Meyx’yu nuqtai nazari ham ushbu konsepsiYaga ancha yaqin. U diversifikatsiYaga «sanoat ishlab chiqarishni keng doiradagi faoliyat turlariga yoyish va shu orqali fakat bir turdagi mahsulotta o‘ta bog‘liq bo‘lib qolmaslik uchun qo‘llaniladigan tadbir» sifatida ta’rif beradi. U o‘z fikrini davom ettirar ekan, diversifikatsiyaning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatadi[3]:

- gorizontal diversifikatsiya;
- konsentrik diversifikatsiya;
- konglomerat (vertikal)diversifikatsiya;

---

[1] O’zbekistonRespublikasiPrezidentining“O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida”giPF-4947-sonli Farmoni. // Xalq so’zi. 8 fevral 2017 yil.

[2] Slovar inostrannix slov, M, "Slavyanskiy dom knigi", 1998. - 509 s.

[3] Tpe Penguin Dictionary of Economics (Graham Bannock, R.B. Baxter and Etlep Davis], - 1998. -p. 168.

- mehnat bilan ta’minlashning mintaqalar bo‘yicha diversifikatsiyasi;

Gorizontal diversifikatsiya deganda ilgarigi tovarlarga o‘xshash ishlab chiqarish, texnik, ta’minot va sotish sharoitlariga yaqin bo‘lgan tovarlarni ishlab chiqarish tushuniladi.

Konglomerat (vertikal) diversifikatsiya esa ilgarigi tovar ishlab chiqarishni sotuv yo‘nalishi sifatida ham tovar dasturini chuqurligini ustirishni anglatadi. Masalan, gusht mahsulotlarini sotuvchi maxsus do‘kon mol etishtirishni va seleksiya bo‘yicha ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Konsentrik diversifikatsiya korxona uchun yangi tovarni ishlab chiqarishni ko‘zda to‘tadi.

Amerikalik iqtisodchilar S. Fitper, R.Dornbush, Malenzilar diversifikatsiyani «tavakkalchilikni bir nechta aktivlarga taqsimlash orqali uning darajasini pasaytirishga yo‘naltirilgan strategiya» sifatida aniqlaydilar. Ularning fikricha, diversifikatsiyaning asosiy qoidasi «hamma tuxumlarni bitta savatda saqlamaslikdan iborat». Mazkur ta’rif bir muncha umumiyroq xarakterga ega bo‘lsada, diversifikatsiyaning iqtisodiy mohiyatini to‘liq o‘zida aks ettiradi.

Yana bir angliyalik iqtisodchi Devid Skott diversifikatsiya mazmunini bir muncha boshqacharok tushunadi. Uning fikricha, diversifikatsiya «bu turli xil korxonalarning qimmatli kog‘ozlar sotib olish orqali ulardan keladigan foyda miqdorini barqarorlishishini ta’minlashdir». Ko‘rinib turibdiki, bu ta’rifda ham «barcha tuxumlarni bitta savatda saqlamaslik» tamoyili ustun o‘ringa ega. shu bilan bir qatorda bu ta’rifda moliyaviy diversifikatsiya masalasiga asosiy e’tibor qaratilgan.

Shunday qilib, diversifikatsiya - bu oldindan qo‘yilgan maqsad emas, balki ob’ektiv jarayonning vujudga kelishi natijasida amalga oshiriladigan majburiy chora-tadbirdir.

7.2.Sanoat korxonalarida yangi tovar ishlab chiqarish, tovar diversifikatsiyasi

Firma doimo tovar strategiyasini takomillashtirib borishi zarur. Bu barqaror assortiment tuzilishiga, doimiy sotuvga va foydaga erishishga imkon beradi.

Tovar innovatsiyasi strategiyasi yangi tovarni ishlab chiqarish va tadbiq etish dasturini aniqlaydi. Biroq «yangi tovar» tushunchasini turli talkinga ega va takomillashtirishni asoslash sifatida ishlatiladi, mavjud tovarni yangilash uchun ishlatiladi.

Mavjud nazariya va amaliyotda innovatsiya «yangilik kiritish» va «yangilik» tushunchalari bilan sinonim hisoblanadi.

Tovar innovatsiyasi yangi tovarni ishlab chiqish va qo‘llashni ko‘zda to‘tadi va amalga oshirish shakli bo‘yicha tovar differensiatsiyasi va tovar diversifikatsiyasiga bo‘linadi.

Tovar diversifikatsiyasi o‘zida raqobatchi tovarlardan ajralib turuvchi qiladigan bir qator asoslangan tovar modifikatsiyasini ishlab chiqish jarayonini mujassamlashtiradi.

Tovarni modifikatsiyalashda tovar sifatini oshirish, tovar xossasini yaxshilash, tovarni bezash va tashqi dizaynini yaxshilash ko‘zda tutiladi.

Maqsadli bozorni o‘zlashtirish yo‘llarini qidirishda muqobil strategiyalarni aniqlash uchun I.Ansoff tomonidan 1966 yilda taklif etilgan «tovar-bozor» matritsasi ishlatiladi.

7.1-jadval

«Tovar-bozor» matritsasi[1]

Tovarlar	**Bozorlar**	
	Joriy	**YAngi**
Joriy	Bozorga chuqurroq kirib borish strategiyasi • Sotishni jadallashtirish • YAngi xaridorlarni qidirish • Raqobatchilarni sindirish • Tovarni iste’mol sohasini kengayishi	Bozorni rivojlantirish strategiyasi • YAngi bozorlar • YAngi sotish hududlari • Xalqaro bozorlar • Tovarni ishlatilishini yangi sohalarini tuzish
YAngi	Tovarni rivojlantirish • Uz kuchi bilan yangi tovar ishlab chiqarish • Bitimlarni rivojlantirish • Litsenziya • Maxorat bilan ayirboshlash	Diversifikatsiya • Gorizontal • Vertikal • Konsentrik

Tovar diversifikatsiyasining maqsadi bo‘lib iste’molchilarni tovarni afzal qurish, alohida bozor yoki bozor segmenti xususiyatlarini hisobga olish orqali tovarni jalb etuvchanligini oshirish, uni raqobatbardoshligini o‘sishi hisoblanadi.

Tovar diversifikatsiyasi quyidagi omillar bo‘yicha amalga oshiriladi:

Tovarni qo‘shimcha imkoniyatlari.

Tovardan foydalanish samaradorligi.

Komfortlilik.

Ishonchlilik.

Tovar dizayni va stili.

YAngi tovarlarni ishlab chiqish va qo‘llash innovatsiya siyosatining tamoyil va uslublariga, xususan, tovar innovatsiyasi jarayoniga mos holda amalga oshiriladi.

Tovar innovatsiyasi jarayoni 6 bosqichni o‘z ichiga oladi:

- yangi tovar haqida g‘oyani qidirish;
- g‘oyani tanlash;
- yangi tovar g‘oyasini tijoratlashuvini iqtisodiy tahlili;
- tovarni ishlab chiqish;
- bozor sharoitida uni tajribadan o‘tkazish;
- tovarni bozorga qo‘llash.

[1] Qosimova M.S., Yusupov M.A., Ergashxodjaeva SH.D. Marketing. Darslik. – T.: TDIU, 2011. 287 b.

7.3.Sanoat korxonalarida maxsulot tuzilmasi, nomenkulaturasi va assortimentining tahlili

Korxona(firma)larning ixtisosligiga kiruvchi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tarkibi bozordagi talab va taklifning o'zgarishiga qarab muntazam takomillashib, rivojlanib hamda mukammallashib boradi. Ayniqsa, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, qiymat o'lchamidagi hajmi strukturaviy o'zgarishlar ta'sirida ortib yoki kamaytirilib aniqlanishi mumkin. Bunda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi sarflanayotgan moddiy va mehnat xarajatlarini e'tiborga olgan holda o'rganilishi tahlilda erishilgan natijalarni yanada aniqroq o'rganish imkoniyatini yaratadi. Korxona uchun ko'proq foyda keltiruvchi, kam xarajatlar talab etiladigan tovarlarni ishlab chiqarish o'ta manfaatlidir. shuning uchun ham tovarlarni ishlab chiqarish hajmini tahlil qilishda strukturaviy o'zgarishlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Mahsulot hajmiga strukturaviy o'zgarishlarning ta'sirini zanjirli borlanish usuli orqali aniqlash mumkin. Korxona uchun naf keltiruvchi barcha strukturaviy o'zgarishlardan foydalanish mahsulotlarning hajmini ko'paytirish imkoniyatini yaratadi.

Strukturaning o'zgarish sabablari turlicha bo'lishi mumkin;

• ishlab chiqarilgan tovarlar tarkibida yuqori narxga sotilishi mumkin bo'lgan mahsulotlar ulushining ko'payishi;

• mo'may foyda keltiruvchi tovarlarning hajmi;

• me'yordagi moddiy va mehnat sarflaridan ham tejamkorlik imkoniyati bo'lgan tovarlarning mavjudligi;

• arzon xomashyo, yoqilg'i va boshqa moddiy boyliklarning yaqinligi;

• ishlab chiqarilayottan mahsulotlarning texnologiyasini takomillashishi evaziga yuqori manfaat;

• tovarlar sifatini yaxshilanishi va boshqalar.

Mahsulotlar nomenkulaturasi — deb, miqdor holida tovarlar guruhlari, kichik guruhlari va pozitsiyalarini belgilashda hamda hisobga olishda qabul qilingan ro'yxatidir.

Tovar (ish, xizmat)lar assortimenti esa, mahsulotlarning ma'lum bir belgilariga qarab, ya'ni, uning turlari, navi, o'lchami, markasi, artikullariga qarab ajratiladigan mahsulotlar xilidir. Tovarlar nomenklaturasi va assortimentini o'rganishda o'rtacha assortiment rejasining bajarilishi tahlil etiladi.

Firma va kompaniyalar faoliyatini tahlil etishda o'rtacha assortiment rejasining bajarilishini ham aniqlash muhim hisoblanadi. O'rtacha assortiment rejasining bajarilishi odatda eng kichik raqamlarni jamlash usuli orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir assortiment turlarini haqiqatda ishlab chiqarilish miqdorlari biznes rejasi bilan solishtirilib har ikki ko'rsatkichdan eng kichigi assortiment hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibiga qabul qilinadi. Assortiment hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibiga qabul qilingan ko'rsatkichlarning jamini biznes reja bo'yicha ishlab chiqarilishi lozim bo'lgan mahsulotlarga bo'lish orqali o'rtacha assortiment rejasining bajarilishi aniqlanadi.

Assortimentni shakllantirish sistemasi quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga olishi

shart:

• iste’molchilarning istiqbolli ehtiyojini aniqlash;

• chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshlik darajasini aniqlash;

• mahsulotning bozordagi hayotiylik siklini o’rganish, o’z vaqtida yangi zamonaviy bo’lgan tovarlar turini yaratish bo’yicha choralar ko’rish va ishlab chiqarish dasturidan ma’naviy eskirgan va iqtisodiy jihatdan kam foydali bo’lgan mahsulotni chiqarib tashlash;

• iqtisodiy samaradorlik va mahsulot assortimenti o’zgarishida xavf xatar darajasini baholash.

7.4. Sanoatda kooperatsiya tushunchasi va uning shakllari

Sanoatda korxonalar ixtisoslashuvining rivoji ishlab chiqarishni kooperatsiya asosida amalga oshadi.

Kooperatsiya- bu ma’lum mahsulot ishlab chiqarish, ish va xizmat bajarishni birgalikda olib borish bo‘yicha tarmoqlar va ular korxonalarining davomli ishlab chiqarish aloqalari shakllaridan biri.

Kooperatsiyada mahsulot etkazib berish tartibi ishlab chiqarish jarayonida buyurtmachining ma’lum ishlab chiqarish-texnikaviy topshiriqni bajarishini hisobga olishini talab etadi. Kooperatsiya xom ashyo, yoqilg‘i va standartlashtirilgan yarimfabrikatlar hamda buyurtmalarni etkazib berish bosqichlarini qamragan holda moddiy-texnika ta’minotidan farqlanadi.

Kooperatsiya murakkab mahsulotlarni ishlab chiqarishni o‘zlashtirishni tezlashtirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni yaxshilash bilan bog‘liq bo‘lgan muhim vazifalarni hal etishga imkoniyat yaratib beradi.

Sanoatning rivojlanish davrlarida ishlab chiqarishni kooperatsiyaning bir qancha samarali shakllari vujudga keldi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- buyumli (agregatli) kooperatsiya;
- texnologik kooperatsiya;
- tarmoqlararo kooperatsiya;
- iqtisodiy rayonlararo kooperatsiya.

Buyumli (agregatli) kooperaratsiya - bu mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqaruvchi bosh korxonaga turli butlovchi buyum va detallarni etkazib beruvchi korxonalarning faoliyatidan iborat. Masalan, detallar bo‘yicha kooperatsiya usulida ixtisoslashgan korxonalar bosh korxonaga sharikopodshipniklar, porshenlar, turli uzellar va asbob-uskunalarning qismlarini etkazib berishlari mumkin.

Texnologik kooperatsiya — bu bir va bir necha korxonalar o‘rtasida alohida jarayonlarlarni bajarish bo‘yicha hamkorlikdir. Ishlab chiqarishning qaysi tarmoqqa taalluqliligi nuqtai nazaridan tarmoq va tarmoqlararo ishlab chiqarish kooperatsiyasi vujudga keladi.

Tarmoqlararo kooperatsiya sanoat tarmoqdarining bir biriga xizmat ko‘rsatishini ifodalaydi. Masalan, sanoat ishlab chiqarishining mashinasozlik tarmog‘i metallurgiya sanoati bilan hamkorlik qilishi mumkin. Kooperatsiya asosida ma’lum mahsulotlarni tayyorlashi, bir biriga butlovchi buyumlar etkazib berishi va muayyan ishlarni bajarib berishi mumkin.

O‘zaro bog‘liq bo‘lgan korxonalarni joylashtirish nuqtai nazaridan iqtisodiy rayonlar miqyosida va rayonlararo kooperatsiya keng tus olishi mumkin.

Rayonlararo kooperatsiya turli iqtisodiy hududlarda joylashgan korxonalar o‘rtasidagi aloqalarni ifodalaydi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etishning bu shakliga baho berish uchun uning ahvolini va imkoniyatlarini bilish lozim. Buning uchun har xil ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- birinchidan, ushbu korxona bilan hamkorlik qiluvchi korxonalar soni. Bunda etkazib beruvchi va buyurtmachi korxonalarning soni alohida-alohida hisob-kitob qilinadi. Masalan, avtomobil zavodlari yuzlab korxona (firma)lar bilan hamkorlik qilsalar, stanoksozlik korxonalarining ishlab chiqarish aloqalari atiga bir nechta korxonalar bilan chegaralangan bo‘ladi.

- ikkinchidan, kooperatsiya usulida olinayotgan yarim fabrikatlar va butlovchi buyumlarning ushbu korxona tomonidan ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulot tannarhidagi ulushi. Masalan, avtomobil tannarhida tashqaridan kooperatsiya yo‘li bilan olinadigan yarim fabrikatlar va butlovchi buyumlarning ulushi taxminan 60-65 foizni tashkil etadi.

Ishlab chiqarish sohasidagi kooperatsiyaning turli shakllari va usullarining rivojlanishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi[1]:

- muayyan mintaqa ishlab chiqarish va bozor infratuzilmalarining rivojlanish darajasi va tarmoqlararo ishlab chiqarish jarayonlarining integratsiyalashuv darajasi;
- tovarlar, mehnat, sarmoya va xizmatlar bozorining shakllanish darajasi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari va uning holati;
- mahsulot ishlab chiqarish va sotish, shuningdek, turli xildagi xizmatlarni ko‘rsatish sohasida raqobatning rivojlanganlik darajasi.

7.5. Ichki tarmoq va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi va uni kuchaytirishda kichik biznes imkoniyatlaridan foydalanish

Mamlakatimiz iqtisodiyotidagi etakchi tarmoqlarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishda turli xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasidagi kooperatsion aloqalarni rivojlantirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi[2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o‘rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2006 yil 5 yanvar, PF–3706-sonli), “Ichki tarmoq va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2007 yil 12 noyabr, PF–3937-sonli) Farmonlari xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasidagi kooperatsion aloqalarni yanada kuchaytirishga imkoniyat yaratuvchi ko‘plab chora-tadbirlar qabul qilindi.

[1]http://www.biznes-daily.uz/uz/birjaexpert/31966-ishlab-chiqarish-koopratsiyasini-rivojlantirish

[2]http://www.biznes-daily.uz/uz/birjaexpert/15610-ishlab-chiqarish-koopratsiyasini-kuchaytirishda-kichik-biznes-imkoniyatlaridan-foydalanish-yonalishlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 noyabrdagi PF–3937-sonli “Ichki tarmoq va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga binoan mamlakatimizda Respublika savdo yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. 2008 yilda Respublika sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasiga xalqaro ahamiyatdagi maqomi berildi. Endilikda sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi ikki bosqichda, ya’ni, birinchi bosqichda – tarmoq ko‘rgazmalari va yarmarkalari, ikkinchi bosqichda – xalqaro tarmoqlararo sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi sifatida o‘tkazilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 yanvardagi Farmonida bu haqida to‘g‘ridan to‘g‘ri shunday deyilgan: “Respublika aholisining bandligi va daromadlari barqaror o‘sishini ta’minlashga doir vazifalarni hal etishda kasanachilikning turli shakllarini keng rivojlantirish, jumladan uning yirik sanoat korxonalari bilan kooperatsiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilar o‘rtasida kooperatsiya aloqalarining mustahkamlanishi oila byudjeti daromadlarini oshirishdek muhim muammoni hal etadi, ish bilan band bo‘lmagan aholi sonini keskin qisqartirish va uning faol qismini ishlab chiqarishga jalb etish imkonini beradi”[1].

Aytish joizki, yuqorida ta’kidlab o‘tilgan farmonga muvofiq, ish bilan bandlikning ushbu shaklini rag‘batlantirish maqsadida bir qancha quyidagi imtiyoz va kafolatlar ko‘zda tutilgan:

– tovarlar (ishlar va xizmatlar) ishlab chiqarish bo‘yicha kasanachilarga buyurtma beradigan korxonalar 2006 yilning 1 fevralidan boshlab 2021 yil 1 yanvarigacha, mehnat shartnomasi asosida kasanachilarga to‘lanadigan mablag‘larga teng miqdorda, mehnatga haq to‘lash fondidan Yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lashdan ozod qilinadi;

– korxonalarga mehnat shartnomasi asosida kasanachilarga korxonalar buyurtmasi bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarishni va xizmatlar ko‘rsatishni tashkil etish uchun asbob-uskuna, jihozlar va inventarlarni tekin yoki ijara sharti bilan berish, jumladan, lizing (moliyaviy ijara) asosida taqdim etish huquqi beriladi;

– korxona tomonidan tuzilgan mehnat shartnomasiga muvofiq kasanachilarga korxona buyurtmasi bo‘yicha ishlarni bajarish uchun tekin foydalanishga berilgan asbob-uskuna, jihozlar va inventarlar ulardan foydalanish davrida mulk solig‘idan ozod etiladi;

– kasanachilar buyurtmachi-korxonalarning ishlab chiqarish texnologiyasiga to‘liq amal qilgan taqdirda, uy sharoitida ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlarni qo‘shimcha sertifikatlash hamda standartlash talab etilmaydi;

– mehnat shartnomasi bo‘yicha ishlayotgan korxonalarga kasanachilar tomonidan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning qaytarilishi ulgurji savdo hisoblanmaydi va litsenziyalanmaydi;

– kasanachilar faoliyati buyurtmachi-korxona qonunchilikda belgilangan tartibda tekshirilgandagina nazorat qiluvchi organlar tomonidan tekshirilishi mumkin.

[1]O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 yanvardagi “Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o’rtasidagi kooperasiyani kengaytirish rag’barlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi Farmoni //Xalq so’zi. 2006 yil 5 yanvar

Kasanachilikning bir nechta turlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Qo‘l mehnatini osonlashtiradigan oddiy moslamalarni qo‘llanib bajariladigan qo‘l mehnati (qo‘lda kashta tikish, to‘qish, bichish, mahsulotni qadoqlash, navlarga ajratish, yaroqsizini ajratish, bo‘yash va hokazo)

2. Murakkab bo‘lmagan asbob-uskunalar qo‘llaniladigan tarzda mexanizatsiyalashtirilgan mehnat (tikuvchilik ishlari, sovg‘alar ishlab chiqarish, buyumlar yig‘ish, mahsulotlarni konservatsiyalash, qandolatchilik mahsulotlarini tayyorlash va hokazo)

3. Korxonaga xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha uyda bajariladigan ish (oziq ovqat yarim fabrikatlarini tayyorlash, qandolatchilik mahsulotlarini pishirish, kir yuvish va kiyim kechaklarni ta’mirlash, qoramol boqish va etishtirish)

4. Telefon, internet kabi aloqa vositalari qo‘llaniladigan tarzda masofadan turib bajariladigan ish (ma’lumotlar tayyorlab berish ishlari, savollarni ko‘rib chiqish va ishlash, aholiga telefon orqali masofadan turib ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish, o‘tkazmalar va shu kabilarni bajarish)

7.2-jadval

Kasanachilik faoliyatining o‘ziga xos modellari[1]

Maqsad	Qo‘llanish sohasi
1.Korxonaning xalq iste’moli tovarlari ishlab chiqaradigan va aholiga xizmat ko‘rsatadigan fuqarolar bilan kooperatsiya aloqalarini o‘rnatish	qo‘llanish sohasi – faoliyatlari mavsumiy tusga ega bo‘ladigan korxonalar. Misol – chust P/Z uyda milliy pichoqlar, ro‘mollar va boshqa turdagi xalq hunarmandligi buyumlarini tayyorlaydigan 24 nafar fuqaro bilan mehnat shartnomasi tuzgan. Bundagi yutuq kasanachilik mehnatini bajariladigan ish o‘rinlarini yuzaga keltirishga kam sarf-harajat qilinishidan iborat.
2. Texnologik jarayonga kiritilgan ixtisoslashtirilgan kasanachilik mehnati ish o‘rinlarining yaratilishi	qo‘llanish sohasi – asosiy mahsulot ishlab chiqarish uchun ayrim operatsiyalar yoki buyumlarni bajarilishi. Misollar – furnitura ishlab chiqarish, yarim tayyor mahsulotlarni charhlash, butlovchi detallardan buyumlar yig‘ish, tikuv, poyabzal va hokazo buyumlarga qo‘lda ishlov berish.
3. Korxonaning ishlab chiqarish dasturiga kiritilgan mahsulotni ishlab chiqarish bo‘yicha kasanachilik mehnati bilan bog‘liq ish o‘rinlarini yaratish.	qo‘llanish sohasi – ishlab chiqarishning ayrim turlarini korxonaning ishlab chiqarish maydonlaridan kasanachilarning istiqomat joylaridagi ish joylariga o‘tkazish va shuning hisobiga bo‘shab qolgan maydonlardan samarali foydalanish. Misollar – mahsus kiyim-bosh, fartuk va qanorlar ishlab chiqarish.

[1]O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 yanvardagi “Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o’rtasidagi kooperasiyani kengaytirish rag’barlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi Farmoni //Xalq so’zi. 2006 yil 5 yanvar

7.6. Sanoatda ishlab chiqarishni mahalliylashtirish

Korxonalar o‘rtasidagi kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va mahsulot ishlab chiqarishni mahalliylashtirish o‘zaro chambarchas bog‘liq jarayondir. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasining kengayishi tayyor mahsulot, butlovchi buyum va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashirish uchun shart-sharoit yaratadi.

Ma’lumki, mahalliylashtirish jarayoni iqtisodiyotning jadal va barqaror rivojlanishini ta’minlash, uning tashqi omillarga bog‘liqligini kamaytirish, ishlab chiqarish jarayonlariga yangi, samarali texnologiyalarni tatbiq qilishni jadallashtirish, mahalliy xom ashyo va ishlab chiqarish resurslaridan keng foydalanish, shu asosda zamonaviy raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish, valyuta mablag‘laridan tejamli va oqilona foydalanish, shuningdek, yangi ish joylarini yaratish imkonini beradi.

Mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi quyidagi ijobiy jihatlar bilan tavsiflanadi:

– mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish;


– turli sanoat tarmoqlarining qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan mahsulotlari eksportini ko‘paytirish va an’anaviy eksport salmog‘ini kamaytirish;

– samarali ichki va tarmoqlararo ishlab chiqarish kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish;

– iqtisodiyotning real sektorida mamlakatimiz korxonalarining kooperatsiyasi salohiyatidan yuqori darajada foydalanish;

– mahalliy xom ashyoni qayta ishlashni kengaytirish, ishlab turgan korxonalarni zamonaviylashtirish va yangilarini tashkil etish hisobidan iqtisodiyot tarkibini takomillashtirish va h.k.

Sanoat kooperatsiyasi asosida amalga oshirilayot-gan tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va material-larni ishlab chiqarishni mahalliylashtirish hajmlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, korhonalarning ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'l-gan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o’sishining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi. 2017 yilning yanvar-dekabr oylarida tayyor mahsu-lotlar, butlovchi buyumlar va materiallarni ishlab chiqar-ishni mahalliylashtirish dasturi doirasida 799 ta loyiha bo’iycha 9,9 trln.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo’lib, 512,4 mln.dollarlik mahalliylashtirilgan mahsulot-lar eksport qilindi va 3018 ta yangi ish o'rni yaratildi.




7.1-rasm. 2017-yilda mahalliylashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari[1]

2017 yilning yanvar-dekabr oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi bo'yicha amalga oshirilayotgan eng ko'p loyihalar Toshkent sh. (331 ta loyiha), Toshkent (167), Navoiy (56), Andijon (54), Farg'ona (48), Samarqand (40) va Namangan (31) viloyatlaridagi korxonalarga to'g'ri keladi.




7.2-rasm. 2017-yilning yanvar-dekabr oylarida mahalliylashtirish dasturi doirasida amalga oshirilgan loyihalar soni[2]

[1] Manba: O`zbekiston Respublikasining statistika qo`mitasi / www.stat.uz
[2] Manba: O`zbekiston Respublikasining statistika qo`mitasi / www.stat.uz



7.3-rasm. 2017-yilning yanvar-dekabr oylarida mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi

Shu bilan birga, mahalliylashtirish dasturi doirasida mahsulotlar ishlab chiqarish 2016 yilning tegishli davriga nisbatan Andijon (3,3 martaga), Navoiy (2,2 martaga), Jizzax (2,0 martaga), Namangan (169,4 % ga), Sirdaryo (111,0 % ga), Farg'ona (109,7 % ga), Toshkent (102,5 % ga) viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respub-likasida (2,3 martaga) va Toshkent shahrida (136,6 % ga) oshishi kuzatildi.



7.4-rasm. 2017-yilning yanvar-dekabr oylarida mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining o'sish sur'ati, % da[1]

2017 yilning yanvar-dekabr oylarida mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2016 yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Buxoro va Samarqand viloyatlarida kamayi-shi kuzatildi.

[1] Manba: O`zbekiston Respublikasining statistika qo`mitasi / www.stat.uz



7.5-rasm. Yanvar-dekabr oylarida mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksportining hajmi[1]

7.7. “Klaster” nazariyasining mohiyati va uning rivojlanishi

Iqtisodiyot amaliyotida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar hamkorligining turli ko‘rinishlari mavjud: klaster, franchayzing, autsorsing, subkontrakt va hokazo. Korxonalar raqobatbardoshligining zamonaviy strategiyalari tahlili natijalaridan kelib chiqib, engil sanoat korxonalari raqobatdoshligining asosiy sharti klasterlash strategiyasi hisoblanadi.

Tasniflangan omillarning har biri o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular birgalikda korxonalar raqobatbardoshligiga erishish ustunliklarini keltirib chiqaradi, ta’sir etish bo‘yicha o‘zaro munosabatlarga asoslangan mukammal tizimni shakllantirish lozimligini belgilab beradi.

“Klaster” atamasi fransuzcha so‘z bo‘lib o‘zbekcha tarjimasi “panja”, “bosh”, “bog‘lam”, “guruh”, “to‘planish”, “turg‘un” ma’nolarini beradi. shuningdek, “klaster” tanlanma tadqiqotlarning bir usuli sifatida ham ifodalanadi.


Klasterning mohiyati Alfred Marshallning «Iqtisodiyot prinsiplari»(1890 y.) nomli asaridagi«ixtisoslashgan tarmoq-sohalarning alohida hududlarda uyg‘unlashishi» to‘g‘risidagi nazariy qarashlarida o‘z aksini topgan. Uning ilmiy xulosalari bo‘yicha ixtisoslashgan faoliyat yurituvchi sub’ektlarning hududiy uyg‘unlashuvi:

malakaviy mehnat resurslari mavjudligi;

ta’minotchi va qo‘shimcha sohalarning o‘sishi;

alohida firmalarning ishlab chiqarish jarayonidagi turli bo‘g‘inlarga ixtisoslashuvimavjudligiga asoslangan.

[1] Manba: O`zbekiston Respublikasining statistika qo`mitasi / www.stat.uz



7.6-rasm. O‘zaro munosabatlar samarasi[1]

XX asrning so‘nggi yillaridan keyin klaster nazariyasining rivojlanishida ko‘plab muhim (Amerika, Britaniya, Skandinaviya va b.) ilmiy maktabyutuqlarini kuzatish mumkin.

Xususan, Amerika olimlari M.Porterning «raqobatda ustunlik nazariyasi»[2], M.Enrayt, S.Rezenfeld, P.Maskell va M.Lorensenning «mintaqaviy klasterlar konsepsiyasi»[3], A.Marshallning «sanoat hududlari nazariyasi»[4], P.Bekatinning «Italyan sanoat okruglari nazariyalari»[5], M.Storperning «ideal» hududiy klasternazariyalari yaratilgan.

Qo‘shimcha qiymat va «klasterlar zanjiri uyg‘unligi» kabi nazariyalar ham shu guruhdan o‘rin olgan.

Keltirilgan nazariyalarida **klaster** - ishlab chiqaruvchilarga raqobat ustunligini ta’minlashda yuqori samarali usul sifatida hududdagi ta’lim, fan, texnologik, iqtisodiy va boshqa xizmat ko‘rsatuvchi sub’ektlar faoliyati bilan uyg‘unlashgan tizimi ekanligi nazarda tutiladi.

Britaniya nazariyotchilar (J.Danning, K.Brimen, shmit, J.Hamfrilar) «klaster»ni o‘zaro hamkorlikdagi institutlar tizimi sifatida iqtisodiyotning asosini belgilovchi institutsional tizim deb hisoblaydi. Namoyondalar «klaster»ning o‘ziga «zamonaviy institut» sifatida yondashadi. Mazkur tizim qatnashchilarining o‘zaro munosabati turlicha, ya’ni rasmiy va norasmiy bo‘lganidek, klasterlarning ham tashqi doirasi keng bo‘ladi degan nazariYaga asoslanilgan.

---

[1]Manba: Xakimov Z.A. Yengil sanoat korxonalari raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish. Falsafa doktorlik dissertatsiyasi. – T.: TDIU, 2018.

[2]Porter M. Mejdunarodnaya konkurensiya. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 1993. S. 51,

[3]Enright M. Regional Clustersand Economic Development: A Research Agenda, in Staber, U., Schaefer, N. and Sharma, B., (Eds.) “Business Networks: Prospects for Regional Development, Berlin”: Walter de Gruyter, pp. 190- 213.

[4]Marshall A. Prinsipi ekonomicheskoy nauki, t. I – III. Per. s angl. — M.:Izdatelskaya gruppa «Progress», 1993.

[5]Begattin P. – Becattini G. From Marshalls to the Italian «Industrial Districts»/ www.copetitivness.org. 2015

Skandinaviya olimlari (B.O.Lundval, B.Yonson, B.Asxaym, A.Izaksonlar) – klasterning evolyusion rivojini bir qator bosqichlardan o‘tishi lozimligi (tug‘ilishidan tugagunicha) etirof etiladi, evolyusion nazariya imkoniyatidan foydalanish klaster nazariyasini anglatadi degan mulohaza kiritganlar.

To‘rtinchi guruh olimlar klasterni o‘zi ichiga olgan «hudud – korporatsiya ustunligi», «hudud – bozor ustunligi», «hudud – davlat ustunligi», «hudud – ijtimoiy soha ustunligi» konsepsiyalari asosidagi mintaqaviy rivojlanishning zamonaviy paradigmalari, deb hisoblaydilar.

Klasterlar nazariyasi rus olimlari yu.S.Artamonova, B.B.Xrustalyov va boshqalar[1] tomonidan ham o‘rganilib, amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha loyihalar ishlab chiqilgan. Keltirib o‘tilgan nazariyalarning shakllanishi va ularning amaliy ahamiyati mamlakat, tarmoq va korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning innovatsioyan strategiyasida sifatida korxonalar samaradorlikka erishishini nazarda tutadi.

Klaster nazariyasining tadrijiy rivojlanishi, uning ikki fundamental tavsifini ajratish imkonini beradi:

birinchisi, klasterga uyg‘unlashgan korxona va firmalar faoliyati aniq turdagi tovarlar bozori bilan bog‘liq bo‘lishi zarur: vertikal (xarid va sotish zanjiri) va gorizontal (qo‘shimcha bo‘limlar va xizmatlar, shunga ketadigan maxsus sarflar, texnologiyalar yoki institutlar va boshqa aloqalardan foydalanish);

ikkinchisi – klasterlar geografik yaqin joylashgan o‘zaro bog‘liqlikdagi korxonalar guruhi bo‘lib, ular o‘rtasidagi o‘zaro ijtimoiy-iqtisodiy munosabatning barqarorlashuvi natijasida raqobatbarning rivojlanishi, ko‘proq qo‘shimcha qiymatva bozorda ustunlikni ta’minlash imkoniyatlarini yaratishga qaratiladi.

Hudud, tarmoq va korxona raqobatdoshligini oshirishga klaster nazariyasini tatbiq etish amaliyotiga ko‘ra, klaster– geografik nuqtai nazardan qo‘shni bo‘lgan, o‘zaro bog‘liq korxonalar (ishlab chiqaruvchilar, mahsulot etkazib beruvchilar va hakozo) hamda ularga aloqador xizmatlarni ko‘rsatib, ma’lum sohada faoliyat yurituvchi tashkilotlar (ta’lim muassasalari, davlat boshqaruv idoralari, infratuzilmali kompaniyalar) guruhidir.

Shuningdek,klaster – ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligioshishiga imkoniyatlar yaratuvchi, o‘zaro chambarchas bog‘langan tarmoqlar Yagona texnologik zanjirini tashkil etuvchi hamjamiyatlardir[2].

Mamlakat iqtisodiyoti klasterlarning kuchli jihatlariga tayanadi, chunki ularsiz eng rivojlangan iqtisodiyot ham yuqori darajada samarador-likka erisha olmaydi. Klasterlarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi, ular ishtirokchilari yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlanadi va quyidagilarda o‘z aksini topadi:

boshqa tarmoqlardan keladigan yangi ishlab chiqaruvchilar ilmiy tadqiqot ishlarini rag‘batlantiradi va yangi strategiyalarni ta’minlab, rivojlanish jarayonini tezlashtiradi;

ishtirokchi korxonalarning erkin axborot almashinuvi yuzaga keladi, yangiliklar iste’molchi va mahsulot etkazib beruvchilarning kanallari bo‘yicha tez

[1]Klasternie politiki i klasternie inisiativi: teoriya, metodologiya, praktika. (Kollektivnaya monografiya). Minobrazovaniya i nauki RF, Minekonomrazvitiya RF, Pravitelstva Penzenskoy oblasti. Penza, 2013.

[2]Porter M. Konkurensiya. – M.: Izdatelskiy dom «Vilyams», 2011.

tarqaladi;

klasterdagi o‘zaro aloqalar raqobatda yangi imkoniyatlar paydo bo‘lishiga olib keladi;

inson kapitali, ilmiy g‘oyalari rivojlanishi va ishlab chiqarishga joriy etilishiga yangi imkoniyatlar yuzaga keladi.

7.8. Sanoatda klasterlarni tashkil etish bo‘yicha chet mamlakatlar tajribalari

Jahon ekspertlarining fikricha,klaster strategiyasidan foydalanish hozirgi vaqtga kelib, dunyoning etakchi mamlakatlarida iqtisodiyotning qariyb 50 foizini egallagan.

Klaster nazariyasining asoschisi, amerikalik marketolog olim M.Porter tomonidan 10 ta iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatning 100 ta sanoat va boshqa tarmog‘ida tashkil etilgan klasterlar faoliyati o‘rganilganda qolgan tarmoqlarda, ya’ni klaster tizimidan tashqaridagilarga nisbatan raqobatda ustunligi hamda ular joylashgan hududlar aholisining turmush darajasi ham yuqoriligi aniqlangan.

Evropa Ittifoqi mamlakatlari va AQShda bu strategiya keng qo‘llanilmoqda. AQSh sanoatining 50 foizdan ortig‘i klasterlarda foaliyat yuritmoqda. Ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ulushi YAIMning 60 foizdan oshgan.

Evropa Ittifoqi mamlakatlarida klasterlar soni 2000 dan ziyodni tashkil etadi va jami band aholining 38 foiziga to‘g‘ri keladi. Klasterlar soni Buyuk Britaniyada 168 ta, Gollandiyada – 20 ta, Germaniyada 32 ta, AQShda 380 ta, Daniyada - 34 ta, Fransiyada - 96 ta, Italiyada - 206 ta, Finlandiyada - 9 ta, Hindistonda - 106 ta (8.4-jadvalga qarang).

8.4-jadval

Jahon mamlakatlaridagi sanoat klasterlari soni[1]

Mamlakatlar nomi	Klasterlar soni
Buyuk Britaniya	168
Gollandiya	20
Germaniya	32
AQSh	380
Daniya	34
Fransiya	96
Italiya	206
Fransiya	9
Hindiston	106

Daniya, Finlyandiya, shvetsiya sanoatini klasterlar to‘la egallagan. Masalan, Finlyandiya 2000 yildan buyon raqobatbardoshlikda dunyo reytingida etakchi o‘rinni egallab kelmoqda. Bu mamlakat jahon o‘rmon resurslarining qariyb 0,5 foiz ulushga ega bo‘lib, yuqori unumdorligi bilan ajralib turuvchi klasterlar hisobiga yog‘ochni qayta ishlash sanoatida jahon eksportida 10 foiz, qog‘oz eksportining 25 foizini ta’minlamoqda. Finlyandiya klaster strategiyalaridan samarali foydalanish evaziga

[1]Manba: Xakimov Z.A. Yengil sanoat korxonalari raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish. Falsafa doktorlik dissertatsiyasi. – T.: TDIU, 2018.

telekomunikatsiya bozorida mobil aloqa vositalari bo‘yicha dunyo eksportining 30 foizini (2005-2010 yillar) va mobil telefonlarning 40 foizni etkazib bergan.

Italiya sanoatining klasterlari hissasiga ish bilan band aholining 43 foiz, milliy eksport hajmining 30 foizdan ortig‘i to‘g‘ri keladi. Klaster tuzilmalari Germaniyada kimyo va mashinasozlik sanoatida, Fransiyada oziq-ovqat sanoati va kosmetika sanoatida muvaffaqiyatli ishlamoqda. shuningdek, klaster modelidan shveysariya, Avstriya, Italiya, Daniya, Hindiston, Koreya, Pokiston, Xitoy va Turkiyaengil sanoatida samarali foydalanmoqda.

Klasterlar shakllanishi jarayoni Janubiy-Sharqiy Osiyo, Xitoyda, Singapurda, YAponiyada va boshqa mamlakatlarda faollashib bormoqda. Xitoyda 60 tadan ziyod klasterlar alohida hududlarda shakllantirilgan bo‘lib, ulardagi ishchilarning soni 3,5 million aholi ish bilan ta’minlangan va yillik tovar aylanishi 200 mlrd.dollardan ziyodni tashkil etadi.

Klaster tashabbuskorlari uning nafaqat raqobatbardoshlikni oshirish vositasi,balki, mamlakatlar iqtisodiy va innovatsion rivojlanish strategiyasining asosiy jihati ekanligini qayd etish mumkin. Jaxonda keyingi 10 yilda 20 ta mamlakatda amalga oshirilgan 500 dan ortiq klaster tashabbuslari tahlili uning juda kuchli mavqega asoslanganini ko‘rsatmoqda.

Germaniyada yaqin vaqtgacha mintaqaviy klasterlar rivojlanishi davlat aralashuvisiz bo‘lar edi. Biroq 2003 yilda hukumat klaster tashabbuslariga jiddiy e’tibor qaratdi. Bu, birinchi navbatda, yuqori texnologiyali sohalarni loyihalashga taalluqlidir. Davlat nafaqat mahalliy, balki boshqa manbalar hisobidan sanoatlar va ilmiy markazlar imkoniyatlarini birlashtirishni ko‘zda tutadi.

Italiyada tarmoqlarning o‘zaro kombinatsiyasi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular mebelni qayta ishlashda – kesuvchi asbob, tikuvchilikda – dizayn, charm sanoati qoshida – poyabzal, yog‘ochni qayta ishlashda – mebel kabilardir.

Xitoyda 15 yil davomida to‘qimachilik sanoati, sport tovarlari, kiyimlar, o‘yinchoqlar, idishlarni eksportga yo‘naltirish uchun amalga oshiriluvchi klasterlashtirish siyosatiga katta miqdordagi sarmoyalar kiritishi, uning jaxon bozoridagi raqobatda ustunlikni ta’minlagani bilan izoxlash mumkin.

1990 yilda EI (Evropa ittifoqi) mamlakatlarida xususiy biznesga yordam berish va ularning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida maxsus klasterlashtirish dasturi ishlab chiqilgan. 2006 yilga kelib «EI mamlakatlarida klasterlashtirish manifesti» ma’qullandi va qabul qilindi. 2007 yilda esa «Evropa Klaster memorandumi» ma’qullandi va tasdiqlashga taqdim etildi. 2008 yilda «Klasterlar bo‘yicha Evropa konfederatsiyasi» tasdiqlandi va EI a’zo bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini klasterlash bo‘yicha aniq dasturiy vazifalar belgilandi. Qabul qilingan hujjatlarning asosiy maqsadi alohida mamlakatlarda bo‘lgani kabi butun EIda ham raqobatbardoshlikni oshirishga ta’sir ko‘rsatishga qodir klasterlarni ko‘paytirish va ular ish faoliyatidagi mavjud muammolarning echimiga qaratilgan.

Keyingi yillar davomida jahon iqtisodiyotida informatika, ekologiya, logistika, biotibbiyot preparatlari ishlab chiqarish va hokazolar bilan shug‘ullanuvchi yangi avlod sanoat klasterlari paydo bo‘la boshladi.

Innovatsion klasterlarning asosiylarini Amerikaning «Kremniy vodiysi» deb hisoblash qabul qilingan. chunki uning hududida 87 mingdan ortiq korxonalar, 40 dan

ortiq ilmiy tadqiqot markazlari, 40 ta ta’lim muassasasi jamlangan.

Bundan tashqari, xorijiy kompaniyalark o‘pgina ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish va ishlanmalar yaratish uchun jalb etiladi. Masalan, mikro va nanotexnologiya sohasida ishlovchi «mialoguc» klasteri doirasida yuqori darajadagi mikroblar va mikroorganizmlar yaratish bo‘yicha «Foremost» loyihasini amalga oshirish uchun 8 ta mamlakatdagi 24 ta firmalar bilan hamkorlik qilinadi. shunga ko‘ra, hozirda Fransiyada yaratilgan innovatsion klasterlarning nufuzi jahonda Yagona sanalmoqda.

Agar yaqin vaqtga qadar klasterlar iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar va tarmoqlardagina bo‘lgan bo‘lsa, keyingi paytda bu rivojlanayotgan mamlakatlarda ham kuzatilmoqda. Polsha, chexiya, Sloveniya mamlakatlari, Rossiya, Ukraina, Qozog‘iston va yaqin sharq mamlakatlarida ham klasterlar paydo bo‘ldi va dastlabki natijalar samara bera boshladi.

Chexiya Sanoat va savdo vazirligi «klasterlar dasturi» ustida ishlamoqda. Uning maqsadi klasterlarni yaratish va rivojlantirish, kooperatsiya shaklini gorizontal va vertikal mustahkamlash bo‘lib, uning asosini etkazib beruvchi-iste’molchi-ilmiy tadqiqot institutlari – ishlab chiqaruvchi – ulgurji savdo – chakana savdo hisoblanadi. Odatda, muayyan tarmoq korxonasi biror-bir ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda klasterlarni alohida yuridik shaxs sifatida tashkil etadi. Klasterlarning eng kichik ko‘rinishidagilari, sanoat zonalari kabi eng kamida 15 ta mustaqil korxonaga xizmat ko‘rsatishi lozim bo‘lib, ulardan 75 foiz ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanishi lozim. shuningdek, klasterda birlashgan korxonalarning 60 foizdan ortig‘i kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari bo‘lishi lozim.

Keyingi yillarda Qozog‘istonda yirik sanoat korporatsiyalari, tarmoq tuzilmalari asosida klaster tizimlarini yaratishga kirishildi va loyihalar ustidagi ishlarga M.Porter rahbarlik qilmoqda.

Turkiya dunyo engil sanoat tovarlari bozorida etakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Turkiyada engil sanoat klasteri1995-2000 yillarda faol shakllantirilgan erishgan. Turkiyaning «Sukurova tekstil klasteri»tarkibida 2000-2010 yillar davomida 12 ta yirik kompaniyaning 500 dan ortiq korxonalari samarali faoliyat yuritgan. Hozirda Turkiya gilam mahsulotlari eksportining 40 foizdan ortig‘i va gazlamalarining 35-40 foizi shu klasterhissasiga to‘g‘ri keladi.

Klasterlar «Erkin ilmiy-texnika zonalari»yoki «texnoparklar» shaklida tashkil etilmoqda. Erkin fan-texnika zonalari alohida ajratilgan hududlardan iborat bo‘lib, u erda ilmiy-ishlab chiqarish va o‘quv markazlari jamlanadi hamda ular uchun ilmiy va ishlab chiqarish imkoniyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus huquqiy tartibot o‘rnatiladi. Erkin fan-texnikazonalari yuksak texnologiyalar amal qiluvchi zonalar, texnoparklar, mintaqaviy innovatsiya markazlari-texnopolislar shaklida tashkil etiladi[1].

Texnoparklar ikkita asosiy komponentlardan: ishlab chiqarish (sanoatning ilg‘or sohasidagi korxonalar) va ilmiy markazlar (universitet, institut, ilmiytekshirish instituti, laboratoriyalarning kuchli guruhlari)dan tarkib topadi va ularning faoliyati raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga yo‘naltiriladi.

[1] Manba: O‘zbekiston Respublikasining «Erkin iqtisodiy zonalar» to‘g‘risidagi qonuni. – T., 1996 yil 25 aprel. 220-I-son. www.lex.uz

O‘zbekistonda birinchi bo‘lib A.Sh.Bekmurodov va YAng Son Be[1] «O‘zbekiston tekstil sanoatini rivojlantirish strategiyasiga klaster yondashuvi» bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borganlar. Ularning tadqiqotlarida xorijiy mamlakatlarda iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha klasterlardan foydalanish loyihalari tavsiflanib, Amerikada axborot-kommunikatsiya, YAponiyada avtomobil, neft-kimyo va to‘qimachilik, Italiyada keramika va gilam ishlab chiqarish, Koreya Respublikasida tarmoqda erishilgan natijalar tahlil qilingan. shu bilan birga, A.Sh.Bekmurodov va YAng Son Be asosiy e’tiborni O‘zbekiston engil sanoati sanoati eksport salohiyatini tahlil qilishga qaratib, sohaga xorijiy investitsiyalarni ko‘proq jalb qilish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar tayyorlangan va mahsulotni bo‘yash bo‘yicha sanoat hududiy klasteri modelini Koreya Respublikasining Degu shahridagi tajriba asosida ishlab chiqilgan.

Qisqacha xulosalar

Ishlab chiqarishni konsentratsiyalash - bu ishlab chiqarishning tobora yirik korxonalarda jamlanish jarayonidir. O‘zbekistonda bu jarayon yildan-yilga kuchayib bormoqda.

Kuchli ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitda kichik korxonalarning ulushini yuksaltirish muhim ahamiyatga ega. Katta va kichik korxonalar faoliyatini birga olib borish taraqqiyotning ko‘pgina iqtisodiy va ijtimoiy muammolarini to‘g‘ri yechish imkoniyatini yaratdi.

Sanoat ishlab chiqarishini mahalliylashtirish ayrim import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallarni o‘zimizda ko‘plab ishlab chiqarish imkoniyatini yaratib berdi.

Sanoatning ixtisoslashuvi muayyan mahsulot ishlab chiqaruvchi va o‘ziga xos ishlab chiqarish apparati, texnologik jarayon va ixtisoslashgan kadrlar bilan tavsiflanuvchi tarmoq va ishlab chiqarishlarning yuzaga kelishini ta’minladi.

Sanoat sohasida yuqori darajadagi o‘sishga erishildi. Sanoatning yalpi ishlab chiqarishni tashkil etishning shakllari–konsentratsiyalash, mahalliylashtirish, ixtisoslashtirish, diversifikatsiyalash, kooperativlashtirish va kombinatlashtirishni takomillashtirish tufayli sanoat salohiyatini yanada yuqori darajaga ko‘tarish imkoniyati yaratildi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Sanoat ishlab chiqarishini ijtimoiy tashkil etish shaklining tarkibiy qismlari nimalardan iborat.
2. Ishlab chiqarish konsentratsiyasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mazmun va mohiyati nimalardan iborat?
3. Mahalliylashtirishning mohiyati, ahamiyati va mazmuni.
4. Sanoatda ixtisoslashuv va kooperatsiya. Ularning mazmuni, ko‘rsatkichlari va samaradorligi.
5. Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va korxonalarda xilma-xil mahsulotlarni tayyorlash muammolari.

[1] BekmuradovA.SH., YAng Son Be. Strategiya razvitiya tekstilnoy promishlennosti Uzbekistana. Klasterniy podxod– Tashkent, 2006 y.

6. Ishlab chiqarishni kombinatlashtirish va uning ahamiyati nimalardan iborat. O‘zbekistondagi qanday yirik kombinatlarni bilasiz?

Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro`yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Erkin iqtisodiy zonalar» to‘g‘risidagi qonuni. – T., 1996 yil 25 aprel. 220-I-son. www.lex.uz
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 yanvardagi “Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o’rtasidagi kooperasiyani kengaytirish rag’barlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi Farmoni //Xalq so’zi. 2006 yil 5 yanvar
3. Porter M. Mejdunarodnaya konkurensiya. - M.: Mejdunarodnie otnosheniya, 1993. S. 51,
4. Porter M. Konkurensiya. – M.: Izdatelskiy dom «Vilyams», 2011.
5. Enright M. Regional Clustersand Economic Development: A Research Agenda, in Staber, U., Schaefer, N. and Sharma, B., (Eds.) “Business Networks: Prospects for Regional Development, Berlin”: Walter de Gruyter, pp. 190- 213.
6. Marshall A. Prinsipi ekonomicheskoy nauki, t. I – III. Per. s angl. — M.:Izdatelskaya gruppa «Progress», 1993.
7. Begattin P. – Becattini G. From Marshalls to the Italian «Industrial Districts»/ www.copetitivness.org. 2015
8. BekmuradovA.Sh., YAng Son Be. Strategiya razvitiya tekstilnoy promishlennosti Uzbekistana. Klasterniy podxod– Tashkent, 2006 y.
9. Xiajun A, Dorothe´e H. Assortment Planning for Vertically Differentiated Products. Production and Operations Management Society. Vol. 21, No. 2, March–April 2012, pp. 253–275.
10. Xakimov Z.A. Engil sanoat korxonalari raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish. Falsafa doktorlik dissertatsiyasi. – T.: TDIU, 2018.
11. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.:”Sano-standart”, 2014.-304 b.
12. Klasternie politiki i klasternie inisiativi: teoriya, metodologiya, praktika. (Kollektivnaya monografiya). Minobrazovaniya i nauki RF, Minekonomrazvitiya RF, Pravitelstva Penzenskoy oblasti. Penza, 2013.
13. http://www.biznes-daily.uz/uz/birjaexpert/15610-ishlab-chiqarish-koopratsiyasini-kuchaytirishda-kichik-bizns-imkoniyatlaridan-foydalanish-yonalishlari
14. http://www.biznes-daily.uz/uz/birjaexpert/31966-ishlab-chiqarish-koopratsiyasini-rivojlantirish
15. O`zbekiston Respublikasining statistika qo`mitasi / www.stat.uz
16. www.webofscience.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi
17. www.search.ebscohost.com


8-BOB. SANOATDA KADRLAR VA MEHNATGA HAQ TO‘LASH

8.1. Kadrlar siyosati va uning sanoat taraqqiyotidagi roli

Sanoat ishlab chiqarishida nafaqat mehnat qurollari va mehnat buyumlari (ishlab chiqarish vositalari), balki kadrlar ham alohida ahamiyat kasb etadi.

O’zbekiston Respublikasi bo’yicha 2017 yilda mehnat resurslari soni 18672,5 ming kishini tashkil etib, 2016 yilga nisbatan 183,6 ming kishiga, yoki 1,0 % ga o’sishi kuzatildi.

Mehnat resurslari tarkibida iqtisodiy faol aholi soni 14357,3 ming kishini (jami mehnat resurslarining 76,9 %), iqtisodiy nofaol aholi soni esa 4315,2 ming kishini (23,1 %) tashkil etdi.



8.1-rasm. Ish bilan band aholi sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (2017 yil yanvar-dekabr, jami bandlardagi ulushi, foizda)[1]

Respublikada ish bilan band aholi soni 13520,3 ming kishini tashkil etib, 2016 yilning mos davriga nisbatan 1,7 % ga o’sdi.

2017 yilda ish bilan band aholi sonining 2016 yilga nisbatan yuqori o’sish sur’atlari tashish va saqlashda 2,6 % ni, moliyaviy va sug’urta faoliyatida 2,4 % ni, qurilishda 2,1 % ni va savdoda 1,9 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish bilan bandlarning asosiy ulushi qishloq, o’rmon va baliq xo’jaligi (27,3 %), sanoat (13,5 %), savdo (11,0 %), qurilish (9,5 %) va ta’lim (8,2 %) sohalari hissasiga to’g’ri keldi.

Kadrlar salohiyati - bu, mehnat zahirasi yoki imkoniyatidir. U jamiyat mehnat potensialining tarkibiy qismi hisoblanadi. Unda mehnat resurslarining umumiy soni va tarkibi, ma’lumot darajasi, professional ko‘nikmasi va ishlab chiqarishning u yoki bu sohasida mehnat kilish qobiliyati aks etadi.

BMT statistika komissiyasi 1966 yilgi 14 sessiyasida «Iqtisodiy faol aholi» tushunchasini joriy qilgan. Ularga moddiy ne’matlar ishlab chiqarishida va xizmat qilishda qatnasha oladigan shaxslar majmuasi kiradi deb aytilgan.

[1] Manba: O`zbekiston Respublikasining statistika qo`mitasi / www.stat.uz

Mehnat resurslari deganda mehnatga qobiliyatli yoshdagi (ayollar 16-54, erkaklar 16-59 yoshda) ishchilar soni tushuniladi. Bu chegara qonun orqali belgilangan. Mehnat resurslari chegaralangan, lekin hayotda nogironlar, nafaqaxo‘rlar, yosh bolalar mehnat qobiliyatidan (ish kuchidan) foydalaniladi.

Har bir korxonada xodimlar siyosati ishlab chiqiladi va quyidagi maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi:

- sog‘lom va ishlash qobiliyatiga ega jamoani shakllantirishga;
- korxona ishchilarining malaka darajalarini oshirishga;
- jinsi va yoshiga hamda malaka darajasiga ko‘ra optimal tuzilgan mehnat jamoasini shakllantirishga;
- o‘zgarib borayotgan holatlarni anglaydigan, yangi va ilgor ishlab chiqarishni sezadigan va uzoqni ko‘ra oladigan yuqori mahoratga ega rahbarlarni tanlashga.

Xodimlar siyosati o‘z ichiga quyidagilarn oladi:

- xodimlar tanlash va yuqori lavozimlarga ko‘tarish;
- kadrlar tayyorlash va uzluksiz ularning malakasini oshirish;
- to‘liq bandlik sharoitida xodimlarni yollash;
- shakllangan ishlab chiqarish tizimiga muvofiq ishchilarni joylashtirish;
- mehnatni rag‘batlantirish;
- mehnatni tashkil etishni takomillashtirish;
- korxona ishchilari uchun qulay mehnat sharoitlarini yaratish va boshqalar.

Xodimlarni tanlashda odatda asosiy e’tibor uning ixtisoslashtirilgan bilimiga qaratiladi. Bu esa tez eskiradi. shuningdek, xodimlar va ishga kirmoqchi bo‘lganlarning qaysilari o‘z bilimini doimo oshirib borish qobiliyatiga ega ekanligiga e’tibor berilmaydi.

Gorvard universitetining prezidenti D.Bok ushbu holatga ishora bilan qayd etadiki: Agar siz bilim olishni qimmat deb hisoblasangiz, unda bilimsizlikdan keladigan zararni xisoblang. Savodsizlik va insoniy kapitalning etarli darajada sifatli emasligi uchun biz qiladigan xarajatimiz juda yuqori. shuning uchun kadrlarni o‘qitish bu xarajat emas, balki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish uchun, korxona ishini doimiy takomillashtirib borish uchun zarur bo‘lgan omili deb qarash zarur.

Yaponiyada korxona va firmalarning kadrlar siyosati birinchi o‘rinda universitetlar va ilmiy markazlar bilan aloqalarni kuchaytirishga, ikkinchidan, sanoatni robotlashtirish sohasida mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan bo‘lib, bu ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishning o‘sishidan tashqari, ishchi va mutaxassislar o‘rtasida raqobatchilik muhiti yaratilishiga ham xizmat qiladi.

Germaniyada iqtisodiyot va ishlab chiqarish sohasidagi deyarli barcha o‘zgarishlar kadrlar siyosati bilan bog‘liqdir. Korxonalarning kadrlar salohiyatini shakllantirishda xodimlar malakasi va ma’lumot darajasi asosiy omil hisoblanadi.

Kadrlar siyosati Fransiya va Italiya korxonalarida ham etakchi o‘rinni egallaydi. Gretsiyada raqobatchilik tufayli kompaniya va firmalar ishlab chiqarishni doimiy ravishda modernizatsiya qilishlari, yangi texnologiyalarni qo‘llashga yirik miqdordagi mablag‘larni sarflashlariga to‘g‘ri keladi. Biroq modernizatsiyalashning yakuniy maqsadlariga xodimlar malakasi ishlab chiqarishning texnik darajasiga mos

kelgan holdagina erishish mumkin. shu sababli ko‘plab sanoat korxonalari ishchi va mutaxassislarning malakasini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuasini keng ravishda amalda qo‘llaydilar.

8.2. Kadrlar, ularning tarkibi va strukturasi

Kadrlar (xodimlar) — bu muayyan kasbni egallash bo‘yicha tayyorgarlikni o‘tgan, amaliy tajriba va mehnat ko‘nikmasiga ega, ishlab chiqarish sohasida ish bilan band bo‘lgan kishilardir.

Ishlab chiqarish, xo‘jalik faoliyatida qatnashishiga qarab sanoat tarmog‘ida band bo‘lgan barcha kadrlar ikki guruhga bo‘linadi:

- sanoat ishlab chiqarishi xodimlari;
- nosanoat ishlab chiqarishi xodimlari;

- **sanoat-ishlab chiqarish personali** (S.ICH.P) - asosiy va yordamchi sexlar, zavod boshqaruvi, laboratoriya, ilmiy-tadqiqot va tajriba-loyihalashtirish bo‘limlari (IT va TL.I), hisoblash markazi xodimlari;
- **noishlab chiqarish personali** - uy-joy, kommunal va yordamchi xo‘jaliklarda, sog‘liqni saqlash, profilaktika va ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi xodimlar;
- **rahbarlar** - direktor, direktor o‘rinbosarlari, bosh mutaxassislar, bo‘lim va xizmat boshliqlari, ya’ni muhandis-texnik personal (MTP);
- **xizmatchilar** - hujjatlarni tayyorlash, hisob-kitob va nazorat qilish, xo‘jalik xizmati xodimlari (agentlar, g‘aznachilar, ish yurituvchilar, kotiblar, statistlar va hokazo).

8.1-jadval

Yuridik shaxslarda xodimlar soni va ish haqi fondi (2017 yil yanvar-dekabr, qishloq xo’jaligi va kichik tadbirkorlik sub’ektlaridan tashqari)[1]

	Korxona va tashkilotlar soni, *birlik*	Xodimlar soni, *ming kishi*	Ish haqi fondi, *mlrd. so’m*	O’rtacha oylik ish haqi, *ming so’m*
Respublika bo’yicha - jami	**55 294**	**2 580,8**	**45 005,4**	**1 453,2**
shu jumladan:				
Sanoat	619	479,6	12 038,4	2 091,7
Qurilish	310	59,6	1 294,2	1 808,4
Savdo	476	59,0	1 168,0	1 650,7
Tashish va saqlash	215	114,4	2 670,7	1 945,8
Yashash va ovqatlanish bo’yicha xizmatlar	161	7,4	91,5	1 035,3
Axborot va aloqa	234	28,5	855,5	2 498,5
Moliyaviy va sug’urta faoliyati	139	64,9	2 097,7	2 694,1
Ta’lim	19 034	982,1	13 671,6	1 160,1
Sog’liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish	1 420	420,4	4 948,2	980,8
San’at, ko’ngil ochish va dam olish	2 111	27,3	448,6	1 367,0
Boshqa faoliyat turlari	30 575	337,6	5 021,6	1 239,4

[1] Manba: O`zbekiston Respublikasining statistika qo`mitasi / www.stat.uz

Xodimlar soni deganda korxonada band bo‘lgan barcha ishchi va xizmatchilarning umumiy soni tushuniladi[1]. Bu ikki ko‘rinishda bo‘ladi:

1. Ro‘yxatdagi xodimlar soni.
2. Ishga kelgan xodimlar soni.

Ro‘yxatdagi xodimlar soni deganda korxona ro‘yxatiga kiritilgan doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik ishlaydigan hamda shu korxonadan maosh oladigan barcha xodimlar tushuniladi.

Amaliyotda, ayniqsa, taxlil qilishda **o‘rtacha ruyxatdagi xodimlar soni** degan ko‘rsatkich ham ishlatiladi. Bu bir oyga, bir chorakka, yarim yilga, to‘qqiz oyga va bir yilga hisoblanishi mumkin.

Ishga kelgan xodimlar soni bir taqvim kunida faqat ishga kelgan xodimlardan iboratdir.

Mutaxassislik insonda ma’lum bir turdagi ishlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar majmuasining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Masalan, iqtisodchi, buxgalter, moliyachi yoki texnik tilda - mexanik, quruvchi, energetik, geolog va boshqalar. Ishchilarning bilim va qobiliyatlariga bo‘lgan talab Yagona tarif-malakaviy ma’lumotnomasida (YATMM) va xizmatchilarga esa lavozimlar malakasi ma’lumotnomada aks ettirilgan. Bu hujjatlar asosida korxonalar ishchi va xizmatchilar tariflariga o‘zgartirishlar kiritadilar.

Kasb–faoliyatning maxsus va tor ko‘rinishdagi turi bo‘lib, mutaxassislik kabi nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talab qilsada, mutaxssislikdan farqli ravishda ishlab chiqarishning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib qo‘shimcha ko‘nikmalarni ham talab qiladi.

Malaka deganda biron-bir kasb yoki mutaxassilik bo‘yicha murakkab ishlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan mehnat ko‘nikmalari va bilimlar darajasi tushuniladi. Ishchilar malakasi darajasini baholashda o‘rtacha tarif koeffitsienti va o‘rtacha tarif razryadi hisoblanadi. Tarif razryadlari va koeffitsientlari bir vaqtning o‘zida bajarilayotgan ishlar murakkabligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar hisoblanadi.


8.3. Mehnat salohiyatidan foydalanish ko‘rsatkichlari tizimi, va aniqlash yo‘llari

Mehnat salohiyatini baholash va tahlil qilish uchun ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bu ko‘rsatkichlar iqtisodiy jihatdan turli guruhlarga mansub, chunki mehnat salohiyatining u yoki bu jihatlarini ifodalaydi.

Sanoat ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha amalga oshirilgan choralar natijasida sanoatda band bo'lgan 1 kishiga mehnat unumdorligi 2017 yil yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilga nisbatan 5,6% ga ko'payishi ta’minladi. shu bilan birga, respublikada o'rtacha ko’rsatkichidan (68690,2 ming so'm) mehnat unumdorligi ko’proq ekanligi Toshkent shahrida (122498,6 ming so'm), Sirdaryo (100165,8 ming so'm), Qashqadaryo (99299,1 ming so'm), Navoiy

[1]Abdukarimov I.T. va boshqalar. Korxona iqtisodiy salohiyati tahlili. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2015, – 256 b.

(94884,4 ming so'm) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (81524,6 ming so'm) kuzatildi.



8.2-rasm. 2017 yil yanvar-dekabr oylarida sanoatda mehnat unumdorligi (sanoatda band bo'lgan 1 kishiga ming so'm)[1]

Mehnat salohiyatini ifodalovchi barcha ko‘rsatkichlar iqtisodiy mazmunga qarab uch guruhga bo‘linadi:

- mehnat salohiyati holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar.
- mehnat salohiyati bilan ta’minlanganlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar.
- mehnat salohiyati samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar.

Mehnat salohiyati holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimiga quydagilarni kiritish mumkin:

1. Mehnat salohiyatining o‘rtacha soni.
2. mehnat salohiyatining tarkibi.
3. mehnat salohiyatiing oboroti.
4. mehnat salohiyatining qo‘nimsizligi.
5. mehnat salohiyatining turg‘unligi.

Mehnat salohiyatining o‘rtacha soni tahlil qilinayotgan hisobot davrida aniqlanadi. Buni hisoblash uchun mehnat salohiyatining davr boshidagi (Ms.db) va oxiridagi (Ms.do) soni qo‘shilib, ikkiga bo‘linadi:

$$Ms= (Ms.db + Ms.do)/2$$

Mehnat salohiyati tarkibini tahlil qilganda xodimlarni alohida kategoriyalari bo‘yicha aniqlash lozim. Masalan, umumiy mehnat salohiyatida oliy ma’lumotli xodimlar (Omx) ulushini yoki o‘rta maxsus ma’lumotli xodimlar (O‘mx) ulushi kabi ko‘rsatkichlarni aniqlash mumkin.

$$Ms.t = O‘mx/ Ms$$

$$Ms.t = Omx / Ms$$

[1] Manba: O`zbekiston Respublikasining statistika qo`mitasi / www.stat.uz

Bulardan tashqari, umumiy mehnat salohiyatida boshqaruv xodimlari ulushi, muhandis-texnik xodimlar ulushi kabi ko‘rsatkichlarni ham aniqlash mumkin.

Ms.t = Msi/Ms

bunda:Msi- mehnat salohiyatining alohida guruhlari.

Mehnat salohiyati oborotini tahlil qilish ham hozirgi davrda katta ahamiyatga ega. ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun barcha ishga qabul qilingan xodimlarga (Ms.q) ishdan bo‘shatilgan xodimlarni (Ms.b) qo‘shib, umumiy mehnat salohiyati soniga bo‘lamiz.

Ms.ob = (Ms.q+Ms.b) / Ms.

Ushbu ko‘rsatkichni alohida ishga qabul qilingan va ishdan bo‘shatilgan xodimlar bo‘yicha ham aniqlash mumkin:

Ms.obk = Ms.q / Ms ; Ms.ob.b = Ms.b / Ms

Mehnat salohiyatining ko‘nimsizligi umumiy mehnat salohiyatida salbiy oqibatlar natijasida ishdan bo‘shatilgan xodimlarning ulushini ifodalaydi. Salbiy sabablar bilan ishdan bo‘shaganlar tarkibiga o‘z arizasi bilan bo‘shaganlar ham kiradi. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

Ms.kun = Ms.salb / Ms.

Mehnat salohiyatining turg‘unligi ham uning holatini ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Buni shu korxonada (firmada, kompaniyada) uch yildan ortiq ishlagan xodimlar sonini ((Ms 3 yildan ko‘p ishlaganlar) mehnat salohiyatining umumiy miqoriga bo‘lish yo‘li bilan aniqlash mumkin:

Ms.tur = Ms 3 yildan ortik ishlaganlar / Ms.

Mehnat salohiyati bilan ta’minlanganlikni ifodalash uchun quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi:

- Mehnat salohiyati bilan shtat jadvalining ta’minlanganligi.
- mehnat salohiyati sig‘imi.
- mehnat salohiyatining qurollanganligi.
- aylanma mablag‘larning mehnat salohiyati bilan ta’minlanganligi.

Mehnat salohiyati bilan shtat jadvalining ta’minlanganligini (Ms.shj.t) aniqlash uchun bir qancha hisob- kitoblar qilish mumkin. Eng avvalo bu bo‘yicha umumiy ko‘rsatkichni aniqlash lozim. Buning uchun mehnat salohiyatiining haqiqiy miqdori (Ms.x) uning shtat jadvalidagi miqdoriga (Ms.shj) bo‘linadi:

Ms.shj.t= Ms.x/Ms.shj.

Mehnat salohiyatining sig‘imi (Ms.sg‘) ham ushbu guruhga kiruvchi muhim ko‘rsatkichlardan biri. Uning aniqlash uchun mehnat salohiyati miqdorini (Ms) yaratilgan (sotilgan) mahsulot (ish, xizmat) hajmining (Q) miqdoriga bo‘linadi:

Ms.sg‘= Ms/Q

Mehnat salohiyatining qurollanganligi yoki asosiy vositalar faol qismining mehnat salohiyati bilan ta’minlanganligi ni aniqlash uchun asosiy vositalarning faol qismi (Av.f) mehnat salohiyati miqdoriga (Ms) bo‘linadi yoki teskarisi:

Ms.qur= Av.f/Ms yoki Ms.t= Ms/Av.f.

Aylanma mablag‘larning mehnat salohiyati bilan ta’minlanganligi (Aym.Ms) ham mehnat salohiyatini tahlil qilishda va boshqa ko‘rsatkichlar

o‘zganishiga shu bilan bog‘liq omillarning ta’sirini aniqlashda qo‘llaniladi. Buni aniqlash uchun mehnat salohiyati miqdorini (Ms) aylanma mablag‘lar hajmiga (Aym) bo‘lish lozim:

Aym.Ms= Ms/Aym.

Mehnat salohiyatidan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- mehnat salohiyatining natijaviyligi;
- mehnat salohiyatining rentabelligi;
- mehnat salohiyatining daromadliligi.

Ushbu ko‘rsatkichlarning har birini aniqlash yo‘llarini alohida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Mehnat salohiyatining natijaviyligi (Ms.n) natijaning mehnat salohiyatiga nisbati bilan aniqlanadi.

Agar natijani «Q» deb belgilasak, uning mehnat salohiyatiga (Ms) nisbati, ya’ni mehnat salohiyatining natijaviyligi quyidagicha aniqlanadi:

Ms.n=Q/Ms.

Buni boshqacha so‘z bilan mehnat unumdorligi deb ham atash mumkin..

Mehnat salohiyatining rentabelligi (Ms.r) har bir mehnat salohiyati birligiga to‘g‘ri keladigan foyda (F) miqdorini ifodalaydi. Uni aniqlash uchun foyda summasining mehnat salohiyatiga (Ms) nisbati olinadi:

Ms.r=F/Ms.

Mehnat salohiyatining daromadliligi (Ms.d) ham uning samaradorligini ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Uni aniqlash uchun yalpi daromad summasini (D) mehnat salohiyati miqdoriga (Ms) bo‘linadi:

Ms.d=D/Ms.

8.4. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish

Kadrlarni tanlash, ularni joy-joyiga qo‘yish, ulardan oqilona foydalanish va tarbiyalash masalasi kadrlar siyosatining, umumiy iqtisodiyotning, shu jumladan, makro va mikroiqtisodiyotning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Kadrlarni tanlashda, joy-joyiga qo‘yish va tarbiyalashda, ulardan foydalanish quyidagi tamoyillarga alohida e’tibor berish kerak:

-aql-idrok, did va farosat;

-qat’iylik, matonatlilik, prinsipiallik, o‘z vazifasiga puxtalik;

-rahbarlik sohasini juda yaxshi bilish;

-*o‘z* eliga, yurtiga, Vataniga sadoqatli bo‘lish.

Kadrlar siyosatining eng muhim masalalaridan biri ularni attestatsiya qilish masalasidir.

Kadrlar attestatsiyasi — bu, xodimlarning malakasini bilim va ko‘nikmalari darajasini, faoliyatining samaradorligini, ishdagi, xizmatdagi va boshqa sohalardagi fazilatlari, egallab turgan lavozimiga to‘g‘ri kelishi yoki kelmasligini aniqlab olish bo‘yicha bajariladigan jarayon va ish tartibidir.

Kadrlar attestatsiyasi xodimlarning sifat tarkibini yaxshilash, ularni oqilona joy-joyiga qo‘yish, xodimlarni topshirilgan ish uchun javobgarligini kuchaytirishga qaratiladi. Attestatsiya xodimlar egallab tutgan lavozimlariga qanchalik munosib

ekanligini aniqlaishing asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi.

Respublikada bozor iqtisodiyoti davrida kadrlar tayyorlash borasida bir qator yangi talablar yuzaga keldi. Ular orasida eng muhimlari quyidagilardir:

- ijtimoiy-psixologik diagnostika;
- kadrlarni boshqarish tizimini axborot bilan ta’minlash;
- bandlikni boshqarish;
- zaruriy bo‘sh lavozimlarga nomzodlar tanlash;
- kadrlar salohiyati va xodimlarga bo‘lgan ehtiyojlarni taxlil etish;
- kadrlar marketingini belgilash;
- xizmat martabasini rejalashtirish va nazorat kilish;
- xodimlarning **kasbiy** va psixologik moslashuvi, ko‘nikishi:
-mehnat-huquqiy munosabatlar masalalari;
- mehnat etikasi va estetikasi.

Boshqaruvning barcha darajalarida inson rolining ortib borishi, iqtisodiyotda, shu jumladan, sanoatda keng qamrovli tarkibiy o‘zgarishlar sodir bo‘lishi va raqobat darajasining o‘sishi kadrlarni boshqarishga yondashuvni o‘zgartirishni taqozo etadi. Bunday yondashuvlar quyidagilardan iborat:

- xodimlarning samarali ishlashlarini, faoliyat ko‘rsatishlarini tashkil etish;
- lavozimlar darajasini optimallashtirish, zaruriy mahorat va malakalar tizimini yaratish;
- ishlab chiqarish madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish;
- instituksional maqsadlarga erishish;
- o‘z jamoasi va xodimlarining manfaat va ehtiyojlarini to‘laroq qondirish.

8.5. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

Sanoatda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mutaxassislarning bilim va ilm darajasini ko‘tarish, kasb mahorati va ko‘nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratilgan. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tarmoq va korxonalarda bu borada olib borilgan faoliyat natijalariga ko‘ra, davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikat topshiriladi.

Sanoatda kadrlar malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi faoliyatida yangicha tarkib, mazmun hamda bu tizimni boshqarishni shakllantirish;
- yuqori malakali o‘kituvchi - mutaxassis kadrlar tayyorlash va sohani ular bilan to‘ldirib borishni ta’minlash;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni kayta tayyorlash tizimining bu sohada raqobatga asoslangan muhitini shakllantirish va samarali faoliyat olib borishni ta’minlovchi normativ bazasini yaratish;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta’lim muassasalarini davlat attestatsiyasi va akkreditakiyasidan o‘tkazish tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- iqtisodiyotning davlat va nodavlat sektorlari, mulkchilikning turli shaklidagi tashkilot va muassasalarning talab-extiyojlariga muvofiq kadrlar va mutaxassislarni

ildam kayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta’minlovchi davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etish va rivojlantirishga ko‘maklashish;


- professional treningning ilg‘or texnologiya va uskunalarini, shuningdek, murakkab, fan yutuqlarini talab qiluvchi texnologiya jarayonlari imitatorlarini ishlab chiqish, yaratish va amaliy o‘zlashtirib olish.

Kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida halqaro hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi.

8.6. Mehnatga haq to‘lashning funksiyalari va tamoyillari

Mehnat — har bir shaxs va umuman, jamiyat ehtiyojlarini kondirish uchun zarur bo‘ladigan moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratish sohasidagi maqsadga muvofiq faoliyatdir.

Dastlabki ma’lumotlarga ko’ra, 2017 yil yanvar-dekabr oylarida O’zbekiston Respublikasida o’rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 453,2 ming so’mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag’batlantirish xususiyatiga ega to’lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to’lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig’i, ijtimoiy sug’urta va kasaba uyushmasiga to’lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2016 yilning mos davriga nisbatan 12,3 % ga o’sgan.



8.3-rasm. O’rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va o’sish sur’ati (2017 yil yanvar-dekabr, qishloq xo’jaligi va kichik tadbirkorlik sub’ektlaridan tashqari)[1]

Iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha o’rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi eng yuqori moliyaviy va sug’urta faoliyatida 2 694,1 ming so’mni (respublikadagi o’rtacha oylik ish haqiga nisbatan 85,4 % ga ko’p), axborot va aloqada 2 498,5 ming so’mni (71,9 %), sanoatda 2 091,7 ming so’mni (43,9 %), tashish va saqlashda 1 945,8 ming so’mni (33,9 %), qurilishda 1 808,4 ming so’mni (24,4 %) tashkil etgan.

[1] Manba: O`zbekiston Respublikasining statistika qo`mitasi / www.stat.uz

Iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha 2016 yilga nisbatan o’rtacha oylik ish haqining yuqori o’sish sur’atlari moliyaviy va sug’urta faoliyatida (25,9 %), axborot va aloqada (22,3 %), yashash va ovqatlanish bo’yicha xizmatlarda (13,3 %) kuzatildi.

Ish **haq**ining mohiyati uning ijtimoiy ishlab chiqarish bosqichlari bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarish, uni taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol qilishda bajaradigan funksiyalari (vazifalari)da namoyon bo‘ladi:

1. Takror hosil qilish funksiyasi.
2. Rag‘batlantiruvchi funksiya.
3. O‘lchov - taqsimlash funksiyasi.
4. Resurslarni joylashtirish funksiyasi.
5. Aholining to‘lovga qodir talabini shakllantirish funksiyasi

yuqorida aytib o‘tilgan funksiyalarni amalga oshirish uchun quyidagi eng muhim tamoyillarga rioya qilinishi zarur:

1. Ishlab chiqarish va mehnat samaradorligi yuksalib borgan sari real ish haqining ortib borishi.
2. Mehnat unumdorligi o‘sishini o‘rtacha ish haqining o‘sish sur’atlaridan ilgarilovchi sur’atlarini ta’minlash (yoki mahsulot ishlab chiqarish hajmlari sur’atining nste’mol fondlari o‘sishi sur’atlaridan ortib ketishi).
3. Xodimning korxona faoliyati natijalariga qo‘shgan mehnat xissasiga, mehnat mazmuni va sharoitlariga, korxona joylashgan mintaqaga, uning qaysi tarmoqqa mansubligiga qarab ish haqini tabaqalashtirish.
4. Barobar (teng) mehnat uchun barobar haq to‘lash.
5. Mehnatga haq to‘lashni davlat yo‘li bilan boshqarish va tartibga solib turish.
6. Mehnatga haq to‘lash shakllari va tizimlarining oddiyligi, mantiqiyligi va qulayligi.

Ish haqini tashkil etishning qayta qurilishi bozor talablariga muvofiq quyidagi vazifalar hal etilishini nazarda tutadi:

- har bir xodimning o‘z mehnati samaradorligi rezervlarini aniqlash va foydalanishdan manfaatdorligini oshirish, ishlamasdan pul mablag‘lariga ega bo‘lish imkoniyatlariga barham berishini;
- mehnatga haq to‘lashda tekischilik hollarini bartaraf etish, ish haqining ham yakka tartibdagi, ham jamoa mehnati natijalariga bevosita bog‘liqligiga erishishni;
- turli toifadagi va kasb-malakali guruhlarga mansub bo‘lgan xodimlar mehnatiga haq to‘lash nisbatlarini optimallashtirish, bunda bajariladigan ishlarning murakkabligini, kasblarning noyobligini e’tiborga oladigan mehnat sharoitlari, shuningdek, pirovard natijalarga erishishga intilayotgan turli xodimlar guruxlari va ishlab chiqarish raqobatbardoshligining ta’sirini hisobga olishni.

8.7. Mehnatga haq to‘lashning tarif tizimi va uning elementlari

Korxonalarda mehnatga haq to‘lashni tashkil etishning asosiy elementlari - mehnatni normalash, tarif tizimi, ish haqining shakllari va tizimlaridir. Har bir element qat’iy belgilangan vazifasiga egadir1.

Mehnatni normalash - bu ilmiy asoslangan mehnat xarajatlarini va uning natijalarini: vaqt normalari, soni, xizmat ko‘rsatishning boshqarilishi, mahsulot ishlab chiqarish normalangan topshiriqlari normalarini aniqlashdir. Bular bo‘lmasa, mehnat miqdorini, har bir xodimning umumiy natijalarga qo‘shgan alohida hissasini hisobga olib bo‘lmaydi.

Ish haqining shakllari va tizimlari - bu mehnatning miqdor natijalari va sifatiga (uning murakkabligi, intensivligi, shart-sharoitlariga) bog‘liq ravishda ish haqini belgilash mexanizmidir.

Tarif tizimi turli normativ materiallar majmuidan iborat bo‘lib, ular yordamida korxonadagi xodimlarning ish haqi darajasi ularning malakasiga, mehnat sharoitlariga, korxonalar o‘rnashgan jo‘g‘rofiy joyi va boshqa tarmoq xususiyatlariga qarab belgilanadi.

Mehnatga haq to‘lashning Yagona tarif setkasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 21 iyuldagi “Mehnatga haq to‘lashning Yagona tarif setkasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 206-son qaroriga 1-ilova bilan tasdiqlangan bo‘lib, u quyidagicha:

8.2-jadval

Mehnatga haq to‘lashning Yagona tarif setkasi[2]

Mehnatga haq to‘lash razryadlari	Tarif koeffitsientlari	Mehnatga haq to‘lash razryadlari	Tarif koeffitsientlari
1	2,476	12	6,115
2	2,725	13	6,503
3	2,998	14	6,893
4	3,297	15	7,292
5	3,612	16	7,697
6	3,941	17	8,106
7	4,284	18	8,522
8	4,640	19	8,943
9	4,997	20	9,371
10	5,362	21	9,804
11	5,733	22	10,240
12	6,115		

Tarif tizimining asosiy elementlariga tarif setkalari, tarif stavkalari, tarif-malaka ma’lumotnomalari, lavozim maoshlari, xizmatchilar lavozimlarining tarif

[1]Abdurahmonov Q.X., Xolmo’minov SH.R., Bakieva I.A., Qurbonov S.P. Mehnat iqtisodiyoti (o’quv qo’llanma) – T.: TDIU, 2016. -105-108 bet.

[2] Manba: O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 21 iyuldagi “Mehnatga haq to’lashning yagona tarif setkasini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi 206-son qarori// O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2009 y., 30-31-son, 344-modda; 2012 y., 2-son, 17-modda

ma’lumotnomalari, tarif stavkalariga ustama va qo‘shimcha haqlar, ish haqiga doir mintaqaviy malaka koeffitsientlari kiradi.


Tarif setkasi - razryadlar shkalasidan iborat bo‘lib, ularning har biriga o‘z tarif koeffitsienti berilgan .

Tarif stavkasi - ish vaqti birligi hisobiga mehnatga haq to‘lashning pul bilan ifodalangan mutlaq miqdoridir.

Tarif setkasi yoki tarif tizimi shunday tizimki, unda kasblar va lavozimlarning razryadiga qarab lavozim maoshini hisoblash uchun miqdorlar, koeffitsientlar keltirilgan bo‘ladi. Butun respublikada shunday turdagi va bir xil razryaddagi kasb, lavozim uchun mehnat haqi miqdori shu tarif setkadan kelib chiqib hisoblanadi.

Tarif koeffitsienti tegishli razryaddagi kasb yoki lavozimga to‘lanadigan mehnat haqining eng kam oylik ish haqiga nisbatini bildiradi. Masalan, 15-razryaddagi kasb yoki lavozimning koeffitsienti 7,292 ekan. Demak, bu kasb yoki lavozimga eng kam oylik ish haqining 7,292 baravari miqdorida haq to‘lanishi kerak.

Mamlakatimizda barcha kasblar Yagona klassifikatorga keltirilgan bo‘lib, bu klassifikator Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 19 iyundagi 164-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Unda har bir kasbning tegishli razryadi belgilangan. **Masalan**, o‘rash mashinasi operatori (klassifikatordagi tartib raqami: 3088) kasbi uchun tarif razryadi 4 ga teng.



8.4-rasm. Hududlar bo’yicha o’rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2017 yil yanvar-dekabr, respublikadagi o’rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)[1]

O’rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko’rsatkichini respublika hududlari bo’yicha ko’radigan bo’lsak, ya’ni o’rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Toshkent shahrida 1 986,5 ming so’mni (respublikadagi o’rtacha oylik ish haqiga nisbatan 136,7 %), Navoiy viloyatida 1 926,5 ming so’mni (132,6 %) va Toshkent viloyatida 1 559,7 ming so’mni (107,3 %) tashkil etgan bo’lsa, Namangan viloyatida 1 140,5 ming so’mni (78,5 %), Samarqand viloyatida 1 157,3 ming so’mni (79,6 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo’lmoqda.

[1] Manba: O`zbekiston Respublikasining statistika qo`mitasi / www.stat.uz

Qisqacha xulosalar

Sanoat iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘i sifatida yuqori malakali, kadrlar jamoasini o‘zida mujassamlashtiradi.

Kadrlarning bilimi, ilmi va malaka darajasi mamlakat ishlab chiqarish kuchlarining eng muhim elementi, ya’ni unsuri hisoblanadi.

Shu sababli iqtisodiyot sohasidagi barcha muammolarning yechimini topish va sanoat ishlab-chiqarishni oldiga qo‘yilgan vazifalarni oqilona hal etish kadrlarga bog‘liq ekanligi Respublika Prezidentining asarlarida qayta va qayta ta’kidlanadi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston sanoatida kadrlar tarkibi va tuzilmasi miqdor va sifat jihatidan sezilarli darajada o‘zgardi.

Kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish, tayyorlash va kayta tayyorlash masalasiga alohida e’tibor berilishi tufayli sanoatning izchil va barqaror rivojlanishiga erishildi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1.Davlatning kadrlar siyosati: moxiyati, ahamiyati va mazmuni.
2.Sanoat ishlab chiqarishi va kadrlar. Ularni guruhlarga bo‘lish.
3.Kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish va ularni tarbiyalash.
4.Kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash.
5.Kadrlar sonini bashorat qilish va ulardan oqilona foydalanish muammolari.
6.«Mehnat» tushunchasining, mohiyati, ahamiyati.
7.Mehnatga haq to‘lash tamoyillari va shakllari.
8.Tarif tizimi va uning unsurlari.
9.Ish haqining bozor iqtisodiyotiga mos turlari.
10.Mehnatga haq to‘lashni erkinlashtirish masalalari.

Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro`yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi //www.lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida»gi qonuni.// www.lex.uz

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida» gi №PF-4947 sonli Farmoni. //Xalq so’zi. 2017 yil 8 fevral.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.//Xalq so‘zi, 23 dekabr, 2017 yil

5. Church J., and R.Ware. (CW) Industrial Organization. A Strategic Approach. Irwin. 2000.

6. Abdurahmonov Q.X., Xolmo’minov Sh.R., Bakieva I.A., Qurbonov S.P. Mehnat iqtisodiyoti (o’quv qo’llanma) – T.: TDIU, 2016. -105-108 bet.

7. Abdukarimov I.T. va boshqalar. Korxona iqtisodiy salohiyati tahlili. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2015, – 256 b.

8. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.:”Sano-standart”, 2014.-304 b.

9. www.webofscience.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi

10. www.search.ebscohost.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi

9-BOB. SANOAT ISHLAB CHIQARISHINING ASOSIY FONDLARI VA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARI

9.1. Asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati, tarkibi va tuzilishi

Mamlakatning qudrati, iqtisodiy – ijtimoiy rivojlanishi, jamiyat a'zolarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini to‘laroq qondirish shu mamlakat resurslari, ayniqsa, asosiy va aylanma fondlarining miqdori va sifati bilan belgilanadi. Mamlakat va uning sanoati, boshqa tarmoqlari, korxonalari qanchalik ko‘p resurslarga ega bo‘lsa, u shunchalik qudratli va rivojlangan bo‘ladi. Agar u ana shu resurslardan to‘la – to‘kis, oqilona foydalana olsa, albatta, buyuk davlatga aylanadi.

Sanoat ishlab chiqarishi faoliyatida asosiy fondlarning alohida o‘rni bor. Chunki ularsiz birorta ishni bajarish, xizmat ko‘rsatish va mahsulot ishlab chiqarish mumkin emas.

Iqtisodiyotning globallashuvi hamda hisob va hisobotlarning mukammallashuvi, jumladan, milliy hisob standartlarining jahon standartlari talablari darajasiga keltirilishi tufayli, garchi asosiy vositalar, asosiy vositalarning pul ko‘rinishidagi ifodasi sifatida avvaldan qo‘llanib kelgan bo‘lsada, hayotimizga “asosiy kapital”, “asosiy vositalar” kabi atamalar endilikda keng ravishda kirib kelmoqda.

Zamonaviy iqtisodiyot fani **asosiy vositalarni** ma'lum bir iste'mol qiymati ko‘rinishida ijtimoiy mehnat asosida yaratiluvchi, ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan material omillari qatoriga kiritadi. Hozirgi bozor sharoitlarida korxona kuchi va vositalari yordamida yaratilgan (fond)lar ishlab chiqarish quvvatlarini shakllantirish va ulardan foydalanishga faol ravishda ta'sir ko‘rsatuvchi mulk hisoblanadi. Butun iqtisodiyot miqyosida asosiy vosita (fond)lar mamlakatning milliy boyligini tashkil qiladi. Korxonaning asosiy vositalari atamasi amaliyotda va ko‘plab adabiyotlarda “asosiy vositalar” yoki “asosiy kapital” atamasi bilan ham qo‘llanilishi mumkin.

Asosiy vositalar *korxona ishlab chiqarish vositalarining bir qismi bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt ishtirok etada va o‘zining natural-moddiy holatini yo‘qotmaydi hamda o‘z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotlarga qismlab o‘tkazib beradi.* Asosiy vositalar qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga o‘tkazish jarayoni amortzitsiya deb, ushbu jarayonda to‘plangan mablag‘lar esa *amortizatsiya ajratmalari* deb ataladi.

O‘zbekiston respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartiga (5-son BHMS “Asosiy vositalar”) ko‘ra asosiy vositalar tarkibiga quyidagi mezonlarga javob beradigan moddiy aktivlar kiritiladi:

a) bir yildan ortiq xizmat qilish muddati;

b) bir birlik (to‘plam) uchun qiymati O‘zbekiston Respublikasi (xarid paytida) belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdorining ellik baravaridan ortiq bo‘lgan buyumlar.

Korxona rahbari hisobot yilida buyumlarni asosiy vositalar tarkibida hisobga olish uchun ular qiymatining eng kam chegarasini belgilashga haqli.

Xizmat muddati va qiymatidan qat'i nazar, quyidagilar asosiy vositalar

tarkibiga kiritilmaydi:

a) maxsus asboblar va moslamalar (muayyan buyumlarni turkumlab va yoppasiga ishlab chiqarish uchun yoki yakka tartibdagi buyurtmalarni tayyorlash uchun mo‘ljallangan, maqsadli yo‘naltirilgan asboblar va moslamalar);

b) maxsus va sanitariya kiyim-kechaklari, maxsus poyabzallar;

v) ko‘rpa-to‘shak anjomlari;

g) yozuv-chizuv anjomlari (kalkulyatorlar, stol ustiga qo‘yiladigan asboblar va boshqalar);

d) oshxona anjomlari, shuningdek oshxona uchun dasturxon-sochiqlar;

e) tiklanishi bo‘yicha xarajatlar qurilish-montaj ishlari tannarxiga kiritiladigan vaqtinchalik (notitul inshootlar) moslamalar va qurilmalar;

j) kamida bir yillik foydalanish muddatiga ega bo‘lgan almashtiriladigan uskunalar;

z) ov qurollari (trallar, to‘rlar, qarmoqlar, matraplar, merejalar va boshqalar).

Asosiy vositalar tarkibida qonun hujjatlariga muvofiq korxona mulkiga o‘tkazilgan yer uchastkalari ham hisobga olinadi.

Iqtisodiy maqsadlariga ko‘ra, asosiy vositalar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlariga taqsimlanadi. Ishlab chiqarish asosiy vositalari o‘z mohiyatiga ko‘ra, korxonaning ishlab chiqarish potensialini tashkil qilib, ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish binolari va inshoatlari;
- uzatish qurilmalari;
- quvvat mashinalari va uskunalari;
- ishchi mashinalar va uskunalar;
- transport vositalari;
- o‘lchov va tartibga solish asboblari va qurilmalari;
- foydalanish muddati bir yildan kam bo‘lmagan va qonunchilikda belgilab qo‘yilgan qiymatlardagi asboblar va ishlab chiqarish inventari.

Asosiy vositalar ishlab chiqarishda band bo‘lgan barcha mutaxassis va xodimlar soni bilan birgalikda, sanoat korxonasining ishlab chiqarish apparati deb ataladi.

Noishlab chiqarish asosiy vositalari *korxona asosiy vositalarining ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydigan qismi bo‘lib, shu sababli o‘z qiymatini tayyor mahsulotga o‘tkazmaydi*. Bular qatoriga asosan korxona balansida turuvchi turarjoy (uy-joy fondi), oshxona, profilaktoriya, klub, bolalar bog‘chasi va yaslilar, sport-sog‘lomlashtirish va boshqa ob’ektlar kiritiladi. Madaniy-maishiy va sog‘lomlashtirish yo‘nalishidagi noishlab chiqarish asosiy vositalari ishlab chiqarish asosiy vositalari bilan foydalanish muddati, natural shaklning saqlanishi, o‘z qiymatini sekin-asta yo‘qotishi kabi ko‘p jihatlari bilan o‘xshashdir.

Mehnat predmetiga o‘tkazuvchi ta’siriga ko‘ra, asosiy ishlab chiqarish fondlari aktiv va passiv turlarga bo‘linadi. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining passiv turiga bino va inshoatlar, aktiv turiga esa quvvat mashina va uskunalari,

ishchi mashina va uskunalar, transport vositalari, texnologik liniyalar, ya’ni biron-bir turdagi mahsulot yaratishda foydalaniluvchi mehnat qurollari kiritiladi.

Sanoat korxonasining aktiv asosiy ishlab chiqarish fondlari eng harakatchan va ahamiyatli hisoblanadi. Fan-texnika taraqqiyoti davomida ko‘plab korxonalarda aktiv ishlab chiqarish fondlarining salmog‘i ortadi, ularning tarkibi va ko‘rinishi o‘zgaradi, asosiy vositalar guruh va turlarining ma’naviy eskirish tufayli almashinish sur’ati tezlashadi.

Ishlab chiqarish miqyosining o‘sishi va boshqa ijobiy o‘zgarishlar sharoitlarida, ba’zan korxonaning asosiy vositalari, jumladan, ishchi mashinalar va uskunalar, ishlab chiqarish binolari, qurilmalar va hokazolar yetmay qoladi. Bunday hollar ro‘y berganda korxona shartnoma asosida o‘ziga kerakli bo‘lgan asosiy vositalarni yollaydi va ular ijaraga olingan hisoblanadi. Ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi o‘rtasida yuzaga keluvchi mulk munosabatlari **lizing** deb ataladi (ingl. Lease - ijara).

Asosiy vositalarning umumiy hajmida alohida guruhlarining qiymat bo‘yicha o‘zaro nisbati *asosiy vositalarning turlar bo‘yicha tuzilmasini* aks ettiradi hamda amaliyotda foizlarda o‘lchanadi. Korxona asosiy ishlab chiqarish fondlari tuzilmasining, birinchi o‘rinda uning aktiv qismini - mashina va asbob-uskunalarni ko‘paytirishga yo‘naltirilgan takomillashtirishdan manfaatdor bo‘lishi lozim. Ularning ulushi qanchalik yuqori bo‘lsa, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdori shunchalik katta bo‘ladi va aksincha.

Sanoat korxonasi asosiy vositalarining turlar bo‘yicha tuzilmasi, ko‘p jihatdan kapital qo‘yilmalarning texnologik tuzilmasi orqali, jumladan, ularning yangi qurilish va qayta ta’mirlash, amaldagi ishlab chiqarishni kengaytirish va qayta qurollantirish bilan avvaldan belgilab qo‘yilgan bo‘ladi. Asosiy vositalarning turlar bo‘yicha tuzilmasiga ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va konsentratsiya qilish darajasi ham katta ta’sir o‘tkazadi. Yirik korxonalar, ishlab chiqarishni fondlar bilan ta’minlashda va fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan keng foydalanishda kichik va o‘rta korxonalarga qaraganda ko‘proq imkoniyatga ega. Biroq kichik korxonalar harakatchanroq, ularning boshqaruvi moslashuvchanroq bo‘lib, natijada ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish osonroq kechadi.

Korxona iqtisodiyotiga **ekspluatatsiya qilinayotgan asosiy vositalarning yoshi**, birinchi o‘rinda mashina va asbob-uskunalarning yoshi katta ta’sir ko‘rsatadi. Hozirgi paytda mashina va sanoat uskunalarini yosh bo‘yicha guruhlashda taxminan quyidagi muddatlardan kelib chiqiladi: 5 yilgacha, 5 yildan 10 yilgacha, 10 yildan 15 yilgacha, 15 yildan 20 yilgacha, 20 yildan 25 yilgacha va hokazo. Mashina va uskunalarning ekspluatatsiya muddati qanchalik yuqori bo‘lsa, korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari shunchalik past bo‘ladi, mahsulotlar sifati pasayadi, bekor turib qolish va talofatlar ko‘payadi hamda aksincha. Bundan tashqari, korxona asbob-uskunalaridan uzoq vaqt mobaynida foydalanilganida ta’mirlash uchun ham ko‘p xarajatlar sarflanadi.

9.2. Sanoat korxonalarida asosiy vositalarni baholash, ularni eskirishi

Xo‘jalik amaliyotida asosiy vositalar natural va qiymat ko‘rinishida hisobga olinadi. Agar asosiy vositalarni *natural baholash*-ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish va zamonaviylashtirish masalalarini hal qilish, asbob-uskunalarni ta’mirlash uchun ularning guruh va turlari bo‘yicha grafiklar tuzish, shuningdek, ta’mirlash vositalariga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash imkonini bersa, *qiymat bo‘yicha baholash* esa, asosiy vositalarni qayta ishlab chiqarishni rejalashtirish, ularning mavjud hajmini aniqlash, amortizatsiya hajmini belgilash, asosiy vositalar va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini tahlil qilish va hokazolarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy vositalarni baholashning quyidagi usullari mavjud: **boshlang‘ich qiymat bo‘yicha** - asosiy vositalarni yaratish yoki sotib olish uchun sarflangan xarajatlar majmuidan iborat bo‘lib, asosiy vositalar yoki ularning alohida qismlarini foydalanishga topshirish uchun yaroqli holga keltirish bilan bog‘liq bo‘lgan-ularni keltirish, o‘rnatish kabi xarajatlarni hisobga olgan holda yuzaga keluvchi qiymat.

Masalan, bitta mashina yoki uskunaning boshlang‘ich qiymati – bu, korxonaning mazkur mashina yoki uskunani ma’lum bir sanada sotib olgan va bu haqda buxgalteriya hujjatlarida qayd qilingan sotib olish narxidir.

Haq evaziga sotib olingan asosiy vositalar ob’ektining boshlang‘ich qiymati quyidagi xarajatlardan tashkil topadi:

a) aktivlarni yetkazib beruvchilarga hamda shartnoma bo‘yicha qurilish-montaj ishlarini bajarganlik uchun pudratchilarga to‘lanadigan summalar;

b) asosiy vositalar ob’ektiga doir huquqni sotib olish (olish) munosabati bilan amalga oshirilgan ro‘yxatdan o‘tkazish yig‘imlari, davlat bojlari va boshqa shunga o‘xshash to‘lovlar;

v) bojxona bojlari va yig‘imlari;

g) asosiy vositalar ob’ektlarini sotib olish (barpo qilish) munosabati bilan soliqlar va yig‘imlar summalari (agar ular qoplanmasa);

d) asosiy vositalar ob’ektlarini sotib olish (barpo qilish) bilan bog‘liq axboriy va maslahat xizmatlari uchun to‘langan summalar;

e) asosiy vositalar ob’ektlarini yetkazib berish (barpo qilish) xatarini sug‘urtalash bo‘yicha xarajatlar;

j) asosiy vositalar ob’ektini sotgan vositachilarga to‘lanadigan haqlar;

z) asosiy vositalarni o‘rnatish, montaj qilish, sozlash va ishga tushirishga oid xarajatlar;

i) aktivdan mo‘ljal bo‘yicha foydalanish uchun uni ishchi holatga keltirish bilan bevosita bog‘liq boshqa xarajatlar.

Kreditdan foydalanganlik uchun foizlarni to‘lashga doir xarajatlar qarzga olingan sarmoya hisobidan butkul yoki qisman sotib olingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatiga kiritilmaydi.

Korxonaning o‘zida tayyorlangan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati deb asosiy vositalarning mazkur ob’ektlarini tiklash (qurish, qurib bitkazish) bo‘yicha haqiqiy xarajatlar summasi tan olinadi.

Tiklanish qiymati bo‘yicha - asosiy vositalar yoki ularning biron-bir qismini

(binolar, qurilmalar, mashinalar, ishlab chiqarish uskunalari va hokazo) hozirgi paytdagi inflyatsiya va boshqa omillarni hisobga olgan holda baholash. Baholashning bu usuli ob'ektning hozirgi paytdagi qayta ishlab chiqarish davrida qancha turishini ko'rsatadi. Korxona asosiy vositalarining tiklanish qiymati, taftish va inventarizatsiya paytida, mamlakat miqyosida va davlat chora-tadbiri sifatida esa, asosiy vositalarni qayta baholash paytida amalga oshiriladi.

Asosiy vositalar qiymatini qayta baholash har yili 1 yanvar holati bo'yicha qayta baholashni o'tkazish davrida narxlar darajasidan kelib chiqib o'tkaziladi.

Qayta baholash chog'ida asosiy vositalarning to'liq tiklanish qiymati, ya'ni ular xuddi shunday yangi ob'ektlarga to'liq almashtirilgan taqdirda tashkilot amalga oshirishi kerak bo'lgan xarajatlarning to'liq qiymati qayta baholash sanasida mavjud bo'lgan bozor narxlari (tariflari) bo'yicha aniqlanadi, bunga ob'ektlarni xarid qilish (qurilish), tashish, o'rnatish (montaj qilish) xarajatlari, import qilinadigan ob'ektlar uchun esa - shuningdek bojxona to'lovlari va hokazolar kiritiladi.

Ma'nan eskirgan ob'ektlarning to'liq tiklanish qiymati shuningdek, ob'ektlarning ma'nan eskirishi tegishli narxlar (tariflar)ning o'zgarish darajalari va sur'atlarida aks etishidan kelib chiqib, qayta hisoblash sanasida mavjud bo'lgan narxlar (tariflar) bo'yicha ularni tayyorlashga doir mavjud xarajatlar asosida aniqlanadi.

Tashkilotlar mulkida, ularning xo'jalik yuritishida, tezkor boshqaruvida va uzoq muddatli ijarada (lizingda) bo'lgan, ularning texnik holatidan qat'i nazar, ishlab turgan va foydalanilmaydigan, konservatsiyada bo'lgan, hisobdan chiqarishga tayyorlangan, lekin belgilangan tartibda tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilmagan barcha asosiy vositalar, shuningdek tugallanmagan qurilish ob'ektlari va o'rnatish uchun mo'ljallangan uskunalar qayta baholanishi kerak.

1 yanvar holati bo'yicha asosiy vositalarni har yili qayta baholash oldingi qayta baholash natijasida olingan ob'ektlarning boshlang'ich (tiklanish) qiymatidan, yil davomida kelib tushgan asosiy vositalar bo'yicha esa - xarid qilish qiymatidan amalga oshiriladi.

Asosiy vositalarning to'liq tiklanish qiymati tashkilotning xohishiga qarab qayta baholashni o'tkazish davrida 1 yanvarga shakllangan, baholanayotganlariga aynan o'xshash bo'lgan yangi ob'ektlarga hujjatlar asosida tasdiqlangan bozor narxlari bo'yicha alohida ob'ektlar qiymatini bevosita hisoblash yo'li ("bevosita qayta baholash usuli") bilan yoki asosiy vositalar turlari bo'yicha va ularni xarid qilish davrlariga bog'liqlikda tabaqalangan asosiy vositalar qiymatini o'zgartirish indekslarini qo'llagan holda ayrim ob'ektlarning boshlang'ich (tiklanish) qiymatini indekslash yo'li ("indeks usuli") bilan aniqlanadi.

Bunda asosiy vositalarning bir turdagi ob'ektlari (markalari, xillari va hokazo) bo'yicha yagona usul qo'llaniladi.

Qayta baholashni tashkilot mustaqil ravishda yoki baholash faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan mutaxassislar - ekspertlarni jalb etgan holda amalga oshiriladi.

Bevosita qayta baholash usuli qo'llanilganda ob'ektlarning to'liq tiklanish qiymatini hujjatlar asosida tasdiqlash uchun tashkilotning xohishiga ko'ra quyidagilardan foydalanilishi mumkin:

a) tayyorlovchi tashkilotlar va ularning rasmiy dilerlari, tovar-xom ashyo birjalari, ko‘chmas mulk birjalaridan yozma shaklda olingan xuddi shunday mahsulotga doir narxlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

b) qayta baholashni o‘tkazish sanasiga va asosiy vositalarni xarid qilish sanasiga MB kurslarining nisbati sifatida belgilanadigan hisob-kitob koeffitsiyentini qo‘llagan holda xarid qilish sanasiga EAVda asosiy vositalarning qiymati to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

v) tegishli davlat organlarida mavjud bo‘lgan narxlar darajasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

g) qayta baholashni o‘tkazish davrida ommaviy axborot vositalari va maxsus adabiyotlarda e’lon qilingan narxlar darajasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

d) asosiy vositalar qiymati to‘g‘risida baholovchining hisoboti.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan asosiy vositalarni qayta baholash chog‘ida indeks usulini qo‘llash uchun 31 dekabrga qadar navbatdagi qayta baholash bo‘yicha tegishli indekslar ishlab chiqiladi va rasmiy ravishda ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinadi.

Qoldiq qiymati bo‘yicha - jamlangan amortizatsiya summasini chegirgan holda asosiy vositalarning boshlang‘ich (tiklash) qiymati. Boshqacha qilib aytganda, bu asosiy vositalarning ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga hali o‘tkazilmagan qismidir. Korxonalar tomonidan foydalanilmaydigan hamda hisobdan chiqarish yoki sotib yuborish mo‘ljallangan asosiy vositalar ham, ko‘pincha qoldiq qiymati bo‘yicha, mazkur xo‘jalik yilidagi narxlarda baholanadi.

Tugatish qiymati - asosiy vositalarning chiqib ketishi bo‘yicha kutilayotgan xarajatlarni chegirgan holda kutilayotgan foydali xizmat muddati oxirida asosiy vositalarni tugatish chog‘ida olinadigan aktivlarning faraz qilinayotgan summasi.

Amortizatsiyalanadigan qiymat - moliyaviy hisobotlarda faraz qilinayotgan (baholangan) tugatish qiymatini chegirgan holda ko‘rsatilgan asosiy vositaning boshlang‘ich (tiklash) qiymati summasi;

Foydali xizmat muddati - korxona asosiy vositadan foydalanadigan vaqt davri yoki korxona undan foydalanishdan olishni mo‘ljallayotgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) miqdori;

Hozirigi kunda amaliyotda asosiy vositalarning korxona balansi va hisobotlarida aks ettiriluvchi (ya’ni, boshlang‘ich, belgilangan tartibda o‘tkaziluvchi qayta baholashdan keyin esa tiklanish), hisobga olish qiymati balans qiymati deb ataladi. Bundan asosiy vositalarning qoldiq qiymatini asosiy vositalarning balans qiymatidan eskirish summasini ayirib tashlash yordamida topish mumkinligi anglashaladi.

Qabul qilingan baholash usuli va korxona balansida aks ettiriluvchi buxgalteriya hisoboti ma’lumotlari asosida, korxona asosiy ishlab chiqarish fondlarining o‘rtacha yillik qiymati (F_{sr}) belgilanib, u quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\mathbf{Av_{o‘r.y}= Av_{yb}+ (Av_{kir}* T_1 – Av_{chiq}* T_2)/12;}$$

Bu yerda:

Av_{yb} – asosiy ishlab chiqarish fondlarining yil boshidagi qiymati;

Av_{kir} – yil davomida kelib tushgan (foydalanishga topshirilgan) asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati;

Av_{chiq} – yil davomida ishlab chiqarishdan chiqarilgan (yo‘q qilingan) asosiy vositalar qiymati;

T_1- foydalanishga topshiriluvchi asosiy ishlab chiqarish fondlari amalda bo‘luvchi o‘rtacha muddati (oylarda), qabul qilingandan keyingi oydan boshlab;

T_2 – ishlab chiqarishdan chiqarilgan (yo‘q qilingan) asosiy ishlab chiqarish fondlari foydalanilmaydigan o‘rtacha muddat (oylar) chiqarilgan oydan to yil oxirigacha).

Asosiy vositalarni boshlang‘ich yoki tiklanish qiymati bo‘yicha baholashdan tashqari eskirish summasi ham hisobga olinadi. Asosiy vositalar jismoniy va ma’naviy jihatdan eskirishi mumkin.

Jismoniy (moddiy) eskirish asosiy vositalarning birlamchi xislatlarini ishlab chiqarishda foydalanish va tabiiy eskirish natijasida yo‘qotishdan yuzaga keladi. U asosan bir xilda kechmaydi hamda ko‘p jihatdan iqlimning ta’siri, asosiy vositalardan foydalanish qoidalariga rioya qilish, jumladan, xodimlarning malakasiga ham bog‘liq bo‘ladi.

Jismoniy eskirishni (Je) quyidagi formula asosida hisoblab topish mumkin:

$$\mathbf{Je = T_{haq}/ T_{me'yor}} \text{ yoki } \mathbf{Je = E/ Av_b}$$

Bu yerda:T_{haq} - asosiy vositalarning haqiqiy xizmat qiluvchi muddati;

$T_{me'yor}$ - asosiy vositalar xizmat qilishi kerak bo‘lgan normativ muddat;

E - hisoblangan amortizatsiya summasi (eskirish summasi);

Av_b – asosiy vositalarning boshlang‘ich(qayta tashkil qilish) qiymati.

Ma’naviy eskirish - asosiy vositalarning qadrsizlanishi yoki texnik jihatdan muddatidan avval ish qobiliyatini yo‘qotilishidir. U ikki shaklda yuzaga keladi: birinchi shaklda asosiy vositalar ularning ishlab chiqarish qiymatlari pasayishi natijasida qadrsizlansa, ikkinchi shaklda asosiy vositalarning qadrsizlanishi yangi, fan-texnika taraqqiyoti ta’siri ostida, yanada samaraliroq fondlarning paydo bo‘lishi natijasida ro‘y beradi.

Asosiy vositalar ma’naviy eskirishining yuqorida keltirilgan shakllarini quyidagi tarzda aniqlash mumkin:

$$\mathbf{Me_1 = (Av_b - Av_{tq})/ Av_b}$$

$$\mathbf{Me_2 = (U_{yangi} - U_{eski})/ U_{yangi}}$$

Bu yerda:Av_b - asosiy vositalarning to‘liq boshlang‘ich qiymati;

Av_{tq} - asosiy vositalarning tiklanish qiymati;

U_{yangi} - yangi texnikaning unumdorligi;

U_{eski} - eski texnikaning unumdorligi.

Asosiy vositalarni qayta ishlab chiqarish, ya’ni jismoniy va ma’naviy jihatdan eskirgan asosiy vositalarning o‘rnini iqtisodiy to‘ldirish uchun korxona bu vositalar qiymatidan *amortizatsiya ajratmalarni* ayirib tashlaydi hamda bu ajratmalar xarajatlar sifatida mahsulot tannarxiga kiritiladi.

Amortizatsiya bu - foydali xizmat muddati mobaynida aktivning

amortizatsiyalanadigan qiymatini asosiy vositalarning vazifasidan kelib chiqqan holda mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga yoki davr xarajatlariga muntazam taqsimlash va o‘tkazish ko‘rinishida eskirishning qiymat shaklidagi ifodasidir;

Asosiy vositalar ob’ekti bo‘yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblash mazkur ob’ekt asosiy vositalar tarkibiga qabul qilingan oydan keyingi oyning dastlabki sanasidan boshlanadi hamda mazkur ob’ektning amortizatsiyalanadigan qiymati to‘liq so‘ndirilgunga qadar yoki bu ob’ektni balansdan hisobdan chiqarilguncha amalga oshiriladi.

Yer uchastkalariga amortizatsiya hisoblanmaydi. Shuningdek quyidagi asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya hisoblanmaydi:

a) mahsuldor qoramollar;

b) kutubxona fondlari;

v) hokimiyatlarga bo‘ysunadigan obodonlashtirish inshootlari;

g) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda konservatsiyalashga o‘tkazilgan fondlar;

d) muzey qimmatliklari;

e) arxitektura va san’at yodgorliklari;

j) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari;

z) to‘liq amortizatsiyalangan asosiy vositalar.

Amortizatsiya ajratmalari asosiy vositalarning balans qiymati va foydali xizmat muddatini hisobga olgan holda belgilanadigan yillik amortizatsiya me’yoriga nisbatan hisoblanadi. Amortizatsiya miqdorini hisoblashga quyidagi omillar hisobga olinadi:

- asosiy vositaning boshlang‘ich balans qiymati;
- asosiy vositaning qoldiq qiymati;
- asosiy vositaning xizmat muddati;
- o‘rnatilgan amortizatsiya me’yori.

Amortizatsiya quyidagi usullarni qo‘llash orqali hisoblanadi:

1. Amortizatsiyani teng maromli (to‘g‘ri chiziqli) hisoblash.

2. Bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda amortizatsiyani hisoblash (ishlab chiqarish usuli).

3. Jadallashtirilgan usulda amortizatsiya hisoblash:

a) ikki baravar amortizatsiya me’yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli;

b) yillar summasi usuli (kumulyativ usul).

1. Amortizatsiyani teng maromli (to‘g‘ri chiziqli) hisoblash.

Amortizatsiyani teng maromli (to‘g‘ri chiziqli) hisoblash usulida amortizatsiya teng maromda, asosiy vositalarni foydali ishlatish muddati mobaynida ularning amortizatsiyalanadigan qiymatidan kelib chiqqan holda teng ulushlarda hisoblanadi.

Mazkur usulga ko‘ra asosiy vositalar ob’ektining amortizatsiyalanadigan qiymati uning xizmat muddati davomida tegishli xarajatlarga teng maromda hisobdan chiqariladi (taqsimlanadi). Usul amortizatsiya me’yori foydali xizmat muddatining faoliyatiga bog‘liqligiga asoslangan. Har bir davr uchun amortizatsiya ajratmalari summasi amortizatsiyalanadigan qiymatni ob’ektdan foydalanilgan hisobot davrlaridagi soniga bo‘lish yo‘li bilan hisoblanadi.

Amortizatsiyani teng maromli (to‘g‘ri chiziqli) hisoblash usulida amortizatsiya

ajratmalarining yillik summasi asosiy vositalar ob’ektining boshlang‘ich (tiklash) qiymatidan kelib chiqib, mazkur ob’ektning tugatish qiymatini va foydali ishlatish muddatini ayirgan holda, belgilanadi;

Misol:

Yuk avtomobili boshlang‘ich qiymati 10 000 000 so‘m

5 yillik foydali xizmat muddatidan so‘ng qoldiq qiymati - 1 000 000.

(Boshlang‘ich qiymat – qoldiq qiymat)/ Xizmat muddati = (10 000 000 - 1 000 000)/5 = 1 800 000 so‘m

Amortizatsiya summasi 1 800 000 so‘m

Yillik amortizatsiya me’yori (amortizatsiyalanadigan qiymatdan) - 20%

Amortizatsiya qilinadigan summa = Boshlang‘ich qiymat – Qoldiq qiymat

2. Bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda amortizatsiyani hisoblash (ishlab chiqarish usuli).

Amortizatsiyani hisoblashning ishlab chiqarish usuli har bir muayyan yildagi asosiy vositalar ob’ektining mahsulotlarini hisobga olishga asoslangan.

Mazkur usul bo‘yicha har yillik amortizatsiya hajmini hisob-kitob qilish uchun butun foydali ishlatish muddatidagi umumiy baholangan mahsulotlar yig‘indisini va mazkur muayyan yildagi mahsulotlarni aniqlash lozim. Mahsulot sifatida ishlab chiqariladigan mahsulot birliklari soni, ishlangan soatlar soni, o‘tib bo‘lingan tonna-kilometrlar soni va boshqalar olinishi mumkin.

Amortizatsiyani hisoblashning ishlab chiqarish usulida yillik amortizatsiya ajratmalari summasi hisobot davridagi mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmining natural ko‘rsatkichidan hamda tugatish qiymatini ayirgan holdagi asosiy vositalar ob’ektining boshlang‘ich (tiklash) qiymatining asosiy vositalar ob’ektini butun foydali ishlatish muddatidagi nazarda tutilayotgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmiga nisbatan mutanosibligidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Misol. Faraz qilaylik yuk avtomobili butun xizmat muddati davomida 90 000 km masofani bosib o‘tadi. Amortizatsiya xarajatlari quyidagicha hisoblanadi:

(Boshlang‘ich qiymati – Qoldiq qiymati)/ Bajariladigan ish hajmi = (10 000 000 - 1 000 000)/ 90 000= 100 co‘m/ km.

9.1-jadval

Amortizatsiya hisoblashning ishlab chiqarish usuli, (ming so‘mda).

	Boshlang‘ich qiymati	*Bosib o‘tadigan masofa, km*	*Yillik amortizatsii summasi*	*Jamg‘arilgan amortizatsiya*	*Balans qiymati*
Sotib olish sanasi	*10 000*	-	-	-	*10 000*
1-yil oxirida	*10 000*	*20 000*	*2 000*	*2 000*	*8 000*
2-yil oxirida	*10 000*	*30 000*	*3 000*	*5 000*	*5 000*
3 -yil oxirida	*10 000*	*10 000*	*1 000*	*6 000*	*4 000*
4 -yil oxirida	*10 000*	*20 000*	*2 000*	*8 000*	*2 000*
5 -yil oxirida	*10 000*	*10 000*	*1 000*	*9 000*	*1 000*

3. Jadallashtirilgan usulda amortizatsiya hisoblash. Asosiy vositalardan intensiv foydalanilganda, shuningdek ilmiy-texnikaviy jarayonning katta ta’sirida asosiy vositalar amortizatsiyasi quyidagi usullarda hisoblanadigan jadallashtirilgan amortizatsiya yo‘li bilan ifodalanadi:

a) ikki baravar amortizatsiya me’yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli;

Ikki baravar amortizatsiya me’yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli amortizatsiyani hisoblash davrida amortizatsiyalanadigan aktiv qiymatining kamayishini anglatadi.

Mazkur usulga ko‘ra teng maromli (to‘g‘ri chiziqli) hisoblash usulidan ikki baravar amortizatsiya me’yori mazkur hisobot davridagi asosiy vositaning tegishli qoldiq qiymatiga ko‘paytiriladi. Ikki baravar amortizatsiya me’yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli bo‘yicha amortizatsiyani hisoblashda faraz qilinayotgan tugatish qiymati boshlang‘ich (tiklash) qiymatidan chegirilmaydi.

Ikki baravar amortizatsiya me’yori bilan qoldiqni kamaytirish usulida yillik amortizatsiya ajratmalari summasi hisobot yili boshidagi asosiy vositalar ob’ektining qoldiq qiymatidan va mazkur ob’ektni foydali ishlatish muddatiga bog‘liq holda hisoblangan amortizatsiyaning ikki baravar me’yoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Misol. Yuk avtomobilining foydali xizmat muddati 5 yil.

Qiymatni bir tekisda taqsimlash (to‘g‘ri chiziqli) usulda hisoblangan amortizatsiya me’yori 20% (100% / 5).

Ikki baravar stavka bilan qoldiqni kamaytirish usulida amortizatsiya normasi 40% ga teng bo‘ladi (2 × 20%).

So‘ngra bu stavka har yilning oxirida ob’ektning balans qiymatiga ko‘paytirilib amortizatsiya summasi topiladi. Bu usulda amortizatsiya hisoblashda ob’ektning qoldiq qiymati hisoblashda e’tiborga olinmaydi. Ammo, oxirgi yilda uning balans qiymatini qoldiq qiymatigacha yetkazish davrida hisobga olinadi.

9.2-jadval

Amortizatsiya hisoblashning qoldiqni kamaytirish usuli (ming so‘mda).

	Boshlang‘ich qiymat	*Yillik amortizatsiya summasi*	*Amortizatsiya summasi*	*Balans qiymati*
Sotib olish sanasi	*10 000*	-	-	*10 000*
1-yil oxirida	*10 000*	*(40% × 10 000) = 4 000*	*4 000*	*6 000*
2-yil oxirida	*10 000*	*(40% × 6 000) = 2 400*	*6 400*	*3 600*
3 -yil oxirida	*10 000*	*(40% × 3 600) = 1 440*	*7 840*	*2 160*
4 -yil oxirida	*10 000*	*(40% × 2 160) = 864*	*8 704*	*1 296*
5 -yil oxirida	*10 000*	*296*	*9 000*	*1 000*

b) yillar summasi usuli (kumulyativ usul).

Yillar summasi usuliga (kumulyativ usulga) ko‘ra har yili amortizatsiya me’yori amortizatsiya muddati oxiriga qadar qoladigan amortizatsiyalanadigan qiymatga ulush sifatida aniqlanadi. Ulush amortizatsiya ajratmalari tugaguniga qadar qoladigan to‘liq yillar sonini amortizatsiya muddatini tashkil qiladigan yillar tartib sonlari summasiga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Yillar summasi usulida (kumulyativ usulda) amortizatsiya ajratmalarining yillik summasi asosiy vositalar ob’ektining tugatish qiymati ayirilgan holda boshlang‘ich (tiklash) qiymatidan hamda suratida ob’ektni foydali ishlatish muddatining oxiriga

qadar qoladigan yillar soni, maxrajida esa - ob'ektni foydali ishlatish muddati yillari soni summasining nisbatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Masalan, yuk avtomobilining kutilayotgan xizmat ko'rsatish muddati 5 yilga teng. Ekspluatatsiya muddatida yil sonlari yig'indisi - 15 ga teng (kumulyativ son):

1 + 2 + 3 + 4 + 5 = 15

So'ngra teskari tartibda har bir xizmat yilini kumulyativ songa bo'lish orqali hisoblash koeffitsentlari topiladi:

5/15, 4/15, 3/15, 2/15, 1/15.

Bu koeffitsentlarni ob'ektning har yillik qoldiq qiymatiga bo'lish orqali amortizatsiya summasi topiladi: 9 000 000 (10 000 000 - 1 000 000).

9.3-jadval

Amortizatsiya hisoblashning sonlar yig'indisi-kumulyativ usul, (ming so'mda).

	Boshlang'ich qiymat	*Yillik amortizatsiya summasi*	*Amortizatsiya summasi*	*Balans qiymati*
Sotib olish sanasi	*10 000*	-	-	*10 000*
1-yil oxirida	*10 000*	*(5/15 × 9 000) = 3 000*	*3 000*	*7 000*
2-yil oxirida	*10 000*	*(4/15 × 9 000) = 2 400*	*5 400*	*4 600*
3 -yil oxirida	*10 000*	*(3/15 × 9 000) = 1 800*	*7 200*	*2 800*
4 -yil oxirida	*10 000*	*(2/15 × 9 000) = 1 200*	*8 400*	*1 600*
5 -yil oxirida	*10 000*	*(1/15 × 9 000) = 600*	*9 000*	*1 000*

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, birinchi yilda amortizatsiya summasining eng katta qismi hisoblanadi va keyingi yillarda bu miqdor kamayib borish xususiyatiga ega.

Soliq solish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida (144-modda) har yillik amortizatsiya me'yorlari xarajatlarga teng maromda hisobdan chiqariladigan asosiy vositalarning boshlang'ich (tiklash) qiymatiga nisbatan foizlarda belgilangan (9.4-jadval).

Ishlab chiqarish jarayonida asosiy vositalar asta-sekinlik bilan eskirishi sababli, ularning ish qobiliyatini ta'mirlash orqali tiklash zaruriyati tug'iladi. O'z vaqtida ta'mirlash asosiy vositalar muddatidan oldin ishdan chiqishining oldini oladi hamda ularning xizmat qilish muddati va unumdorligini oshiradi. Asosiy vositalarni ta'mirlash kapital, o'rta va joriy turlarga bo'linadi. Bino va inshootlarni ta'mirlash o'z mazmuni, talab qilinuvchi muddat va mablag'larga ko'ra, mashina va uskunalarni ta'mirlashdan farq qiladi.

Uskunalar va transport vositalarini kapital ta'mirlash - agregatni to'liq ajratib yig'ish amalga oshiriladigan ta'mirlashdir, bazaviy va korpus detallari va uzellarini ta'mirlash, barcha eskirgan detallar va uzellarni almashtirish yoki tiklash hamda agregatni yig'ish, sozlash va sinab ko'rishdir.

9.4-jadval

Asosiy vositalarning amortizatsiya me’yorlari

Guruhlar tartib raqami	Asosiy vositalarning nomi	Amortizatsiyaning yillik eng yuqori normasi, foizlarda
I	**Binolar, imoratlar va inshootlar**	
	Binolar, imoratlar	3
	Neft va gaz quduqlari; Neft-gaz omborlari; Kema qatnaydigan kanallar, suv kanallari; Dambalar, to‘g‘onlar; Daryo va dengiz prichal inshootlari; Korxonalarning temir yo‘llari; Qirg‘oqni mustahkamlovchi, qirg‘oqni himoyalovchi inshootlar; Rezervuarlar, sisternalar, baklar va boshqa sig‘imlar; Yopiq kollektor-drenaj tarmog‘i; Havo kemalarining uchish-qo‘nish yo‘llari, yo‘laklari, to‘xtash joylari; Bog‘larning va hayvonot bog‘larining inshootlari; Sport-sog‘lomlashtirish inshootlari; Issiqxonalar va parniklar; Boshqa inshootlar.	5
II	**Uzatish qurilmalari:** Elektr uzatish hamda aloqa qurilmalari va liniyalari; Ichki gaz quvurlari va quvurlar; Vodoprovod, kanalizatsiya va issiqlik tarmoqlari; Magistral quvurlar; Boshqalar.	8
III	**Kuch-quvvat beradigan mashinalar va uskunalar:** Issiqlik texnika uskunalari; Turbina uskunalari va gaz turbinalari qurilmalari; Elektr dvigatellari va dizel-generatorlar; Kompleks qurilmalar; Boshqa kuch-quvvat beradigan mashinalar va uskunalar (harakatlanuvchi transportdan tashqari).	8
IV	**Faoliyat turlari bo‘yicha ish mashinalari va uskunalar (harakatlanuvchi transportdan tashqari)**	15
V	**Harakatlanuvchan transport:** Temir yo‘lning harakatdagi tarkibi; Dengiz, daryo kemalari, baliqchilik sanoati kemalari; Havo transporti;	4
	Harakatlanuvchan transport: Avtomobil transportining harakatdagi tarkibi, ishlab chiqarish transporti; Yengil avtomobillar; Sanoat traktorlari.	20
	Harakatlanuvchan transport: Kommunal transport; Maxsus vaxta vagonlari.	10
	Harakatlanuvchan transport: Boshqa transport vositalari	20
VI	**Kompyuter, periferiya qurilmalari, ma’lumotlarni qayta ishlash uskunalari**	20
VII	**Boshqa guruhlarga kiritilmagan asosiy vositalar**	
	Ko‘p yillik dov-daraxtlar	10
	Boshqalar	15

Binolar va inshootlarni kapital ta’mirlash - bazaviy va korpus detallari va uzellarini ta’mirlash, barcha eskirgan konstruksiyalarning detallari va uzellarini almashtirish yoki tiklash amalga oshiriladigan ta’mirlashdir.

Uskunalarni ikki marta kapital ta’mirlash orasidagi muddat *ta’mirlash sikli* deb ataladi. Mashina va uskunalar, qoidaga ko‘ra, maxsus zavodlarda ta’mirlanadi.

O‘rtacha ta’mirlash texnik mazmuni, murakkabligi, bajariladigan ish hajmi va davriyligiga ko‘ra, kapital ta’mirlashdan farq qiladi hamda sarflanuvchi mablag‘, vaqt va kuchni nisbatan kamroq talab etadi. Joriy ta’mirlash kabi u ham mashina yoki uskunadan foydalanuvchi korxonaning o‘zida amalga oshirilishi mumkin. O‘rtacha ta’mirlashda ta’mirlanayotgan agregatni qisman ajratish va detallarning qismlarini tiklash yoki almashtirish amalga oshiriladi.

Joriy ta’mirlash - asosiy vositalar ob’ektini ishchi holatida saqlab turish maqsadida amalga oshiriladigan ta’mirlashdir.

Joriy ta’mirlashda asosan asbob-uskunalar tozalanadi, moylanadi, tekshiriladi, mayda kamchiliklari bartaraf qilinadi, ya’ni uskunalarning foydalanishga doimiy tayyorligi ta’minlanadi.

Asosiy vositalarni ta’mirlash va ularga xizmat ko‘rsatish majmuasi *rejali-oldini oluvchi ta’mirlash tizimiga* (ROOT) birlashtiriladi va korxona bosh mexanigi tomonidan boshqariladi. Deyarli har bir korxonada ROOT o‘tkazilishini qayd qilish jurnallari mavjud bo‘lib, ularda profilaktika va ta’mirlash tadbirlarini o‘tkazish tartibi va grafigi belgilab qo‘yiladi.

Ta’mirlash ishlari tufayli korxona asosiy vositalarning joriy ekspluatatsiyaga tayyorligini ta’minlaydi. Biroq shu bilan bir qatorda korxona asosiy vositalarni yaratish, foydalanish, amortizatsiya, qayta tiklash kabi bosqichlarni o‘z ichiga oluvchi takror ishlab chiqarish amallarini doimiy ravishda bajarishga intilishi lozim.

Takror ishlab chiqarish siklida asosiy vositalarni yaratish jarayoni korxonadan tashqarida amalga oshiriladi hamda asosan qurilish sohasi, mashinasozlik, asbobsozlik hamda asosiy vositalarni yaratish bilan shug‘ullanuvchi boshqa sohalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Asosiy vositalarni takror ishlab chiqarishning qolgan bosqichlari korxona hududida amalga oshiriladi. Biroq barcha hollarda ham asosiy vositalarni takror ishlab chiqarish tufayli korxonalar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda rivojlanib borayotgan bozor munosabatlari sharoitlarida iqtisodiy va texnik barqarorlikka erishishlarini ta’minlaydi.

9.3. Sanoat korxonalari asosiy vositalarining xolati va ta’minlanganligi ko‘rsatkichlari

Asosiy vositalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar iqtisodiy salohiyat ko‘rsatkichlari ichida ma’lum darajada o‘z o‘rniga ega. Ushbu vositalarga xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning ancha mablag‘i jalb qilingan bo‘ladi. Mazkur mablag‘larning qaytimi asosiy vositalardan samarali foydalanish evaziga amalga oshiriladi[1].

Asosiy vositalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni uch guruhga bo‘linadi: asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar; asosiy vositalar bilan ta’minlanganlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar; asosiy vositalar samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar. Ularni aniqlash yo‘llari quyida jadvalda keltirilgan (8-jadval)

Asosiy vositalar holatini tahlil qilishda ularni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni hisoblash lozim. Uni tahlil qilish uchun biznes-reja hisob va hisobot ma’lumotlaridan

[1] Abdukarimov I.T. va boshqalar. Korxona iqtisodiy salohiyati tahlili. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2015, – 256 b.

foydalaniladi. Unda biznes-rejadagi ma’lumotlari haqiqiy ma’lumotlar bilan taqqoslanib, o‘zgarishlarning yaxshilanganligi yoki yomonlashish sabablari aniqlanadi.

Asosiy vositalar iqtisodiy tuzilishini va holatini ifodalash uchun ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

9.5-jadval

Asosiy vositalar (Av.) holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar[1]

Ko‘rsatkichlarning nomi	Nimani ifodalashi (mazmuni)	Aniqlanish formulasi
1.Asosiy vositalarning umumiy mablag‘lardagi hissasi	Asosiy vositalarning umumiy mablag‘larda necha foiz tashkil qilishini ko‘rsatadi	A_v/B
2.Asosiy vositalar faol qismining (Avf) tarkibiy tuzilishi	Asosiy vositalar faol qismining umumiy asosiy vositalar summasida necha foiz tashkil qilishini ifodalaydi	Avf/ A_v
3.Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti	Umumiy asosiy vositalar qiymatining qancha qismi eskirish summasiga tengligini ko‘rsatadi	Av.es/Av.bq
4.Asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti	Shu hisobot davrida yangidan ishga tushirilgan asosiy vositalar qismining umumiy yil oxiridagi asosiy vositalardagi hissasini ifodalaydi	Av.yang/ Avdo.b.q
5.Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti	Umumiy asosiy vositalar qiymatining qancha qismi qoldiq qiymatda ekanligini ifodalaydi	(Av-Av.es.)/Av
6.Asosiy vositalarning chiqarilish koeffitsiyenti	Asosiy vositalarning qancha qismi hisobdan chiqarilganligini ifodalaydi	Av.chiq./ *Avdb.b.q*

Eskirish koeffitsenti (Kesk) eskirish summasining asosiy vositalar boshlang‘ich qiymatiga nisbati sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Kesk = Av.es/Av.bq$$

Bunda:A.ves – asosiy vositalar eskirish summasi;
Avbq – asosiy vositalarninig boshlang‘ichqiymati;
F1 – 1-shakldagi “Buxgalteriya balansi»;
010 va 011-satrlar – balans satrlari.

Asosiy vositalar yaroqlilik koeffitsenti (Kyar) qoldiq qiymatining (eskirish chegirilgan holdagi) boshlang‘ich qiymatga nisbati sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Kyar = Av.qq/Av.bq$$

bunda:Avq.q – asosiy vositalarning qoldiq qiymati.

Asosiy vositalar yangilanish koeffitsenti (Kyang) yil mobaynida yangi kelgan asosiy vositalarning yil oxiridagi ular qoldig‘iga nisbatisifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

[1] Abdukarimov I.T. va boshqalar. Korxona iqtisodiy salohiyati tahlili. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2015, – 256 b.

Kyang = Av.yang/ Avdo.b.q

bunda:Avya.k – yangi kelgan asosiy vositalar summasi;

Avdo.b.q – asosiy vositalarning davr oxiridagi boshlang‘ich qiymati;

Hisobdan chiqarish koeffitsenti (Kh.ch) yil mobaynida hisobdan chiqarilgan asosiy vositalarning yil boshidagi qiymatiga nisbati sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

Kh.ch = Av.chiq./ *Avdb.b.q*

bunda:

Avdb.b.q – asosiy vositalarning davr boshidagi boshlang‘ich qiymati;

Avh.ch – hisobot davrida hisobdan chiqarilgan asosiy vositalar.

Mazkur koeffitsentlar barcha asosiy vositalar hamda ularning alohida turlari va guruhlari bыyicha hisoblanadi, qator yillar mobaynidagi ыzgarishi ko‘rib chiqiladi va tegishli xulosalarga kelinadi.

Asosiy vositalar tuzilmasi tarmoq ixtisosligidan kelib chiqib aniqlanadi va korxonaning ishlab chiqarish va texnik ta’minoti xususiyatlarini aks ettiradi. U korxona asosiy vositalari umumiy summasida va noishlab chiqarish, aktiv vapassiv qismining hajmiga hamda ularning yil mobaynidagi o‘zgarishlari va dinamikasiga bog‘liqdir.

Mazkur ko‘rsatkichlar asosida korxona tuzilmalari bo‘yicha asosiy vositalar samaradorligi, texnik jihozanishning darajasi, qo‘l mehnati kamayishi va ishlab chiqarish samaradorligi oshishi haqida hulosalar chiqarish mumkin. Asosiy vositalar tuzilmasini hisob-kitob qilish uchun 3-shakldagi «Asosiy vositalar harakati haqidagi hisobot» ma’lumotlari qo‘llaniladi. Bu ko‘rsatkichlarni asosiy vositalar holatining yaxshilanish (yomonlashish) sabablarini aniqlagan holda dinamikasini o‘rganib, hisob-kitob qilish zarur.

Asosiy vositalar boshlang‘ich qiymatining qoldiq qiymatiga nisbatan keskin o‘sishi koeffitsiyentlarda eskirish ko‘payganligi va ular yaroqliligi kamayganligini, ya’ni holati yomonlashganini ko‘rsatadi.

Qoldiq qiymatining boshlang‘ich qiymatga nisbatan keskin o‘sishi asosiy vositalar yangilangan, ularning eskirishi qisqargandan dalolat beradi. Eskirishni kamaytirish, ya’ni asosiy vositalar holatini yaxshilash usullaridan biri o‘z vaqtida kapital ta’mirlash, yangilarini xarid qilish, shuningdek, ma’naviy va jismoniy eskirgan uskunalarni hisobdan chiqarishdan iboratdir. Bu tadbirga erkin raqobat hukm surib turgan bozor munosabatlari sharoitida ahamiyat berish lozim.

Asosiy vositalar bilan ta’minlanganlik korxonaning texnik jihatdan ta’minlanganligini, mehnat va ishlarning mexanizatsiyalashganligi va avtomatlashganligini koeffitsiyent orqali ifodalaydi. Bu ko‘rsatkichlar orqali har bir korxonaning moddiy-texnika bazasi bilan ta’minlanganlik darajasini aniqlash mumkin. Shu tufayli ushbu ko‘rsatkichlar asosiy ko‘rsatkichlar hisoblanadi (9.6-jadval).

9.6-jadval

Asosiy vositalar (Av.) bilan ta’minlanganlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar[1]

Ko‘rsatkichlarning nomi	Nimani ifodalashi (mazmuni)	Aniqlanish formulasi
1. Fondlar bilan qurollanganlik darajasi	Bitta xodimga to‘g‘ri keladigan faol Av. qiyma-tini ifodalaydi	Av.f./Is
2.Texnik ta’minlanganlik koeffitsiyenti (Kt.t)	ishlab chiqarish uskunalari summasining eng katta smenadagi ishchilar soniga nisbati	**I.us/Is**
3.Natijaning fondlilik darajasi(Fond sig‘imi)	1 so‘m natija qo‘rsatkichiga qancha Av. summasi to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi	Av./Q
4. O‘z mablag‘larining (Um.) Av. bilan ta’minlanganligi	1 so‘m o‘z mablag‘lariga qancha Av. summasi to‘g‘ri kelishini yoki o‘z mablag‘larinnig kapitallashganlik darajasini ifodalaydi	Av/O‘m

1. Fondlar bilan qurollanganlik darajasi asosiy ishlab chiqarish vositalari qiymatining (boshlang‘ich baholanishi bo‘yicha) eng katta smenadagi ishchilar soniga nisbatidir. U ishchilarning mehnat qurollari (asosiy vositalar) bian ta’minlanganlik darajasini aks ettiradi va quyidagi formular orqali aniqlanadi:

Kf.t= Avf/Is,

bunda:

Kf.t – xodimlarning asosiy vositalar bilan ta’minlanganligining koeffitsiyenti;

Avf – asosiy vositalarning faol qismi qiymati;

Is – eng katta smenadagi ishchilar soni.

Tahlil qilish uchun korxona yillik hisoboti ma’lumotlaridan olinadi.

2. Texnik ta’minlanganlik koeffitsiyenti (Kt.t) ishlab chiqarish uskunalari summasining (ya’ni asosiy vositalar aktiv qismidagi) eng katta smenadagi ishchilar soniga nisbati sifatida hisoblanadi va quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

Kt.t=I.us/Is,

bunda:

Kt.t – texnik ta’minlanganlik koeffitsiyenti;

I.us – ishlab chiqarish uskunalari summasi.

3. Mahsulotning fond sig‘imi 1 so‘m natija qo‘rsatkichiga qancha asosiy vosita summasi to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi va quyidagi formula asosida aniqlanadi:

Fc = Av./Q

Fond sig‘imi kapital qo‘yilmalari (investitsiyalar)ni tejash yoki ko‘paytirish bilan uzviy ravishda bog‘liq bo‘ladi. Masalan, mahsulot fond sig‘imi pasayib, uning ishlab chiqarish hajmi doimiy yoki o‘suvchi bo‘lganda asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish sharoitlari yaxshilanadi, demak, kapital qo‘yilmalarini tejash uchun imkoniyat tug‘iladi. Uni topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

[1] Abdukarimov I.T. va boshqalar. Korxona iqtisodiy salohiyati tahlili. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2015, – 256 b.

$$T_k = Fc.o‘z \times Q$$

Bu yerda:

T_k – kapital qo‘yilmalarni tejash, so‘m;

Fc.o‘z – hisobot yilida mahsulot fond sig‘imining o‘tgan yildagiga nisbatan o‘zgarishi, so‘m.

9.4. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlari va ularni oshirish yo‘nalishlari.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalarning asosiy vositalari bilan yetarli darajada ta’minlanganligini o‘rganish bilan bir qatorda, ularning samaradorlik ko‘rsatkichlarini o‘rganish asosiy o‘rinda turadi. Chunki, asosiy vositalar bilan yetarli darajada ta’minlangan bo‘lsa-yu, lekin ulardan samarali foydalanmasak, u holda korxonaning samaradorligi pasayib ketadi.

Asosiy vositalarning samaradorlik kursatkichlari korxona xo‘jalik faoliyatiga baho berishning muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida olinadi.

Asosiy vositalardan (Av) foydalanish samaradorligi darajasidan umuman ishlab chiqarish samaradorligi kelib chiqadi. Asosiy vositalardan qanchalik ko‘p foydalansa, shunchalik ko‘p mahsulot chiqariladi, uning tannarxi arzonlashadi, mehnat samaradorligi, foyda va rentabellik yuqori bo‘ladi.

Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarga: Av mahsuldorligi, Av daromadliligi, Av rentabelligi, mashina va uskunalar quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyenti kiradi (9.7-jadval).

9.7-jadval

Asosiy vositalar samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar[1]

Ko‘rsatkichlarning nomi	Nimani ifodalashi (mazmuni)	Aniqlanish formulasi
1. Asosiy vositalar rentabelligi	Asosiy vositalarlar o‘rtacha qiymatiga nisbatan sof foydaning ulushini ifodalaydi.	**SF*100 / Av**
2 Asosiy vositalar daromadliligi	Asosiy vositalar o‘rtacha qiymatiga necha foiz daromad to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi	D*100/Av
3. Asosiy vositalar natijaviyligi (fond qaytimi)	1 so‘m asosiy vositalar o‘rtacha qiymatiga qancha miqdorda natijaviy ko‘rsatkichning (sotilgan mahsulot, tovar mahsuloti, tovar oboroti va h.k.) to‘g‘ri kelishini ifodalaydi	Q/**Av**

1. Av. rentabelligi asosiy vositalarning 1 so‘miga to‘g‘ri keladigan foyda summasini ifodalaydi. U sof foydaning asosiy vositalar o‘rtacha yillik qiymatiga nisbati bilan quyidagicha aniqlanadi:

$$Raf = SF*100 / Av$$

[1] Abdukarimov I.T. va boshqalar. Korxona iqtisodiy salohiyati tahlili. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2015, – 256 b.

bunda:Raf – asosiy vositalar rentabelligi;
SF – sof foyda.
2. Asosiy vositalar daromadliligi

Av.d = D*100/Av

3. Asosiy vositalar natijaviyligi(fond qaytimi). Asosiy vositalar mahsuldorligi tahlil qilinayotgan davrda (odatda, bir yilda) ishlab chiqarilgan (sotilgan) mahsulotning Av o‘rtacha yillik qiymatiga nisbati shaklida quyidagi formula orqali topiladi:

Avm= Q **/Av**

bunda:Avm – asosiy vositalar natijaviyligi;
Q – *tahlil qilingan davrda ishlab chiqarilgan (sotilgan) mahsulot hajmi;*
Av – asosiy vositalar o‘rtacha yillik qiymati.

Bozor munosabatlari sharoitida sotilgan mahsulot hajmi xo‘jalik faoliyatini to‘la hajmda aks ettiradi. Foyda va rentabellik kabi korxonaning moliyaviy holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar ham ushbu ko‘rsatkichlarga bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun Av. mahsuldorligini ishlab chiqarilgan mahsulot bo‘yicha emas sotilgan mahsulot hajmi bo‘yicha aniqlash to‘g‘ri bo‘ladi. Buning uchun quyidagi formula tavsiya etiladi:

Avm = S/Av

bunda:S – sotilgan mahsulot hajmi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning turli xil ko‘rsatkichlari mavjud bo‘lib, ularni shartli ravishda ikki guruhga bo‘lish mumkin:

birinchi guruh - *umumlashtiruvchi* va *qiymat* ko‘rsatkichlari bo‘lib, ular asosiy vositalarning turli guruhlarini dinamika va statikada baholash, tahlil qilish, zahiralarni aniqlash va bashorat qilish imkonini yaratadi. Bunday ko‘rsatkichlarga fond qaytimi, fond sig‘imi, fond rentabelligi va boshqalarni kiritish mumkin.

ikkinchi guruh - *xususiy* va *natural* ko‘rsatkichlar bo‘lib, ko‘proq asosiy ishlab chiqarish fondlarining faol qismi - mashina va asbob-uskunalardan foydalanish bilan bog‘liq.

Xususiy ko‘rsatkichlar guruhi tarkibiga quyidagilar kirishi mumkin:

* asosiy ishlab chiqarish fondlari(mashina va asbob-uskunalar)dan ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti, ulardan vaqt bo‘yicha foydalanganlik darajasini aks ettiradi;

* asosiy ishlab chiqarish fondlari(mashina va asbob-uskunalar)dan intensiv foydalanish koeffitsiyenti, ulardan quvvat bo‘yicha foydalanganlik (unumdorlik) darajasini aks ettiradi;

* asosiy ishlab chiqarish fondlaridan integral foydalanish koeffitsiyenti, barcha ekstensiv va intensiv omillardan birgalikda foydalanishni hisobga oladi.

Ko‘rsatilgan ko‘rsatkichlarning har biri amaliyotda mustaqil ma’noga ega bo‘lib, turli maqsadlarga erishish uchun foydalaniladi. Masalan, asosiy ishlab chiqarish fondlaridan vaqt bo‘yicha qanday foydalanilganligini (ekstensiv foydalanish) baholash asbob-uskunalarning smenalik koeffitsiyenti, uskunalarni koeffitsiyenti, smena davomida uskunalarning bekor turib qolishi, uskunalardan smenalarda foydalanish koeffitsiyenti kabi ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi.

Asbob-uskunalardan ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti mazkur uskunalardan amalda haqiqiy foydalanilgan vaqtning ulardan reja bo‘yicha foydalanish muddatiga nisbati orqali aniqlanadi.

$$\mathbf{K_{eks} = t_{xaq} / t_{rej}}$$

Bu yerda: t_{xaq} – uskunalardan haqiqiy foydalanilgan vaqt, soatlar;

t_{rej} – uskunalarning normaga asosan foydalanish muddati, soatlar.

Misol. Agar 8 soatlik smena mobaynida ta’mirlash uchun 1 soat rejalashtirilib, amalda 5 soat sarflangan bo‘lsa, u holda ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti 0,71 (5/(8-1)) ni tashkil qiladi. Bu esa asbob-uskunalardan smena davomida faqat 71 % foydalanilganligini anglatadi.

Korxonalarda bunday uskunalarning bir emas, bir nechta – o‘nta yoki yuztasidan foydalaniladi. Shu munosabat bilan uskunalarning smenalik koeffitsiyenti - sutka davomida mashina-smenalarning o‘rnatilgan uskunalarning umumiy soni yoki ishchi o‘rinlariga nisbatini aniqlash zaruriyati tug‘iladi. Bu holda smenalilik koeffitsiyenti quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\mathbf{K_{sm} = MS / KO}$$

Bu yerda: MS - sutka davomida haqiqiy ishlangan mashina-smenalar yig‘indisi;

KO - o‘rnatilgan asbob-uskunalarning umumiy soni.

Uskunalarni yuklanish koeffitsiyenti ham uskunalardan vaqt bo‘yicha foydalanishni tavsiflaydi. Smenalilik koeffitsiyentidan farqli ravishda, u mahsulotning mehnat sig‘imini hisobga oladi. U mazkur uskunada tayyorlangan barcha mahsulotlar mehnat sig‘imining uning ishlash vaqti fondiga nisbati orqali aniqlanadi.

Korxonada asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni to‘liq baholash uchun ekstensiv ko‘rsatkichlardan tashqari, ularning quvvat bo‘yicha yuklanish tabiatini o‘rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yerda yuqorida aytib o‘tilganidek, texnologik uskunalar amaldagi unumdorligining, ya’ni texnik asoslangan progressiv unumdorlikning normativ unumdorlikka nisbati asosida, ya’ni **uskunalardan intensiv foydalanish koeffitsiyentidan** foydalanish, uni quyidagi formula bo‘yicha hisoblash mumkin:

$$\mathbf{K_{inten} = Q_{xaq} / Q_{rej}}$$

Bu yerda: $\mathbf{Q_{xaq}}$ – vaqt birligida uskunada ishlab chiqarilgan haqaqiy mahsulot miqdori;

$\mathbf{Q_{rej}}$ – vaqt birligida uskunada texnik jihatdan asoslangan mahsulot ishlab chiqarish normasi.

Misol. Pasport ma’lumotlari bo‘yicha dastgohda bir soatda 100 ta buyum yasash mumkin, amalda esa shu vaqt ichida faqat 80 ta buyum tayyorlandi. U holda K_{int}=0,8 (80:100), ya’ni dastgohdan quvvat bo‘yicha foydalanish 80 foizni tashkil qildi.

Uskunadan integral foydalanish koeffitsiyenti uskunadan ekstensiv va intensiv foydalanish koeffitsiyentlarining ko‘paytmasi orqali aniqlanib, uning vaqt va

quvvat bo‘yicha band bo‘lishini (foydalanilishini) kompleks xarakterlaydi.

$$K_{integ} = K_{eks*} K_{inten}$$

Har bir korxona o‘z tasarrufidagi asosiy ishlab chiqarish fondlaridan iloji boricha unumli foydalanishga intilishi lozim. Bunga fondlarni ish bilan ta’minlashni yaxshilash tufayli ishlab chiqarish va mahsulotlarni sotish hajmini oshirish, nisbiy xarajatlarni kamaytirish, foydani oshirishdan tashqari asosiy vositalarda jamiyatning o‘tmishda narsa holiga aylangan mehnati mujassamlanganligi ham zaruriyat tug‘diradi.

Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligiga turli omillar ta’sir qiladi. Ular qatoriga quyidagilarni kiriish mumkin:

- ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot hajmi;
- asosiy vositalar o‘rtacha yillik summasi;
- ishlab chiqarishda band bo‘lgan xodimlar mehnatining samaradorligi;
- asosiy asosiylarning tarkibiy tuzilishi;
- asosiy vositalar alohida turlaridan foydalanish samaradorligi.

9.5.Ishlab chiqarish quvvati va ulardan foydalanishni yaxshilash yo‘llari

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo‘llaridan biri mavjud ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilashdir. Ishlab chiqarish quvvatlaridan qanchalik to‘la va unumli foydalanilsa, ko‘proq mahsulot ishlab chiqariladi, mahsulotning tannarxi kamayadi, korxonaning foydasi va samaradorligi oshadi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati vaqt birligi ichida belgilangan assortiment va nomenklatura, mavjud dastgohlar, ishlab chikarish maydonlaridan to‘liq foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini ifodalaydi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati natura birligida o‘lchanadi. Masalan, metallurgiya sanoatida ishlab chiqarish quvvati tonnada, to‘qimachilikda yigirilgan ip tonnada, gazlamalar metrda, avtotraktor tarmoqlarida avtomobillar va traktorlar donalab o‘lchanadi.

Ishlab chiqarish quvvati korxonaning texnik darajasi, unumdorligi, kadrlar malakasi, xomashyolarning sifati va mahsulotlarning assortimentiga qarab o‘zgarib boradi.

Bundan kelib chiqadiki, **ishlab chiqarish quvvati** – bu, ma’lum bir vaqt davomida ilg‘or texnologiyalardan foydalanish, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning ilg‘or sharoitlarida ishlab chiqarish mumkin bo‘lgan mahsulotlarning maksimal darajasidir. U qoidaga ko‘ra, ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining natural ko‘rinishda, ushbu korxonaning ixtisoslashganligi va mahsulotning alohida turlari o‘rtasidagi o‘zaro nisbatiga ko‘ra aniqlanadi.

Sanoat korxonasining ishlab chiqarish quvvati ilg‘or (asosiy) sexlar quvvati bilan, sexlar quvvati bosh uchastkalar quvvati bilan, uchastkalar quvvati esa bosh uskunalar quvvatiga asosan aniqlanadi. Korxona ishlab chiqarish

quvvati kattaligini belgilab beruvchi ko‘rsatkichlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- uskunalar tarkibi va turlar bo‘yicha soni;
- uskuna, agregat va dastgohlardan foydalanishning texnik-iqtisodiy norma (normativ) lari;
- uskunalarning ishlash vaqti fondi;
- ishchilar soni;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi va assortimenti (turlari va xilma-xilligi).

Sanoat korxonasi ishlab chiqarish quvvatining ***boshlang‘ich*** (yil boshida), ***yakuniy*** (yil oxirida), ***o‘rtacha*** yillik hamda ***loyiha quvvati*** turlari mavjud. Loyiha quvvati qurilish loyihasida ko‘zda tutilgan bo‘ladi. Qayta tiklash, kengaytirish va texnik jihatdan qayta qurollantirish davomida loyiha quvvati kattalashtirilishi mumkin. Shu sababli amaliyotda loyiha quvvati ko‘pincha korxonaning amaldagi quvvati bilan solishtiriladi. Korxonaning amaldagi quvvati korxona ishlab chiqarish dasturini tayyorlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Sanoat korxonasia ishlab chiqarish quvvatini aniqlashda zahiradagi uskunalardan tashqari, barcha o‘rnatilgan uskunalar hisobga olinadi. Ba’zi bir sexlarda (yig‘uv, quyuv va boshqa sexlarda) ishlab chiqarish quvvati ishlab chiqarish maydonlariga asosan hisoblanadi.

Ishlab chiqarish quvvatini aniqlashda mahsulot birligiga sarflanuvchi vaqt normasi yoki har bir uskunaning unumdorlik normalari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular ilg‘or hamda progressiv bo‘lishi talab qilinadi.

Sanoat korxonasi bosh bo‘g‘inining (asosiy sexining) ishlab chiqarish quvvati quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$\mathbf{Q_{uvvat} = n^* F_{maks} / M_t}$$

Bu yerda: $\mathbf{Q_{uvvat}}$ - sanoat korxonasi sexining yoki uchaskaning qabul qilingan o‘lchov birligidagi ishlab chiqarish quvvati;

n - sanoat korxonasi sexining yoki uchastkadagi ilg‘or uskunalar soni;

F_{maks} –bosh uskunadan foydalanish mumkin bo‘lgan maksimal muddat, soat;

M_t –bosh uskunada mahsulot tayyorlashning progressiv mehnat sig‘imi, soat.

Amaliyotda ishlab chiqarish quvvati va uskunalarning yuklanishini hisoblashda ba’zida xatolar, ular o‘rtasidagi farqni sezmaslik hollari ham uchrab turadi. Korxona quvvati asosiy ishlab chiqarish fondlari, yangi texnika va aniqlangan zahiralardan foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarish mumkin bo‘lgan maksimal darajani tavsiflaydi, uskunalarning yuklanishni hisoblash natijalari esa, ushbu quvvatlardan rejadagi davrda foydalanishning darajasini aniqlaydi.

Demak, ular o‘rtasidagi prinsipial farq shundaki, birinchi holatda korxona ishlab chiqarishi mumkin bo‘lgan mahsulotlarning maksimal darajasi aniqlansa, ikkinchi holda mazkur davr mobaynida uskunalardan qanchalik foydalanilishi

aniqlanadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilash bilan bog‘liq bo‘lgan mazkur chora-tadbirlar, ko‘pincha ishlab chiqarish quvvatlari balansini tuzish yo‘li bilan amalga oshirilib, korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari va ularni ta’minlash manbalariga bo‘lgan ehtiyoji aniqlanadi.

Sanoat korxonasida ishlab chiqarish quvvatini hisoblash uchun quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi lozim:

a) mavjud uskunalar va agregatlarning soniga ta’mirlashdagi uskunalar, rejalashtirish davrida yangidan kiritilgan uskunalar qo‘shiladi. Lekin jismoniy va tabiiy sharoit ta’sirida yemirilgan uskunalar hisobga kiritilmaydi;

b) korxonalar va sexlarning ishlab chiqarish maydonlari haqidagi ma’lumot;

v) korxonalarning ish rejimi, ya’ni smenalar soni (ta’mirlashga to‘xtash vaqtisiz), ish vaqti fondi;

g) uskunalar, agregatlarning unumdorlik normasi.

Ishlab chiqarishda turli uskunalardan foydalanish, korxonaning kuvvati asosiy texnologik jarayonlarni bajaradigan yetakchi sexlar, bo‘linmalar yoki agregatlarning quvvatlariga binoan xisoblanadi.

Turli korxonalar (birlashmalar)ning ishlab chiqarish quvvatini hisoblashda ularning xususiyatlari inobatga olinadi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$Q=Ds*Du*Div$$

Bu yerda: Q — korxonaning ishlab chiqarish quvvati;

Ds — bir turdagi dastgohlar soni;

Du — vaqt birligidagi bir dona dastgohning unumdorligi;

Div — dastgohlarning ishlash vaqti.

Ayrim tarmoqlarning korxona va sexlarida yig‘uv, quyuv, mebel, konserva ishlab chiqarish quvvati, maydon bo‘yicha quyidagi formulaga asosan hisoblanadi:

$$Q=(M : Mn) * (F : Vt),$$

Bu yerda: M — korxonaning yoki sexning ishlab chiqarish maydoni (kv.m);

Mn — norma bo‘yicha ish joyiga taalluqli ishlab chiqarish maydoni (kv.m);

F — ish joyining yillik rejali ish vaqti fondi (soat);

Vt — mahsulotning mehnat talabchanligi — texnologik vaqt (soatda).

Yil boshida belgilangan ishlab chiqarish quvvati, kirish quvvati, yil oxiridagisi esa, chiqish kuvvati, deyiladi. O‘rtacha yillik ishlab chiqarish quvvati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Ko‘r = Kk + (Km * P_2) / 12 - (Kch * P_1) / 12,$$

Bu yerda: Kk — kirish davridagi (rejalashtirilayotgan yil boshidagi) quvvat;

Kt — yil davomida ishga tushirilgan quvvat;

Kch — chiqish davridagi (yil oxiridagi) quvvat;

P_1 — rejalashtirilayotgan davrdagi ishlab chiqarish quvvatidan

foydalanilmagan oylar soni;

P_2 — rejalashtirilayotgan davrda ishga tushirilgan ishlab chiqarish quvvatidan foydalanilgan oylar soni.

Asosiy fondlardan va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni yaxshilash ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga, kapital mablag‘ sarflamay, qo‘shimcha mahsulot ishlab chiqarishga, mehnat unumdorligi va samaradorlik o‘sishiga xamda mahsulot tannarxini kamaytirishga imkon yaratadi. Shuning uchun ham hozirgi sharoitda respublikada ulardan unumli foydalanishga katta e’tibor berilmokda.

Korxona asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilashning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

Tashkiliy yo‘nalishlar bo‘yicha:

• ishlab chiqarishni tashkil etishni va resurslar bilan ta’minlashni yaxshilash.

• asosiy vositalarning faqat korxonaga ish beradigan qisminigina olish;

• smena davomida uskunalar bekor turib qolishini qisqartirish va uning oldini olish;

• uskunalarning smenalik koeffitsiyentini oshirish;

• bekor turuvchi uskunalarni qisqartirish va tugatish;

• eskirgan va ma’naviy talabga javob bermaydigan asosiy vo-sitalarni hisobdan chiqarish;

• asosiy vositalarni farqlash va tarkiblashni qayta o‘zgartirish;

• asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashning muvofiq shakllarini belgilash va h.k.

Texnik yo‘nalishlar bo‘yicha:

• ta’mirlash va profilaktika tadbirlarini o‘z vaqtida va sifatli ravishda amalga oshirish;

• eskirgan asosiy vositalarni yangilari bilan almashtirish;

• avtomatlashtirilgan tizimni yaratish;

• mexanizatsiyalashni kuchaytirish va h.k.

Ekspluatatsion yo‘nalishlar bo‘yicha:

• uskunalarni ekspluatatsiya qiluvchi xodimlarning malakasini oshirish;

• bir smenalik va ko‘p smenalik;

• ishlab chiqarish hajmiga qarab asosiy vositalarni texnik holat va harakatini boshqarish;

• asosiy vositalar qarovi yuzasidan mas’ul shaxslarni ajratish;

asosiy vositalar bo‘yicha javobgarlik markazlarini belgilash va x.k.

Sanoat asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatlari samaradorligini oshirishda korxonalarda texnologik uskunalarning ish smenasini ko‘paytirish katta ahamiyatga ega.

Uskunalardan intensiv foydalanishni yaxshilash uchun korxonaning texnika va texnologiyasini takomillashtirish, mashinalarning ish tezligini oshirish, metall quyishga, kimyoviy jarayonlarga sarflanadigan vaqtni qiskartirish, shuningdek, kadrlar malakasining texnikaviy saviyasini oshirish, korxonalarni yiriklashtirish, ixtisoslashtirish va diversifikatsiya qilish asosida mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish zarur.

Qisqacha xulosalar

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati va taraqqiyoti uning tabiiy va moddiy resurslari, ayniqsa mamlakat miqyosida yaratilgan asosiy va aylanma fondlarning miqdori va sifatiga bog‘liq bo‘ladi.

Sanoat ishlab chiqarishini izchil modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qurollantirish natijasida asosiy fondlarning tarkibida sezilarli siljishlar sodir bo‘ldi. Yangidan yangi jihozlar, asbob-uskunalar, qurilmalar, hisoblash texnikasi va ishlab chiqarish inventarlari salmog‘i oshib bormokda.

Asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilash o‘ta dolzarb masala bo‘lganligi uchun ham unga alohida ahamiyat berilmoqda, natijada esa yildan-yilga fond kaytimi oshib bormokda.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Asosiy fondlarning moxiyati, ahamiyati, tarkibi va tuzilmasi.
2. Kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarishda asosiy fondlar.
3. Asosiy fondlarning yemirilishi va amortizatsiyasi.
4. Asosiy fondlarni ta’mirlash va modernizatsiya qilish.
5. Asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilash ko‘rsatkichlari va yo‘llari.
6. «Ishlab chiqarish quvvatlari» tushunchasi va uni aniqlash usullari.
7. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni yaxshilash masalalari.

Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro`yxati:

1. 2019 yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasi// https://president.uz/uz/lists/view/2228
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida» gi №PF-4947 sonli Farmoni. //Xalq so’zi. 2017 yil 8 fevral.
3. Sh. M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak . Tashkent : O‘zbekiston, 2017 y.,104 b.
4. Church J., and R.Ware. (CW) Industrial Organization. A Strategic Approach. Irwin. 2000.
5. Schmalensee, Richard, and Robert Willig, eds. (HB) Handbook of Industrial Organization. Vols. 1-2. North-Holland, 1989.
6. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.-T.:”Sano-standart”, 2014.-304 b.
7. Abdukarimov I.T. va boshqalar. Korxona iqtisodiy salohiyati tahlili. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2015, – 256 b.
8. www.webofscience.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi
9. www.search.ebscohost.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi

10-BOB. SANOATNING XOM ASHYO MANBAI VA TEJAMKORLIK STRATEGIYASI

10.1. Sanoatda xom ashyo, uning xususiyatlari va turkumlanishi

Qayta ishlovchi barcha sanoat tarmoqlarining ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi elementlardan biri xom ashyodir, chunki xom ashyosiz hech qanday mahsulot ishlab chiqarish mumkin emas.

Xom ashyo deb, qazib olish yoki ishlab chiqarish uchun ma`lum darajada mehnat sarflangan va shu mehnat natijasida bir qadar o`zgargan mehnat buyumiga aytiladi. Ishlab chiqarish jarayonida xom ashyo tayyor mahsulot yoki yarim fabrikat hosil qiladi. Natijada xom ashyoning to`la qiymati tovar shaklini olgan yalpi mahsulotga o`tadi.

Xom ashyo asosiy va yordamchi materiallarga bo`linadi.

Asosiy xom ashyo — tayyor mahsulotning moddiy asosini tashkil qiluvchi mehnat buyumidir. Tayyor mahsulot tarkibiga kiruvchi yoki asosiy xom ashyoni qayta ishlashga zarur sharoit yaratib beruvchi qolgan barcha mehnat buyumlari yordamchi materiallar deb ataladi.

Mehnat buyumlarining mahsulot ishlab chiqarishda qay tarzda qatnashishiga qarab ular ham xom ashyo (asosiy xom ashyo), ham yordamchi material bo`lishi mumkin. Masalan, neft yoqilg’i sifatida yordamchi material bo`lsa, benzin yoki kerosin ishlab chiqarishda esa xom ashyodir.

Xom ashyo keng miqyosda iste`mol buyumlari hamda ishlab chiqarish mahsulotlari olish uchun ishlatiladigan tabiiy materiallardan iborat. U quyidagi talablarga javob berishi kerak:

-miqdori jihatidan etarli bo`lishi;

-qazib olish arzon va oson bo`lishi;

-texnologik jarayonlar oson borishi kerak.

Har bir xom ashyo mehnat buyumidir, lekin har bir mehnat buyumi xom ashyo emas. Mehnat buyumi mehnat vositasi bilan ma`lum darajada o`zgargandan keyingina xom ashyoga aylanadi. Er ostidagi foydali qazilmalar, yovvoyi hayvonlar, daraxtlar va hokazolar xom ashyo bo`lmay, balki potensial tabiiy boyliklardir.

Mehnat vositasi yordamida ovlangan hayvonlar, qazib olingan ma`danlar, kesilgan daraxtlar va boshqalar xom ashyo hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida bir yoki bir necha bosqichda qayta ishlangan bo`lsa-yu, lekin tayyor mahsulot sifatida iste`mol qilina olmasa, u chala mahsulot, ya`ni yarimfabrikat deb ataladi.

Xom ashyo resurslarini xom ashyodan farq qilmoq kerak. Xom ashyo resurslariga mamlakatdagi foydali qazilmalar konlari, o`rmon maydonlari, uy hayvonlari va shu kabi tabiiy boyliklar kirsa, ular qazib chiqarilgan yoki ishlab chiqarish uchun mehnat sarflangandagina xom ashyoga aylanishi mumkin.

Xom ashyo ishlab chiqarish jarayonining asosiy elementi sifatida sanoat ishlab chiqarishiga va uning iqtisodiga katta ta`sir ko`rsatadi. Sanoatning qayta ishlovchi tarmoqlarida xom ashyo va yoqilg’i xarajatlari ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar hajmida eng katta salmoqqa egadir. Shuning uchun sanoat korxonalari faoliyatining iqtisodiy ko`rsatkichlari ko`p jihatdan tayyor mahsulot ishlab chiqarish

uchun ketgan xom ashyo va yoqilg’i xarajatlari darajasiga bog’liq bo`ladi. Sanoat mahsuloti tannarxida xom ashyo, yordamchi materiallar va yoqilg’i xarajatlari butun sanoat bo`yicha o`rtacha 70 foizni tashkil etadi. Shuning uchun xom ashyoni tejab ishlatish sanoat mahsuloti tannarxini pasaytirishda, ishlab chiqarish quvvatlaridan yaxshi foydalanishda va ishchilar mehnatining unumdorligini oshirishda katta rol o`ynaydi.

Material ko`p sarflanadigan tarmoqlarda xom ashyo va materiallardan oqilona foydalanish mahsulot tannarxini pasaytirishning asosiy manbaidir. Mashina va uskunalarning unumli ishlashi va tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun vaqtning sarflanish darajasi xom ashyo sifati va uning turiga bog’liq.

Xom ashyolar xilma-xil bo`lib, ular quyidagi turlarga bo`linadilar:

-sanoat xom ashyosi;

-qishloq xo`jaligi xom ashyosi.

Sanoat xom ashyosi turli belgilariga ko`ra quyidagicha turkumlanadi:

- kelib chiqishiga ko`ra — tabiiy va sun`iy;
- agregat holatiga ko`ra - qattiq, suyuq hamda gazsimon;
- kimyoviy tarkibiga ko`ra — organik va anorganik;
- ishlatilishiga ko`ra — ozuqabop va texnik.

Qishloq xo`jaligi xom ashyosi ikki turga — o`simliklardan olinadigan xom ashyolar va hayvonlardan olinadigan xom ashyolarga bo`linadi.

Er ostidan qazib olinadigan mineral birikmalar mineral xom ashyolar deyiladi. Ular uch turga bo`linadi: a) rudali; b) rudasiz; v) yonuvchi mineral xom ashyolar. Bu minerallarning ko`pi qattiq holda bo`ladi. Suyuq mineral boyliklarga faqat neft hamda tuz eritmalari, gaz holdagisiga esa tabiiy gaz kiradi.

Rudali mineral xom ashyolar foydali jinslar bo`lib, metallar olish uchun asosiy manbadir.

Rudasiz mineral xom ashyolar ham tog’ jinslaridir. Ular metall olish uchun ishlatilmaydi. Bunday mineral xom ashyolar kimyoviy qayta ishlanmasdan to`g’ridan-to`g’ri xalq xo`jaligida yoki metalsiz ishlab chiqarishda xom ashyo sifatida ishlatiladi. Rudasiz minerallar shartli ravishda quyidagi turlarga bo`linadi:

-qurilish materiallari — to`g’ridan-to`g’ri yoki fizik-kimyoviy qayta ishlangandan so`ng qurilish ishlarida ishlatiladigan mineral xom ashyo;

-industriya xom ashyolari — kimyoviy qayta ishlanmasdan sanoatning turli tarmoqlarida ishlatiladigan xom ashyo;

-kimyoviy mineral xom ashyolar — kimyoviy qayta ishlash uchun ishlatiladigan minerallar;

-qimmatbaho va rudasiz minerallar — tabiiy holda yoki mexanik qayta ishlangandan so`ng bezak uchun ishlatiladigan minerallar.

YOnuvchi mineral xom ashyolar yoqilg’i sifatida ishlatiladigan foydali qazilma boyliklardir. Bularga toshko`mir va qo`ng’ir ko`mir, torf, yonuvchi slanetslar, neft hamda tabiiy yonuvchi gazlar kiradi. YOnuvchi gazlar, neft va ko`mir eng arzon hamda foydalanish uchun qulay yoqilg’igina bo`lmay, balki kimyo sanoatida qimmatbaho xom ashyo hamdir.

O`simlik va hayvonot xom ashyolariga yog’och, zig’ir, kanop, yog’lar, o`simlik moylari, hayvonot terilari va shunga o`xshashlar kiradi. Bular xalq xo`jagigida

ishlatilishiga ko`ra, ozuqabop va texnik xom ashyolarga bo`linadi. Ozuqabop xom ashyolarga ozuqa sifatida ishlatiladigan birikmalar — o`rmonchilik, baliqchilik va qishloq xo`jaligi mahsulotlari kiradi.

O`simlik va hayvonlardan olinadigan texnik xom ashyolarga yuqorida ko`rsatilgan xalq xo`jaligi tarmoqlarining oziq uchun yaramaydigan mahsulotlari kiradi. Ularni mexanik va kimyoviy qayta ishlab, ulardan turmushda va sanoat ishlab chiqarishida ishlatiladigan xom ashyolar olinadi.

Bunday xom ashyo turlarini kimyoviy qayta ishlab, turli mahsulotlar olish mumkin. Manbalari ko`pligi, amaliy jihatdan bitmas-tuganmas zahiraga egaligi ular asosida ko`pgina yangi kimyoviy korxonalar tashkil etishga imkon beradi.

Umuman, ilm-fan, texnika va texnologiyaning nihoyatda tezlik bilan rivojlanishi yangidan-yangi materiallarni, shuningdek, yangi xom ashyo materiallarini qidirib topish masalasini dolzarblashtirmoqda. Bu masala asosan olti yo`l bilan amalga oshiriladi:

-iloji boricha arzon xom ashyolarni qidirib topish va ishlatish;

-xom ashyodan kompleks foydalanish;

-konsentrlangan xom ashyo va mahsulotlar ishlatish;

-juda toza mahsulotlar ishlatish;

-texnika maqsadlari uchun ishlatiladigan ozu qabop xom ashyolarni noozuqabop xom ashyo bilan almashtirish;

-iloji boricha mahalliy xom ashyolardan foydalanish.

Hozirgi vaqtda kimyo va kimyoviy texnologiya yutuqlari muhim texnika-xo`jalik mahsulotlarini noozuqabop xom ashyolardan olishga imkon beradi. Bunday xom ashyolar sifatida tosh-ko`mir, torf, slanets, neft, tabiiy gaz, yog’och, o`simlik va qishloq xo`jaligi mahsulotlarining chiqindilari ishlatilmoqda. Masalan, sovun yuvuvchi mahsulotlar, izolyatorlar ishlab chiqarishda, to`qimachilik sanoatida, rezina mahsulotlari ishlab chiqarishda, charm sanoatida, korroziyaga qarshi kurashishda, betonlarni suv o`tkazmaydigan qilishda, metallarni silliqlashda, qirqishda sovutgichlar sifatida har yili bir necha ming tonnalab qimmatbaho ozuqabop moylar ishlatiladi.

Sanoatning ko`pgina tarmoqlarida keng miqyosda ishlatiladigan etil spirti ishlab chiqarish uchun ham juda ko`p miqdorda yuqori sifatli don va kartoshka ishlatiladi. Un, kraxmal, sut kabi mahsulotlardan texnik maqsadlar uchun foydalaniladi. Masalan, kazein-oqsil modda sutda bo`ladi, kazein elim ishlab chiqarishda, qog’oz va charm sanoatida bo`yoqchilikda hamda muqovalar qilishda asosiy mahsulot sifatida ishlatiladi. Bu maqsadda kazein ishlab chiqarish uchun har yili bir necha yuz ming tonna yog’sizlangan sut sarflanadi.

Kraxmal to`qimachilik sanoatida, rezina va kimyo sanoatida, gugurt sanoatida, elektrodlar olishda keng qo`llaniladi. Hozir sanoatda kraxmal poliakrilamid hamda sellyulozaning suvda eruvchan efirlari — karboksilmetil sellyuloza (KMK) bilan muvafaqqiyatli almashtirilgan. Shu bilan birga KMK ko`p miqdorda kraxmal o`rnida to`qimachilik, qog’oz va gugurt sanoatlarida esa ozuqabop un o`rnida ishlatilmoqda.

Hozir etilendan va yog’ochdan olinayotgan sintetik etil spirt tarkibi va sifati jihatidan ozuqabop xom ashyolardan olinadigan etil spirtdan farq qilmaydi va ancha arzon hisoblanadi. Shuning uchun xalq xo`jaligining ko`p tarmoqlarida bunday etil

spirt ko`p ishlatilmoqda. Shuningdek, gaz va neftni qayta ishlash mahsulotlaridan sirka kislota, glitserin va yog'lar ishlab chiqarilmoqda. Mahsulotlarni bu yo`l bilan ishlab chiqarishda ko`p miqdorda ozuqabop xom ashyolar tejab qolinadi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxi birmuncha arzonlashadi.

Sanoatni yanada rivojlantirish, texnika taraqqiyoti sur`atlarini jadallashtirish va sanoat mahsulotlarining turlarini ko`paytirish vazifalari sun`iy materiallar ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirishni taqozo etadi.

Sun`iy materiallar ishlab chiqarish va ularni sanoatda qo`llash quyidagi hollarda iqtisodiy samarali hisoblanadi:

a) sun`iy material yagona xom ashyo bo`lgan tarmoqda ishlab chiqarishning jadal sur`atlari bilan va keng ko`lamda rivojlantirishga;

b) qayta ishlovchi tarmoqlar texnika bazasining mukammallashuviga;

v) iste`molchi tarmoqlar mahsulotining sifatini yaxshilashga va assortimentni kengaytirishga;

g) qayta ishlash tarmoqlarida texnologik jarayonlarni jadallashtirishga va uskunalarni mukammallashtirishga;

d) tayyor sanoat mahsuloti ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xarajatlarni kamaytirishga sabab bo`lsa;

s) sun`iy materiallardan ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxini kamaytirsa.

Sun`iy materiallar ishlab chiqarish va qo`llashning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda vaqt omilini, ya`ni qisqa vaqt ichida kerakli miqdorda sanoat mahsuloti ishlab chiqarishga erishish mumkinligini e`tiborga olmoq lozim.

Bu o`rinda ta`kidlash kerakki, sun`iy materiallar behad afzalliklarga ega, chunki tabiiy xom ashyo bo`lgan paxta, jun, teri va boshqalarni ishlab chiqarishga oylab vaqt ketsa, sun`iy materiallarni ishlab chiqarishga atiga bir necha kun va soat kifoya qiladi.

Sun`iy materiallar ishlab chiqarishga tabiiy materiallarga nisbatan ancha kam ijtimoiy mehnat sarflanadi. Masalan, 1 tonna yuvilgan jun ishlab chiqarishga 7000 kishi/soat sarflansa, sintetik tolaga 225-1400 kishi/soat sarf etiladi.

Sun`iy materiallar sanoatning qo`shimcha xom ashyo ba`zasi bo`lib xizmat qiladi. Ular ishlab chiqarishda jarayonlarni kimyolashtirish, ayniqsa, organik sintezni rivojlantirish katta rol o`ynaydi. Turli tarmoqlarda kimyoviy usullarni qo`llash tabiatda ko`p tarqalgan mahsulotlardan sifati tabiiy materiallarnikidan ancha ustun bo`lgan juda ko`p yangi tur sun`iy materiallar ishlab chiqarish imkonini beradi.

Zamonaviy texnika sintetik materiallarga turlicha talablar qo`yadi. Ular o`ziga xos qator afzalliklarga ega: uzoq vaqt o`ta yuqori va o`ta past haroratga, yuqori bosim va juda katta elektr kuchlanishlariga chidamli. Sun`iy materiallar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar, shu jumladan sanoatni rivojlantirish va sanoat xom ashyo bazasini kengaytirishning asosiy vositalaridan biridir.

Sanoatni rivojlantirishda plastmassalar, sintetik kauchuk, sun`iy va sintetik tolalar, sun`iy charmlar va charm o`rnini bosuvchi materiallar, sintetik yuvish vositalari va ozuqa xom ashyosi o`rnini bosuvchi sun`iy materiallar muhim rol o`ynamoqda.

Plastmassalar — keng nomenklaturaga ega bo`lgan sun`iy polimer mahsulotlardir. Ular sifat jihatidan tabiiy materiallar bilan tenglashibgina qolmay,

balki ko`p hollarda ulardan ustunlik ham qiladi: o`ta mustahkamlik, elektr o`tkazmaslik, engillik, qattiqlik, egiluvchanlik, tiniqlik, korroziyaga, kislotaga, issiqlikka chidamlilik, kam ediruvchanlik kabi sifatlarga ega va mexaniq ishlashning turli usullariga engil moslashadi.

Mamlakatimiz plastmassalar ishlab chiqarish uchun keng xom ashyo resurslariga ega, chunki plastmassalar uchun tabiiy va neft gazi, neftni qayta ishlash va koksokimyo sanoati chiqindilari, yog'ochni kimyoviy ishlash mahsulotlari, engil va oziq-ovqat sanoati, qishloq xo`jaligining turli xid chiqindilari xom ashyo bo`lib xizmat qiladi.

Sun`iy va sintetik tolalar sanoatning xom ashyo bazasini kengaytirish bilan birga, turli texnik va kiyim-kechak gazlamalari, elektr izolyasiya materiallari, kabellar va kanatlar, baliq tutish to`rlari va boshqa buyumlar ishlab chiqarishda keng qo`llaniladi.

Iqtisodiyotda charm o`rnini bosuvchi sun`iy materiallar katta ahamiyatga ega. Poyabzal sanoatining o`sish sur`atlarini amalga oshirish uchun tabiiy charm resurslari etarli bo`lmagan sharoitda bu juda ham muhim. Sun`iy charm va charm o`rnini bosuvchi materiallardan poyabzalning ayrim bo`laklarini ishlab chiqarish mumkin.

10.2. Sanoat ishlab chiqarishning mineral xom ashyo manbai

Mineral xom ashyo — konlardan qazib chiqariluvchi turli foydali qazilmalardir.

O`zbekistonning er qa`ri foydali qazilma turlariga juda boy. Hozirgacha saqlangan ko`xna konlar va ularning qoldiqlari O`zbekison hududida konchilik qadimdan rivojlanganidan dalolat beradi .

Hozirgi kungacha mamlakatda 3000 dan ortiq foydali qazilma koni aniqlangan bo`lib, ularning 1100 tasi qazib olishga tayyor, xususan olganda, ularning 50tasi asl, 41tasi rangli, nodir radioaktiv va qora metallar, 187tasi yoqilg'i-energetika, 19tasi kon-kimyo, 45tasi konchilik xom ashyosi, shuningdek, qurilish materiallari, er osti suvlari va boshqa foydali qazilma konlaridan iborat[1].

O`zbekiston er osti boyliklari istiqboli juda ulkan. Respublika hududining faqat 20-25% maydonida geologik qidiruv ishlari olib borilgan.

O`zbekiston xududida sanoat axamiyatiga ega 90 ga yaqin neft konlari ochilgan bo`lib, ulardan 36 tasi neft, 24 tasi neft-gaz va gaz-neft, 26 tasi neft-gaz kondensat konlari toifasiga kiradi. Mamalakatda neft va gaz Farg'ona, Surxondaryo, Hisor, Buxoro, Xiva va Orol-Ustyurt regionlarida topilgan.

Asl metallarga oltin, kumush, ruteniy, radiy palladiy, osmiy, iridiy va platinalar kiradi. O`zbekistonda shulardan faqat oltin va kumush toza holda qazib olinadi, boshqalari esa turli rudalardan ajratib olinadi.

Aniqlangan oltin zahiralari bo`yicha O`zbekiston jahonda to`rtinchi, qazib olish darajasi bo`yicha to`qqizinchi o`rinda turadi. Bu erda oltinning 50 dan ortiq konlari qidirib topilgan. Uning asosiy zahiralari Markaziy Qizilqumdagi Muruntov oltin koni butun evroosiyo qit`asida ma`lum va mashhur. Uning rudasi tarkibida oltin miqdori yuqori hisoblanadi.

[1] O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 12 – jild. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 2006 yil. 17 - bet

Keyingi yillarda Toshkent, Samarqand viloyatlarida yangi oltin ruda konlari qidirib topildi. O`zbekistondagi hozirgacha qidirib topilgan oltin zahiralari 4 ming tonnadan oshadi.

Respublikada umuman olganda 26ta kumush koni aniqlangan. Ular asosan Qizilqum va Chotqol-Qurama tog'lari hududlarida to`plangan.

Rangli metallarning eng muhim turlari hisoblangan uran va mis zahiralari bo`yicha O`zbekiston jahonda ettinchi o`rinni egallaydi. Uranning razvedka qilingan zahiralari aniqlangan, vulkonogen jinslarda topilgan bo`lib, mezozoyning qumtoshli tipiga mansub.

Uran bilan yo`ldosh reniy, skandiy va boshqa metallar uchraydi. Shuningdek, mis, qo`rg'oshin, qalay, volfram va litiy kabi muhim strategik ahamiyatga ega nodir va rangli metallarning yirik konlari bor.

Respublikamizda har yili 90 ming tonnaga yaqin mis ishlab chiqariladi. Amaldagi ishlab turgan konlar misni yana 40-50 yil, qo`rg'oshin va qalayni 100 mobaynida ishlab chiqarishni ta`minlashga qodir.

Rangli metallar zahiralari asosan Olmaliq kon rayonida joylashgan. Qalmoqqir mis koni noyob hisoblanadi. Bu konning rudasini qayta ishlash mamalakatdagi eng yirik korxonalardan biri Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida amalga oshiriladi. Shuningdek, bu sanoat rayonida mis, molibden, oltin, kumush, reniy, tellur, selen va boshqa katta zahiralarga ega bo`lgan Dalniy koni bor.

Mamlakat xududida 100dan ortiq qo`rg'oshin va rux konlari mavjud bo`lib, ular asosan Olmaliqdagi Qo`rg'oshinkon, Jizzax viloyatidagi Uchquloch va Surxondaryo viloyatidagi Xondiza konlaridan olinadi. Bu konlarda yana yo`ldosh metallar – mis, kumush, kamdiy, selen, oltin va indiy ham uchraydi. O`zbekistonda molibdenli formatsiyalar ham bor. Chotqol-Qurama tog'lari vismutga boy. Janubiy Farg'ona belbog'ining o`zidan 100dan ortiq simob va 10dan ortiq surma rudalanishlar aniqlangan.

Respublika nodir metallarning eng muhim turi hisoblanadigan volframning 7ta koni va 200 dan ziyod ruda belgilari mavjud erlari aniqlangan. Volfram ob`ektlari Toshkent oldi, Samarqand va Qizilqum hududlarida to`plangan.

Qora metallardan eng ko`p tarqalganlari temir, titan, marganets, magniy, xrom va boshqalardir. Temirning bir necha konlari va ruda ko`rinishlari aniqlangan. Ular orasida muhimi Qoraqalpog'iston Respublikasida Tebinbuloq titan-magniy koni hisoblanadi. Marganets konlari Zarafshon, Qoratepa, Lolabuloq va boshqa joylarda mavjud. Magmatik xrom Qizilqumda, Farg'onada, ayniqsa, Tomditov va Sulton Uvaysda ko`plab uchraydi.

O`zbekistonda nometall xom ashyo — glaukonit, dala shpati, vallastonit, grafit, asbest, talk, talk toshi, abrazivlar, qimmatbaho va ishlov beriladigan toshlar konlari ko`p. Vollastonitning 5ga yaqin ko`rinishi va konlari aniqlangan. Grafitning 30 dan ortiq ruda — rudalanishi va konlari ma`lum. Qimmatbaho va ishlov beriladigan toshlardan topaz, feruza, ametist, tog' xrustali, xalsedon, yashma, nefrit, lazurit, amazonit, rodonit, agalmatalit, marmar oniksi va boshqalarning ancha yirik zahiralari qayd etilgan.

Geologik tadqiqotlar natijasida Buxoro-Qarshi, Surxondaryo, Ustyurt va Farg'ona artezian xavsazining er osti suvlarida yod, brom, litiy, seziy, stratsy va

boshqa sanoat kontsentratsiyalari aniqlangan. 2005 yildan boshlab Kruk konida yod olinmoqda.

O`zbekiston xududida 500 dan ziyod g'isht, sement, gips, ahoktosh, beton to`ldiruvchiliklari va boshqa qurilish materiallari konlari razvedka qilingan va ulardan keng foydalanish yo`lga qo`yilgan.

Potensial resurslardan oqilona foydalanish va foydali qazilmalarni qazib olishning iqtisodiy samarali usullarini qo`llash uchun konlar zahirasining miqdorini iqtisodiy jihatdan to`g'ri aniqlash va sanoat ko`lamida ekspluatatsiya qilish navbatini belgilash alohida ahamiyatga ega.

Zahiralarni o`rganish va aniqlash geologiya-qidiruv ishlari davlat rejasi asosida olib boriladi. Sanoatning mineral xom ashyoga bo`lgan talabini aniqlashda konlarning o`rganilganlik darajasi muhim o`rin tutadi.

Mineral xom ashyo zahiralarni qidirish va sanoat ekspluatatsiyasiga tayyorlik darajalari bo`yicha bir necha kategoriyalarga bo`linadi.

Ular ma`lum bir davr uchun texnik - iqtisodiy jihatidan foydalanish mumkinligi darajasiga qarab balansdagi va balansdan tashqaridagi zahiralarga bo`linadi.

Balansdagi zahiralarga sanoat talablariga va foydalanishning texnik shartlariga javob beruvchi va hozirgi kunda ularni qazib chiqarish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo`lgan zahiralar kiradi. Balansdan tashqari, zahiralarga esa tarkibida foydali komponentlari, qazilmalar miqdori kam bo`lgan yoki ekspluatatsiya sharoitlari og'ir bo`lgan, xom ashyosini sanoat usullari bilan qayta ishlash hozircha mumkin bo`lmagan zahiralar kiradi.

Korxona faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish va rejalashtirish ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish va uni tashkil etishning turli norma va normativlarini tuzishga asoslanadi. Norma va normativlar asosida ishlab chiqarishga kerakli xom ashyo va materiallar, jihoz va asbob-uskunalar miqdori aniqlanadi, ishlab chiqarish jarayonida xodimlar joylashtiriladi va ishlab chiqarish resurslarining **ratsional** zahiralari rejalashtiriladi. Mahsulot sifati bo`yicha qo`yiladigan shartlar ham normalarning bir turi hisoblanadi.

Sanoat ishlab chiqarishida xom ashyo va materiallarni tejashning asosiy yo`llari quyidagilardan iborat:

-mashina va mahsulotlar konstruktsiyasini yaxshilash;

-yangi texnika va progressiv texnologiyani joriy etish;

-texnologik jarayonlarni yaxshilash;

-xom ashyoni kompleks qayta ishlash usullarini rivojlantirish;

-ishlab chiqarishni tashkil etishni yaxshilash.

Istiqlol va bozor iqtisodiyotiga kirib borish mamlakatning xom ashyo resurslarini ko`paytirishga va uning boyliklaridan oqilona foydalanishga keng yo`l ochdi. Davlatning respublika sanoati xom ashyo bazasi borasidagi xo`jalik siyosati qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarining yuqori sur`atlar bilan taraqqiy etishini ta`minlovchi xom ashyo resurslarining jadallashtirilgan rivojlanishini ta`minlashdir.

Sanoat xom ashyo bazasi rivojining asosiy yo`nalishlari quyidagilardan iborat:

− yangi xom ashyo manbalarini aniqlash bo`yicha geologik-qidiruv ishlarini kengaytirish;

− undiruvchi sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik

jihatdan qayta jihozlash;

− qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishining sanoat uchun etarli darajada mahsulot etishtirishini va uning tovardorlik qobiliyatini kuchaytirish;

− sun`iy materiallar va ular o`rnini bosuvchi turli xil buyumlari yaratish va h.k.lar.

10.3. Resurslar tejamkorligi strategiyasi va taktikasi

Hozirgi kunda ko‘plab olimlar tomonidan iqtisodiy fan asoschilaridan deb tan olina boshlagan Sharq mutafakkiri Ibn Xoldun Abdurahmon Abu Zayd (1332-1405 y.) o‘zining “Kitob-ul-ibar” nomli asarida shunday deydi: “Xarajatlaring daromadlaringdan hech qachon oshib ketmasin”. Bu bilan u har qanday iqtisodiy faoliyat negizida tejamkorlik yotishiga ishora qiladi. Shuningdek, u hunarmandchilik, fan va san’atning rivoji bevosita mehnat unumdorligining o‘sishi, mahsulot ishlab chiqarishga sarflanayotgan vaqt va resurslardan samarali foydalanishga bog‘liq, deb ko‘rsatadi. Ibn Xoldun tejamkorlikning mazmunini tovar ishlab chiqarish jarayonida mahsulotga sarflanadigan mehnatning qisqarishi orqali tushuntirib beradi. U “oddiy” va “murakkab” mehnatni farqlab, mehnat unumdorligini o‘stirishda va, demakki, mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarflanayotgan vaqtning tejalishida murakkab mehnatning ahamiyatini isbotlab beradi.[1]

Ta’kidlash joizki, eng yaxshi jahon ko‘rsatkichlari bilan taqqoslaganda, milliy daromad bir birligiga bizda nisbatan ko‘p xom ashyo va energiya sarflanmoqda. Sobiq Ittifoq davridan qolgan ko‘plab mashina va uskunalar yuqori material sig‘imga ega bo‘lib, qator buyumlarni ishlab chiqarishga materiallar jami xarajatlari yuqoriligicha qolmoqda. Barcha joylarda ham resurslarni tejovchi texnologik jarayonlardan foydalanilmayapti. Ishlab chiqarish va saqlash jarayonida metall, yoqilg‘i, yog‘och, sement, mineral o‘g‘itlar, qishloq xo‘jaligi va boshqa mahsulotlarning katta yo‘qotishlariga yo‘l qo‘yilmoqda. Transport xarajatlari va tannarxi ham ortmoqda. Bunday sharoitda ehtiyojlarni resurslar bilan ta’minlashda ekstensiv omillarning ustunligi tendensiyasi saqlanib qolmoqda.

Resurslar tejamkorligi muammosining muhimligini hisobga olib, milliy daromadning material sig‘imi, metall sig‘imi va energiya sig‘imining pasayish sur’atlarini o‘stirish zarurligi yuzaga kelmoqda. Bunga erishish iqtisodiyotning yoqilg‘i, energiya, xom ashyo va materiallarga bo‘lgan o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish manbai bo‘lib hisoblanadi.

Mamlakatimiz rahbari ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning material va energiya sarfi yuqori darajada saqlanib qolayotganligiga e’tibor qaratdilar.

Ayni paytda mamlakatimizda ishlab chiqarilgan 1 dollarlik YaIMga to‘g‘ri keladigan iste’mol qilingan energoresurslar va xomashyo materiallari miqdori rivojlangan davlatlardagi shunday ko‘rsatkichdan ancha yuqoridir.

Ma’lumki mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflanayotgan yoqilg‘i – energiya resurslari miqdorini kamaytirish bu mahsulotlar tannarxining pasayishiga, ularning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligi ortishiga olib keladi, bu resurslarni kelajak avlodlar uchun tejash imkoniyatini yaratadi.

[1] Razzoqov A., Toshmatov Sh., O‘rmonov N. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. – Toshkent: Moliya, 1997. – B. 46.

Mamlaktimizda yoqilg‘i-energetika resurlaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda chora-tadbirlar amalga oshirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda[1]:

- muqobil energiya resurslarini izlash va joriy etish ishlarini jadallashtirish (bunda asosiy e’tibor shamol va quyosh energiyasidan foydalanish, tabiiy metan hosil qilish hamda undan foydalanish, shamol generatorlari va quyosh elementarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish masalalariga qaratilmoqda);
- ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirish, energiya tejamkor, xomashyo va materiallarning ortiqcha sarfini kamaytirish imkonini beruvchi asbob-uskuna va texnologiyalarni joriy qilish;
- gaz, elektr energiyasi, issiqlik energiyasi va suv yetkazib berish va saqlash tizimini modernizatsiya qilish orqali bu resurslarimizning texnik yo‘qotilishi miqdorini kamaytirish;
- maishiy yoritish vositalarining tejamkor, zamonaviy turlaridan foydalanishni targ‘ib qilish va rag‘batlantirish, ularni ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, narxini asossiz o‘sib ketishini cheklash choralarini ko‘rish;
- energiya resurslaridan maishiy sohada foydalanishga bozor mexanizmini joriy etishni jadallashtirish. Jumladan, zavonaviy o‘lchash asboblarini o‘rnatish, hisob-kitobning kredit tizimini keng joriy etish;
- gaz, neft, ko‘mir qazib chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, Issiqlik elektr stansiyalarini modernizatsiya qilish, ulardagi energiya hosil qiluvchi va uzatuvchi qurilmalarni zamonaviylari bilan yangilash, kichik gidroelektrostansiyalarni qurish va yagona energotizimga ulash asosida energiya resurslari hajmini oshirish va tannarxini kamaytirish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu Harakatlar strategiyasidagi iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlarida “2017 yilda sanoat tarmoqlaridagi yirik korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxini o‘rtacha 8 foizga qisqartirish va raqobatdoshligini oshirishni nazarda tutuvchi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish. Shu jumladan, ma’nan va jismonan eskirgan uskunalarni yangilash hamda modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishda energiya samaradorligini oshirish, texnologik jarayonlarni optimallashtirish” alohida muhim o‘rin egallaydi[2].

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. // Xalq so‘zi. 8 fevral 2017 yil.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. // Xalq so‘zi. 8 fevral 2017 yil.

Ma`lumki, har bir davlat va xo`jalik yurituvchi sub`ekt uchun resurslar tekin emas. Ular o`z maqsadlariga erishishda strategiya va taktikadan foydalanadilar. Bundan ko`zlangan maqsad, ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xom ashyo xarajatlarini kamaytirish va shu orqali foydani ko`paytirishdir. Izlanishlar qo`llanilgan strategiya va taktikaning xom ashyo xarajatlarini kamaytirishdagi so`nggi bosqichi va muqobil yo`li resurslar tejamkorligi ekanligini ko`rsatmoqda.

Resurslarni tanlash muqobilligi undan foydalangan sohalarda quyidagi vazifalarni hal qiladi:

-xarajatlarning kamayishi va ishlab chiqarilgan mahsulot sifatining oshishi;

-alohida tovarlar va mahsulotlar assortimenti bilan bozorga kirib borish va o`z o`rnini egallash;

-mahsulot sifatida aniq ustunlikka erishish;

-iqtisodiyotdagi kabi texnologiyada ham peshqadamlik mavqeining o`sishiga intilish;

-dinamikani hisobga olgan holda mavjud resurslardan yaxshiroq foydalanish va xo`jalik faoliyatidan foyda olish.

Muqobillik (bir-biriga zid ikki yo`ldan birini - yo unisini, yo bunisini tanlab olish zaruriyati) shuningdek, resurslardan foydalanish strategiyasi va taktikasining tarkibiy qismi hisoblanib, ishlab chiqarishda iqtisodiy tejamkorlik va samaradorlik oshishiga olib keladi.

Modomiki, strategiya va taktika har qanday ishda, shuningdek, moddiy, moliyaviy va boshqa resurslardan foydalanishda birinchi navbatda, xodimlardan tegishli bilim va ish malakani, resurslardan foylanishda mas`ullikni, bozor iqtisodiyoti sharoiti shartlarini va fan-texnika yangiliklaridan voqiflikni, ilmiy tadqiqot va ularning echimlarini teran anglashni talab qiladi.

Rejali iqtisodiyot sharoitida resurslar davlatga qarashli bo`lib, ularni bepul va qaytarib olmaslik qoidasi asosida hududlarga, tarmoqlarga va korxonalarga taqsimlanardi. Bozor iqtisodiyoti sharoiti resurslarga va ulardan foydalanishga bo`lgan talab kuchayayotganligi bois bunday vositalarni tejamkorlik bilan ishlatishni taqozo etmoqda.

Sobiq ittifoqda barcha resurslar davlat tomonidan bepul taqsimlanganligi uchun resurslar amaliyotda emas, balki hujjatlarda «tejalardi». endilikda bu masala oldingidek, “yuqori”ning ko`rsatmasi bilan emas, har bir xo`jalik yurituvchi sub`ektning samaradorlikni oshirishga bo`lgan qiziqishi asosida hal etilmoqda.

Hozirgi sharoitda qaysi mahsulotni, qancha va kimga ishlab chiqarishgina emas, shu bilan birga bu mahsulotni ishlab chiqarishga qancha resurs va mablag’ talab qilinishi ham ko`pgina korxonalar uchun asosiy masalaga aylanmoqda. Bu har bir korxonani bir tomondan, talabni qondirish, ikkinchi tomondan esa, resurslar xarajatining kam chiqimli yo`llarini axtarishga undaydi. Bulardan tashqari, har bir korxona uchun xarakterli bo`lgan normalashtirish va resurslarning pulliligi ham aynan shuni taqazo etadi.

Xom ashyodan **ratsional** foydalanish — sanoat xom ashyo bazasini kengaytirish va mustahkamlashning muhim manbaidir. Iqtisodiy nuqtai nazardan xom ashyodan maqsadga muvofiq va **ratsional** foydalanishda ko`p jihatdan qayta ishlovchi sanoat tarmog’i yoki korxona uchun xom ashyoni to`g’ri tanlash katta ahamiyatga ega.

Xom ashyo mahsulot xususiyatini va sifatli texnologik jarayonni tanlashga va uning progressivlik darajasiga, mashinalardan va vaqtdan foydalanish darajasiga, ishlab chiqarish siklining uzunligi va umuman ishlab chiqarishning barcha texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlariga ta`sir ko`rsatadi.

Hozirgi paytda har bir sanoat tarmog'ida bir necha turdagi xom ashyo qo`llaniladi. Ayrim tarmoq uchun qaysi xom ashyoni tanlash maqsadga muvofiq ekanligini aniqlash uchun turli xom ashyolarni quyidagi ko`rsatkichlar bo`yicha solishtirmoq zarur: solishtirma kapital xarajatlari; mehnat unumdorligi; mahsulot tannarxi; mahsulot sifati; mahalliy xom ashyodan maksimal foydalanish; kamyob bo`lmagan xom ashyodan foydalanish; ishlatilmaydigan chiqindilardan foydalanish mumkinligi; sun`iy materiallardan foydalanish mumkinligi; xom ashyoning progressiv texnologiya talablariga javob berishi; xom ashyoning bo`lg'usi tayyor mahsulot sifat ko`rsatkichlariga javob berishi; ma`lum davrda muayyan tarmoqda qo`llashning iqtisodiyot nuqtai nazaridan maqsadga muvofiqligi; ayrim hududlarning o`ziga xos xususiyatlari; ayrim tarmoqlardagi texnika taraqqiyoti va innavatsion faoliyat.

Xom ashyodan to`liq va xar tomonlama foydalanib, uning turli qismlaridan turli xil mahsulotlar olish uchun undan kompleks foydalanmoq kerak.

Xom ashyo resurslarini kengaytirish va tejashning yana bir yo`li — xom ashyo va materaillardan qayta foydalanishdir. Masalan, edirilgan mashinalar, binolar va eski texnikalarning metall qismlari, qog'oz materiallari va boshqalardan sanoatda qayta foydalanish mumkin.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev tomonidan qabul qilingan "O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha harakatlar strategiyasi to`g'risida"gi Farmonida tasdiqlangan 2017 — 2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasida «yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo`shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o`tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish» ga alohida muhim o`rin berilgan[1].

Iqtisodiyot tizimining raqobatbardoshligini yanada oshirish, aholi farovonligini yuksaltirish, birinchi navbatda, xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, elektr va energiya resurslaridan tejamli foydalanilishiga bog'liqdir.

Tejamli ishlab chiqarishga o'tishda elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejamining samarali tizimini joriy etish choralarini amalga oshirish"[2] ham o'z o'rniga ega bo'ladi. Bunga elektr energiyasi ta'minoti tizimiga xususiy operatorlarni joriy qilish, elektr energiyasi uchun hisob-kitob tizimini takomillashtirish, iste'molchilar hisob-kitobini to'g'ri yo'lga qo'yish hamda iste'mol davrida elektr energiyasi yo'qotishlarini kamaytirish orqali erishib boriladi.

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. // Xalq so'zi. 8 fevral 2017 yil.

Umuman olganda tejamkorlik multiplikator samarasini ifodalaydi. Agar uy xo‘jaliklarining doiraviy aylanishlar oqimidan jamg‘armalarini oshirib borishi investitsiyalarning o‘sishi bilan birga bormasa bu YaIM ning sezilarli kamayishiga olib kelishi mumkin. Ularning shaxsiy daromadida iste’mol sarflarini cheklashga qaratilgan hatti harakati natijasida tejalgan mablag‘ kelgusi davrda investitsion maqsadlarda ishlatilmasa iqtisodiy o‘sishga qarshi ta’sir ko‘rsatish kuchiga ega bo‘ladi. Ishlab chiqaruvchilarning investitsion faolligining pasayishi ham uy xo‘jaliklari omili daromadlari kamayishiga va pirovard natijada ular tamonidan YaIM ning iste’mol tovarlardan iborat qismining kamroq sotib olinishi orqali iqtisodiy o‘sishga to‘siq bo‘lishi mumkin. Bunda muqobilidan birini tanlash muammosi yuzaga keladi: joriy iste’molni nisbatan cheklash orqali kelgusida iqtisodiy o‘siga erishib borish yohud iste’moldagi cheklanishlardan voz kechib, uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish sharoitlarini yomonlashtirish.

Shunga asoslanib tejamli ishlab chiqarish konsepsiyasiga asoslanadigan beshta muhim prinsiplarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

1. Zahiralarni eng kam darajaga keltirish. Zahiralarni qisqartirish nafaqat ularga xizmat ko‘rsatish va saqlashga ketadigan xarajatlarni kamaytiradi, balki ishlab chiqarish siklini qisqartiradi, aylanma vositalar aylanishini tezlashtiradi va sifatsiz mahsulot chiqarishni kamaytiradi.

2. Har bir davrda iste’molchiga kerakli bo‘lgan tovar (xizmat) larni eng qisqa muddatlarda ishlab chiqarish. Buning uchun ishlab chiqarish kam partiyalarda yetkazib berishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarurki, shundagina ishlab chiqarish va texnologiyalarni har bir davrda iste’molchi “buyurtmasiga” moslashtirib o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘linadi.

3. Tovar (xizmat) qadr qiymatiga hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydigan unumsiz mehnat sarflarini maksimal darajada qisqartirish. Masalan, uskunalarni o‘rnatish, xom ashyolarni tayyorlash juda muhim ish hisoblansada, ular pirovard natijalar qiymatini umuman ko‘paytirmaydi. Shu sababli bunday operatsiyalarga ketadigan vaqt eng minimum darajaga keltirilishi zarur.

4. Mahsulot sifatini to‘xtovsiz yaxshilab borishga intilish. Bu qismni yuqorida qayd qilingan prinsiplar bilan o‘zaro to‘qnash keladi: kam partiyalarda ishlab chiqarish va zahiralarni kamaytirish, sifatsiz mahsulot miqdorini tez qisqartirish imkonini beradi, ishlab chiqarishning bir me’yorliligi va tanlangan texnologik operatsiyalar esa chiqarilayotgan mahsulot xususiyatining barqarorligini kafolatlaydi.

5. Takror ishlab chiqarishning barcha jarayonlarini doimiy takomillashtirib borish. Bu vaqt omilini qisqartirish orqali, resurslar sarfini kamaytirish imkonini beradi. Albatta, bular tejamli ishlab chiqarishni tavsiflaydigan barcha belgilar emas. Shu bilan birga boshqa belgilar yuqorida qayd qilingan beshta asosiy prinsipdan kelib chiqadi.

Agar ishlab chiqarishga iste’molchiga hech qanday qimmatliklar keltirmaydigan jarayonlar nuqtai nazardan qaralsa, unga tovarlarni yuklash, saqlash, nazorat qilish, kutish va boshqa shu kabilar hech qanday qadr-qimmatga va ahamiyata ega emas. Biroq bu jarayonlarni ishlab chiqarish texnologiyasidan butunlay olib tashlash oddiy ish emas. Agar bu jarayonlarning ulushini asta sekin kamaytirib borishga erishilsa shu orqali tejamli ishlab chiqarishga o‘tib boriladi. Ayni vaqtda mazkur jarayonlar

iste’molchiga qo‘shimchi qimmatliklar keltirmaydi yoki uni kamaytirmaydi. Ularni shartli ravishda quydagi jarayonlarga ajratish mumkin:

Ortiqcha ishlab chiqarishga olib keluvchi jarayonlar;
Kutish jarayonlari
Ortiqcha ortish-tushirish jarayonlari
Ortiqcha ishlov berish jarayonlari
Zahiralar ortiqchaligiga olib keluvchi jarayonlar
Ortiqcha harakatlarni taqoza qiliuvchi jarayonlar
Kamchilik (deffektlar) ni keltirib chiqaruvchi jarayonlar

Qisqacha xulosalar

Xom ashyo resurslaridan foydalanishda tejamkorlik tamoyilidan to‘la-to‘kis foydalanish hozirgi davrning eng muhim muammosi hisoblanadi. Shu sababli, xom ashyodan oqilona foydalanish maqsadida uni qayta ishlash jarayonida tegishli sanoat tarmog‘i uchun maqsadga muvofiqligini aniqlash, xom ashyo materiallarini dastlabki qayta ishlash va boyitish, xom ashyodan kompleks foydalanish, materiallardan ikkinchi marta foydalanish bo‘yicha tadbir-choralar amalga oshirilishi zarur. Bu chora - tadbirlarni amalga oshirishda fan-texnika taraqqiyoti, ayniqsa, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, kimyolashtirish va yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, tashkilotchilik, tejamkorlik va uni rag‘batlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Xom ashyo tushunchasi va uni guruhlash.
2. O‘zbekiston sanoatining xom ashyo bazasi va uning rivoji.
3. Mineral xom ashyo konlarini iqtisodiy baholash.
4. Sun’iy materiallar ishlab chiqarishning rivoji.
5. Sanoat xom ashyosidan foydalanishning oqilona usullari.
6. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tejamkorlik tamoyili va uning talablari.
7. Sanoat xom ashyo bazasini mustahkamlashda xorijiy hamkorlikning roli.

Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro`yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida» gi №PF-4947 sonli Farmoni. //Xalq so’zi. 2017 yil 8 fevral.
2. M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak . Tashkent : O‘zbekiston, 2017 y.,104 b.
3. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O‘rmonov N. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. – Toshkent: Moliya, 1997. – B. 46.
4. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.-T.:”Sano-standart”, 2014.-304 b.
5. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 12 – jild. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 2006 yil. 17 – bet
6. www.webofscience.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi
7. www.search.ebscohost.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi

11-BOB. SANOAT ISHLAB CHIQARISHNING AYLANMA MABLAG‘LARI

11.1. Aylanma mablag‘lar tushunchasi, iqtisodiy tabiati va ahamiyati

Sanoat sohasida turli mahsulotlarni tayyorlash jarayonida moddiy va moliyaviy mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojlar doimo oshib boradi. Sanoat korxonalarida asosiy fondlar bilan bir vaqtda mehnat buyumlari ham harakatda bo‘ladi.

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilishda mehnat qurollari (asosiy vositalar) va ishchi kuchidan tashqari, **aylanma mablag‘larga** ham ega bo‘lishlari zarur. Aylanma mablag‘lar ishlab chiqarishning aylanma fondlari va muomala fondlarini tashkil qilishga mo‘ljallangan pul mablag‘laridan iborat. Aylanma mablag‘lar, qoidaga ko‘ra, korxonaning hisob raqamida naqd pul ko‘rinishida jamg‘ariladi. Har bir korxonaning aylanma mablag‘lari asosiy vositalarning texnik holati va mahsulot ishlab chiqarish dasturi bilan bog‘liq. Korxona qanchalik katta va uning ishlab chiqarayotgan mahsulotlari turlari ko‘p bo‘lsa, aylanma mablag‘lar shunchalik ko‘p talab qilinadi. Aylanma mablag‘lar ishlab chiqarish va uning uzluksizligini ta’minlashning moddiy asosi hisoblanadi.

“Aylanma mablag‘lar ” atamasidan tashqari “aylanma kapital” iborasi ham ko‘p qo‘llanilib, asosan iqtisodiy nazariya va xo‘jalik yuritishning xorijiy tajribasidan olinadi. Mohiyatiga ko‘ra, **aylanma kapital** korxona ishlab chiqarish kapitalining bir qismi bo‘lib, uning qiymati ishlab chiqarishning har bir siklida ishlab chiqarilgan mahsulotga o‘tkaziladi hamda ushbu tovarni sotgandan so‘ng korxonaga qaytariladi. Aylanma kapital ko‘pincha korxonaning pul mablag‘lari hisoblanuvchi yoki ishlab chiqarish jarayonida pul mablag‘lariga aylantiriluvchi harakatchan aktivlari qatoriga kiritiladi.

Iqtisodiy tabiati, bajaruvchi vazifalari va ishlab chiqarish jarayonidagi o‘rniga ko‘ra, “aylanma mablag‘lar” va “aylanma kapital” o‘rtasida sezilarli farq yo‘q. Korxona doimiy kapitalining tarkibiy qismi sifatida ular xom ashyo, yoqilg‘i, energiya resurslari, yordamchi va boshqa materiallarda yuzaga keladi, shuningdek, ishchi kuchlarini yollash va ularning mehnatiga haq to‘lashga bo‘nak (avans) tariqasida beriladi. Aylanma mablag‘larga bo‘lgan qo‘shimcha talab banklardan olinadigan kreditlar hisobiga qoplanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxonalarning aylanma mablag‘larga yetarli tarzda ega bo‘lishi ularning normal faoliyat yuritishi garovi hisoblanadi. Shuni ham unutmaslik zarurki, ishlab chiqarayotgan mahsulot birligiga sarflanuvchi xom ashyo, material, yoqilg‘i va energiya miqdori mahsulot sifatiga ta’sir ko‘rsatmagan holda qanchalik kam bo‘lsa, mahsulot shunchalik arzonlashadi hamda aylanma mablag‘lar kamroq sarflanib, ulardan foydalanish samaradorligi yuqori bo‘ladi.

Korxonalarning aylanma mablag‘lari aylanma fondlari va muomala fondlariga taqsimlanadi. Bunday taqsimlash ularning moddiy–buyumlashgan tuzilishidan tashqari, ishlab chiqarish jarayoni va umuman, korxonaning iqtisodiy faoliyatidagi ishtiroki asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, taqsimlash rejalashtirishni tashkil qilishda hamda korxonaning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojini aniqlashda katta rol o‘ynaydi.

Aylanma ishlab chiqarish fondlari–korxona ishlab chiqarish fondlarining bir

qismi bo‘lib, bitta ishlab chiqarish sikli davomida sarflanadi hamda natural shaklini o‘zgartirib, o‘z qiymatini to‘lig‘icha tayyor mahsulot tannarxiga o‘tkazadi. Shu sababli aylanma ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarish jarayonining majburiy elementi va ishlab chiqarish xarajatlarining asosiy qismi hisoblanadi.

Korxona aylanma ishlab chiqarish fondlari qatoriga xom ashyo va materiallar zahirasi, yarim tayyor mahulotlar, yoqilg‘i va energetika resurslari, qadoqlash va o‘rov materiallari, ehtiyot qismlar, tugallanmagan ishlab chiqarish va kelajakdagi xarajatlarni kiritish mumkin. Rejalashtirish, sistemali hisob va hisobotni tashkil qilish uchun qulaylik yaratish maqsadida aylanma ishlab chiqarish fondlari uch guruhga bo‘linadi:

- ishlab chiqarish zahiralari;
- tugallanmagan ishlab chiqarish va korxonada tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlar;
- kelgusi davr xarajatlari.

Muomala fondlari korxonaning tayyor mahsulot zahirasini yaratish uchun mo‘ljallangan pul mablag‘lari, shuningdek, chek va veksellar, aksiyadorlarning qarzlari, turli xil debitorlik qarzlari, bank va kassalarning hisob raqamlaridagi mablag‘lardan iborat bo‘ladi. Muomala fondlari va aylanma ishlab chiqarish fondlari majmuasi, korxonaning aylanma mablag‘lari(kapitali)ni tashkil qiladi.

Ishlab chiqarishda band bo‘lgan aylanma mablag‘lar kattaligini belgilovchi asosiy omillar – bu, mahsulot tayyorlashning ishlab chiqarish sikli uzunligi, mehnatni tashkil qilish, texnika va texnologiyaning rivojlanish darajasi, mehnat predmetlari va qurollaridan foydalanish normalaridir. Aylanma mablag‘lar kattaligi, shuningdek, mahsulotlarni sotish sharoitlari, ta’minot va mahsulotni sotish tizimini tashkil qilish darajasi bilan ham bog‘liq bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan holatlardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, aylanma mablag‘lardan quyidagi hollarda foydalaniladi:

- xom ashyo, material, ehtiyot qismlar hamda ishlab chiqarishni tashkil qilishda zarur bo‘lgan boshqa mehnat predmetlari;
- ishlab chiqarish jarayonida iste’mol qilinuvchi elektr energiyasi, yoqilg‘i kabi resurslar uchun haq to‘lash;
- korxonani tashkil etish va faoliyat yuritish davrida oylik ish haqi to‘lanishi;
- soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash.

Bozor munosabatlari va deyarli barcha resurslar taqchilligi sharoitlarida aylanma mablag‘lar, birinchi o‘rinda moddiy resurslardan ratsional foydalanish va ularni shakllantirish zahiralarini izlab topish har bir korxona oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. Bunda **zahira** deganda, moddiy va pul resurslarini yaxshilashning yuzaga kelgan yoki yuzaga kelayotgan, lekin hali foydalanilmagan (to‘liq yoki qisman) imkoniyatlarini tushunish lozim.

Bu zahiralar kelib chiqishi va foydalanilishiga ko‘ra iqtisodiyotga va tarmoqlarga tegishli yoki tarmoqlararo, ishlab chiqarish ichidagi (zavod, sex va hokazo) turlariga bo‘linadi. «Korxona iqtisodiyoti»da **ichki ishlab chiqarish zahiralari** - ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilish hamda texnika va texnologiyani takomillashtirish, mahsulotlarning yangi va yanada mukammal

turlarini o‘zlashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan moddiy resurslardan foydalanishni yaxshilash imkoniyatlari, katta ahamiyat kasb etadi. Zahiralar shuningdek, moddiy resurslarni sarflashni normallashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning mehnat sig‘imini kamaytirish, mehnatni tashkil qilishning ratsional usullarini qo‘llash natijasida ham aniqlanadi. Qisqacha aytganda har bir korxona, ayniqsa, yirik va mashinasozlik korxonalari hamda ularga yaqin bo‘lgan korxonalar, moddiy va pul resurslaridan, ya’ni xususiy kapital va boshqa aktivlardan ratsional foydalanish bo‘yicha puxta ishlab chiqilgan chora-tadbirlar majmuasiga ega bo‘lishi zarur.

Resurslardan samarali foydalanishning texnik-ishlab chiqarish yo‘nalishlari qatoriga, birlamchi xom ashyoni ishlab chiqarishda foydalanishga sifatli ravishda tayyorlash,mashina va uskunalar konstruksiyasini takomillashtirish, xom ashyo, material, yoqilg‘ilarning tejamkor turlaridan foydalanish, ishlab chiqarish chiqitlarini kamaytiruvchi hamda ikkilamchi resurslardan maksimal darajada foydalanish va barcha turdagi yo‘qotishlarning oldini olishni ta’minlovchi yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilishni kiritish mumkin.

Resurslardan oqilona foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy yo‘nalishlari qatoriga, mahsulotlar material sig‘imini rejalashtirish va normalashtirishning ilmiy darajasini oshirish, resurslarni sarflashning texnik jihatdan asoslab berilgan norma va normativlarini ishlab chiqish, “eski” va “yangi” mahsulot ishlab chiqarish o‘rtasida progressiv proporsiyalarni belgilash, mehnatni tashkil qilishning samarali usullarini rag‘batlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan chora-tadbirlar kiritiladi.

Aylanma mablag‘lar va ularning tarkibiy qismlaridan samarali foydalanishning asosiy yo‘nalishlari ish joylarida (brigada, sex va ishlab chiqarish uchastkalarida) bitta miqdordagi xom ashyo va materiallardan tayyorlanuvchi yakuniy mahsulotlarni ko‘paytirishdadir. U ishlab chiqarishni texnik jihatdan ta’minlash, xodimlarning malakasi, moddiy-texnika ta’minoti, moddiy resurslar zahiralarini sarflash normalariga bog‘liq bo‘ladi.

11.2. Aylanma mablag‘larning tuzilmasi va harakati

Aylanma tuzilmalarni rejalashtirish va boshqarishning hozirgi paytdagi amaliyotida ushbu mablag‘larning tarkibi va tuzilmasini baholash va tahlil qilishga, shuningdek, ularning funksional roli va harakatiga katta e’tibor qaratiladi. Aylanma ishlab chiqarish fondlari korxona aylanma mablag‘larining eng faol qismi bo‘lsa, muomala fondlari ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etmaydi hamda yangi iste’mol qiymatini yaratmaydi. Bu yerda umumiy qoida shundayki, aylanma mablag‘lar doimo aylanishda bo‘lishi zarur - ularning samaradorligi va korxona iqtisodiyotiga ta’siri aynan shunda ko‘zga tashlanadi.

Aylanma ishlab chiqarish fondlari korxona aylanma mablag‘larining asosiy va salmoqli qismi sifatida o‘z tarkibiga quyidagilarni qamrab oladi:

- ishlab chiqarish zahiralari – bu ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarishga kiritish uchun tayyorlangan hamda xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg‘i, xarid qilinuvchi yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar, qadoqlash va o‘rov materiallari, asosiy vositalarni ta’mirlash uchun ehtiyot qismlar, yoqilg‘i-moylash materiallaridan tashkil topuvchi mehnat predmetlari;

- tugallanmagan ishlab chiqarish va korxonada tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlar – bu, ishlab chiqarish jarayonida foydalanishga topshirilgan hamda ishlov berish va yig‘uv jarayonida bo‘lgan, lekin ishlab chiqarish jarayoni to‘liq tugallanmagan hamda ushbu korxonada keyinchalik ishlov berilishi lozim bo‘lgan mehnat predmetlari;
- kelgusi davr xarajatlari - ayni paytda ishlab chiqarilayotgan, lekin kelajakdagi mahsulotlarga mansub bo‘lgan yangi turdagi mahsulotlarni tayyorlash va o‘zlashtirish xarajatlari (masalan, asbob-uskunalarni qayta rejalashtirish, mahsulotlarning yangi turlarini tayyorlash va loyihalashtirishga sarflanuvchi xarajatlar va boshqalar).

Aylanma ishlab chiqarish fondlari alohida tarkibiy qismlari yoki elementlari o‘rtasidagi foizlarda ifodalanuvchi o‘zaro munosabatlar **aylanma ishlab chiqarish fondlarining tuzilmasini** tashkil qiladi. Aylanma ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlari o‘rtasidagi xuddi shunday foizlardagi munosabatlar korxona aylanma mablag‘larining tuzilmasi deb ataladi..

Chizmadan ko‘rish mumkinki, ishlab chiqarish zahiralari aylanma ishlab chiqarish fondlarining asosiy qismini tashkil qiladi. Biroq bozor iqtisodiyoti, ayniqsa, barcha resurslar taqchilligi sharoitlarida ishlab chiqarish zahiralarining haddan tashqari oshirib yuborilishi korxona iqtisodiyotiga salbiy ta’sir qilishidan tashqari, resurslarni “bog‘lab” qo‘yadi hamda ularning yo‘qotilishiga olib keladi. Shu sababli aylanma mablag‘lar hajmini optimallashtirish va ularni mahsulot ishlab chiqarish dasturlariga mos holga keltirish korxonaning tejamkorlik rejimida faoliyat yuritishi katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Aylanma fondlar tuzilmasi nafaqat sanoatning turli tarmoqlarida, hattoki bir tarmoq va bir korxonaning o‘zida ham farqlanadi. Bunday farqlanishga turli xildagi xom ashyo va materiallar, ishlab chiqarish texnologiyasi va texnikasidagi farqlar, korxonalarning geografik joylashuvi, ishlab chiqarishning tashkil etilishi va mehnat taqsimoti, moddiy-texnika ta’minoti sabab bo‘lishi mumkin.

Korxonalar aylanma mablag‘lari tarkibi va tuzilmasiga xo‘jalik yuritish qobiliyati va uning samaradorligiga rioya qilish qoidalari katta ta’sir ko‘rsatadi. Ya’ni korxona ishlab chiqarish zahiralarini va aylanma mablag‘larning ta’minlanganligini haddan tashqari oshirishga intilmasligi zarur. Amaliyotning guvohlik berishicha, bu, resurslarning halok bo‘lishiga va sun’iy tanqislikning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli xom ashyo va materiallarni sarflashning texnologik normalariga rioya qilish, ularni saqlashni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, chiqitlar va yo‘qotishlarni kamaytirish, zamonaviy va arzon materiallardan foydalanish katta ahamiyat kasb etmoqda. Biroq arzon materiallardan foydalanish doim ham korxona imkoniyatlari va xohishidan kelib chiqavermaydi va tashqi muhit, birinchi o‘rinda ishlab chiqarishdagi hamkorlar, bahoni shakllantirish, umumiy iqtisodiy barqarorlik va boshqa omillar bilan ham bog‘liq bo‘ladi.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi korxonalarning aylanma mablag‘lari ishlab chiqarishning texnologik tashkil etish xususiyatlariga ko‘ra, bir-biridan farq qiladi. Bu xususiyatlarning xarakteri ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi va murakkabligi, ixtsisoslashtirish darajasi, mahsulotni realizatsiya qilish sharoitlari va shu kabilar

bilan izohlanadi. Aylanma mablag‘lar tuzilmasining tarmoqlar bo‘yicha farqlanishini quyidagi jadval orqali bilib olish mumkin (11.1-jadval).

11.1-jadval

Aylanma mablag‘larning tarmoqlar bo‘yicha taqsimlanishi[1]

Aylanma fondlarning guruh va elementlari	**Butun sanoat**	**Qora metallurgiya**	**Mashina-sozlik**	**Energe-tika**	**Yengil sanoat**	**Oziq-ovqat sanoati**
1. Ishlab chiqarish zahiralari - jami	70,2	65,0	55,3	98,3	90,0	78,8
Jumladan: xom ashyo va asosiy materiallar, yarim tayyor mahsulotlar	46,2	23,8	37,5	-	76,7	52,2
Yordamchi materiallar	6,6	11,0	2,3	24,1	5,7	6,1
Yoqilg‘i	1,7	2,0	0,7	37,4	0,5	1,6
Ta’mirlash uchun ehtiyot qismlar	3,9	11,0	2,0	23,0	1,7	2,0
Qadoqlash va o‘rov materiallari	3,0	0,5	0,6	0,3	1,2	11,3
Instrumentlar, xo‘jalik asboblari va qimmat bo‘lmagan, tez eskiruvchi boshqa predmetlar	9,8	16,7	12,2	19,5	3,2	5,6
2. Tugallanmagan ishlab chiqarish va korxonada tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlar	24,0	18,3	42,2	0,5	9,8	19,5
3. Kelgusi davr xarajatlari va boshqa mehnat predmetlari	5,8	16,7	2,5	1,2	0,2	1,7
Jami aylanma ishlab chiqarish fondlari	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**	**100,0**

Korxona iqtisodiyotiga aylanma mablag‘larning tarkibi va tuzilmasidan tashqari, ularni ishlab chiqarish, takror ishlab chiqarish va muomalaning turli bosqichlarida izlab topish katta ta’sir ko‘rsatadi. Aylanma mablag‘larning to‘liq aylanishi uch bosqichdan iborat bo‘lib, bu jarayonda mahsulot ishlab chiqariladi va sotiladi.

Birinchi bosqichda aylanma mablag‘lar pul shaklidan moddiy boyliklarning ishlab chiqarish zahiralariga aylanadi, ya’ni pul - tovar (D-T).

Ikkinchi bosqich ishlab chiqarish, yani mahsulotni tayyorlash jarayonini o‘z ichiga oladi. Bu bosqichda aylanma mablag‘lar va birinchi o‘rinda aylanma fodlar tugallanmagan ishlab chiqarish va yarim tayyor mahsulotlar holiga keltirilib, tovar shaklini oladi (T).

Uchinchi bosqichda aylanma mablag‘lar tovar mahsuloti shaklida muomalaga kiritilib, sotiladi va yana pul shaklini oladi (T-P).

[1] Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.:”Sano-standart”, 2014.-304 b.

Shu tariqa aylanma mablag‘lar barcha bosqichlardan o‘tib, to‘liq aylanishni amalga oshirishini quyidagi tarzda aks ettirish mumkin:

1-bosqich - pul-tovar (P-T);

2-bosqich - ishlab chiqarish (I.Ch);

3-bosqich - tovar-pul (T-P).

Shuni qayd qilib o‘tish muhimki, korxonaning aylanma mablag‘lari bir vaqtning o‘zida uchala bosqichda ham pul mablag‘lari, ishlab chiqarish zahiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ko‘rinishida mavjud bo‘lishi mumkin. Korxonaning aylanma mablag‘lari harakati ma’lum bir iqtisodiy qonunlar asosida ishlashi hamda ulardan ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida oqilona foydalanishni ko‘zda tutishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu qonunlardan va aylanma mablag‘lardan foydalanish qoidalaridan chetga chiqish aylanma mablag‘larning yetishmasligiga yoki samaradorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

11.3. Aylanma mablag‘larni normalashtirish

Shakllanish manbaiga ko‘ra, aylanma mablag‘lar xususiy va qarzga olingan turlarga bo‘linadi.

Xususiy aylanma mablag‘lar doimo korxona ixtiyorida bo‘lib, xususiy resurslar, asosan foyda hisobiga shakllanadi. Korxonaning xususiy aylanma mablag‘lari qatoriga ish haqi bo‘yicha qarzlar, ta’minotchilar yoki hamkorlar qarzlari, buyurtmachilarning tayyorlangan mahsulot uchun to‘lagan pullari kabilarni kiritish mumkin. Bu mablag‘lar xususiy mablag‘larga tenglashtirilgan mablag‘lar yoki korxonaning barqaror passivlari deb ataladi.

Qarzga olingan aylanma mablag‘lar doimo harakatda bo‘lmaydi hamda korxonaning mahsulotlarni sotishdagi qiyinchiliklar, moddiy-tovar boyliklar bilan ta’minlash, mahsulot ishlab chiqarish dasturini oshirib bajarish va boshqa vaqtinchalik ehtiyojlarni qoplash uchun foydalaniladi. Ular qatoriga bank kreditlari, kreditorlik qarzlari (tijorat kreditlari) va boshqa passivlarni kiritish mumkin.

Aylanma mablag‘larni boshqarish mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonining uzluksizligini ta’minlashda aylanma mablag‘lardan iloji boricha kamroq foydalanishda ifodalanadi. Bu esa korxona aylanma mablag‘lari aylanishining barcha bosqichlarida mos ravishda minimal, lekin yetarli tarzda ratsional taqsimlanishi zarurligini anglatadi. Bu vazifa o‘z navbatida moddiy resurslar zahiralari va xarajatlarini normalashtirish tufayli muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Aylanma mablag‘larni normalashtirish[1] korxonaning uzluksiz ishlashi ta’minlaydigan moddiy boylik va boshqa resurslarning minimal, lekin yetarli zahiralarini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘larini aniqlashda ifodalanadi. U ichki zahiralarni aniqlash, ishlab chiqarish sikli davomiyligini qisqartirish va tayyor mahsulotni tezroq sotish imkon yaratadi.

[1] Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. –T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006, – 208 b.

Biroq amaliyotda korxonalarning barcha aylanma mablag‘lari ham normalashtirilmaydi. Shu sababli aylanma mablag‘lar normalashtiriluvchi va normalashtirilmaydigan turlarga taqsimlanadi va ular hozirgi bozor munosabatlari sharoitlarida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Normalashtiriluvchi aylanma mablag‘lar qatoriga korxona omborlaridagi ishlab chiqarish zahiralari (xom ashyo, materiallar, yoqilg‘i, unchalik qimmat bo‘lmagan predmetlar va jihozlar), tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlari va ombordagi tayyor mahsulotlar kiritiladi.

Normalashtirilmaydigan aylanma mablag‘lar, bu – xaridorlarga berib yuborilgan tayyor mahsulot yoki tovarlar, hisob raqamidagi pul mablag‘laridir.

Korxonalar faoliyatida barcha aylanma mablag‘lar salmog‘ida 70-80%ni tashkil qiluvchi normalashtiriluvchi aylanma mablag‘lar asosiy o‘rin tutadi. Aylanma mablag‘larni normalashtirish tejamkorlik rejimiga rioya qilish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini yaratadi.

Resurslarni normalashtirish jarayonida aylanma mablag‘larning norma va normativlari belgilanadi.

Aylanma mablag‘larning normasi, korxona moddiy-tovar boyliklarining minimal zahiralarini tavsiflaydi hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga to‘g‘ri keluvchi pul o‘lchovida, zahira kunlari va zahira normalarida hisoblanadi.

Aylanma mablag‘larning normativi aylanma mablag‘lar normasini, normasi aniqlangan ko‘rsatkichga ko‘paytirishni ifodalaydi hamda qoidaga ko‘ra, pul ko‘rinishida o‘lchanadi. U quyidagi formula asosida hisoblanishi mumkin:

$$\mathbf{N_{ay.m} = N_{ich.z} + N_{t.ich} + N_{t.m}}$$

Bu yerda:

$N_{ich.z}$ - ishlab chiqarilgan zahiralar normasi;

$N_{t.ich}$ – tugallanmagan ishlab chiqarish normasi;

$N_{t.m}$ - tayyor mahsulot normasi.

Aylanma mablag‘larni normalashtirish va ayniqsa, moddiy resurslarni sarflash normalarini belgilashda quyidagi tamoyillarga amal qilish lozim:

- normalarning progressivligi va dinamikligi;
- normalarning iqtisodiy va ishlab chiqarish–texnikaviy jihatdan asoslanganligi;
- xom ashyo, material, yoqilg‘i, elektr energiyasi va boshqa resurslar o‘lchamini to‘g‘ri tanlash;
- chiqit va yo‘qotishlarning oldini olish;
- eskirgan normalarni qayta ko‘rib chiqish hamda ularni fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga mos holga keltirish.

Moddiy va boshqa resurslarni normalashtirishda bir nechta usullar qo‘llaniladi. Amaliyotda quyidagi usullar ko‘proq uchraydi:

1. O‘tgan yillar davomida amalda sarflangan resurslar to‘g‘risidagi hisobot ma’lumotlarini o‘rganish hamda bir necha yillar davomida ro‘y bergan pasayishlarni hisoblashga asoslanuvchi statistika-tajriba usuli.

2. Laboratoriya tajribalariga asosan yaratilgan hamda instrumentlar va yordamchi materiallar sarflanishi normasini aniqlashda qo‘llaniluvchi -

laboratoriya–texnikaviy usuli.

3. Yuzaga kelgan ishlab chiqarish sharoitlaridan tashqari boshqa korxonalarning ilg‘or tajribalari va yutuqlarini ham hisobga olish imkonini beruvchi, moddiy resurslardan foydalanishni normalashtirishning mukammalroq usuli hisoblanuvchi – hisob-tahliliy usuli.

Korxona aylanma mablag‘larini normalashtirish tadbirlari ishlab chiqarish zahiralarini normalashtirish, shuningdek, tugallanmagan ishlab chiqarishning optimal kattaligi, tayyor mahsulot qoldiqlari va kelgusi davr xarajatlarini aniqlash bilan bog‘liq vazifalarni yechishga olib keladi.

Ishlab chiqarish zahiralarini normalashtirish, korxonaning uzluksiz faoliyat yuritishini ta’minlash maqsadida amalga oshiriladi. Agar ishlab chiqarish zahiralari normativlardan past bo‘lsa, ishlab chiqarish jarayonining izdan chiqishi, ishchi kuchi va uskunalarning bekor turib qolishi, korxonaning ishlab chiqarish va iqtisodiy ko‘rsatkichlari pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan bir paytda, ishlab chiqarish zahiralarining belgilangan norma va normativlardan oshib ketishiga ham yo‘l qo‘ymaslik kerak, chunki bu mablag‘larning “muzlab” qolishiga va natijada korxona va davlatning zarar ko‘rishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish zahiralari joriy, sug‘urta (kafolatli), tayyorlov (texnologik) va mavsumiy turlarga bo‘linadi.

Joriy zahira – bu, materiallar yetkazib berish oralig‘ida ishlab chiqarishni moddiy resurslar bilan ta’minlash uchun zarur bo‘lgan zahiradir. Joriy zahiralar material yetkazib berish davri, oralig‘i hamda xom ashyo va boshqa materiallarning sutkalik sarflanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘ladi.

Misol. Non kombinati bir sutkada 10 tonna un sarflaydi, tegirmondan esa bir oyda bir marta un qabul qiladi. Ya’ni yetkazib berish oralig‘i 30 kunni tashkil qiladi. Demak, unning maksimal darajadagi joriy zahirasi 300 (10x30) tonnani, o‘rtacha joriy zahirasi 150 (10x30:2) tonnani, un har o‘n kunda yetkazib berilgandagi minimal joriy zahirasi esa 50 (10x10:2) tonnani tashkil qiladi.

Shu tariqa joriy zahiralar hajmi ko‘p jihatdan yetkazib berish oralig‘iga bog‘liq bo‘ladi: oraliq qanchalik kichik bo‘lsa, zahira shunchalik kam bo‘ladi. Bundan kelib chiqqan holda joriy zahira miqdorini quyidagi formula asosida topish mumkin:

$$\mathbf{Z_{max} = M_{o‘r} \times T_{t.ts}}$$

Bu yerda:

$M_{o‘r}$ – ushbu materialdan o‘rtacha sutkalik foydalanish miqdori (T., dona);

$T_{t.ts}$ – yetkazib berish oralig‘i yoki ta’minot sikli, kunlar.

Sug‘urta (kafolat) zahirasidan ta’minotda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan uzilishlar yoki ko‘zda tutilmagan holatlarda foydalanish mo‘ljallanadi. Ko‘pincha sug‘urta zahirasining miqdori joriy zahira normasining 50% miqdorida belgilanadi hamda quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$\mathbf{Z_{sug‘urta} = M_{o‘r} \times (T_1 + T_2 + T_3 + T_4)}$$

Bu yerda:

T_1 – materialni yuklash uchun ketadigan vaqt;

T_2 – materiallar yo‘lda bo‘ladigan vaqt;

T_3 – materiallarni omborga qabul qilish vaqti;

T_4 – materiallarni foydalanishga tayyorlash vaqti.

Sug‘urta zahirasi omborda joriy zahira bilan birgalikda saqlanadi hamda undan umuman farq qilmasada, alohida hisobga olinadi va faqat korxona rahbariyatining ruxsati bilangina sarflanadi.

Tayyorlov (texnologik) zahirasidan xom ashyo va materiallarni ishlab chiqarishga kiritish uchun tayyor holga keltirishda foydalaniladi. Bunday zahiralar ishlab chiqarishning o‘ziga xos xususiyatlari va texnologiyalariga ega bo‘lgan korxonalardagina yaratiladi. Bunday korxonalar qatoriga yog‘-moy kombinati, yog‘ochni qayta ishlash korxonasi kabilarni kiritish mumkin. Mazkur hollarda tayyorlov zahirasi miqdori tayyorlov texnologiyasi va operatsiyalariga mos holda normaga solinadi.

Mavsumiy zahiralar asosan uchta sababga ko‘ra yuzaga keladi: birinchidan, xom ashyo tayyorlashning mavsumiyligi; ikkinchidan, uni iste’mol qilishning mavsumiyligi; uchinchidan, materiallarni yetkazib berishning mavsumiyligi. Mavsumiy zahiralar hajmi xuddi joriy zahiralar hajmi kabi, o‘rtacha bir sutkada iste’mol qilish va mavsumiy zahiralar yaratilishi lozim bo‘lgan vaqtga asosan aniqlanadi.

Ishlab chiqarish zahiralarini normalashtirish, ishlab chiqarishda qo‘llaniluvchi har bir mehnat predmeti (xom ashyo va materiallar, yordamchi materiallar va boshqalar) uchun alohida amalga oshiriladi hamda bu o‘z navbatida ishlab chiqarish zahiralarini yaratishda aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojni aniqlashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tugallanmagan ishlab chiqarishni normalashtirish. Tugallanmagan ishlab chiqarish bo‘yicha aylanma mablag‘lar normativini aniqlash korxona faoliyatidagi eng murakkab va ko‘p mehnat talab qiluvchi jarayon hisoblanadi. Tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida ishlab chiqarishning turli bosqichlarida - xom ashyoni texnik nazorat bo‘limi (TNB) tomonidan qabul qilishdan to tayyor mahsulot omboriga topshirgunga qadar ishlov berilayotgan mahsulotlarni ko‘rsatshi mumkin.

Tugallanmagan ishlab chiqarish bo‘yicha aylanma mablag‘lar normativi miqdori quyidagilarga bog‘liq bo‘ladi:

1.Mahsulot ishlab chiqarish hajmi.

2.Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanuvchi joriy xarajatlar, ya’ni tannarx.

3.Xom ashyo va materiallarni ishlab chiqarishga kiritish vaqtidan to tayyor mahsulot chiqishigacha bo‘lgan ishlab chiqarish siklining davomiyligi. Ishlab chiqarish siklining davomiyligini topishda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\mathbf{T_{ich.ts} = t_{texn} + t_{tan} + t_{trans} + t_{kontr}}$$

Bu yerda:

t_{texn} - mahsulot ishlab chiqarishdagi barcha operatsiyalarga sarflanuvchi vaqti;

t_{tan} - operatsiyalar oralig‘idagi vaqt (tanaffuslar);

t_{trans} – transportda tashish vaqti;

t_{kontr} - mahsulotni yig‘ish, qabul qilish va TNBga topshirish vaqti.

Tugallanmagan ishlab chiqarishga jalb qilingan aylanma mablag‘larning o‘sishi xom ashyo va materiallarni ishlab chiqarishga kiritish bilan boshlanadi hamda

ishlab chiqarish sikli yakunida (tayyor mahsulot omborga topshirilganda) eng yuqori nuqtasiga chiqadi. Tugallanmagan ishlab chiqarish normativini hisoblashda ishlab chiqarish sikli kunlarda belgilanadi hamda bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\mathbf{N_{t.ich} = M_k \times T_{ich.ts} \times K_{x.o'}}.$$

Bu yerda:

M_k - o‘rtacha bir kunlik xarajatlar, so‘mlarda;

$T_{ich.ts}$ - ishlab chiqarish sikli davomiyligi, kunlarda;

$K_{xo'}$ - xarajatlarning o‘sish koeffitsiyenti.

Xarajatlarning o‘sish koeffitsiyenti asosiy materiallar (M_a) to‘liq qiymatda olinuvchi kattalik sifatida hisoblanadi. Ishlab chiqarish xarajatlari (M_{ich}) butun ishlab chiqarish sikli mobaynida bir xil suratda o‘sib boradi hamda 50% qiymatda hisobga olinadi:

$$\mathbf{K_{nz} = (M_a + 0{,}5M_{ich}) : S}$$

Bu yerda:

S - mahsulot birligining rejadagi tannarxi.

Agar keyingi xarajatlar (M_{ich}) bir xil surat bilan o‘zgarmasa, u holda o‘sish koeffitsiyenti quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$\mathbf{K_{x.o'} = (M_a + k \cdot S_{yaf} + k \cdot S_{but} + 0{,}5M_{ich}) : S}$$

Bu yerda:

k, k – yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlarni mos ravishda pasaytiruvchi koeffitsiyentlari;

S_{yaf} - yarim tayyor mahsulotlar qiymati;

S_{but} - butlovchi qismlar qiymati.

Pasaytiruvchi koeffitsiyentlar yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlarga ishlov berilgan kunlarning ishlab chiqarish sikli davomiyligiga nisbatini ifodalaydi. Masalan, agar ishlab chiqarish sikli 20 kun bo‘lib, butlovchi qismlar 8 kun davomida ishlab chiqarishda bo‘lgan bo‘lsa, pasaytiruvchi koeffitsiyent 0,4 (8:20) ga teng bo‘ladi.

Tayyor mahsulot qoldiqlarini normalashtirish. Ishlab chiqarish jarayoni tugallangandan so‘ng mehnat predmetlari tayyor mahsulot ko‘rinishida muomalaga kiritiladi.

Aylanma mablag‘larning tayyor mahsulotga aylanish normativi miqdori, o‘rtacha bir sutkalik ishlab chiqarilgan mahsulotning (tannarxi bo‘yicha) aylanma mablag‘larning kunlardagi tayyor mahsulot normasiga sifatida, ya’ni tayyor mahsulotning korxona omborida saqlanish muddati sifatida aniqlanadi:

$$\mathbf{Q_{t.m} = Q : T \times N_{t.m}}$$

Bu yerda:

$Q_{t.m}$ – tayyor mahsulot normativi;

Q - rejalashtirilgan davrda rejadagi tannarx bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulot;

N_{gn} – tayyor mahsulotlardagi aylanma mablag‘lar zahiralari normasi, kunlarda;

T - rejadagi davrda kalendar kunlar miqdori.

Tayyor mahsulotning omborda saqlanish muddati tayyor mahsulotni transportirovka qilish va sotishga bog‘liq bo‘ladi. Aylanma mablag‘larning ushbu normasidagi kunlar soni mahsulotni tayyorlash, yuklash, hujjatlarni tayyorlash va ularni bankka topshirish uchun zarur bo‘lgan kunlardan iborat bo‘ladi.

Kelgusi davr xarajatlarni normalashtirish. O‘sib borayotgan fan-texnika taraqqiyoti sur’atlari aylanma mablag‘larning kelgusi davr xarajatlari ahamiyatini oshirmoqda. Bu xarajatlar korxonaning maxsus buxgalteriya hisobida uchta manba: yangi texnikani o‘zlashtirish fondi (agar korxonada shunday fond mavjud bo‘lsa), bank krediti va foyda (xarajatarni mahsulot tannarxiga kiritish yo‘li bilan) hisobiga yig‘iladi. Aylanma mablag‘larning kelgusi davr xarajatlari (N_{kd}) normasini hisoblashda quyidagi formulaga amal qilinadi:

$$\mathbf{N_{kd} = R + R_{ich} + R_t}$$

Bu yerda:

R - yil boshida kelgusi davr xarajatlari uchun sarflanishi mo‘ljallangan mablag‘lar miqdori (buxgalteriya hisoboti bo‘yicha);

R_{ich} – rejadagi yilda loyiha-smetalarda ko‘zda tutilgan ishlab chiqarish xarajatlari;

R_t - o‘zlashtirilayotgan mahsulot tannarxiga kiritiluvchi hamda smetalarda ko‘zda tutiluvchi yoki maxsus manbalar hisobiga qoplanuvchi xarajatlar.

Alohida elementlar bo‘yicha aylanma mablag‘lar xarajatlari normalari aniqlangandan so‘ng, aylanma mablag‘larga bo‘lgan umumiy ehtiyojlar (normativ) miqdori hisoblanadi. Korxona aylanma mablag‘lariga bo‘lgan umumiy ehtiyoj, ishlab chiqarish zahiralari (xom ashyo va asosiy materiallar, yordamchi materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, xarid qilinuvchi mahsulotlar, qadoqlash va o‘rov materiallari, yoqilg‘i va hokazolar), tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot va kelgusi davr xarajatlaridan iborat bo‘ladi.

Aylanma mablag‘lar me’yorini aniqlash uchun mahsulot ishlab chiqarishga qilinadigan bir kunlik xarajatlar summasini kunlarda belgilangan me’yorga quyidagi formula bo‘yicha ko‘paytirish kerak:

$$\mathbf{Aym = UXFAXQ * AyMM_{kun} / K}$$

bunda:

Aym. — aylanma mablag‘larning me’yordagi summasi;

UXFAXQ— hisobot davrida umumxujalik faoliyatining amaldagi jami xarajatlari kiymati (5-s-shakl bo‘yicha);

K— davrdagi kunlar soni;

$AyMM_{kun}$— belgilangan aylanma mablag‘larning kunlardagi me’yori.

Tugallanmagan ishlab chiqarish dinamikasi ham ishlab chiqarish hajmiga bog‘liq bo‘ladi. Bu hajmning haddan tashqari ko‘payishi butlanmagan mahsulot chiqarish yoki ishlab chiqarishni tugallash uchun zarur xom ashyo materiallar yo‘qligi natijasida yuz berishi mumkin[1].

[1] A.Vahobov va boshq. Moliyaviy va boshqaruv tahlili: Darslik. – T.: “Sharq”, 2015. – 480 b.

Tayyor mahsulotga talabning pasayishi, yomon marketing, xaridorlar yo‘qligi yoki mahsulot sifati yomonlashuvi natijasida ham tayyor mahsulot ortiqcha ishlab chiqarishi mumkin.

Debitorlik qarzining, ayniqsa, muddati o‘tgan qarzning ko‘payishi xaridorlar va buyurtmachilarning to‘lov qobiliyati yetarli darajada o‘rganilmaganligidan darak beradi.

Pul mablag‘larining haddan tashqari ko‘payishi ham nomaqbul hodisadir. Chunki, bu mablag‘lar korxonaning hisob raqamlarida harakatsiz yotmasdan, aylanib turishi va daromad keltirishi kerak. Ikkinchi tomondan, mab-lag‘larning yo‘qligi korxonaning to‘lovga qobiliyatsizligini ko‘rsatadi.

Shu sababli, aylanma mablag‘lar turlari korxonaning barqaror ishlashini ta’minlaydigan miqdorda bo‘lishi kerak.

Aylanma mablag‘lar bilan ta’minlanish darajasi ularning me’yordan farq qilishi bilan belgilanadi. Korxonaning moliyaviy ahvolini mustahkamlash, moddiy va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, aylanma mablag‘larning aylanishini tezlashtirish maqsadida, faoliyat turlarini hisobga olgan holda, aylanma mablag‘larning tabaqalashtirilgan me’yorlari tasdiqlangan.

Moliyaviy hisobotni o‘rganish respublika korxonalari aylanma mablag‘lardan maqsadga muvofiq foydalanilmayotganligini ko‘rsatdi. Katta debitorlik qarzlari, aylanma mablag‘larning sekin aylanishi, ishlab chiqarishga doimo qo‘shimcha mablag‘lar jalb etishni talab qiladi.

Aylanma mablag‘larni tahlil qilgan vaqtda amaldagi va me’yoriy aylanma mablag‘larni taqqoslash va ular o‘rtasidagi farqni hisoblab chiqarish kerak bo‘ladi.

Aylanma mablag‘lar me’yorini aniklash uchun yuqoridagi qarorga muvofiq, mahsulot ishlab chiqarishga bir kunda qilingan xarajatlar summasini quyidagi formula bo‘yicha kunlarda ifodalangan belgilangan me’yorga ko‘paytirish kerak:

Aymm = Edk * Nkn / K.

bunda:

Aymm — aylanma mablatar me’yori summasi;

Edk — davrdagi kunlarning jami miqdori;

K— davrdagi kunlar soni;

Nkn — aylanma mablag‘larning kunlarda ifodalangan (belgilangan) me’yori.

Agar aylanma mablag‘lar normativi 1 so‘mga qilingan xarajatlarni hisobga olgan holda belgilansa, ishlab chiqarishga qilingan xarajatlar umumiy summasini quyidagi formula bo‘yicha xarajatlarning 1 so‘miga tiyinlarda belgilangan normativga ko‘paytirish kerak bo‘ladi:

Aymm = Xish * 1 so‘mga M,

bunda:

Xish — ishlab chiqarish xarajatlari;

1 so‘mga M — 1 so‘m xarajatga to‘g‘ri keladigan aylanma mablag‘lar me’yori.

Ushbu ko‘rsatkichlarni amaliy ma’lumotlarni qo‘llagan holda aniqlash va qator yillar bilan taqqoslash tahlil qilinayottan ob’ekt bo‘yicha yetarli xulosalarni chiqarish uchun asos bo‘ladi.

11.4. Sanoat korxonalari aylanma mablag‘lari holati va ta’minlanganligi ko‘rsatkichlari.

Korxonaning aylanma mablag‘lari – uning aylanma fondlarda, muomala fondlarida va boshqa harakatdagi aktivlarda turgan pul mablag‘laridir[1].

Ular asosiy vositalardan farqli o‘laroq, to‘xtovsiz harakatda bo‘ladi. Chunki, bir ishlab chiqarish sikli mobaynida to‘liq iste’mol qilinadi, o‘z qiymatini tayyor mahsulotga o‘tkazadi, ham buyum-natura ko‘rinishida, ham qiymat tarzida tiklanadi.

Korxona iqtisodiy salohiyati tarkibida yetakchi o‘rinlarni aylanma mablag‘lar hissasi tashkil qiladi. Uning miqdori, ta’kidlanganidek, turli sohalarda turlicha.

Aylanma mablag‘lar ham iqtisodiy mazmuni bo‘yicha ayrim jihatlari asosiy vositalarga o‘xshash. Ular ikkalasi ham moddiy resurslar guruhiga kiradi. Shu jihatdan aylanma mablag‘larni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimini ham uch guruhga bo‘lish mumkin: aylanma mablag‘lar holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar, aylanma mablag‘lar bilan ta’minlanganlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar va aylanma mablag‘lar samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar. Tahlil jarayonida u yoki bu ko‘rsatkichning nimani ifodalashi, ularni baholash yo‘lari va ma’lumot manbalarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tufayli, har bir ko‘rsatkichning nomini, nimani ifodalashi, aniqlash yo‘larini keltirilgan guruhlar bo‘yicha ko‘rib chiqishni maqsadga muvofiq (11.2 -jadval).

11.2 -jadval

Aylanma mablag‘lar (Aym) holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar[2]

Ko‘rsatkichlarning nomi	Nimani ifodalashi (mazmuni)	Aniqlanish formulasi
Aym. ning umumiy mablag‘lardagi hissasi	Aym.ning umumiy mablag‘larda necha foiz tashkil qilishini ko‘rsatadi	A_{ym}/B
Aym. tarkibida pul mablag‘lari (Pm) hissasi	Aym. tarkibida qancha foiz pul mablag‘lari mavjudligini ifodalaydi	P_m/ A_{ym}
Aym. tarkibida Tovar-moddiy zaxiralari (Zx) hissasi	Aym. tarkibida qancha foiz ishlab chiqarish zaxiralari borligini ko‘rsatadi	Zx/Aym
Aym. tarkibida debitorlar (Deb) hissasi	Aym. tarkibida debitorlarning necha foiz tashkil qilishini ko‘rsatadi	Deb/Aym
Muddati o‘tib ketgan debitorlarning (Dmud) umumiy Deb.dagi hissasi	Muddati o‘tib ketgan debitorlarning umumiy debitorlardagi necha foiz tashkil qilishini ifodalaydi	Dmud/D
Aym. tarkibida o‘z mablag‘lari hissasi	Barcha Aym.ning qancha qismi o‘z mablag‘lari hisobidan qoplanishini ko‘rsatadi	(O‘m+Ump-As)/Aym

Aylanma mablag‘lar haqidagi ma’lumotlar buxgalteriya balansida hamda «Debitorlik va kreditorlik qarzlari to‘g‘risida ma’lumotnoma» degan 2-a shaklda ko‘rsatiladi. Buxgalteriya balansida ular «Aylanma aktivlar» degan aktivning 2-

[1] Ваҳобов ва бошқ. Молиявий ва бошқарув таҳлили: Дарслик. – Т.: “Шарқ”, 2015. – 480 б.

[2] Abdukarimov I.T. va boshqalar. Korxona iqtisodiy salohiyati tahlili. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2015, – 256 b.

bo‘limidan qayd etiladi. Ushbu bo‘limning yakuni korxonaning muayyan sanada aylanma mablag‘larda turgan mablag‘lari summasini ko‘rsatadi.

Ushbu jadval ma’lumotlari korxonaning aylanma mablag‘larini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi, tasnifi, aniqlanish yo‘llari, nimani ifodalashi va har birining axborot manbaini ko‘rsatib turibdi. Bu esa mazkur ko‘rsatkichlar tizimini tahlil qilish uchun nazariy va uslubiy asos bo‘ladi.

Aylanma mablag‘larning muayyan sanadagi summasi buxgalteriya balansi ma’lumotlari asosida hisoblab chiqariladi hamda balansning aktiv qismidagi 2-bo‘limning yakunida ko‘rsatiladi.

Aylanma mablag‘larning kunlarda ifodalangan miqdorini hisoblash, buxgalteriya hisoboti ma’lumotlari asosida amalga oshiriladi. Bu ko‘rsatkich korxonaning ishlab chiqarish dasturini bajarish chog‘ida aylanma mablag‘lar necha kunga yetishini ko‘rsatadi.

Biroq, ushbu aylanma mablag‘lardan hisobot davrida emas, balki keyingi davrda foydalaniladi. Shu sababli, aylanma mablag‘larning asl summasini keyingi chorakda mahsulot ishlab chiqarishga qilinadigan bir kunlik xarajatlarga taqsimlash kerak bo‘ladi. Bu ko‘rsatkichni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

Kaym.m = Aym x 90 / Ixarajat

bunda:

Kay.m. – kunlarda ifodalangan aylanma mablag‘lar;

Aym – aylanma mablag‘lar summasi;

Ixarajat – keyingi chorakdagi ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy miqdori.

Ushbu ko‘rsatkich kunlarda va summada ifodalangan amaldagi aylanma mablag‘lar me’yorlari bilan taqqoslash uchun kerak.

Aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik summasi o‘rtacha xronologik formula bo‘yicha hisoblab chiqariladi:

Ay.mo‘ = **(Aym.1,5+Aym.2+ Aym.3+Aym.4+Aym.5,5) / 4**

bunda:

Ay.mu. – aylanma mablag‘larning o‘rta yillik summasi;

Aym.1, ..., Aym.5 – choraklar boshi va oxiridagi aylanma mablag‘lar summasi.

Bu ko‘rsatkich biznes-rejalar tuzish va aylanma mablag‘larning samaradorligini aniqlash uchun ham keng qo‘llaniladi.

Aylanma mablag‘larning holatini bildiruvchi ko‘rsatkichlarga quyidagilar kiradi: aylanma mablag‘lar summasi, uning o‘rtacha qiymati, umumiy mablag‘lardagi hissasi, aylanma mablag‘larning tarkibiy tuzilishi, aylanma mablag‘larda o‘z mablag‘lari summasi; aylanma mablag‘lar dinamikasi va h.k.

Korxonada aylanma mablag‘lar holatining qanday ekanligini bilish uchun, hozirgi erkin iqtisodiyot sharoitida, uning dinamikasini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Ammo aylanma mablag‘lar dinamikasini o‘rganganda albatta barcha aktivlar dinamikasi bilan solishtirish va barcha aktivlarda ularning ulushi qanday

o‘zgarayotganligini ham kuzatish bu boradagi xulosaga ancha oydinlik kiritadi.

11.3-jadval

Aylanma mablag‘lar (Aym) bilan ta’minlanganlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar[1]

Ko‘rsatkichlarning nomi	Nimani ifodalashi (mazmuni)	Aniqanish formulasi
Aym. sig‘imi, ya’ni 1 so‘m natijaga (Q) to‘g‘ri keladigan Aym.	1 so‘m natija ko‘rsatkichiga qancha Aym. to‘g‘ri kelishini (natijaning fondliligini) ifodalaydi	Aym/Q
Aym. me’yorining (Aym.m) haqiqiy miqdori (Aym.x) bilan taminlanishi	Aym. haqiqiy summasining me’yorga nisbatini, ya’ni 1 so‘m Aym.m.ga to‘g‘ri keladigan haqiqiy Aym. summasini ko‘rsatadi	Aym.x/ Aym.m
1 so‘m asosiy vositalarga (Av) to‘g‘ri keladigan Aym.	1 so‘m Av.ga to‘g‘ri keladigan Aym. Summasini, ya’ni Av.ning Aym. bilan ta’minlanganligini ifodalaydi	Aym/Av
Bitta xodimga (X) to‘g‘ri keladigan Aym.	1 ta xodimga to‘g‘ri keladigan Aym. summasi, ya’ni xodimlarning Aym. bilan ta’minlanganligini ko‘rsatadi.	Aym/X

Aylanma mablag‘lar bilan ta’minlanganlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni tahlil qilishda aylanma mablag‘larning summasi va aylanish tezligini belgilangan me’yorlar bilan taqqoslash; o‘z va qarz mablag‘larining muomaladagi ishtirokini aniqlash; aylanma mablag‘larning umumiy hajmi va turlari bo‘yicha shakllari va manbalarini o‘rganib chiqish lozim bo‘ladi.

Aylanma mablag‘lar bilan ta’minlanganlikni aniqlash uchun ma’lumotlar moliyaviy hisobotdan, balansning aktiv qismidagi 2-bo‘limidan olinadi.

11.5. Sanoat korxonalarida aylanma mablag‘lari samaradorligi ko‘rsatkichlari va uni oshirish imkoniyatlari

Aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligini ta’minlash, aylanma mablag‘lar aylanishini tezlashtirish nafaqat korxona uchun, balki butun iqtisodiyot uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. U resurslarning nisbiy ozod qilinishi, ijtimoiy xarajatlarning kamaytirilishiga ko‘maklashadi va iqtisodiy rivojlantirish sur’atini oshiradi.

Aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligi ularning aylanish tezligi, daromadliligi va rentabelligi bilan, ya’ni aylanma mablag‘larning 1 so‘miga to‘g‘ri keladigan foyda miqdori bilan belgilanadi.

[1] Abdukarimov I.T. va boshqalar. Korxona iqtisodiy salohiyati tahlili. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2015, – 256 b.

11.4-jadval

Aylanma mablag‘lar (Aym) samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni aniqlash yo‘llari[1]

Ko‘rsatkichlarning nomi	**Nimani ifodalashi (mazmuni)**	**Aniqlanish formulasi**
Aym.ning aylanuvchanligi, kunlarda	Aym. Bir aylanish davrining necha kunga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi	Aymo‘s *Ks/ Q Ks – davrdagi kunlar soni
Aym.ning aylanuvchanlik koeffitsiyenti, martada	Tahlil davrida Aym.ga qo‘yilgan mablag‘ning necha marta aylanishini ifodalaydi	Q / Aymo‘s
Aym.ning rentabelligi	100 so‘m Aym. Summasiga to‘g‘ri keladigan foydani ko‘rsatadi	SF*100/ Aymo‘s
Aym.ning daromadliligi	100 so‘m Aym. Summasiga to‘g‘ri keladigan daromadni (D) ifodalaydi	D*100/ Aymo‘s
Debitorlarning aylanuvchanligi (kunlarda)	Debitorlarning (Deb) bir aylanish davri necha kunga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi	Deb*Ks/ Q

Aylanma mablag‘larning kunlarda ifodalangan aylanish tezligi aylanma mablag‘lar o‘rtacha yillik summasining bir kunlik sotilgan mahsulot qiymatiga nisbati sifatida quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

Ayma = Aymo‘s*Ks / Q,

bunda:

Ayma – aylanma mablag‘lar aylanuvchanligi;

Aymo‘s – aylanma mablag‘lar o‘rtacha yillik summasi;

Q – *mahsulot sotish summasi;*

Ks– *davrdagi kunlar soni (odatda, bir yildi 360, yarim yilda 180, 1 chorakda 90, 1 oyda 30 kun).*

Aylanma mablag‘larning necha marta aylanishi (aylanish koeffitsiyenti – Ak) sotilgan mahsulot summasining aylanma mablag‘lar o‘rtacha yillik summasiga nisbati sifatida aniqlanadi yoki davrdagi kunlar soni (360) aylanma mablag‘larning aylanish kunlariga bo‘linadi. Bu quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

Ak = Q **/ Aymo‘s yoki Ak =** Ks **/ Ayma.**

Aylanma mablag‘lar rentabelligi sof foydaning aylanma mablag‘lar o‘rtacha yillik summasiga nisbati sifatida quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

Aymr = SF*100 / Aymo‘s,

bunda:*Aymr – aylanma mablag‘lar rentabelligi;*

[1] Абдукаримов И.Т. ва бошқалар Корхона иқтисодий салоҳияти таҳлили. – Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2015, – 256 б.

SF – sof foyda.

Bu ko‘rsatkich korxona aylanma mablag‘larining 1 so‘miga qancha foyda olinayotganligini bildiradi.

Aylanma mablag‘lar daromadliligi (Aymd) yalpi foyda summasini aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik qiymatiga taqsimlash yo‘li bilan aniqlanadi. Buning uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

Aymd = Yalpi foyda / Aymo‘s

Aylanma mablag‘larni yuklanish koeffitsiyenti aylanish koeffitsiyentiga teskari bo‘lgan qiymatdir. U sotilgan har 1 so‘m mahsulotga sarflangan aylanma mablag‘larni tavsiflaydi hamda quyidagi formula asosida hisoblab topiladi:

Kyuk = Aymo‘s / Q

Aylanma mablag‘larning to‘liq aylanish muddati qanchalik kichik yoki bu aylanishlar soni qanchalik ko‘p bo‘lsa, aylanma mablag‘lar shunchalik kam talab qilinadi va aksincha, aylanma mablag‘lar qanchalik tez aylanishda bo‘lsa, shunchalik samarali ishlatiladi.

Aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlariga juda ko‘p omillar ta’sir etadi. ularning asosiylari quyidagilar:

- mahsulot hajmining ko‘payishi;
- aylanma mablag‘lar tuzilishining yaxshilanishi;
- aylanma mablag‘larni belgilangan me’yorlar darajasiga yetkazish;
- debitorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish;
- chiqarilayotgan mahsulotga talabni o‘rganishning yaxshilanishi;
- xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblarning yaxshilanishi kabilar.

Bugungi kunda aylanma mablag‘larda, ayniqsa, korxonalarning moddiy-tovar boyliklarida band bo‘lgan yirik miqdordagi pul mablag‘lari ularning to‘liq saqlanishiga e’tibor qaratish, ulardan maqsadlarga muvofiq va samarali foydalanish, shuningdek, ularning aylanishini tezlashtirishni talab qiladi. Korxonalar oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish quyidagilarni amalga oshirishni talab qiladi:

- fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini keng qo‘llash;
- ishlab chiqarishning barcha jarayonlarida ilmiy jihatdan asoslangan norma va normativlar tizimini yaratish;
- korxonalarni uzoq muddatli xo‘jalik aloqalari yuritishga o‘tkazish va kooperatsiya qilishni rivojlantirish;
- mahsulotlar, moliyaviy, moddiy va kuch-quvvat resurslarining sifat balansini tuzish;
- boshqarish tizimini tashkil etishning va rag‘batlantirishning optimal shakllarini qo‘llash.

Aylanma mablag‘larning aylanishini tezlashtirish uchun kurashda har bir korxona ularning ishlab chiqarish va muomalada bo‘lish muddatini qisqartirishga erishishi zarur. Gap shundaki, aylanma mablag‘larning muomala sohasida sekin

harakatlanishi korxonaning bu vositalardan ishlab chiqarishda foydalanishda erishgan yutuqlarini yo‘qqa chiqarishdan tashqari, ularning umumiy aylanishini ham sekinlashtirishi mumkin. Shu sababli tayyor mahsulotni iste’molchiga yetkazib berishni tezlashtirish yoki mahsulotni realizatsiya qilish muddatini qisqartirish ham aylanma mablag‘larning aylanishini tezlashtirishning muhim yo‘li hisoblanadi.

Aylanma mablag‘larning aylanishini tezlashtirish samarasi, ulardan foydalanishni yaxshilash tufayli kamroq iste’mol qilinishi yoki qisman ozod qilinishida aks etadi. Aylanma mablag‘lar mutlaq yoki nisbiy ozod qilinishi mumkin.

Mutlaq ozod qilish korxonaning aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojini kamaytirishni tavsiflaydi hamda mavjud resurslardan ratsional foydalanishga oid turli tashkiliy-texnik chora-tadbirlar hisobiga amalga oshiriladi.

Nisbiy ozod qilish aylanma mablag‘lari hajmining o‘zgarishi hamda sotilgan mahsulot hajmining o‘zgarishini aks ettiradi. Uni aniqlash uchun hisobot yilida aylanma mablag‘larga ehtiyojni, mahsulotni mazkur davr mobaynida sotish bo‘yicha haqiqiy aylanish hamda o‘tgan davrdagi aylanishni (kunlarda) inobatga olgan holda hisoblash zarur. Ular o‘rtasidagi farq ozod qilingan vositalar miqdorini beradi.

Qisqacha xulosalar

Sanoat ishlab chiqarishida asosiy fondlar bilan bir vaqtning o‘zida aylanma mablag‘lar ham harakatda bo‘ladi. Aylanma fondlarning ashyoviy mazmunini asosiy va yordamchi materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish, yarimfabrikatlar, ehtiyot qismlar, kam baholi hamda tez to‘ziydigan buyum va inventarlar, turli idishlar (taralar) tashkil etadi. Aylanma mablag‘larga esa tayyor mahsulot, yo‘ldagi mahsulot va hisobdagi pullar ham kiradi.

Aylanma mablag‘lardan foydalanishni yaxshilash mavjud xom ashyo va materiallar bilan ishlab chiqarish ko‘lamini yuqori darajaga ko‘tarish, tarmoqlar o‘rtasida yuqori tejamli nisbatlarni (proporsiyalarni) belgilash, mehnat unumdorligini oshirish va mahsulot tannarhini pasaytirishga imkon yaratadi. Ishlab chiqarishni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish xom ashyo va materiallardan, yoqilg‘i va elektr energiyasidan oqilona foydalanishni talab etadi.

Moddiy resurslarni tejash maqsadida ko‘p omillardan foydalanish mumkin. Resurslarni tejashning asosiy omillariga ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik yangilash va diverfikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng jalb etish, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishni yaxshilash, tejamkorlikni rag‘batlantiruvchi dastak va stimullardan keng foydalanish kiradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Aylanma mablag‘larning mohiyati, ahamiyati va mazmuni nimalardan iborat?
2. Aylanma fondlar asosiy fondlardan qaysi xususiyatlari bilan farqlanadi?
3. Aylanma mablag‘larning tarkibi va tuzilmasi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
4. Aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish mexanizmi nimalarni o‘z ichiga oladi?
5. Aylanma mablag‘larning aylanish tezligini oshirishning ahamiyati nimalardan iborat?
6. Aylanma mablag‘larning aylanishini tezlashtirish yo‘llarini izohlab bering.

7. Bu mavzu bo‘yicha yechimi topilmagan qanday muammolar mavjud?

Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro`yxati:

1. 2019 yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasi// https://president.uz/uz/lists/view/2228

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida» gi №PF-4947 sonli Farmoni. //Xalq so’zi. 2017 yil 8 fevral.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlanishining beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2017 yil 15 avgustdagi №3-5024 sonli Qarori.

3. Sh. M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak . Tashkent : O‘zbekiston, 2017 y.,104 b.

4. Church J., and R.Ware. (CW) Industrial Organization. A Strategic Approach. Irwin. 2000.

5. Schmalensee, Richard, and Robert Willig, eds. (HB) Handbook of Industrial Organization. Vols. 1-2. North-Holland, 1989.

6. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.:”Sano-standart”, 2014.-304 b.

7. Abdukarimov I.T. va boshqalar. Korxona iqtisodiy salohiyati tahlili. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2015, – 256 b.

8. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. –T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006, – 208 b.

9. www.webofscience.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi

10. www.search.ebscohost.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi

12-BOB. SANOAT MAHSULOTINING SIFATI VA UNING RAQOBATBARDOSHLIGI

12.1. Sifat tushunchasi va sifatni oshirish zaruriyati

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti ishlab chiqariladigan mahsulot sifatiga qat`iy talablar qo`yadi. Chunki hozirgi zamonda har qanday korxonaning omon qolishi, uning tovarlar va xizmatlar bozoridagi mustahkam mavqei raqobatbardoshlik darajasi bilan belgilanadi. Raqobatbardoshlik ikki ko`rsatkich - baho va mahsulot sifatining darajasi bilan bog'liqdir.

Ishlab chiqarishni erkinlashtirish davrida ikkinchi omil birinchi o`ringa ko`tarilmoqda. Chunki sifat korxonaning obro`si va yanada gullashi hamda sifatni boshqarish - bu, barcha xodimlar, rahbardan tortib aniq ish bajaruvchi uchun ishning alfa va omegasi, ya`ni avvali va ohiridir. Shu tufayli davlatning iqtisodiy, shu jumladan, sanoat siyosatida sifat masalasi muhim o`rin egallaydi. Mahsulot sifatini oshirish - bu, oqibat-natijada uning miqdori, resurslarni tejash, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni to`laroq qondirish masalasi hisoblanadi. YA`ni, har qanday mahsulot eng yuqori texnikaviy-iqtisodiy va estetik hamda boshqa bir qator talablarga muvofiq kelishi, jahon bozorida raqobat qilish qobiliyatiga ega bo`lishi kerak. Agar sifat muammosi hal etilmasa, ijtimoiy ishlab chiqarish va aholining tovarlarga bo`lgan ehtiyojlarini qondirib bo`lmaydi.

Sifat nima?

Mahsulot (ish, xizmat) sifati - muayyan shu mahsulotning har tomondan foydalanishga mukammal ekanligini belgilovchi xususiyatlar yig'indisidir.

Mahsulot sifati - bu, shu mahsulotdan ma`lum maqsadda foydalanish uchun uning yaroqlilik darajasi, mahsulotning xalq xo`jaligi ehtiyojlarini, iste`molchilarning talab va didlarini qondirish qobiliyatidir.

Sanoat mahsuloti sifati tarmoqning, korxona (firma)ning faoliyatini rejalashtirishda va uni aniqlashda qo`llaniladigan asosiy ko`rsatkichlardan biri hisoblanadi. Unda mehnatni tashkil qilish, uning jihozlanish darajasi, mutaxassislarning malakasi, ishlab chiqarishni boshqarishning holati ifodalanadi. Mahsulot sifati iqtisodiy jihatdan iste`mol qiymatining o`lchovi va foydalanish darajasi ko`rinishida namoyon bo`ladi.

Mahsulot sifati iqtisodiy kategoriya bo`lib, ishlab chiqaruvchi va iste`molchilarning munosabatlarini, sifatli mahsulot ishlab chiqarish, reja topshiriqlarini bajarish hamda mahsulotga baho belgilash bo`yicha korxonaning davlat bilan munosabatlarini ifoda etadi. Undan tashqari, mahsulot sifati korxonalar o`rtasidagi sifatli mahsulot uchun moddiy rag'batlantirish va sifatsiz mahsulot ishlab chiqarilgani uchun moddiy javobgarlikka tortish buyycha munosabatlarni ifodalaydi.

Mahsulot sifati texnika taraqqiyotining sur`atlarini, mehnat unumdorligini va shu orqali ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini ta`riflovchi iqtisodiy kategoriyadir. Mahsulot sifatini muntazam ravishda yaxshilash iqtisodiyotni rivojlantirishning zarur sharti, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xalq farovonligini o`stirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Mahsulotning miqdori va sifati o`zaro dialektik bog'liqdir. YUqori sifatli mahsulot sifatsiz tayyorlangan mahsulotga nisbatan jamiyat ehtiyojlarini yuqoriroq

darajada qondirishga qodir. Demak, mahsulot sifatini yaxshilash ishlab chiqarish hajmini qo`shimcha xarajatlarsiz oshirish, demakdir. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati va miqdorining o`zaro bog'liqligi mahsulot sifatini oshirish, jamiyat ehtiyojlarini to`la qondirishga imkon beradi, mamlakatimiz ishlab chiqaruvchi kuchlari o`sishining muhim omili bo`lib xizmat qiladi.

Sifatli mahsulot doimo o`z xaridorlariga ega. Hozirgi davrda mazkur talab qondirilgandagina mahsulotni dunyo bozoriga chiqarish mumkin. Bu esa, o`z navbatida, mamlakatga eksportdan keladigan valyuta tushumini ko`paytirish orqali yangi texnika va texnologiyalar sotib olish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, samaradorligini oshirish imkonini beradi. YUqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishga va uni sotishga erishgan korxona o`z ishlab chiqarish salohiyatini yanada yuksaltirish imkoniyatiga ega bo`ladi. Bunday sub`ektlarning ko`payishi esa mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotining taraqqiy etishi esa, uning aholisini daromadlari va demak, turmush darajasining ham yuksalishiga olib keladi. Natijada sifatli mahsulot va yuqori darajada ko`rsatilgan xizmatlarga talab ko`payadi. YA`ni, sifatli mahsulot (taklif) o`zining sifatli iste`molchisi (talab)ni yaratadi. Pirovardida jamiyatda yanada yuqoriroq darajada iqtisodiy o`sish ta`minlanadi.

12.2. Mahsulotning sifat ko`rsatkichlari va ularni baholash usullari

Sanoat ishlab chiqarishi o`z mahsulotlarining g'oyat turli-tumanligi bilan tavsiflanadi. Bu mahsulotlar tabiiy xususiyatlariga ko`ra, har xil me`yor va xilma-xil sifat ko`rsatkichlariga ega. Lekin, ma`lum sanoat mahsulotlarining muayyan guruhi uchun umumiy ko`rsatkichlar ishlatilishi, boshqa guruhi uchun esa o`ziga xos ko`rsatkichlar qo`llanilishi mumkin.

Mahsulot sifatiga va uning texnikaviy xususiyatlariga baho berish uchun quyidagi ko`rsatkichlar tizimi qo`llaniladi:

Iste`mol qilish xususiyatlari bo`yicha talabni qondirish ko`rsatkichlari. Bunday ko`rsatkichlar mahsulotdan tayinli, belgilangan ravishda foydalanish natijasida kerakli (zaruriy) samarani tavsiflaydi. Ishlab chiqarish - texnik vazifani bajaruvchi mahsulot uchun mehnat unumdorligi ko`rsatkichi xizmat qilishi mumkin. U baholanayotgan mahsulot yordami bilan qanday hajmdagi mahsulotni tayyorlash yoki ma`lum davr ichida qanday hajmdagi ishlab chiqarish, xizmat ko`rsatishi mumkinligini ifodalaydi.

Mustahkamlik ko`rsatkichlari - buyumlarning bo`zilmasligi, yaxshi saqlanishi, ta`mirlashga qulayligi, shuningdek, chidamliligidir. Mashina va o`lchov asboblarining sifati ularning mustahkamligiga va o`zoq ishlash qobiliyatiga qarab aniqlanadi. Har bir buyumning mustahkamligi mo`ljallangan muddatda, o`z xizmat parametrlarini o`zgartirmay, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni boshqarish, vositaning, ya`ni qurolning ishlash muddati — mo`ljallangan vaqtda ishlash qobiliyatini o`zgartirmaslik xususiyatidir.

Texnologik ko`rsatkichlar mahsulotni tayyorlash va ta`mirlash jarayonida yuqori mehnat unumdorligini ta`minlash uchun konstruktor-texnologik echimlar samaradorligini ifodalovchi ko`rsatkichlardir. Aynan texnika va texnologiya yordamida mahsulot ishlab chiqarishning ommaviyligi, material xarajatlarini,

mablag’lar, mehnat va vaqtni oqilona taqsimlash ta`minlanadi.

Standartlashtirish va unifikatsiyalash ko`rsatkichlari — mahsulotning standartli, unifikatsiyalashgan va original, ya`ni ajoyib, ajralmas qismlar bilan qondirilganligi, to`ydirilganligi, shuningdek, boshqa buyumlarga nisbatan unifikatsiyalashganlik darajasi. Ular traktorni boshqarish uchun kerak bo`lgan kuchlar, mo`zlatgichda dastakning joylashishi, harorat, namlik, yorug’lik, shovqin, vibratsiya, nurlanish, yonuvchi mahsulotlarda uchar gazi va suv bug’ining yig’ilishi bo`lishi mumkin.

Ergonomik ko`rsatkichlar insonning buyum bilan munosabatini va bu buyumdan foydalanishda ro`y beradigan gigienik, fiziologik va ruxiy xususiyatlar majmuini aks ettiradi.

Estetik ko`rsatkichlar buyumlarning badiiy-konstruktorlik xususiyatlarini ifodalaydi. Ular buyumning tovar qiyofasi jonliligini, shaklining ma`qulligini, kompozitsiyaning butunliligini, mukammal bajarilganliligini va barqarorligini tavsiflaydilar.

Transportabellik ko`rsatkichlari mahsulotning tashish uchun moslashganligini ifodalaydi.

Patent-huquqiy ko`rsatkichlar mahsulotning patentli himoyasini va patentli sarxilligini (asilligini) tavsiflaydi va raqobatbordoshligini aniqlashda muhim omil hisoblanadi. Patent-huquqiy ko`rsatkichlarni aniqlashda buyumlarda yangi texnik omillar borligini, shuningdek, mamlakatda patentlar bilan himoyalangan echimlarni hisobga olish kerak bo`ladi.

Ekologik ko`rsatkichlar atrof-muhitga xavfli ta`sir ko`rsatish darajasi. U mahsulotni ekspluatatsiya qilish yoki iste`mol qilishda yuzaga keladi. Masalan, zararli qotishmalarning bo`lishi, mahsulotni saqlash, tashish va iste`mol qilishda zararli qismlar, gazlar va nurlarni chiqarish mumkinligi.

Xavfsizlik ko`rsatkichlari — xaridor va xizmat ko`rsatuvchi xodimlarning xavfsizligi uchun mahsulot xususiyatlarini tavsiflaydi, ya`ni mahsulotni montaj qilish, xizmat ko`rsatish, ta`mirlash, saqlash, tashish, iste`mol qilishda xavfsizlikni ta`minlaydilar.

YUqorida qayd qilib o`tilgan ko`rsatkichlarning yig’indisi mahsulot sifatini tashkil etadi. Buyum mustahkam (pishiq), estetik jihatdan ko`zni qamashtiradigan, o`z vazifasini yaxshi bajaradigan bo`lishi lozim. Lekin, yuqorida qayd etilgan ko`rsatkichlardan tashqari buyumning bahosi ham muhim. Chunki iqtisodiy optimal sifat masalasi baho bilan chambarchas bog’liqdir. Xaridor buyum sotib olganda buyum bahosi u ega bo`lgan xossalar to`plamini qoplashini bilish uchun ularni doimo taqqoslaydi.

Iqtisodiy muqobil sifat deganda, sifat va xarajat nisbati yoki sifat birligining bahosi tushuniladi va u quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$IMS = Bs/ Xe$$

Bu erda: IMS - iqtisodiy muqobil sifat;

Bs - buyum sifati;

Xe **-** buyumni sotib olish va ekspluatatsiya qilish xarajatlari, so`m.

Formulaning maxrajini aniqlash murakkab emas, chunki u buyumning sotish bahosini, ekspluatatsiya, ta`mirlash va utilizatsiya qilish xarajatlarini o`z ichiga oladi.

Formula suratini aniqlash esa, qiyinroq kechadi, chunki buyumning sifati juda ko`p va turli - tuman ko`rsatkichlardan iborat. Bu bilan alohida fan «Kvalametriya» shug'ullanadi. U sifatni son jihatdan, ya`ni bir so`mlik xarajatta buyum sifati birligi o`sishini baholashning etarli darajada ma`qul usulini ishlab chiqqan.

Demak, hozirgi zamon ishlab chiqarishi sharoitida mahsulot sifati — korxona samaradorligining, rentabelligining muhim tarkibiy qismidir. Shu sababli unga doimo e`tibor bermoq zarur. Sifat bilan barcha korxona direktoridan tortib, aniq ish bajaruvchigacha shug'ullanishi kerak.

Sifatni ta`minlash, loyihalash, saqlash bo`yicha barcha jarayonlar sifatni boshqarish tizimiga birlashtirilgan.

12.3. Mahsulot sifatini boshqarish va uni oshirish yo`llari

Har qanday ishlab chiqarishni rivojlantirish va yuksak darajaga ko`tarish uchun uni boshqarish kerak. «Boshqarish» iborasini mahsulot sifatiga qo`llaganda, mahsulot sifati va uning raqobatbardoshligini doimiy nazorat qilish, uning belgilovchi shartlari va omillarini maqsadga muvofiq ta`sir qildirish yo`llari bilan mahsulot sifatini loyihalashtirish, ishlab chiqkarish va foydalanishda uning zaurur darajada o`rnatilishini, ta`minlanishini va saqlanishini tushunmoq kerak.

Mahsulotning sifatini boshqarish operatsiyalari muhandis-texnik, tashkiliy-texnologik, nazorat va boshqa jarayonlarning o`zaro bog'liqligi majmuasini tashkil etuvchi tartib doirasida olib boriladi.

Mahsulot sifatini boshqarish jarayoni quyidagi operatsiyalardan iborat:

- mahsulot sifati darajasini belgilash;
- mahsulot sifatiga ta`sir ko`rsatuvchi buyum va uni ishlab chiqarish jarayonining faoliyati to`g'risidagi axborotlarni yig'ish va o`rganish;
- mahsulot sifatini boshqarish to`g'risida qaror qabul qilish va ob`ektga ta`sir ko`rsatishga tayyorlanish;
- boshqaruvga tegishli buyruqlarni berish;
- boshqarish natijasida mahsulot sifatining o`zgarishi haqidagi axborotlarni yig'ish va tahlil qilish.

Mahsulot sifatini boshqarishda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- mahsulotning texnikaviy darajasi va sifatini o`zoq muddatlarga chamalash;
- mahsulot sifatini oshirishni rejalashtirish va bashorat qilish;
- mahsulot sifatini attestatsiya qilish;
- mahsulot loyihasini chizish va ishlab chiqarishga joriy etish;
- mahsulot sifatini moddiy-texnik tomondan ta`minlash;
- ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash;
- mahsulot sifatini o`lchashni tashkil etish;
- mutaxassislarni tanlash, joylashtirish, o`qitish va tarbiyalash;
- sifatli mahsulot ishlab chiqarish darajasini bir tekisda olib borish;
- ishlab chiqarish vositalarini saqlash, ta`mirlashni tashkil etish;
- mahsulot sifatini oshirishni rag'batlantirish;
- mahsulot sifatini nazorat qilish;
- standartlarga, o`lchash vositalariga va texnik shartlarga rioya qilish;
- mahsulot sifatini boshqarish huquqini ta`minlash.

Mahsulot sifatini boshqarish uning xossalari, texnologik jarayonlarning ixtisoslashtirish xususiyatlari, ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari va usullarini hisobga olgan holda bajariladi.

Mahsulot sifatini yaxshilashga oid vazifalar va tadbirlar tuzilayotganda ularni amalga oshirish imkoniyatlari va maqsadga muvofiqligi texnikaviy-iqtisodiy jihatdan asoslanadi.

Buning uchun quyidagilar asos qilib olinadi:

- ishlab chiqarilgan mahsulot sifatiga bo`lgan talablar va kelgusida uni takomillashtirish imkoniyatlari;
- mahsulotning sifat darajasini baholash;
- ishlab chiqarilgan mahsulotda uchragan nuqsonlarni yuzaga chiqarish va tahlil etish;
- laboratoriyadan o`tkazilgan sinov natijalari, iste`molchilar tomonidan yuborilgan norozilik xujjatlari, texnikaviy nazorat va ma`lumotlar;
- ilg’or korxonalarning mahsulotlari bilan taqqoslash.

Mahsulot sifatini yaxshilashga oid tadbirlar majmuasiga quyidagilar kiradi:

- mahsulotning sifat ko`rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan asosiy tajriba va loyihalashtirish ishlari hamda tashkiliy-texnikaviy tadbirlar;
- ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasini takomillashtirishga oid tadbirlar;
- xom ashyo va materiallar sifatini oshirish bo`yicha ta`minlovchilarga qo`yiladigan talablar;
- mahsulot sifatini oshirish bo`yicha o`tkaziladigan ilmiy-tadqiqot, tajriba va loyihalashtirish yuzasidan ilmiy-tekshirish, loyihalashtirish tashkilotlariga beriladigan topshiriqlar;
- texnikaviy xujjatlarni yaxshilash tadbirlari:
- texnologik intizomga rioya qilishni tekshirish sharoiti, ishlab chiqarishni o`lchov asboblari bilan ta`minlash, ularning aniq ishlashini kuzatib turish tadbirlari;
- standartlarni o`zlashtirish, ularga rioya qilish, buyumlarni unifikatsiyalashtirish, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish, nuqsonlarning oldini olish va iste`molchilar tomonidan bo`ladigan noroziliklarni kamaytirish bo`yicha tadbirlar.

Bu kabi tadbirlar o`z vaqtida bajarilishini to`la-to`kis ta`minlash uchun ularning bajarilish muddatlari, mas`ul kishilar, muayyan xarajatlar va ularning iqtisodiy samaradorligi, raqobatbardoshligi hamda boshqa ko`rsatkichlar aniqlanadi.

Ma`lumki, raqobat va raqobatbardoshlik o`rtasida dialektik aloqadorlik mavjud bo`lib, biri ikkinchisidan kelib chiqadi. Raqobat korxonalarni raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga va xizmatlar ko`rsatishga undaydi.

Raqobatbardoshlik nisbiy o`lchov bo`lib, xususiyati shundan iboratki, uni raqobat predmeti (mahculot raqobatbardoshligi)ga nisbatan ham qo`llash mumkin.

Mahsulotning raqobatbardoshligi deganda, iste`molchining aniq ehtiyojlarini qondirish va uni xarid qilish hamda keyinchalik undan foydalanish uchun sarflanadigan xarajatlar darajalari bo`yicha uni, ya`ni mahsulot boshqa shunday tovarlardan ajralib turadigan tavsiflar yig’indisi tushuniladi.

Mahsulotning raqobatbardoshligi - biror bir firma tomonidan ishlab chiqarilgan, raqobatchi firmalarning xuddi shunday tovarlariga qaraganda yaxshiroq iste`mol

xususiyatlari va texnik-iqtisodiy parametrlariga ega bo`lgan tovarlarning iste`molchilar tomonidan ajratib olinish «qobiliyati»dir.

Raqobatbardoshlik aynan bozorda ko`zatiladi va tovarlarning iste`molchi ehtiyojlariga muvofiq kelishi solishtirib va tekshirib ko`riladi. Ana shunda tovarning raqobatbardoshligi real xaridni amalga oshirayotgan xaridor uchun jozibadorlik darajasini ko`rsatadi.

12.4. Standartlashtirish, sertifikatlashtirish, attestatsiya va nazorat qilish

Mahsulot sifati muammosiga tegishli masalalardan biri standartlashtirishdir.

Standartlashtirish - standartlarni belgilash va qo`llash jarayoni. U normal ijodiy faoliyat bo`lib, sifatning optimal ko`rsatkichlarini, mahsulotning parametrik qatorlarini, nazorat qilish, sinash usullari va xokazolarni ishlab chiqishni va qat`i belgalashni o`z ichiga oladi.

Standartlashtirish mahsulot sifatini boshqarishning tashkiliy va normativ asosi hisoblanadi. U barcha normalarni standart, yo`riqnoma, mahsulotni asoslash uchun kerakli shartlar usuli kabi xujjatlarda aks ettiradi.

Standartlashtirishdan maqsad–mahsulot va xizmatlarning xavfsizligini, raqobatbardoshligini ta`minlash, iste`molchilar va davlat manfaatilarini himoya qilishdir.

Standartlashtirishning eng muhim ahamiyati shundaki, u ishlab chiqarishning rivojlanish sur`ati va darajasiga zaruriy ta`sir ko`rsatadi. Buning uchun esa standartlash fan va texnika hamda amaliy tajribalarning oxirgi yutuqlariga tayanadi.

O`zbekistonda standartlashtirish milliy iqtisodiyotni boshqarish va tashkil etish bilan chambarchas bog’liq. Standartlashtirishdan maqsad – mahsulot va xizmatlarning xavfsizligini, raqobatbardoshligini ta`minlash, iste`molchilar va davlat manfaatlarini himoya qilishdir. Standarlashning asosiy, eng muhim vazifasi xalq xo`jaligi, aholi, mamlakat mudofaasi uchun tayyorlanadigan mahsulotlarga yuqori talablar belgilovchi normativ-texnik hujjatlar tizimini yaratish hamda ushbu xujjatdan to`g’ri foydalanishni nazorat qilishdan iborat.

Harakatdagi, mavjud standartlashtirish tizimi quyidagilarni ishlab chiqishga va doimiy faol holatda bo`lishiga imkoniyat yaratadi:

- yagona texnik til;
- mahsulotning muhim texnik tavsifining unifikatsiyalashgan qatorlari, ya`ni o`lcham ayirmasi (qo`yim va tushish, kuchlanish, tez-tez qaytalanish va boshqalar);
- umummashinasozlikda ishlatiladigan buyumlarning tiporazmer qatorlari va namunali konstruksiyalari (podshipniklar, krepej, kesuvchi asboblar va boshqalar);
- texnik-iqtisodiy axborotlar klassifiqatorlari tizimi;
- materiallar va moddalar xossalari to`g’risida aniq ma`lumotlar beradigan dalillarni.

O`zbekiston standartlash tizimi xalqaro, regional va milliy tizimlar bilan uyg’unlashishi va quyidagilarni ta`minlashi lozim:

- sifat va mahsulot nomenklaturasi, xizmat va jarayonlar, insonlarning hayoti va sog’lig’i, atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo`yicha iste`molchilar va davlat manfaatlarini;
- mahsulot mos kelishining o`zaro almashuvi, ya`ni bir-birini almashtira olishini;

- mehnat va moddiy resurslarni tejashga ko`maklashish hamda ishlab chiqarishning iqtisodiy ko`rsatkichlarini yaxshilashni;

- ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar va yirik loyihalarning normativ-texnik bazasini yaratishni;

- ishlab chiqarishda va savdoda texnik to`siqlarni bartaraf etishni, dunyo bozorida mahsulot raqobatbardoshligini, xalqaro mehnat taqsimotida samarali qatnashishini va h.k.larni ta`minlashi kerak.

Standartlashtirish bir qator tamoyillarga asoslanadi:

- tarmoqlanish - umumiy xususiyatga ega bo`lgan narsalar, jarayonlar, munosabatlar tatbiq etish mumkin bo`lgan ob`ektlar doirasini aniqlaydi;

- variantlilik - oqilona xilma-xillik, rang-baranglikni yaratish - standartlashgan ob`ektga kiruvchi standart elementlarning oqilona turlari minimumini ta`minlaydi;

- tizimlilik - standartga tizim elementi sifatida qaraydi;

- o`zaro almashuvchanlik - texnikaga muvofiq turli vaqt-makonning turli nuqtalarida tayyorlangan bir xil detallarni yig'ish yoki almashtirishni nazarda tutadi.

Standart deganda nima tushuniladi?

Standart inglizcha «standard» so`zidan olingan bo`lib, norma, namuna, o`lcham ma`nosini bildiradi. U boshqa ob`ektlarni taqqoslash uchun dastlabki ob`ekt deb qabul qilingan namuna, etalon, model, standartlanadigan ob`ektga quyiladigan va vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlangan normalar, qoidalar, talablarni belgilovchi normativ-texnik xujjat. Standart inson faoliyatining barcha sohasiga, ilm-fanga, texnikaga, sanoat, qishloq xo`jaligiga, qurilishga, transport va aloqaga, ta`lim va boshqa sohalarga taalluqlidir.

Mustaqillik yillarida O`zbekiston Respublikasining Davlat standartlash tizimi (DST) shakllandi va u O`zbekistonda standartlar to`zish, izohlash va tarqatish jarayonlarini tartibga keltirdi. Bu borada O`zbekiston Standartlashtirish, meteorologiya va sertifikatlantirish agentligi («O`zstandart») olib borayotgan keng ko`lamli ishlarni alohida e`tirof etish joiz.

«O`zstandart» agentligi bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulotning sifat darajasini belgilovchi, ko`rsatkichlar raqobatdoshligini ta`minlovchi, ishlab chiqaruvchilarga etarli miqdorda axborotlar etkazib beruvchi markazdir.

«O`zstandart» agentligi tomonidan ishlab chiqilgan «Sifat menejmenti va mahsulotlarni sinash» tizimi mahsulot sifat ko`rsatkichini baholash bilan birga me`yoriy xujjatlar asosida to`g'ri ma`lumotga ega bo`lish talablarini o`rnatadi.

Hozirgi kunda Davlat standartlash tizimi (DST) beshta asosiy standartni o`z ichiga oladi:


1. O`zbekiston Respublikasi standartlashtirish tizimi. Asosiy qoidalar;
2. Tarmoq standartlari;
3. Texnik shartlarni kelishish, tasdiqlash va ro`yxatdan o`tkazish tartibi;
4. Korxonaning standartlari. Umumiy qoidalar;
5. Xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar.

Bozor iqtisodiyotiga o`tish munosabati bilan Xalqaro standartlashtirishning roli, ahamiyati beqiyos darajada kuchaydi. Chunki, xalqaro standartlashtirish ilmiy-texnika va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga katta imkoniyat yaratadi. Ular xalqaro aloqalarni kengaytirishga, mavjudlarini takomillashtirishga yordam beradi.

Hozirgi kunda jahonda 400 dan ortiq Xalqaro va regional (hududiy) tashkilotlar mavjud (2000 yil). Standartlashtirish sohasida yirik xalqaro tashkilotlar — BMTga qarashli evropa iqtisodiy komissiyasi (EEKOON), standartlashtirish bo`yicha Xalqaro tashkilot (ISO) ishlab turibdi.

Muvofiqligini tasdiqlash jarayonida bajariladigan operatsiyalar, ya`ni har bir ayrim ish faoliyatlarini quyidagi chizmada ko`rish mumkin:

Respublikada sertifikatlash ishlarini yaxshilash maqsadida 1993 yilning 28 dekabrida Oliy Majlis tomonidan «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to`g'risida»gi qonun qabul qilingan. Mazkur qonun sertafikatlashtirishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini, shuningdek, majburiyatlar va javobgarliklarni belgilab beradi. Ushbu qonun 4 ta bob va 23 moddadan iborat bo`lib, ularda umumiy qoidalar, sertifikatlashtirish faoliyatiga doir umumiy talablar, mahsulotlarni majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish, nizolarni qarab chiqish, sertifikatlashtirish to`g'risidagi qonun hujjatlarini bo`zganligi uchun javobgarlik masalalari bayon etilgan (21.1-chizma).



12.1-chizma. Sertifikatlashtirish[1]

Mahsulot sifati nazariyasi va amaliyotida mahsulotni sertifikatlashtirish masalasi muhim o`rin tutadi.

Mahsulotni sertifikatlashtirish uning aniq belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash usullaridan biri hisoblanadi.

Mahsulot yoki bajarilgan ishning belgilangan talablarga muvofiqligiga oid faoliyat uchun tegishli xujjat beriladi. Uni «sertifikat» deb ataydilar.

Sertifikat lotincha «certificatis» so`zidan olingan bo`lib, tasdiqlangan degan ma`noni bildiradi. Birinchidan, u biror faktni tasdiqlovchi hujjat (masalan, malaka

[1] Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.:"Sano-standart", 2014., 196- bet.

oshirilganligi to`g’risidagi hujjat); ikkinchidan, maxsus obligatsiyalar va aktsiyalarning nomi; uchinchidan, sug’urta shartnomasida uning shartlari yoziladigan hujjat; to`rtinchidan, maxsus idoralar (savdo palatasi, Davlat inspeksiyasi va boshqalar) beradigan va mahsulot, tovar, buyum, mol sifatini tasdiqlaydigan hujjat; beshinchidan, qishloq xo`jaligida urug’lik navini va sifatini tasdiqlaydigan hujjat. Sertifikati bo`lmagan taqdirda urug’lik (oddiy) navsiz don sifatida qabul qilinadiStandartlashtirish va sertifikatlashtirish ishlarini tashkil etish, muvofiklashtirish O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O`zbekiston Davlat standartlash, metrologiya va sertifikatsiya agentligi «O`zstandart», Davlat arxitektura va qurilish qo`mitasi, tabiatni muhofaza qilish Davlat qo`mitasi va O`zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash va Mudofaa vazirliklari zimmasiga yuklatilgan.

Qisqacha xulosalar

Mahsulot sifati sanoat ishlab chiqarish xo‘jalik faoliyatining asosiy, eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Mahsulot sifati mahsulotning iste’mol xususiyatlari majmui bo‘lib, uning iqtisodiyot va aholining muayyan ehtiyojlariga yaroqliligini ifodalaydi.

Mahsulot sifati tayyorlangan mahsulotning mustaqilligi, kulayligi, ishonchliligi, chidamliligi, tejamkorligi, go‘zalligi va boshqa bir qator xususiyatlari bilan belgilanadi. Shu sababli mahsulot sifatini yaxshilash jamiyatga juda katta samara keltiradi: mablag‘larni tejaydi, tannarxni kamaytirish, foydani ko‘paytirish va shu asosda mamlakat xazinasini to‘ldirishga imkon beradi.

Mahsulot sifatini yaxshilash va uning raqobatbardoshliligini ta’minlash davlat siyosatining eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Shu sababli qonunlarda, Prezident farmonlarida va hukumat qarorlarida mahsulot va ish sifatini oshirishga alohida e’tibor berilib, ularda barcha turdagi mahsulotlarning texnik darajasi, tejamliligi va sifati oshirilsin deyiladi, yangi o‘zlashtiriladigan mahsulotlar o‘zining sifat va texnik-iqtisodiy tavsiflari jihatidan jahon fan-texnika va texnologiyasi erishgan ilg‘or yutuqlarga mos bo‘lishi kerakligi to‘g‘risida va boshqa bir qator ko‘rsatmalar berilgan.

Mahsulot sifati muammosiga tegishli masalalardan biri standartlashtirishdir. Yana bir muhim masala — sertifikatlashtirishdir. Bu ikki faoliyat fan-texnika, amaliy tajribalarning oxirgi yutuqlariga tayangan holda ishlab chiqarish rivojiga juda katta ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda Respublikamizda sanoat maxsulotlarining sifati va raqobatbardoshligini ta’minlashga qaratilgan tizimlar va ularni boshqarishning milliy modellari yaratildi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1.Zamonaviy bozor iqtisodiyoti va sifat siyosati.
2.Sifat kategoriyasining mohiyati va ahamiyati.
3.Mahsulot sifati ko‘rsatkichlari.
4.Sifat, baho va baholash.
5.Mahsulot sifatini boshqarish.
6.Standartlashtirish va standartlar.
7.Sertifikatsiyalash va sertifikatlar.
8.Sifat va xorijiy tajribalar.
9.Mustaqillik yillarida mahsulot sifatini va uning raqobatbardoshligini oshirish borasidagi yutuqlar va istiqboldagi vazifalar.

Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro`yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida» gi №PF-4947 sonli Farmoni. //Xalq so’zi. 2017 yil 8 fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlanishining beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2017 yil 15 avgustdagi №3-5024 sonli Qarori.
3. Sh. M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak . Tashkent : O‘zbekiston, 2017 y.,104 b.
4. Church J., and R.Ware. (CW) Industrial Organization. A Strategic Approach. Irwin. 2000.
5. Schmalensee, Richard, and Robert Willig, eds. (HB) Handbook of Industrial Organization. Vols. 1-2. North-Holland, 1989.
6. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.:”Sano-standart”, 2014.-304 b.
7. www.webofscience.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi
8. www.search.ebscohost.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi

13-BOB. SANOATDA TANNARX, FOYDA VA ISHLAB CHIQARISH RENTABELLIGI

13.1. Qiymat va tannarx nazariyasi, ishlab chiqarish sarflarini kamaytirishning ilmiy asoslari

Iqtisodiyot nazariyasida qiymat va tannarx masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, qiymat tushunchasi borasida bir qator munozarali fikrlar mavjud. Ayrim iqtisodchi olimlar tovarning qiymatini uning natijaliligi bilan bog‘lasalar, ayrimlari tovar qiymati - tovar ishlab chiqaruvchilarning tovarda gavdalangan va unda moddiylashgan ijtimoiy mehnati, deb hisoblaydilar. Boshqalari esa, tovarning qiymatini ushbu tovarga bo‘lgan talab va taklif, ya’ni tovarning noyobligi belgilaydi, deyiladi.

Umuman olganda, tovarning qiymati uning boshqa tovarga ayirboshlana olish darajasini aniqlash uchun zarurdir. Narx (baho) va qiymat tushunchalari orasida deyarli farq yo‘q. Faqatgina narx (baho) - bu, tovar qiymatining puldagi ifodasidir halos.

Iqtisodiyotda mahsulot ishlab chiqarish tannarxi kategoriyasidan ham keng foydalaniladi. Qiymat va ishlab chiqarish tannarxi o‘rtasidagi tafovut ishlab chiqarish sub’ektining daromadi yoki foydasi hisoblanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi - mahsulotni ishlab chiqarish, ya’ni ishlab chiqarish texnologiyasi bilan boqlik bo‘lgan xarajatlarning puldagi ifodasidir.

Sanoat oldida turgan asosiy vazifalardan biri - mhsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishdir. Bu vazifaning bajarilishi natijasida ishlab chiqarishni rivojlantirishga va aholining turmush darajasini oshirishga imkoniyat yaratiladi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha resurslardan bekamu-ko‘st foydalanish bu ko‘rsatkichlarning rolini oshirishni taqozo etadi. Shu sababli «tannarx» atamasining mohiyati, ahamiyati, mazmuni va shakllarini yaxshi bilish hamda uni pasaytirish masalasiga katta e’tibor berish kerak.

Biron-bir mahsulot ishlab chiqarish uchun ma’lum miqdorda xom ashyo va materiallar, mehnat va ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan boshqa yuklama xarajatlar sarflanadi. Mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot ishlab chiqarish tannarxi deb ataladi.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi ko‘rsatkichi ishlab chiqarishni rivojlantirishda va uni tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish ishlab chiqarish rentabelligini oshirish, ya’ni foydani ko‘paytirishning, mavjud resurslar bilan ishlab chiqarish hajmini o‘stirishning muhim omili hisoblanadi. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi ko‘rsatkichi ishlab chiqarish sifat ko‘rsatkichlari orasida alohida o‘rin tutadi.

Ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etish, texnika va materiallardan foydalanish, moddiy-texnika ta’minotini takomillashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash borasidagi hamma o‘zgarishlar xarajatlar darajasida aks etadi. Shu sababli ham biz mahsulot tannarxi ishlab chiqarish samaradorligining sifat ko‘rsatkichlari tizimida muhim o‘rin egallaydi, deya olamiz. Binobarin, shuning uchun ham mahsulot ishlab chiqarish tannarxini xosil qiluvchi xarajatlarni ularning iqtisodiy mazmuniga ko‘ra guruhlash muhim ahamiyat kasb etadi.

13.2. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlarni guruhlash

Sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish tannarxini aniqlash va uni hosil qiluvchi xarajatlarni turkumlash mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom»ga muvofiq amalga oshiriladi.

Sanoat korxonalari faoliyati moddiy va mehnat xarajatlari bilan bog‘liq. Xarajatlarning asosiy hissasi mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘ladi. Ishlab chiqarishning jami xarajatlari mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini tashkil etadi va unga qarab ishlab chiqarilayotgan mahsulot korxonaga qanchaga tushayotganini aniqlash mumkin.

Ishlab chiqarish korxonalari mahsulotlarni sotish bilan bog‘liq xarajatlarni ham amalga oshirishadi. Bunday xarajatlar ishlab chiqarishdan tashqari yoki tijorat xarajatlari ham deyiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”ga muvofiq korxonalarning xarajatlari quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;
- ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olingan foydada hisobga olinadigan hamda davr xarajatlariga kiritiladigan xarajatlar;
- korxona umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadigan korxonaning moliyaviy faoliyati bo‘yicha xarajatlari;
- favqulodda zararlar.

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar. Mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko‘ra quyidagi elementlar bilan gruhlarga ajratiladi:

- ishlab chiqarish moddiy xarajatlari (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ijtimoiy sugurta ajratmalari;
- asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlar.

Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish xarajatlarining eng yirik elementi - moddiy xarajatlardir. Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish tannarxi tarkibida ularning hissasi 60-90 foizni tashkil etishi mumkin.

Ishlab chiqarish bilan bog‘liq moddiy xarajatlarga quyidagilar tegishli bo‘ladi:

- mahsulot tayyorlashda (ishlarni bajarishda, xizmatlar ko‘rsatishda) zarur tarkibiy qism hisoblangan chetdan sotib olinadigan xom ashyo va materiallar;
- normal texnologiya jarayonini ta’minlash va mahsulotlarni o‘rash, mahsulot (ish, xizmat)lar yoki boshqa ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflanadigan (asbob-uskunalar, binolar, inshoatlar va boshqa asosiy vositalar sinovini o‘tkazish, nazorat

qilish, saqlash, tuzatish va ulardan foydalanish uchun) materiallar, shuningdek asbob-uskunalarni tuzatish uchun ehtiyot qismlar, instrumentlar, moslamalar, inventar, priborlar, laboratoriya asbob-uskunalari va asosiy fondlarga kirmaydigan boshqa mehnat vositalarining eskirishi, maxsus kiyim-bosh va boshqa arzon baho ashyolarning eskirishi;

- sotib olinadigan, kelgusida ushbu korxonada montaj qilinadigan yoki qo‘shimcha ishlov beriladigan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar;

- tashqi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek korxonaning ichki tarkibiy bo‘linmalari tomonidan bajariladigan faoliyatning asosiy turiga tegishli bo‘lmagan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan ishlar va xizmatlar;

- tabiiy xom ashyo (er rekultivatsiyasiga ajratmalar, ixtisoslashtirilgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan yerni rekultivatsiya qilish ishlariga haq to‘lash), ildizi bilan beriladigan daraxtga haq to‘lash, sanoat korxonalari tomonidan suv xo‘jaligi tizimida belgilangan limitlar doirasida va undan ortiq olinadigan suv uchun haq to‘lash. Sanoatning xom ashyo tarmoqlari uchun yogoch taxta materiallardan yoki foydali qazilmalardan (rudadan) foydalanishga huquqlarning amortizatsiya qilinadigan qiymati yoki atrof muhitni tiklash xarajatlari;

- texnologik maqsadlarga, energiyaning barcha turlarini ishlab chiqarishga, binolarni isitishga sarflanadigan yonilg‘ining chetdan sotib olinadigan barcha turlari, korxonaning transporti tomonidan bajariladigan ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha transport ishlari;

- korxonaning texnologik, transport va boshqa ishlab chiqarish va xo‘jalik ehtiyojlariga sarflanadigan barcha turdagi xarid qilinadigan energiya;

- ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning tabiiy yo‘qolish normalari doirasida va ulardan ortiqcha yo‘qotilishi, yaroqsizlanishi va kam chiqishi;

- korxonaning transporti va xodimlari tomonidan moddiy resurslarni yetkazish bilan bog‘liq xarajatlar (yuklash va tushirish ishlari ham shu jumlaga kiradi) ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlariga kirishi kerak (mehnatga haq to‘lash xarajatlari, asosiy fondlar amortizatsiyasi, moddiy xarajatlar va boshqalar).

Korxonalar tomonidan moddiy resurslarni yetkazib beruvchilardan olinadigan idishlar ham moddiy resurslr qiymatiga kiritiladi.

Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar xarajatlaridan qaytariladign chiqitlar qiymati hamda idish va o‘rash-joylash materiallari qiymati, ularning amalda sotilishi, foydalanishi yoki omborga kirim qilinishi narxi bo‘yicha chiqarib tashlanadi.

“Moddiy xarajatlar” elementlari bo‘yicha aks ettiriladigan moddiy resurslar qiymati sotib olish narxidan, shu jumladan barter bitishuvlarida, qo‘shimcha narx (ustama)dan, ta’minot, tashqi iqtisodiy tashkilotlar tomonidan to‘lanadigan vositachilik taqdirlashlaridan, tovar birjalari xizmatlari qiymatidan, shu jumladan brokerlik xizmatlaridan, bojlar va yigimlardan, tarnsportda tashishga haq to‘lashdan, tashqi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan saqlash va yetkazib berishga haq to‘lashdan kelib chiqib shakllanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining yirik elementlariga asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirishidir. Qaysikim, u amortizatsiya ajratmalari summasiga tengdir. Unga asosiy fondlarning tezlashtirilgan amortizatsiyasi va uning indeksatsiyasi ham

kiradi.

Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari - bu korxonaning asosiy ishlab chiqarish xodimlariga mehnat haqi to‘lash bilan bog‘liq xarajatlardir. Ularga quyidagilar kiradi:

- korxonada qabul qilingan mehnatga haq to‘lash shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay rassenkalar, tarif stavkalari va lavozim maoshlaridan kelib chiqib amalda bajarilgan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan ish uchun hisoblangan ish haqi, shu jumladan bajarilgan ishni hisobga olish bo‘yicha dastlabki hujjatlarda nazarda tutilgan rag‘batlantiruvchi tusdagi to‘lovlar;

- kasb mahorati va murabbiylik uchun tarif stavkalariga va okladlariga ustamalar;

- ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lgan kompensatsiya tusidagi to‘lovlar (texnologik jarayon jadvalida nzarda tutilgan tungi vaqtda, ishdan tashqari vaqtda, dam olish va bayram kunlari ishlaganlik uchun tarif stavkalari va okladlariga ustamalar va qo‘shimcha haq, ko‘p smenali rejimda ishlaganlik, kasblarni birga qo‘shib olib borganlik va xizmat ko‘rsatish zonalarini kengaytirganlik uchun ustamalar, hukumat tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro‘yxati bo‘yicha ogir, zararli, alohida zararli mehnat va tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan ushb sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ustamalar va h.k.);

- ishlanmagan vaqt uchun to‘lov (foydalanilmagan va qo‘shimcha ta’tillar uchun kompensatsiyalar, o‘smirlarning imtiyozli soatlari, bolani ovqatlantirish uchun onalar ishidagi tanaffuslar, shuningdek tibbiy ko‘riklardan o‘tish bilan bog‘liq vaqt uchun haq to‘lash, harbiy yiginlar, favqulodda vaziyatlar bo‘yicha yiginlar va boshqalar uchun mehnat haqi to‘lash va h.k.);

- korxona shtatida turmaydigan xodimlar mehnatiga, ular tomonidan fuqarolik-huquqiy tusdagi tuzilgan shartnomalar bo‘yicha ishlar bajarilganligi uchun haq to‘lash, agar bajarilgan ish uchun xodimlar bilan hisob-kitob korxonaning o‘zi tomonidan amalga oshirilsa pudrat shartnomasi ham shu jumlaga kiradi;

- belgilangan tartibga muvofiq ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi xodimlar mehnatiga haq to‘lash fondiga kiritiladigan to‘lovlarning boshqa turlari.

Korxonlarning ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ijtimoiy sugurtaga ajratmalari - bu ijtimoi fondlarga (Pensiya fondiga, Aholini ish bilan ta’minlashga ko‘maklashish fondiga, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashiga) majburiy ajratmalardir.

Korxonalarning ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlariga quyidagilar tegishli:

- ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko‘rsatish xarajatlari (ishlab chiqarishni xom ashyo, materiallar, yonilg‘i, energiya, instrument, moslamalar va boshqa mehnat vositalari va buyumlari bilan ta’minlash xarajatlari; asosiy ishlab chiqarish fondlarini ish holatida saqlash xarajatlari; yongindan saqlash va qo‘riqlashni hamda korxonaning texnikaviy foydalanish qoidalari bilan nazarda tutilgan boshqa maxsus talablarni ta’minlash, ular faoliyatini nazorat qilish xarajatlari; ishlab chiqarish faoliyatiga tegishli bo‘lgan asosiy vositalarni joriy ijaraga olish bilan bog‘liq xarajatlar; tekin ko‘rsatiladigan kommunal xizmatlar, oziq-ovqat, ayrim tarmoqlar xodimlariga oziq-ovqatlar qiymati, korxona xodimlariga beriladigan tekin uy-joy

haqini to‘lash xarajatlari; amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tekin beriladigan va shaxsiy foydalanishda qoladigan buyumlar qiymati va boshqalar);

- ishlab chiqarish xodimlarini belgilangan ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo‘lgan xizmat safarlariga yuborish bo‘yicha normalar doirasida va ulardan ortiqcha xarajatlar;

- ishlab chiqarish ishchilarini va ishlab chiqarish aktivlarini majburiy sugurta qilish xarajatlari;

- brak tufayli kelib chiqadigan yo‘qotishlar;

- ishlab chiqarishning ichki sabablariga ko‘ra bekor turishlar tufayli yo‘qotishlar;

- kafolatli xizmat muddati blgilangan buyumlarni kafolatli tuzatish va ularga kafolatli xizmat ko‘rsatish xarajatlari;

- mahsulot (xizmat)larning majburiy sertifikatsiya qilish xarajatlari;

- ishlab chiqarish jarohatlari tufayli mehnat qobiliyati yo‘qolishi munosabati bilan tegishli vakolatli organlarning qarorlari asosida va qarorlarsiz to‘lanadigan nafaqalar;

- umumiy foydalaniladigan yo‘lovchilar transporti xizmat ko‘rsatmaydigan yo‘nalishlarda xodimlarni ish joyiga olib borish va olib kelish bilan bog‘liq xrajatlar.

Davr xarajatlari. Davr xarajatlari deganda bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar va sarflar tushniladi: boshqaruv xarajatlari, mahsulotni sotish xarajatlari va umumxo‘jalik ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlar.

Korxonalarning sotish xarajatlariga quyidagilar kiradi:

- tovarlarni temir yo‘l, havo, avtomobil, dengiz, daryo transportida va ot-ulovda tashish xarajatlari hamda transport vositalari bekor turib qolganligi uchun to‘langan jarimalar;

- savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari ishlari xarajatlari (mehnatga haq to‘lash xarajatlari; ijtimoiy sugurtaga ajratmalar; savdo reklamasi xarajatlari; tovarlarni saqlash, ularga ishlov berish va ularni navlarga ajratish xarajatlari; tashish, saqlash va sotish chogida tovarlarning norma doirasida va undan ortiqcha yo‘qotilishi; o‘rash-joylash materiallari xarajatlari; mol-mulkni majburiy sugurta qilish xarajatlari va boshqalar);

- sotish bozorlarini o‘rganish bo‘yicha belgilangan normativlar doirasida va undan ortiqcha xarajatlar (marketingga, reklamaga sarflangan xarajatlar);

- yuqorida sanab o‘tilmagan sotish bo‘yicha boshqa xarajatlar.

Boshqaruv (ma’muriy) xarajatlar. Korxonalarda boshqaruv xarajatlariga quyidagilar kiradi:

- boshqaruv xodimlariga tegishli bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari;

- boshqaruv xodimlariga tegishli bo‘lgan ijtimoiy sugurtaga ajratmalar;

- xizmat yengil avtotransportiga va xizmat mikroavtobusini saqlash, yollash va ijaraga olish xarajatlari;

- korxonani va uning tarkibiy bo‘linmalarini tashkil etish va ularni boshqarish xarajatlari;

- boshqaruvning texnik vositalari, aloqa uzellari, signalizatsiya vositalari, hisoblash markazlarini va ishlab chiqarishga tegishli bo‘lmagan boshqaruvning boshqa texnik vositalarini saqlash va ularga xizmat ko‘rsatish xarajatlari;

- ijara, xizmatlar ko‘rsatilganligi uchun aloqa uzellariga haq to‘lash (ATS, uyali, yo‘ldosh, peyjing aloqa);

- shaharlararo va xalqaro telefon so‘zlashuvlari uchun belgilangan normativlar doirasida va ulardan ortiqcha haq to‘lash;

- ma’muriy - boshqaruv ehtiyojlari uchun binolar va xonalar ijarasi uchun haq to‘lash;

- ma’muriy faoliyatga ega bo‘lgan asosiy fondlarni saqlash va ularni tuzatish, shuningdek eskirish (amortizatsiya) xarajatlari;

- yuqori tashkilotlar va yuridik shaxs maqomiga ega birlashmalar, vazirliklar, idoralar, uyushmalar, konsernlar va boshqalar xarajatlariga ajratmalar;

- xodimlarni va ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lmagan mol-mulkni majburiy sugurta qilish;

- boshqaruv xodimlarini xizmat safarlariga yuborish bo‘yicha belgilangan normalar doirasida va undan ortiqcha xarajatlar;

- belgilangan normalar doirasida va undan ortiqcha miqdordagi xarajatlar;

- umumiy ovqtlanish korxonalari va boshqalarga binolarni tekin berish va kommunal xizmatlar qiymatiga haq to‘lash xarajatlari;

- bevosita ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo‘lmagan, tabiatni muhofaza qilish ahamiyatiga ega bo‘lgan jamg‘armalarni saqlash va ulardan foydalanish bilan bog‘liq joriy xarajatlar, shu jumladan yo‘l qo‘yiladigan normalar doirasida va ulardan ortiqcha ifloslantiruvchi moddalarning atrof-muhitga chiqarilganligi (tashlanganligi) uchun to‘lovlar.

Umumxo‘jalik ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa operatsiya xarajatlari. Korxonalarning boshqa operatsiya xarajatlari quyidagilardan iborat:

- kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash xarajatlari (yangi tashkil etilayotgan korxonada ishlash uchun normalar doirasida va ulardan ortiqcha kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash bundan mustasno);

- loyiha va qurilish-montaj ishlarida chala ishlarni bartaraf etish xarajatlarini qoplash, shuningdek ob’ekt qoshidagi omborgacha transportda tashish chogidagi shikastlanishlar va buzilishlar, korroziyaga qarshi himoya nuqsonlari tufayli kelib chiqgan taftish xarajatlari (asbob-uskunalarni qismlarga ajratish) va shunga o‘xshash boshqa xarajatlar yetkazib beruvchi va ishlarni bajarish shartlarini buzgan yuridik shaxslar hisobiga mazkur xarajatlar chala ishlar, shikastlanish yoki zarar ko‘rish uchun javobgar bo‘lgan yetkazib beruvchi yoki boshqa korxonalar hisobiga undirilishi mumkin bo‘lmagan darajada amalga oshiriladi;

- maslahat va axborot xizmatlariga haq to‘lash, shu jumladan korxona mulkdorlaridan birining tashabbusi bo‘yicha o‘tkazalidagan auditorlik xizmatlariga haq to‘lash;

- o‘zining xizmat ko‘rsatuvchi ishlab chiqarishlari va xo‘jaliklarni saqlashdan ko‘rilgan zararlar;

- salomatlikni muhofaza qilish va xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashuvi bilan bog‘liq bo‘lmagan dam olishlarni tashkil etish tadbirlari;

- korxona tomonidan mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlar va xizmatlarni (shahar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo‘jaligiga yordam berish va boshqa xil ishlarni) bajarish xarajatlari;

- kompensatsiya va rag‘batlantirish tusidagi to‘lovlar (vaqtincha mehnat layoqatini yo‘qotgan taqdirda qonun hujjatlari bilan belgilangan, haqiqiy ish haqi miqdorigacha qo‘shimcha haq va boshqalar);

- ish haqini hisoblashda hisobga olinmaydigan to‘lovlar va xarajatlar (qonunchilikka muvofiq bolani ikki yoshga to‘lgungacha parvarish qilish bo‘yicha har oylik nafaqani to‘lash bo‘yicha xarajatlar; pensiyaga ustamalar; pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga bir yo‘la to‘lanadigan nafaqalar; xodimlarga to‘lanadigan moddiy yordam);

- sogliqni saqlash ob’ektlari, qariyalar va nogironlar uylari, bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari, sog‘lomlashtirish lagerlari, madaniyat va sport ob’ektlari, xalq ta’limi muassasalari, shuningdek uy-joy fondi ob’ektlari ta’minotiga (shu jumladan barcha turdagi ta’mirlash ishlarini o‘tkazishga amortizatsiya ajratmalari va xarajatlarni ham qo‘shgan holda) joylardagi davlat hokimiyati organlari tomonidan belgilangan normativlar doirasidagi va ulardan ko‘proq xarajatlar;

- vaqtincha to‘xtatib qo‘yilgan ishlab chiqarish quvvatlari va ob’ektlarini saqlash xarajatlari (boshqa manbalardan qoplanadigan xarajatlardan tashqari);

- bank va depozitariy xizmatlariga to‘lovlar;

- ekologiya, sog‘lomlashtrish va boshqa xayriya jamg‘armalariga, madaniyat, xalq ta’limi, sogliqni saqlash, ijtimoiy ta’minot, jismoniy tarbiya va sport korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga badallar;

- budjetga majburiy to‘lovlar, soliqlar, yigimlar, amaldagi qonunchilikka muvofiq to‘lanadign va korxona xarajatlariga qo‘shiladigan maxsus budjetdan tashqari jamg‘armalarga ajratmalar;

- zararlar, jarimalar, penyalar (bekor qilingan ishlab chiqarish buyurtmalari bo‘yicha yo‘qotishlar; moddiy boyliklarning tabiiy yo‘qolishi normalari doirasidagi va normalardan ko‘proq, bevostita ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo‘lmagan yo‘qotishlar hamda kamomadlar; sud xarajatlari; to‘lanishi shubhali qarzlar bo‘yicha zahiraga ajratmalar va boshqalar);

- boshqa operatsiya xarajatlari.

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar. Korxonalarning moliyaviy faoliyati bilan bog‘liq xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- Respublika Markaziy banki tomonidan belgilangan hisob stavkalari doirasida va ulardan yuqori doirada qisqa muddatli hamda uzoq muddatli kreditlar bo‘yicha, shu jumladan to‘lov muddati o‘tgan va uzaytirilgan ssudalar bo‘yicha to‘lovlar;

- mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga olish (lizing) bo‘yicha foizlarni to‘lash xarajatlari;

- chet el valyutasi bilan operatsiyalar bo‘yicha salbiy kurs tafovutlari va zararlar;

- sarflangan (qimmatli qogozlarga, shu’ba korxonalarga va hokazolarga) mablag‘larni qayta baholashdan ko‘rilgan zararlar;

- o‘z qimmatli qogozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog‘liq xarajatlar;

- moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar, shu jumladan salbiy diskont.

Favqulodda zararlar. Favqulodda zararlar - bu korxonalarning odatdagi faoliyatidan chetga chiquvchi hodisalar yoki operatsiyalar natijasida paydo bo‘ladigan va ro‘y berishi kutilmagan odatdan tashqari xarajatlar moddalaridir. Bunga davr xarajatlari tarkibida aks ettirilishi kerak bo‘lgan o‘tgan davr moddalari

kirmaydi.

U yoki bu moddaning favqulodda zararlar moddasi sifatida aks ettirilshi uchun quyidagi mezonlarga javob berishi shart:

- korxonaning odatdagi xo‘jali faoliyatiga xos bo‘lmasligi kerak;
- bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi lozim;
- boshqaruv xodimi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bog‘liq bo‘lmasligi kerak.

Tegishli moddalarni favqulodda zararlarga kiritish yoki kiritilmaslik to‘g‘risida qarorlar qabul qilishda korxona faoliyat yuritayotgan sharoit ham hisobga olinadi. Masalan, korxona alohida iqlim sharoitlarida joylashgan bo‘lsa va uning shu iqlim sharoitiga bog‘liq holda ishlamay turib qolishlari favqulodda holat deb baholanmaydi. Chunki ushbu holat “bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak” degan mezonga javob bermaydi.

Shuni ta’kidlash lozimki, hozirgi sharoitda korxonalarning mahsulot ishlab chiqarishi va uni sotishi biln bog‘liq xarajatlari o‘sish tendensiyasiga ega. Bunga xom ashyo, materiallar, yonilg‘i, energiya va uskunalarning qimmatlashishi, kreditdan foydalanish uchun foizlr stavkasining o‘sishi, transport xizmatlari tariflarining ko‘tarilishi, reklama xarajatlarining ko‘payishi sabab bo‘lmoqda.

Mahsulot tannarxi nazariyasida **mahsulot tannarxi tuzilmasi** degan muhim tushuncha mavjud. U ayrim xarajatlarning mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan jami xarajatlar summasidagi nisbatini ko‘rsatadi. Odatda, tuzilma foiz hisobida o‘lchanadi.

Tannarx tuzilmasi tarmoqlar va korxonalarning xususiyatiga, ishlab chiqarish texnologiyasi va ishlab chiqarishning tashkil qilinishiga bog‘liqdir.

Mahsulot tannarxining tuzilmasi o‘zgarmas miqdor hisoblanmaydi. Sanoatning o‘sishi, texnika va ishlab chiqarish texnologiyasi takomillashishi, asosiy va aylanma fondlardan foydalanishning yaxshilanishi, ish haqi miqdorining o‘zgarishi, iste’mol buyumlari baholarining tartibga tushishi va transport tariflarining o‘zgarishi bilan mahsulot tannarxi tuzilmasi ham o‘zgaradi.

Mahsulot tannarxida qaysi guruxdagi xarajatlar asosiy o‘rin tutishiga qarab, sanoat tarmoqlari bir-biridan fark qiladi — ko‘p mehnat, ko‘p material, ko‘p energiya, ko‘p mablag‘ talab kiladigan bo‘ladi.

Ishlab chiqarishning tarmoq xususiyatlarini hisobga olish, tannarx tuzilmasini va ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy tahlil qilish ishlab chiqarishda yuz beradigan asosiy texnik-iqtisodiy jarayonlarni o‘rganish, ishlab chiqarishdagi chiqimlarni kamaytirishning asosiy yo‘llarini belgilashga imkon beradi.

13.3. Foyda va rentabellik

Sanoat va uning barcha bo‘g‘inlari ishini tavsiflovchi muhim sifat ko‘rsatkichlaridan biri foyda va rentabellikdir. Foyda bozor munosabatlarining muhim kategoriyasi sifatida iqtisodiyotda ma’lum funksiya (vazifa)larni bajaradi:

- ishlab chiqarish faoliyatining natijasidan olingan iqtisodiy samarani tavsiflaydi, chunki u so‘nggi moliyaviy natijani ifodalaydi;
- turli darajadagi budjetlarni shakllantiradi;
- xodimlarning manfaatlarini himoya qiladi va bu borada iqtisodiy dastak va

stimul rolini o‘ynaydi;

- ilmiy — texnikaviy, tashkiliy va ijtimoiy ishlarni amalga oshirishga imkoniyat beradi.

Foyda sanoat, tarmoq va korxonaning hamma ishlab chiqarish xo‘jalik faoliyati natijalarini umumlashtiruvchi ko‘rsatkichdir. Balansdagi foyda yoki foydaning umumiy summasi — korxona balansidagi mavjud ishlab chiqarish va ishlab chiqarishdan tashqari, xo‘jaliklarning moliya-xo‘jalik faoliyatlari natijasida olingan foyda summasidir. Foydaning umumiy summasi tovar mahsulotini sotishdan, ishlab chiqarishdan tashqari, bajarilgan ishlar va xizmatlardan olingan daromadlardan, korxona yordamchi xo‘jaliklarining mahsulotlarini sotishdan olingan daromadlardan, realizatsiyadan tashqari foyda va uy-joy kommunal xo‘jaligi, har xil jarimalar, penya va hokazolardan tashkil topadi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

- mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda (YaF), bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o‘rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi:

$$YaF = SST - MIT,$$

Bu yerda: *YaF* — yalpi foyda;

SST — sotishdan olingan sof tushum;

MIT — sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.

- asosiy faoliyatdan ko‘rilgan foyda — bu, mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o‘rtasidagi tafovut va qo‘shimcha asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

$$AFF=YaF-DX+BD+BZ,$$

Bu yerda: *AFF* — asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DF — davr xarajatlari;

BD — asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ — asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa zararlar.

- xo‘jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar) — bu, asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plyus moliyaviy faoliyatdan ko‘rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:

$$UF = AFF + MD- MX,$$

Bu yerda: *UF* — umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD — moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX — moliyaviy faoliyat xarajatlari.

- soliq to‘lagungacha olingan foyda — bu umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda, plyus favqulodda (ko‘zda tutilmagan) vaziyatlardan ko‘rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

$$STF = UF+ FP- FZ.$$

Bu yerda: *STF* — soliq to‘lagungacha olingan foyda;

FP — favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ — favqulodda vaziyatlardan ko‘rilgan zarar.

UF - yilning sof foydasi — bu, soliq to‘langandan keyin xo‘jalik yurituvchi sub’ekt ixtiyorida qoladi, o‘zi dadaromadi (foydasi)dan to‘lanadigan soliqni va minus

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to‘lovlarni chiqarib tashlangan holda soliqlar to‘lagunga qadar olingan foydani ifodalaydi:

$$SF = STF\text{-}DS\text{-}BS.$$

Bu yerda: *SF* — sof foyda;

DS — daromad (foyda)dan to‘lanadigan soliq;

BD — boshqa soliqlar va to‘lovlar.

Har bir korxona yashashi va ravnaq topishi uchun foyda olishi kerak. Korxona foydani o‘z rivojini ta’minlovchi birinchi muhim omil deb biladi. Foydani maksimallashtirish bilan shug‘ullanmaydigan korxonaning yashab ketish imkoniyati kam bo‘ladi. Makroiqtisodiyot sohasida uzoq muddatga foydani maksimallashtirish masalasiga katta e’tibor berilishi shunday iboratki, shu asosda firma faoliyati oldindan bashorat qilinadi,

Mulk egasini o‘zi boshqaradigan, unchalik katta bo‘lmagan korxonada, ularni yuritish bilan bog‘liq bo‘lgan hamma qarorlarda foydani ko‘paytirish asosiy o‘rin tutadi. Juda katta va yirik korxonalarda rahbar (boshqaruvchi)lar kundalik qarorlarni qabul qilishda mulk egalari har doim ham boshqaruvchilar faoliyatini nazorat ostida saqlay olmaydilar. Shuning uchun boshqaruvchilarda va korxonaga rahbarlik qilishda ma’lum darajada erkinliklar bo‘lib, ular foydani maksimallashtirish bilan yetarli shug‘ullanmasliklari, mulk egasi bo‘lmaganliklari uchun uzoq muddatli manfaat o‘rniga qisqa manfaatni afzal ko‘rishlari mumkin. Boshqaruvchilar ko‘pincha foydani maksimallashtirish o‘rniga daromadni ko‘paytirish yoki aksiyadorlarni qiziqtirish uchun dividendni oshirishga harakat qilishlari mumkin. Bundan tashqari, ular yuqori lavozimga erishish yoki katta mukofotlar olish maqsadida foyda keyinchalik kamayib ketsa ham hozirgi kunning o‘zida oshirishga harakat qiladilar. Shu tufayli bunday rahbarlar o‘z lavozimlaridan chetlashtirilishi va korxonani boshqa rahbarlarga topshirish zaruriyati yuzaga keladi.

Yuqorida keltirilgan foyda turlaridan tashqari, uning yana bir qancha turlari mavjud:

- haqiqiy foyda;
- o‘rtacha foyda;
- monopol foyda yoki iqtisodiy renta;
- maksimal foyda.

Haqiqiy foyda — bu, haqiqatda hisobot ma’lumotlari, ya’ni hakiqiy xarajatlar asosida aniqlangan foyda hisoblanadi. Bu foyda korxona moliyaviy faoliyatini tashkil etishda asosiy manbadir.

Urtacha foyda deganda, boshqa hamma korxonalar kabi sarflangan kapitalga bir xil foyda olish yoki bir xil rentabellikka ega bo‘lish tushuniladi. O‘rtacha foyda korxona (firma)ning faoliyat ko‘rsatayotgan sohada, tarmoqda qolishini ta’minlaydi. Bunday foydaning yuzaga kelishi bozorning uzoq muddatli barqarorlikka erishganidan dalolat beradi. O‘rtacha foydani ko‘pincha iqtisodiy foyda deb ataydilar.

Monopol foyda yoki iqtisodiy renta — bu, cheklangan ishlab chiqarish omillaridan foydalanish natijasida sodir bo‘lgan foyda hisoblanadi. Masalan, ikkita korxona bir xil yerga ega bo‘lib, yerni olish bilan bog‘liq xarajatlar bir xil bo‘lishgan sharoitida birinchi yer transport tarmog‘iga yaqin bo‘lganligi uchun mahsulotni tashishga 10 mln. so‘m kam sarf qilinishi mumkin, ana shu 10 mln. so‘m uning

qo‘shimcha foydasi hisoblanadi. Iqtisodiy renta ishlab chiqarish omillari cheklanganligidan kelib chiqadi va u yoki bu ishlab chiqarish omiliga berish holatini bildirgan baho bilan shu omilning eng kam bahosi o‘rtasidagi farkdan iborat bo‘ladi.

Maksimal foyda — bu, bir birlik qo‘shimcha mahsulotni sotishdan olingan daromadni shu bir birlik qo‘shimcha mahsulotga qilingan xarajat miqdori bilan bab-barobar kelishi natijasida olingan foyda. Shu holda rentabellikning eng yuqori darajasiga erishilgan bo‘ladi. Shunga ko‘ra, foydani maksimallashtirish degani, eng yuqori rentabellikni ta’minlash, deganidir.

Rentabellik sanoat va uning tarmoqlarining moliyaviy faoliyatini ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarish rivojlanishining samaradorligi va intensivligini baholashda amaliyotda rentabellik ko‘rsatkichlari tizimi keng qo‘llanib, unga ko‘ra foydaning miqdori belgilangan hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, rentabellik daromadlilik, foydalilikni anglatadi. Biroq rentabellikni faqat daromadlilik deb qabul qilish uning iqtisodiy mazmunini keng ochib bermaydi. Ular o‘rtasida tenglikning yo‘qligidan daromad miqdori va rentabellik darajasi turli nisbatlarda, ko‘pincha turli yo‘nalishlarda o‘lchanishi dalolat beradi.

Istalgan muddat uchun iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblash ko‘plab turli xil omillar ta’siri ostida amalga oshiriladi.

Rentabellik va foyda ko‘rsatkichlarini tahlil qilishda ularga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan barcha omillarni bilish, bu omillarning samaradorlikning umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlariga ta’sirini hisoblash uslubiyatini egallash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu omillarni boshqarish orqali korxonada daromadni oshirish zahiralarini izlab topish va rentabellikning talab qilinuvchi darajasiga erishish mexanizmini yaratish mumkin.

Rentabellik va foydaga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni turli xil belgilariga ko‘ra tasniflash mumkin. Masalan, bu omillar ichki va tashqi bo‘lishi mumkin. Ichki omillarga korxona faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan hamda korxona faoliyatining turli yo‘nalishlarini tavsiflovchi omillar mansub bo‘ladi. Tashqi omillarga korxona faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan, biroq ishlab chiqarish rentabelligi va daromadning o‘sish sur’atiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omillar kiradi. Tahlil jarayonida ichki va tashqi omillarni aniqlash samaradorlik ko‘rsatkichlarini tashqi ta’sirlardan “tozalash” imkonini beradi hamda korxona yutuqlarini ob’ektiv baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘z navbatida ichki omillar ham ishlab chiqarish va noishlab chiqarish omillariga bo‘linadi. Noishlab chiqarish omillari asosan mehnat va sotish sharoitlari, korxonaning tijorat, tabiatni saqlash va shu kabi faoliyat turlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Ishlab chiqarish omillari esa foydaning shakllanishida ishtirok etuvchi ishlab chiqarish jarayonining asosiy elementlari - mehnat predmetlari va vositalari hamda mehnatning o‘zi - mavjudligi va ulardan foydalanishni aks ettiradi.

Xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish jarayonida mahsulot ishlab chiqarish, sotish va foyda olish bilan bog‘liq bo‘lgan korxonalarda bu omillar o‘zaro aloqada va bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Rentabellikning mohiyatini faqat foyda shakllanishini tahlil qilish asosida ochib berish mumkin. Korxona mahsulotni sotish natijasida o‘z xarajatlarini

qoplashdan tashqari foyda ham olgan taqdirda rentabelli hisoblanadi.

Rentabellik ko‘rsatkichlari korxona faoliyati qanchalik foyda keltirishini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkichlar moliyaviy hisobotning ichki va tashqi foydalanuvchilarda qiziqish uyg‘otib, korxona resurslaridan foydalanish samaradorligi hamda uning investitsiyalarni jalb qilish qobiliyatini aniqlaydi. Xususiy yoki qarzga olinuvchi kapitalning rentabelligi korxonaga mablag‘lar kiritishning rentabelligini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlardir. Bu ko‘rsatkichlarning iqtisodiy turlanishi (interpretatsiyasi) yaqqol ko‘zga tashlanadi: sarflangan har bir so‘m qarzga olingan (xususiy) kapitalga necha so‘m foyda to‘g‘ri keladi (hisob-kitoblarda korxonaning balans yoki sof foydasidan foydalanish mumkin).

Rentabellikni zamon va makon qoidalariga ko‘ra tahlil qilishda asosli xulosalarga kelish uchun zarur bo‘ladigan uchta xususiyatni inobatga olish zarur.

Birinchi xususiyat korxona faoliyatining vaqt jihati bilan bog‘liq. Masalan, mahsulotni sotish rentabelligi koeffitsiyenti hisobot davridagi faoliyat natijalari orqali aniqlanadi; uzoq muddatli investitsiyalarning yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan va rejalashtirilayotgan samarasi inkor qilinmaydi. Agar korxona katta miqdordagi investitsiyalar talab qiluvchi yangi texnologiyalar va yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishga o‘tadigan bo‘lsa, u holda rentabellik ko‘rsatkichlari vaqtinchalik pasayishi mumkin.

Ikkinchi xususiyat tavakkalchilik muammosi bilan bog‘liq bo‘lib, tavakkalchilik darajasi yuqori bo‘lgan loyihalar ba’zida katta foyda keltirishi ham mumkin.

Uchinchi xususiyat baholash muammosi bilan bog‘liq. Masalan, xususiy kapitalning rentabellik ko‘rsatkichi sur’ati va maxraji turli xil xarid qobiliyatiga ega bo‘lgan pul birligida keltiriladi. Ko‘rsatkichning sur’ati, ya’ni foyda o‘zgaruvchan (dinamik) bo‘lib, faoliyat natijalarini hamda tovar va xizmatlarning asosan o‘tgan yilda yuzaga kelgan bahosini aks ettiradi. Ko‘rsatkichning maxraji, ya’ni xususiy kapital bir qator yillar davomida shakllanadi. U joriy bahodan ancha farq qilishi mumkin bo‘lgan, hisobga olish bahosida aks ettiriladi. Demak, xususiy kapital rentabellik koeffitsiyentining katta bo‘lishi, doim ham korxonaga kiritilayotgan kapital qaytimiga mos kelavermaydi; moliyaviy qarorlarni qabul qilishda bu ko‘rsatkichni e’tiborga olishdan tashqari, korxonaning bozordagi bahosini (bozor kapitalizatsiyasi) ham inobatga olish zarur.

Sanoat korxonalari faoliyatining samaradorligini tavsiflovchi rentabellikning asosiy ko‘rsatkichlari quyidagicha:

1. Aktivlar rentabelligi. (*Ra*):

***Ra* = sof foyda / korxona jami aktivlarining o‘rtacha yillik qiymati.**

Korxonaning jami aktivlari rentabeligi korxona aktivlariga qo‘yilgan mablag‘larning bir so‘miga to‘g‘ri keladigan sof foyda, aktivlardan qanchalik darajada foydalanilganligini ifoda qiladi.

2. Sotilgan mahsulot rentabelligi *(R_{SM})*:

R_{SM} = sof foyda / mahsulot sotishdan sof tushum.

Sotilgan mahsulot rentabelligi sotilgan mahsulotning har bir so‘mi qancha yalpi foyda yoki sof foyda keltirganini ko‘rsatadi.

3. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari rentabelligi (*Rix*), bu ayrim turdagi

mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlarning bir so‘miga olingan yalpi foyda yoki sof foydani ifoda qiladi. Bu ko‘rsatkichdan turli mahsulotlar ishlab chiqarishning solishtirma samaradorligini aniqlashda keng foydalaniladi.

Ri = sof foyda/mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari (ishlab chiqarish tannarxi)

4. Asosiy vositalar rentabelligi. Asosiy vositalar rentabelligi har bir so‘mlik yoki ming so‘mlik asosiy vosita hisobiga to‘g‘ri keladigan foyda summasini xarakterlaydi. Ushbu ko‘rsatkich sof foyda summasini asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qiymatiga bo‘lish asosida aniqlanadi.

R = Cof foyda*100% /Asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qiymati

5. Qarz mablag‘lari rentabelligi. Ushbu ko‘rsatkich korxona sof foydasini qarzga olingan mablag‘lariga nisbati asosida aniqlana-di. Bu ko‘rsatkich har bir so‘mlik qarz mablag‘iga to‘g‘ri keladigan foyda summasini ifodalaydi.

R_{qm} = Cof foyda / Qarz mablag‘lari jami

6. Xususiy kapitalning rentabelligi – bu korxona (firma), tarmoq xususiy kapitalining foydaliligi va natijaliligi. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

Rxk = sof foyda/xususiy xarajatlarning o‘rtacha qiymati

Bunday koeffitsiyent xususiy kapitaldan foydalanish darajasini, ya’ni korxona tomonidan xususiy kapitalning o‘rtacha qiymatiga qancha sof foyda olinganligini ko‘rsatadi.

Mulkdor tomonidan kiritilgan kapitaldan foydalanish samaradorligini aniqlashda foydalaniladi va bu ko‘rsatkich boshqa qimmatli qog‘ozlarga kiritilganda olinishi mumkin bo‘lgan daromad bilan solishtirish imkonini beradi.

7. Permanent kapital rentabelligi – bu permanent kapitalning foydaliligi, natijaliligidir. U quyidagi formula yordamida (summa srednegodovoy stoimosti sobstvennogo kapitala i stoimosti dolgosrochnых zayemnых sredstv):

Rp = sof foyda/permanent kapitalning o‘rtacha qiymati (xususiy kapital + uzoq muddatli qarz mablag‘lari)

8. Aylanma kapitalning rentabelligi – bu aylanma kapitalning foydaliligi, natijaliligi. U har bir so‘mli aylanma kapitaldan qanchalik foyda olish mumkinligini ko‘rsatadi. Uni quyidagi formula asosida aniqlash mumkin:

Ra= sof foyda/aylanma kapitalning o‘rtacha qiymati

Rentabellik darajasi ko‘rsatkichining yuqori bo‘lishi korxona ixtiyoridagi asosiy va aylanma fondlardan oqilona foydalanilayotganini va korxonaning ma’lum miqdorda foyda (daromad) olayotganligini ko‘rsatadi.

Rentabellik darajasini ko‘tarish uchun sanoatning barcha tarmoqlari va

korxonalari sotilgan mahsulot hajmini oshirishga, uni ishlab chiqarish uchun sarflanayotgan xarajatlarni kamaytirishga, ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishlari zarur.

13.4. Mahsulot tannarxini pasaytirishning manbalari va omillari

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma`ruzasida "Birinchi – islohotlarning qay darajada samara berayotganini ko`rsatadigan maqsadli dasturlarni amalga oshirish natijadorligi. Bular qatorida sanoat va boshqa tarmoqlarni rivojlantirishning quyidagi iqtisodiy va moliyaviy ko`rsatkichlarini keltirish mumkin: ishlab chiqarish quvvatlarining ahvoli, xarajatlarni va tannarxni pasaytirish, mahalliylashtirish va rentabellik darajasini, mahsulot raqobatdoshligini so`zsiz oshirish. Tarmoqlar bo`yicha tannarx o`rtacha 10 foizga qisqartirilgan bo`lsa-da, kimyo va engil sanoat, avtomobilsozlik, qurilish materiallari va boshqa bir qator tarmoqlarning ayrim mahsulotlari qimmatligi sababli tashqi bozorlarda raqobatdosh bo`la olmayapti. Ayrim korxonalar zarar bilan ishlamoqda.»-deb tannarxni kamaytirish muammosiga katta e`tibor zarurligi ta`kidlandi[1].

Mehnat unumdorligini oshirish, xom ashyo va material, yoqilg'i va elektr energiya xarajatlarini kamaytirish, xizmat ko`rsatish va boshqarish sarflarini qisqartirish, ishlab chiqarishdan tashqari, xarajatlarni kamaytirish sanoat mahsuloti tannarxini pasaytirishning eng muhim manbalari hisoblanadi.

Mehnat unumdorligini oshirish uchun esa ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish hamda ishlab chiqarishni boshqarish va tashkil etishning ilg'or usullarini joriy qilish orqali har bir mehnatchi tomonidan tayyorlanayotgan mahsulotni ko`paytirish kerak. Bu xolda har bir mahsulot birligiga sarflanadigan ish haqi qisqaradi, ammo ishchining umumiy ish haqi esa ortib boradi. Mehnat unumdorligi ish haqiga nisbatan jadal o`sgandagina tannarx pasayadi.

Mehnat unumdorligining o`sish mohiyati shundan iboratki, bunda mahsulot ishlab chiqarishga ketadigan jonli mehnat ulushi kamayadi, ilgari sarflangan mehnatning ulushi esa ortadi, biroq mahsulot birligi uchun ketadigan mehnat sarfi qisqaradi.

Material, yoqilg'i va elektr energiya xarajatlarini kamaytirish uchun ularni tejab sarflash, qimmatbaho materiallarni arzon, lekin yaxshi materiallar bilan almashtirish, ularni sotib olish va korxonaga keltirish bilan bog'liq bo`lgan sarflarni qisqartirish kerak bo`ladi.

Xizmat ko`rsatish va boshqarish uchun ketadigan xarajatlarni qisqartirishga esa tarmoq va korxonalardagi ma`muriy-boshqaruv apparatining sarflarini kamaytirish, asbob-uskuna, bino va inshootlarni saqlash, yoritish, isitish uchun ketadigan mablag'larni tejab-tergab sarflash orqali erishiladi.

[1] Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017. – 34 b.

Unumsiz xarajatlarni (jarima to`lash, penya va hokazolar) tugatish mahsulot tannarxini pasaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnika taraqqiyoti ishlab chiqarishni tashkil etishning ijtimoiy shakllarini takomillashtirish, ishlab chiqarishni ratsional joylashtirish, ishlab chiqarish va mehnatni korxonaning ichida uyushtirishni yaxshilash mahsulot tannarxini pasaytirishni ta`minlovchi omillar hisoblanadi. Masalan, texnika taraqkiyoti mahsulot tannarxini pasaytirishning barcha manbalariga ta`sir ko`rsatadi. Ishlab chiqarishni elektrlashtirish va elektronizatsiyalash hamda kompleks avtomatlashtirish, kimyolash mahsulot tayyorlash uchun sarflanadigan solishtirma xarajatlarni kamaytiradi.

Har bir korxonada mahsulot tannarxini pasaytirish darajasini hisoblash uchun, eng avvalo, undagi zahira, foydalanilmayotgan imkoniyatlarni aniqlash kerak. Ular ko`zga tashlanadigan, yuzaki, juda murakkab, ko`z ilg'amaydigan bo`lishi mumkin. Faqat chuqur, har taraflama iqtisodiy-texnik tahlildan keyin ularni aniqlash, topish mumkin bo`ladi.

Zahiralar har xil belgilarga qarab guruhlarga ajratilishi mumkin. Ular, eng avvalo, to`planish joyiga ko`ra, ichki ishlab chiqarish va tashqi rezervlarga ajraladi.

Tashqi rezervlarga tarmoqlar bo`yicha rezervlar, regional (hududiy) va tabiiy-ekologik rezervlar kiradi.

Rezervlar safarbar etilishi muddati bo`yicha joriy va istiqbolli rezervlarga ajraladi.

Rezervlarni ishlab chiqarish jarayonlarining elementlari bo`yicha ham guruhlarga bo`lish mumkin. Bunday rezervlarga mehnat, moddiy va asosiy fondlardan foydalanish rezervlari kiradi.

Korxona yoki tarmoq faoliyatini tahlil etish uchun rezervlarni ikkiga bo`lib ko`rish mumkin:

- tashkiliy-texnikaviy rezervlar;
- ijtimoiy - iqtisodiy rezervlar.

Yuqorida keltirilgan barcha rezervlar, ya`ni foydalanilmayotgan imkoniyatlarni safarbar etish, ishga solish hamda shu asosda tannarxni keskin pasaytirish uchun bir qator omillardan keng foydalanish va ularni hisoblab chiqish kerak. U ishning metodikasi, usulini «Korxonalar faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish va boshqarish» fani bo`yicha ma`ro`zalarda, amaliy mashg'ulotlarda chuqqurroq va har tomonlama tushuntirib beriladi.

Mahsulot tannarxini rejalashtirish mehnat, moddiy va moliyaviy mablag'lardan oqilona foydalanish asosida ishlab chiqarishning yuqori samaradorligiga erishishga qaratilgandir. Tannarx rejasi quyidagi bo`limlarni o`z ichiga oladi:

1. Mahsulot tannarxini pasaytirish rejasi;
2. Mahsulot tannarxini kalkulyakiyalash;
3. Ishlab chiqarish xarajatlari smetasi;
4. Tovar va sotiladigan mahsulot tannarxining hisobi.

Tannarx rejasi, ikki bosqichda ishlab chiqiladi. Birinchi bosqichda, eng avvalo, hisobot yilida rejalarning bajaralishi tahlil etiladi, mahsulot tannarxini pasaytirish, foyda va rentabellikni oshirish rezervlari aniqlanadi va aniqlangan rezervlardan foydalanish tadbirlari belgilanadi, reja loyihasi ishlab chiqiladi. Ikkinchi bosqichda esa rejaning o`zil-kesil loyihasi ishlab chiqiladi va bu reja topshiriqlari korxona

bo`limlariga etkaziladi.

Mahsulot tannarxi va uni pasaytirish topshiriqlari davlat va korxona rejasida yuqoridan belgilanmaydigan, aksincha, korxonalarning o`zida hisob qilinadigan ko`rsatkich hisoblanadi. Shunga qaramay, mahsulot tannarxi sanoat ko`rsatkichlaridan biri bo`lib qolaveradi. Chunki sanoat mahsuloti tannarxini pasaytirish ishlab chiqarishning rentabellik darajasini oshirish rezervlaridan biri hisoblanadi. Mahsulot tannarxi qanchalik past bo`lsa, albatta, boshqa shart-sharoitlar bir xil bo`lgan holda (masalan, xuddi o`sha mahsulotning narxi barqaror bo`lganda) uni sotishdan kelgan foyda ham shunchalik ko`p bo`ladi.

Shu sababli yaqin va uzoq kelajakda ham ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxining pasaytirish inqirozga qarshi choralar dasturida belgilangan vazifalardan biri hisoblanadi.

2017 - 2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida 2017 yilda sanoat tarmoqlaridagi yirik korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxini o`rtacha 8 foizga qisqartirish va raqobatdoshligini oshirishni nazarda tutuvchi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilab berilgan[1] . Shu jumladan, ma`nan va jismonan eskirgan uskunalarni yangilash hamda modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishda energiya samaradorligini oshirish, texnologik jarayonlarni optimallashtirishga alohida e`tibor qaratiladi. Bu yo`nalishga korxonalarning mablag'lari va tijorat banklar kreditlari hisobidan 602 000,0 mln. so`m investitsiyalar yo`naltiriladi, bu esa mahalliy mahsulotlarning, birinchi navbatda, tashqi bozorlarda raqobatdoshligini va tarmoqlarning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Qisqacha xulosalar

Mahsulot tannarxi sanoat korxonalari faoliyatining muhim ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, u mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishga sarflangan mablag‘lardan tashkil topadi. Shu sababli mahsulot tannarxini arzonlashtirishning ahamiyati beqiyosdir. Uni pasaytirish foyda (daromad)ning oshishiga, narxlarning pasayishiga imkoniyat yaratadi.

Foyda (daromad) korxona faoliyatini umumlashtiruvchi ko‘rsatkichdir. U moddiy ishlab chiqarishda yaratilgan sof daromadning bir qismi bo‘lib, davlat budjeti daromadlarining shakllanishida asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Ishlab chiqarish rentabelligi sanoat ishlab chiqarishi, uning tarmoqlari va korxonalarning iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlardan biridir.

Shuni ta'kidlash kerakki, 22 yillik mustaqil taraqqiyotimiz mobaynida sanoat ishlab chiqarishining usluksiz rivojlanishi tufayli nafaqat mahsulotlarning xajmi ko‘paydi va sifati yaxshilandi, balki ularni tayyorlash uchun sarflangan xarajatlar

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» gi Farmoni. 7 fevral 2017 yil. http://press-service.uz/uz/document/5482/.

miqdori keskin kamaydi va oqibat natijada sanoat tarmoqlarining rentabellikligi yuqori darajaga ko‘tarildi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tannarx va qiymat muammolari.
2. Tannarxning tarkibi, tuzilmasi va uni pasaytirish yo‘llari.
3. Foyda va uni maksimallashtirish masalalari.
4. Rentabellik va uni hisoblash usullari.
5. Inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturida tannarx masalalariga berilgan e’tibor nimalardan iborat?

Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro`yxati:

1. 2019 yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasi// https://president.uz/uz/lists/view/2228
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida» gi №PF-4947 sonli Farmoni. //Xalq so’zi. 2017 yil 8 fevral.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlanishining beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2017 yil 15 avgustdagi №3-5024 sonli Qarori.
4. Sh. M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak . Tashkent : O‘zbekiston, 2017 y.,104 b.
5. Church J., and R.Ware. (CW) Industrial Organization. A Strategic Approach. Irwin. 2000.
6. Schmalensee, Richard, and Robert Willig, eds. (HB) Handbook of Industrial Organization. Vols. 1-2. North-Holland, 1989.
7. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.:”Sano-standart”, 2014.-304 b.
8. A.Vahobov va boshq. Moliyaviy va boshqaruv tahlili: Darslik. – T.: “Sharq”, 2015. – 480 b.
9. www.webofscience.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi
10. www.search.ebscohost.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi

14-BOB. SANOAT ISHLAB CHIQARISHIDA BAHO VA BAHONI SHAKLLANTIRISH

14.1. Baho - bozor munosabatlarining iqtisodiy kategoriyasi

Baho kuchli ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor kategoriyasi bo‘lib, tovarlar ayirboshlanganda yuz beradigan munosabatlarni anglatadi. Oqilona, ilmiy jihatdan asoslangan baho va baholash iqtisodiyotning ilmiy va amaliy vositalaridan biri hisoblanadi.

Baho siyosati davlat iqtisodiy siyosati va iqtisodiy strategiyasining muhim ajralmas qismidir. Shu sababli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishda, mehnatkashlarning tashabbusi va omilkorligini rivojlantirishda baho belgilash siyosati alohida o‘rin egallaydi. Bahoni ho‘jalik mexanizmi va o‘zini o‘zi pul bilan ta’minlashning ustuni deyish mumkin. Jamoaning va ayrim xodimning daromadlari, ular iqtisodiy manfaatlari narxning, ya’ni bahoning to‘g‘ri belgilanishiga bog‘liq.

Baho bamisoli barometr kabi bozor holatini ko‘rsatib turadi, u pasayib ketsa, tovar bozori kasodga uchraydi, tovar nafsiz bo‘lib, uni boshqa tovar bilan almashtirish yoki sifatini yaxshilash zarurligi kun tartibiga qo‘yiladi.

Baho pul muomalasi holati, kreditlash samaradorligi va iqtisodiyotning moliyaviy sog‘lomligi bilan bog‘liq. Davlatning, korxonalar va ularda ishlovchilarning, umuman, aholining o‘zaro bog‘lanishi baho yordamida amalga oshiriladi, ijtimoiy resurslardan foydalanish ta’minlanadi, yalpi ichki mahsulotni hisobga olish va taqsimlash amalga oshiriladi. Bahoni tovar qiymati belgilaydi, ammo bozor iqtisodiyoti sharoitida u aniq qiymatdan yuqori yoki kam bo‘lishi mumkin. Bu esa, bozordagi o‘sha mahsulotga bo‘lgan talab va taklifga bog‘liq. Tovar bahosining darajasi, shuningdek, tovarning ijtimoiy foydaliligi darajasi va boshqa tovarlar o‘rnini bosa olishi, muomaladagi pulning xarid quvvatiga ham bog‘liq bo‘ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida baho yordamida korxonalar ishlab chiqarishini tashkil etishning asosiy muommolaridan biri, nima ishlab chiqarish foydali ekanligini hal etishdir. Baho tovar taklifi, aholining to‘lov qobiliyati, ishlab chiqarish resurslarining oshib yoki kamayib ketishi to‘g‘risida korxona egalariga axborot beruvchi vosita hamdir. Bahoning yana bir vazifasi qiymat o‘lchovidir.

Nazorat jihatdan olib qaralganda, baho-tovar qiymatining puldagi ifodasidir. Amaliy jihatdan qaralganda esa, baho-muhim iqtisodiy vosita, dastak hisoblanadi.

Bunda qilingan xarajatlar va olingan natija ma’lum bir narx yordamida hisob-kitob qilinadi.

Ma’lumki, qiymat ishlab chiqarish kategoriyasi bo‘lib, ishlab chiqarishdagi mehnat sarflanishi bilan bog‘liq munosabatlarni ifoda etadi. Tovarning yaratilishida moddiylashgan va jonli mehnat sarf etiladi. Ularning majmuasi - qiymatdir. Ammo qiymat har qanday mehnat sarfi emas. Qiymat tovarni yaratishga ketgan ijtimoiy zarur mehnat sarfi, aniqrog‘i, ehtiyojni qondira olgani sababli bozorda tan olingan mehnat sarfidir, chunki mehnatning bir qismini, agar u kerakli bo‘lmasa, bozor inkor etadi va shu qismi qiymatni yaratishda ishtirok etmaydi. Muayyan baho sharoitida ko‘proq foyda olish uchun xarajatlarni kamaytirish zarur.

Baholar tovar-pul munosabatlari muomalasining shakli va sotiladigan

mahsulot turiga ko‘ra farqlanadi. Bahoning turlari bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular yagona tizimni tashkil etadi. Mazkur tizimning muhim elementlari quyidagilardir:

- *ulgurji baholar*. Ular firmalar o‘z mahsulotlarini katta hajmda boshqa firmalarga yoki vositachilarga va ulgurji savdo tashkilotlariga sotayotganlirida qo‘llaniladi. Ulgurji baho korxonalarga ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashni, zarur foyda olishni ta’minlanishi zarur;
- *chakana baholar*. Ulardan tovarlarni bevosita iste’molchilarga sotishda foydalaniladi. Bu baholarga davlat savdosi, xususiy shaxsiy mulk egalari do‘konlari va bozorda yuzaga kelayotgan baholar kiradi. Chakana baho darajasi aholining peal daromadlari bilan belgilanadi.
- *xarid baholari* qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining davlat tomonidan sotib olinishida ishlatiladi.
- *dunyo baholari* xalqaro savdo munosabatlarida qo‘llaniladi.

Baholar tovar ishlab chiqarishning rivojlanishiga o‘z vazifalari orqali ta’sir etadi. Bozorda turli mehnat sarflari umumiy, ya’ni ijlimoiy zarur mehnat sarfiga keltiriladi va shu sarfning pulda ifodalanishi bahoni hosil qiladi.

Bozorda sotuvchi bilan xaridor o‘rtasidagi iqtisodiy munosabat bo‘lganidan narxning shakllanishida har ikki tomon ishtirok etadi. Xaridor deganda, biz tovar va xizmatlarni iste’mol etuvchilar - fuqarolar, ishlab chiqarishni yurgizish uchun resurslarni sotib oluvchi korxonalarni tushunamiz. Baholarning shakllanishida tovarni ishlab chiqarishdan tortib, iste’molga yetgungacha bo‘lgan mehnat sarflari ishtirok etadi. Jamiki xarajatlar baho tarkibiga kiradi.


Bahoni shakllantiradigan asosiy omillar esa quyidagicha:

- Iqtisodiy xarajat darajasi;
- Tovarlarning naflilik darajasi;
- Tovarga bo‘lgan talab va uning taklifi;
- Raqobat shakllari va usullari;
- Tovarni iste’mol qilish vaqti.

Raqobat cheklangan bozorlarda (sof monopoliya, monopolistik raqobat, oligopoliya) ishlab chiqaruvchilarning o‘rni bozor narxlarini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi. Monopoliya sharoitida bozorda bir turdagi mahsulotlar taklif qilinishi sababli baho ustidan to‘liq nazorat amalga oshiriladi. Bu degani monopolist ishlab chiqaruvchilarning narx belgilashdagi hukmronligi, iste’molchi daromadlari cheklanganligi bilan to‘qnash qiladi. O‘rnini bosuvchi tovarlarning mavjudligi ham ularning baho belgilashdagi mutlaq imkoniyatini cheklaydi.

Oligopoliya sharoitida esa alohida ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) bir-biriga bog‘liq bo‘lganliklari sababli baholarni mustaqil belgilashga botina olmaydilar. Faqat baho belgilashda yashirincha kelishishlari mumkin.

Bahoning shakllanishini quyidagicha ifodalash mumkin:



14.1-rasm. Bahoning shakllanishi

Ma’lumki, hozirgi zamon iqtisodiyoti bozor iqtisodiyotidir. Bu iqtisodiyot yer yuzidagi ko‘pgina davlatlarda turli darajada va o‘ziga xos xususiyatlar bilan rivojlanib bormoqda. Uning mohiyat belgilarini eng rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida ko‘rish mumkin. Shunday belgilaridan biri, narxlarning liberallashuvi, narx-navoning erkin shakllanishidir. Tovarlar narxini davlat yuqoridan belgilamaydi. U bozordagi talab va taklifga qarab, xaridor bilan sotuvchining savdolashuvi asosida yuzaga keladi. Kelishilgan narxlar esa bozor munosabatlariga xizmat qiladi. Narx pul bilan o‘lchanadi. Bozor iqtisodiyoti pulsiz bo‘lishi mumkin emas. Pul esa, iqtisodiy munosabatlarning asosiy vositasi bo‘lib, iqtisodiyotda o‘ta muhim rol o‘ynaydi. Pul munosabatlari bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Pul oboroti, pul emissiyasi, qadri-qimmati, inflyatsiya, valyuta kursi kabi hodisalar iqtisodiy vaziyatning ko‘zgusi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotida tovar taqchilligi bo‘lmaydi, shu sababdan bozorda ishlab chiqaruvchi emas, balki iste’molchi (xaridor) o‘z izmini o‘tkazadi, tovar va xizmatlarni sifati va narxiga qarab tanlab olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Baho shakllanishida raqobat muhim o‘rin tutadi. Raqobatda yutib chiqish yoki yutkazish bahoni belgilashga ham bog‘liq. Raqobatlashuv jarayonida xaridor ko‘p bo‘lsa, yuqori narx tashkil topadi. Agar sotuvchilar ko‘p bo‘lib, ular raqobatlashishsa, past baholar vujudga keladi.

Raqobat kurashida xarajatlarni qoplamaydigan, binobarin, zarar keltiradigan o‘ta past baholar ham paydo bo‘ladi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xo‘jalikni oqilona yuritish esa moliyaviy aloqalar va qiymat qonunlaridan foydalanishni talab qiladi.

Ayrim buyumlarning bahosini o‘zgartirish evaziga davlat ularga bo‘lgan ehtiyojni hamda ularni xarid qilishni boshqaradi. Jumladan, inson sog‘lig‘iga putur yetkazuvchi mahsulotlarning narxini oshirish evaziga ularning xarid qilinishini chegaralash va aksincha, ba’zi oziq-ovqat mahsulotlarining narxini me’yorda ushlab

turish orqali ehtiyojlarni to‘laroq qondirish mulohazamizga dalil bo‘la oladi.

Pul munosabatlari bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Pul oboroti, pul emissiyasi, qadri-qimmati, inflyatsiya, valyuta kursi kabi hodisalar iqtisodiy vaziyatning ko‘zgusi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotida tovar taqchilligi bo‘lmaydi, shu sababdan bozorda ishlab chiqaruvchi emas, balki iste’molchi (xaridor) o‘z izmini o‘tkazadi, tovar va xizmatlarni sifati va narxiga qarab tanlab olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ko‘rib chiqqanimizdek, bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida narxning roli va ahamiyati juda katta.

Baho shakllanishida raqobat muhim o‘rin tutadi. Raqobatda yutib chiqish yoki yutkazish bahoni belgilashga ham bog‘liq. Raqobatlashuv jarayonida xaridor ko‘p bo‘lsa, yuqori narx tashkil topadi. Agar sotuvchilar ko‘p bo‘lib, ular raqobatlashishsa, past baholar vujudga keladi.

Raqobat kurashida xarajatlarni qoplamaydigan, binobarin, zarar keltiradigan o‘ta past baholar ham paydo bo‘ladi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xo‘jalikni oqilona yuritish esa moliyaviy aloqalar va qiymat qonunlaridan foydalanishni talab qiladi.

Ayrim buyumlarning bahosini o‘zgartirish evaziga davlat ularga bo‘lgan ehtiyojni hamda ularni xarid qilishni boshqaradi. Jumladan, inson sog‘lig‘iga putur yetkazuvchi mahsulotlarning narxini oshirish evaziga ularni xarid qilinishini chegaralash va aksincha, ba’zi oziq-ovqat mahsulotlarining narxini me’yorda ushlab turish orqali ehtiyojlarni to‘laroq qondirish mulohazamizga dalil bo‘la oladi.

Nazariy jihatdan olib qaralganda, baho - tovar qiymatining puldagi ifodasidir. Amaliy jihatdan qaralganda esa, baho – muhim iqtisodiy vosita, dastak hisoblanadi. Ma’lumki, qiymat ishlab chiqarish kategoriyasi bo‘lib, ishlab chiqarishning o‘zidagi mehnat sarfi bilan bog‘liq munosabatlarni ifoda etadi. Tovarning yaratilishida moddiylashgan va jonli mehnat sarf qilinadi, ularning majmuasi qiymat demakdir. Ammo qiymat har qanday mehnat sarfi emas. qiymat tovarni yaratishga ketgan ijtimoiy zarur mehnat sarfi, aniqrog‘i ehtiyojni qondira olgani sababli bozorda tan olingan mehnat sarfidir, chunki mehnatning bir qismini, agar u kerakli bo‘lmasa, bozor inkor etadi va shu qism qiymatni yaratishda ishtirok etmaydi. Bozorda turli mehnat sarflari umumiy, ya’ni ijtimoiy zarur mehnat sarfiga keltiriladi va shu sarfning pulda ifodalanishi bahoni hosil qiladi.

14.2.Bahoning funksiyalari va turlari

Bahoning iqtisodiy mazmunini uning fuksiyalari yaqqol ko‘rsatib beradi. Baho nimaga tegishli bo‘lishidan qat’i nazar (tovar, xizmat, ish kuchi, qarz puli narxini — buning farqi yo‘q) besh asosiy funksiyani bajaradi:

1. Bozor muvozanatini ta’minlash funksiyasi. Bunda baho bozordagi talab va taklifning hajmi va tarkibiga ta’sir etish orqali ularni muvozanat holatiga keltiradi.

2. Hisob-kitob, o‘lchov funksiyasi. Baho qiymatning puldagi ifodasi, chunki bajarilgan ish xajmi, foyda-zararning barchasi baho asosida hisob-kitob qilinadi.

3. Iqtisodiy regulyator funksiyasi. Baho bozor iqtisodiyotining asosiy vositalaridan biridir. Undagi o‘zgarish bozor holati (kon’yukturasi)ni bildiradi.

4. Raqobat vositasi funksiyasi. Raqobat bozor iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi kuch, baho vositasida bellashuv raqobatning asosiy ko‘rinishlaridan biri

hisoblanadi. Korxonalar o‘z raqiblarini yengish, ularni bozordan siqib chiqarish uchun bahoni o‘zgartirib turadilar.

5. Ijtimoiy himoya funksiyasi. Baho ayrim aholi toifalarini kambag‘allikdan saklash vazifasini o‘taydi. Odatda, aholining nochor va muhtoj qatlamlariga tovarlar arzonlashtirilgan baholarda sotiladi.

Bular ijtimoiy dotatsiyalangan baholar bo‘lib, ularni moliyaviy jihatdan davlat budjeti yoki budjetdan tashqari mablag‘lar ta’minlaydi. Dotatsiyalangan baholarni davlat belgilaydi.

Bozor iqtisodiyotining o‘ziga xos tizimi borki, u o‘zaro bog‘langan, bir-birini taqozo etuvchi, ammo turli maqsadlarda qo‘llanuvchi baholar majmuasidan tashkil topadi. Bahoning shakllanish jarayoni murakkab bo‘lib, uning ishtirokchilari g‘oyat ko‘pchilikni tashkil etadi. Baholar turli vazifalarni bajarganligi sababli ham ularning turi ko‘p.

Baholarning asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

1. Ulgurji baholar. Tovarlar ko‘tarasiga katta miqdorda sotilganda bu baholardan foydalaniladi. Bunday bahoni asosan ulgurji savdo-sotiq olib boriladigan savdo markazlarida uchratish mumkin.

2. Chakana baholar. Tovarlar bevosita iste’molchilarga sotilganda foydalaniladi. Bu baho o‘z ichiga tovar ulgurji narxini, chakana savdo tashkilotchilarining xarajati va foydasini oladi.

3. Nufuzli baholar. Bu baholardan obro‘ talab iste’molchilarga tovarlar sotilganda va xizmatlar ko‘rsatilganda foydalaniladi.

4. Dotatsiyali baholar. Bunda tovarlar davlat budjeti hisobidan arzonlashtirilgan baholarda olinadi.

5. Davlat baholari. Bu ishlab chiqaruvchilarga davlat tomonidan buyurtma berilganda qo‘llaniladi.

6. Mavsumiy baholar. Bu mavsumiy ishlab chiqariladigan tovarlarga belgilanadi.

7. Milliy va jahon baholari. Alohida tovarning baynalmilal xarajatlari. Bunda jahon bozoridagi talab va taklif nisbati hisobga olinadi.

8. Standart baholar. Xaridor cho‘ntagidagi pulga qarab, ma’lum davrgacha o‘zgarmaydigan qat’iy standart narxlar qo‘llaniladi.

9. Preyskurant baholar. Bu baholar sotuvchi uchun mo‘ljal baho, xaridor uchun bildirishlik yoki ma’lumot baho hisoblanadi.

10. Tarif baholari. Tarif baholari asosan taransport tizimida va xizmat ko‘rsatish tizimlarida keng foydalaniladi.

Ishlab chiqargan mahsulotni sotish uchun muzokaralarga tayyorgarlik ko‘rish mobaynida tadbirkor eng avvalo, o‘zi uchun maqbul bo‘lgan baho ko‘rsatkichlarini aniqlashga harakat qiladi. Shu maqsadda u bahoni uchga ajratadi. Ya’ni maksimal (eng yuqori), minimal (eng past) va ob’ektiv baho.

Maksimal baho - (sotuvchi nuqtai nazaridan) - bu muzokaralarni shu bahodan boshlash mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichidir.

Minimal baho - (qo‘shilishi mumkin bo‘lgan eng past baho) - bu tovar narxining shunday ko‘rsatkichiki, tadbirkor muzokaralar davomida undan tushmaslikka harakat qiladi.

Ob’ektiv baho - bu tarkibida o‘rtacha sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan u yoki bu tovarning o‘rtacha bahosidir.

Bahoning iqtisodiyotdagi o‘rni beqiyos katta bo‘lganidan uning har bir turidan oqilona foydalanish tadbirkorlik uchun muhim ahamiyatga ega. Shu sababli korxonalar va firmalar narx, belgilashga katta e’tibor beradilar. Ular o‘zlarining narx strategiyasini ishlab chiqishda quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydilar:

- tovar sotishni ko‘paytirish;
- ko‘proq foyda olish;
- o‘rnini muayyan mavqeini saqlab qolish.

Tovar sotishni ko‘paytirishdan uch natija kutiladi: a) tovar sotishni ko‘paytirish orqali bozorda o‘z hissasini oshirish, imkon bo‘lganda bozorni o‘z nazoratiga olish; b) har bir tovarni (tovar birligini) sotishdan tushadigan foydaning kamayishiga rozi bo‘lgan holda tovarlarni ko‘plab sotish orqali keladigan yalpi foydani oshirish; v) tovarni ko‘p sotish natijasida uning hajmiga nisbatan savdo-sotiq xarajatlarini qisqartirish.

Bozordan raqiblarni surib chiqarib, o‘z mavqeini mustaxkamlash uchun firmalar mahsus narx qo‘llaydilar, uni **bozorga kirib olish narxi** yoki **demping narx** deb ataladi.

Bu narx raqibni sindirishga qaratilganligidan davlat uni ta’qiqlaydi, shu sababli firmalar uni yashirin qo‘llaydilar va bu ish rasmiy narxning bir qismini kechib yuborish shaklida bo‘ladi.

Korxona mahsulotiga o‘rnatiladigan baho darajasini belgilashda tadbirkorlar o‘zaro bog‘liqlikda amal qiluvchi baholar tizimi va ularning turlarini yaxshi bilishi kerak.

Baholar tizimini ularning ma’lum bir xususiyatlariga muvofiq turkumlarga ajratish qabul qilingan.

Tovar aylanmasi va xizmat ko‘rsatish (ish bajarish) hajmiga ko‘ra:

- ishlab chiqarish bahosi – ishlab chiqaruvchi tomonidan katta hajmdagi mahsulotlarni buyurtma bo‘yicha korxonalarga va ulgurji savdo tashkilotlariga sotish narxlaridan tashkil topadi. Bu baho mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi va uni sotish bilan boG‘liq (shu jumladan, tegishli boshqaruv xarajatlari) davr xarajatlariga tegishli foyda miqdorini qo‘shib hisoblanadi;
- ulgurji baholar – ulgurji savdo korxonalari tomonidan chakana savdo bilan shug‘ullanuvchilarga yoki boshqa korxonalarga yirik miqdordagi mahsulotlarni sotish narxlaridan iborat bo‘ladi. Ulgurji baho ishlab chiqarish bahosiga savdo korxonasining barcha muomala xarajatlarini hamda tegishli foyda miqdorini qo‘shib belgilanadi;
- chakana baholar – sotuvchi tomonidan mahsulotlarni chakana savdo tarmog‘i orqali kichik miqdorlarda yoki donalab (kilolab, grammlab, litrlab, metrlab va hokazo) sotish narxlaridan tashkil topadi. Bu baho ulgurji bahoga chakana savdo korxonasining barcha muomala xarajatlarini hamda tegishli foyda miqdorini qo‘shib belgilanadi;
- xarid baholari – davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan mahsulotlarga davlat tomonidan o‘rnatiladigan narx;

- qurilish ishlari baholari:

- smeta qiymati – muayyan bir ob’ektni qurishga ketadigan chegaraviy xarajatlar qiymati;

- pereyskurant bahosi – qurilish ob’ekti yakuniy mahsuloti bir birligining (1 kv. metr turar joy, 1 kv. metr foydali joy) o‘rtacha smeta qiymati;

- maishiy xizmatlar baholari va tariflari – aholiga ko‘rsatiladigan maishiy xizmatlarga o‘rnatiladi;

- yuk va yo‘lovchi transporti tariflari – transport korxonalari tomonidan yuk Yoki yo‘lovchilar tashiganlik uchun to‘lov sifatida o‘rnatiladi.

Davlat tomonidan tartibga solinishi yoki erkinligi darajasiga ko‘ra:

- erkin baholar – ishlab chiqaruvchi va xaridor o‘rtasida o‘zaro manfaatdorlik asosida talab va taklifdan kelib chiqib o‘rnatiladi;

- tartibga solinadigan baholar – asosan talab va taklifdan kelib chiqib o‘rnatiladigan, ammo, o‘sish sur’atlari Yoki quyi va yuqori chegaralari davlat tomonidan tartibga solinadigan baholarni o‘z ichiga oladi (aholi iste’moli uchun zarur bo‘lgan un, shakar va o‘simlik yog‘i kabi mahsulotlar baholari);

- qat’iy o‘rnatiladigan baholar – davlat tomonidan ayrim turdagi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan mahsulotlarga nisbatan qat’iy belgilanadigan baholardan iborat bo‘ladi (strategik ahamiyatga ega bo‘lgan neft mahsulotlari, mineral o‘G‘itlar va boshqa resurslar baholari);

- kafolatlangan baholar – mahsulotning bozor bahosi uning tannarxini qoplamaydigan holatlarda ayrim toifadagi ishlab chiqaruvchilarni himoyalash maqsadida mahsulotni minimal daromad ko‘rishga imkon beradigan baholarda davlat zaxiralari uchun sotib olish narxlaridan tashkil topadi (fermerlardan G‘alla Yoki paxtani tegishli foydalilikni ta’minlaydigan baholarda davlat ehtiYojlari uchun sotib olish).

Asoslanishi nuqtai-nazaridan:

- bazis bahosi – xaridor va sotuvchi o‘rtasidagi muzokaralar vositasida o‘rnatilib, muayyan miqdor va sifatdagi (sortdagi) mahsulotlarni ma’lum bir muddatlarda yetkazib berish shartlaridan kelib chiqib belgilanadi. Unga binoan, haqiqatda yetkazib berilgan mahsulot miqdori, sifati (sorti) va muddatlari shartnomada belgilanganidan farqlansa, bazis bahosiga nisbatan ma’lum bir chegirma Yoki ustamalar ko‘zda tutilishi mumkin;

- haqiqiy baho – bazis bahoga nisbatan turli ustama Yoki chegirmalar qo‘llanilgandan keyingi haqiqiy bitim bahosi;

- ma’lumot beradigan baholar – kataloglar, jurnallar, gazetalar, bukletlar, preyskurantlar va boshqa savdo xabarnomalarida chop etiladigan hamda mutaxassislar tomonidan shu turdagi tovarlarga narx belgilashda mo‘ljal bo‘lib xizmat qiladigan baholarni anglatadi;

- preyskurant baholari – ma’lumot beradigan baho turlaridan biri bo‘lib, ishlab chiqaruvchi korxonaning Yoki sotuvchi firmaning chop etiladigan preyskurantlarida aks ettiriladi;

- taqqoslama baholar – bir necha yillar davomida mahsulot ishlab chiqarish va sotish dinamikasini aniqlash hamda ularni taqqoslama holda solishtirish maqsadida

qo‘llaniladi (davlat tomonidan statistik hisobot shakllari uchun o‘rnatiladi).

Amal qilish muddati bo‘yicha:

- doimiy (qat’iy) baholar – mahsulotni yetkazib berish shartnomasi amal qiladigan davr mobaynida o‘zgarmaydi;
- joriy baholar – aynan mahsulot sotilaYotgan davrda amal qilaYotgan baholar darajasini ifodalaydi va bozor kon’yukturasiga qarab o‘zgarib turishi mumkin;
- mavsumiy baholar – yilning ma’lum bir davri uchun o‘rnatiladigan baholar darajasi (masalan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga yilning turli mavsumlarida turlicha baho o‘rnatiladi);
- o‘zgaruvchi baholar – bozordagi talab va taklif muvozanati hamda inflyatsiya darajasidan kelib chiqib o‘sib Yoki kamayib borish xususiyatga ega. Bunda sotuvchi va xaridor kelishuviga asosan bazis bahosi o‘rnatilib, turli omillar ta’sirida bahoda yuz berishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar shartnomada kelishib olinadi.

Oldi-sotdi shartnomasi kelishuviga ko‘ra:

- shartnoma (faktura) bahosi – shartnomada belgilangan mahsulotni yetkazib berish shartlaridan kelib chiqib sotuvchi va xaridor o‘rtasida kelishuv asosida o‘rnatiladi va uning quyidagi turlari mavjud:

- SIF (qiymat, sug‘urta, fraxt - yukni tashish haqi) – sotuvchi yuk tashuvchi transport vositasini Yollash, ma’lum bir joygacha yukni tashish xarajatlarini to‘lash va uni buzilish hamda yo‘qotishlardan suG‘urtalash xarajatlarini o‘z hisobidan amalga oshiradi, xaridor esa belgilangan chegarada bojxona to‘lovlarini to‘lash va yukni o‘z omboriga tashish bilan boG‘liq xarajatlarni bo‘yniga oladi;
- FOB (bortda erkin) – sotuvchi o‘z hisobidan tovarni yuk kemasi bortigacha eltish, suG‘urtalash, bojxona to‘lovlarini to‘lash va yuklash bilan boG‘liq xarajatlarni amalga oshiradi, xaridor esa kemani Yollash, yukni kemada tashish va suG‘urtalash xarajatlarini o‘z bo‘yniga oladi;
- FOR (relsda erkin) – sotuvchi o‘z hisobidan tovarni temir yo‘l stansiyasigacha eltish, suG‘urtalash va vagonga yuklash bilan boG‘liq xarajatlarni amalga oshiradi, xaridor esa undan keyingi xarajatlarini o‘z bo‘yniga oladi;
- Franko – sotuvchi o‘z hisobidan tovarni yuklash, kelishilgan joygacha eltish, sug‘urtalash va bojxona to‘lovlarini to‘lash bilan boG‘liq barcha xarajatlarni amalga oshiradi va ular mahsulot bahosiga qo‘shiladi.

Tadbirkorlar baholarning turlarini chuqur tahlil etish orqali bozor kon’yukturasi va xaridor bilan tuzilayotgan oldi-sotdi shartnomasining xususiyatlaridan kelib chiqib o‘zining baho siyosatini belgilashi lozim.

14.3. Sanoatda bahoni shakllantirish usullari va baho siyosatini ishlab chiqish bosqichlari

Amaliyotda aniq sharoitdan kelib chiqqan holda baho o‘rnatishning quyidagi usullaridan foydalaniladi: to‘liq xarajatlar; o‘rtacha xarajatlar, cheklangan xarajatlar ishlab chiqarishning normal (standart) xarajatlariga asosan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlarni hisobga oluvchi maqsadli baho yoki maqsadli foyda normasi. Bularning

har bittasiga alohida to‘xtalib o‘tamiz[1].

To‘liq xarajatlar usuli - hisoblangan baholarga asoslangan. U tovar ishlab chiqarish va realizatsiya qilishdagi barcha xarajatlar asosida aniqlanadi. Bu hisoblash usulini shartli ravishda quyidagicha ta’sarruf qilish mumkin. Barcha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar asos uchun olinadi. Unga (nakladnoy) xarajatlar va foyda qo‘shiladi. Foyda tarmoq o‘rtacha foyda normasidan hisoblanadi. Bu o‘rtacha foyda normasi ssuda foiziga, o‘rtacha kapital aylanishi tezligicha va tarmoqdagi raqobat darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

O‘rtacha xarajatlarga asoslangan baho - asosan yuqoridagi usuldek hisoblanadi. Bir birlik mahsulot uchun o‘rtacha xarajatlar (doimiy va o‘zgaruvchan) aniqlanadi. Agar kon’yuktura kam darajada o‘zgarsa, ya’ni ishlab chiqarish kamroq kamaysa yoki oshsa, baho to‘liq xarajatlar darajasidan emas, balki iqtisodiy siklning o‘rtacha xarajatlariga tayanib aniqlanadi. Bu usuldan firma ma’lum muddat ichida baholarni oldingi daraja ishlab turish maqsadida ko‘proq foydalanadi.

Cheklangan xarajatlar usuli ishlab chiqarishni kengaytirish bilan bog‘liq xarajatlarni hisobga olish imkonini beradi. Bu usuldan firma ishlab chiqarish miqdorini oshirish, bozorda katta ulushga erishish va sotishni kengaytirishga erishish maqsadida foydalanadi. Cheklangan xarajatlar - ishlab chiqarishning bir birlik mahsulotga oshishi natijasida umumiy xarajatlarning o‘zgarishini bildiradi. Cheklangan xarajatlar yuqori yoki past bo‘lishi mumkin. Bu talabning xarakateri va oshishi ko‘lamiga; uning o‘zgarish davriga, mavjud bo‘lgan quvvatlar bilan talabni qondirish imkoniyatiga va boshqa omillarga bog‘liqdir.

Agar o‘sib borayotgan talabni qondirish uchun mavjud quvvatlar oshirilmasa, cheklangan xarajatlar o‘rtachadan kam bo‘ladi. Chunki cheklangan xarajatlar doimiy xarajatlarga asoslansa, o‘rtacha xarajatlar doimiy xarajatlarga asoslanadi. Agar bordiyu talabning oshishi doimiy bo‘lsa, uni qondirish uchun ishlab chiqarish xarajatlarining barcha unsurlarini (o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlarni) o‘zgartirishga to‘g‘ri keladi va cheklangan xarajatlar o‘rtacha yuqori bo‘ladi.

Bahoni hisoblashning bu usuli qazib olish va qayta ishlash tarmoqlarida keng qo‘llaniladi. Bunga sabab, shy tarmoqlarda ishlab chiqarishning kengayishi natijasida ishlab chiqarish xarajatlari ham keskin oshadi. Baholarning normal (standart) ishlab chiqarish xarajatlari asosida hisoblash usuli - maxsus baholarni hisoblash usuli sanaladi. Bu usulda - baholar haqiqiy xarajatlardan emas, balki mavjud ishlab chiqarish sharoitida, mavjud moddiy va qiymat normativlari asosida hisoblanadi. Bu yerda xarajatlar ishlab chiqarish boshlanguncha hisoblab chiqiladi. Mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi xom-ashyo va materiallarga o‘rnatilgan normativlaridan, ishchi kuchiga haq to‘lash xarajatlari normasidan va (nakladnoy) xarajatlardan olinadi. Boshqacha qilib aytganda, baholarni hisoblash ishlab chiqarish quvvatlarini yuklash normal miqdoriga nisbatan amalga oshiriladi. Umuman ishlab chiqarish quvvatlarining 80 foiz yuklanganligi normal yoki standart hisoblanadi.

Maqsadli baho yoki maqsadli foyda normasi usuli to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlarni hisobga oladi. Bu usulda ham asos qilib quvvatlarni ma’lum bir yuklanganlik darajasiga to‘g‘ri keluvchi ishlab chiqarish xarajatlari hisoblanadi. Biroq foydani

[1] Qosimova M.S., Yusupov M.A., Ergashxodjayeva Sh.D. Marketing. Darslik. – T.: TDIU, 2010. 287 b.

hisoblashga yondashish boshqacha, ya’ni firma o‘z mahsulotiga oldindan shunday baho o‘rnatadiki, unda foydaning aniq bir miqdori o‘rnatilgan bo‘ladi.

Baho siyosati - baho va bahoni shakllantirishni boshqarish san’ati, qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun mahsulot va korxonaning bozordagi xolatidan kelib chiqib mahsulot bahosini belgilash san’atidir. Bu esa tadbirkordan menedjerdan yuqori mahorat talab qiladi. Baho siyosati baho strategiyalari orqali amalga oshiriladi va faqat korxonaning umumiy siyosati yo‘nalishida ko‘rib chiqilishi kerak.

Korxona baho siyosatining maqsadlari uning umumiy maqsadlar asosida shakllanadi.

Maqsadni belgilash. Har qanday korxona o‘z faoliyatini amalga oshirish jaraYonida muayyan bir maqsadga intilishi lozim. Agar korxonaning maqsadi va bozorda egallagan mavqei aniq bo‘lsa, baho siYosatini shakllantirish ham oson kechadi. Baho siyosatini belgilashning uchta asosiy maqsadi mavjud: korxonaning yashovchanligini ta’minlash, foydani maksimallashtirish va bozordagi mavqeini ushlab turish.

Yashovchanlikni (sotishni) ta’minlash - bozorda ko‘plab o‘xshash ishlab chiqaruvchilar mavjud bo‘lgan qattiq raqobat sharoitida faoliyat yuritayotgan korxonalarning asosiy maqsadi. Bozorni katta qismini egallash va sotish xajmini oshirish uchun pasaytirilgan baholar - kirib borish baholari qo‘llaniladi.

Foydani maksimallashtirish maqsadini qo‘yilishi, korxona o‘z joriy foydasini maksimallashtirishga intilayotganligini bildiradi. Korxona bahoning turli darajalarida talab va xarajatlarni tahlil qiladi va xarajatlarni maksimal qoplanishini ta’minlaydigan bahoni tanlaydi.

Bozordagi mavqeni ushlab qolish (bozorni saqlab qolish) maqsadi korxonaning bozordagi mavjud holatini va o‘z faoliyati uchun maqbul sharoitlarni saqlab qolishni ko‘zda tutadi. Bu esa sotish xajmini tushib ketishi va raqobat kurashining keskinlashuvini oldini olish uchun turli chora-tadbirlarni qo‘llashni talab qiladi.

Uzoq mudatli maqsadlardan tashqari korxona baho siyosatining qisqa muddatli maqsadlarini ham qo‘yishi mumkin. Ularga odatda quyidagilarni kiritish mumkin:

- bozordagi holatni barqarorlashtirish;
- baho o‘zgarishining talabga ta’sirini kamaytirish;
- mahsulot bahosi bo‘yicha yetakchilikni saqlab qolish;
- mumkin bo‘lgan raqobatni cheklash;
- korxona yoki mahsulot imidjini oshirish;
- bozorda zaif mavqeda turgan tovarlarni sotishni rag‘batlantirish.

Talabni aniqlash. U korxonaning kelgusi faoliyatini belgilash uchun bozor sharoitlari to‘g‘risida ma’lumotlar olish maqsadida amalga oshiriladi. Bozorni va sotuvni tadqiq qilishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilarni qamrab oladi:

- bozor sig‘imini baholash;
- bozorni segmentlash;
- bozor o‘zgarishlari va rivojlanish tendensiyalari tahlili, xususan, iqtisodiy, fan-texnika, demografik, ekologik, qonunchilik va boshqa omillarni tahlil qilish;
- bozor tuzilmasini o‘rganish;
- sotuv hajmini bashorat qilish.

Xarajatlarni baholash. Tovar bahosining quyi chegarasi uni ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha xarajatlar darajasi orqali aniqlanadi.

Korxonaning baho strategiyasi. Korxona ishlab chiqarilayotgan tovarlar bo‘yicha o‘z baho strategiyasini oldindan belgilab olishi lozim. Ular quyidagicha turlarga bo‘linadi.

Yuqori baho yoki «qaymog‘ini olish» strategiyasi - avvalo tovar bahosini ishlab chiqarish narxidan ancha yuqori o‘rnatib, asta-sekin uni tushirib boradi. Bu usul bilan yangi tovarlar (patentlar bilan himoyalangan) sotiladi va bozorga kirgandan keyin segmentlar guruhini kengaytirish maqsadida arzonlashtirib boriladi. Yuqori baho strategiyasi korxonaga xarajatlarni tezda qaytarib olishga yordam beradi. Keyinchalik bozorda o‘xshash tovarlar - raqiblar paydo bo‘lgandan keyin korxona o‘z tovari narxini tushira boshlaydi va boshqa segmentlar uchun yangi tovarlar modifikatsiyasini yarata boshlaydi.

«Past baholar» yoki «bozorga yorib kirish» strategiyasida mahsulotga dastlab past baho o‘rnatiladi va talabni rag‘batlantiriladi. Raqiblar bozordan siqib chiqariladi va asosiy ulush egallanadi, sekin asta mahsulot bahosi oshirib boriladi. Bu strategiyani qo‘llash quyidagi sharoitlarda maqsadga muvofiq: bozor baho o‘zgarishiga juda sezgir va past baholar uning kengayishiga yordam beradi; xarajatlarning o‘sib borishi bilan ishlab chiqarish va sotish xajmi qisqarib boradi; raqobatchilar uchun past baholar qiziqarli emas.

Yuqoridagi ikkita strategiya ham uzoq muddatli istiqbolga ega emas. Tovarni yetuklik bosqichida ikkita boshqa strategiya qo‘llaniladi.

O‘zgaruvchan pasayuvchi baho strategiyasi «qaymog‘ini olish» strategiyasining mantiqiy davomi bo‘lib, xuddi shunday sharoitlarda samarali hisoblanadi. Uni korxona raqobatdan kuchli himoyalangan holatlarda qo‘llash mumkin. Mazmuni shundan iboratki, baho talab egri chizig‘i bo‘ylab harakatlanadi, ya’ni tovarga bo‘lgan talab va taklifga ko‘ra o‘zgaradi. Talabni rag‘batlantirish va korxonani raqobatdan himoya qilish uchun yangi tovarlar bo‘yicha izlanishlar olib borish lozim.

Mahsulot hayotiylik davrining pasayishi bosqichida uchta maxsus strategiya qo‘llaniladi. Birinchisi mahsulot bahosini eng quyi darajasiga pasaytirishga asoslanadi.Ikkinchisi ham birinchi strategiyaga o‘xshaydi, lekin mahsulotni boshqa mahsulot bilan siqib chiqarish davrining davomiyligi va darajasiga bog‘liq ravishda sekinroq kechadi.Uchinchi strategiya tovarni bozorda siljitish bo‘yicha sarflarni oshirish orqali uning hayotiylik davrini uzaytirishga yo‘naltirilgan.

Bahoni shakllantirish usulini tanlash. Korxona bahoni belgilashda foydalanadigan usullarni aniqlab olishi lozim. Bahoni shakllantirishning eng ko‘p qo‘llaniladigan usullarni ko‘rib chiqamiz:

- o‘rtacha xarajatlar qo‘shuv foyda;
- zararsizlik va maqsadli foyda;
- tovarning qimmati bo‘yicha tutgan o‘rniga yo‘naltirilgan;
- raqobatga yo‘naltirilgan.

"O‘rtacha xarajatlar qo‘shuv foyda" usuli. Bahoni hisoblashning ushbu usulining mohiyati quyidagicha: korxona yoki tadbirkor ishlab chiqarish bo‘yicha xarajatlarni aniqlaydi va unga kiritilgan kapital uchun mukofot sifatida qaraladigan

mo‘ljaldagi foyda miqdorini qo‘shadi.

Foyda miqdorini to‘la xarajatlarga nisbatan belgilangan foizlar (N_x)yoki bahoga nisbatan ulushlar (N_b) orqali aniqlash mumkin.

Bu usul bilan bahoni aniqlash quyidagicha:

$$\mathbf{B = T_t * (1+ N_x) \text{ yoki } B = T_t /(1- N_b)}$$

Bu yerda: T_t - mahsulot xizmat birligining to‘la tannarxi (so‘m).

Zararsizlik va maqsadli foyda usuli. Bu xolatda korxona bozor omillarini hisobga oladi: o‘xshash mahsulotlarga o‘rnatilgan bozordagi baho, turli baholarda ishlab chiqarish va sotish xajmlari. Korxona maqsadli (mo‘ljallangan) foyda summasini ta’minlash mumkin bo‘lgan mahsulot bahosi va unga mos keluvchi ishlab chiqarish xajmini qidiradi.

Ushbu usul yordamida quyidagi ikkita savolga javob topish mumkin.

1. Belgilangan ishlab chiqarish xajmida mo‘ljallangan foydani olish uchun baho qanday bo‘lishi kerak?
2. Agar tovarga bozorda ma’lum bir baho yuzaga kelgan bo‘lsa, mo‘ljallangan foydani olish uchun ishlab chiqarish xajmi qanday bo‘lishi kerak?

Bu savollarga javob topish uchun zararsizlik grafigini tuziladi, unda doimiy va yalpi xarajatlar chiziqlari belgilanadi.

Tovarning qimmati bo‘yicha tutgan o‘rniga yo‘naltirilgan bahoni shakllantirish usuli. Bu usul asosida tovarning xaridor tomonidan his qilinadigan, seziladigan qadr-qimmati va shu qadr-qimmatga ko‘ra uning ma’lum bir pul to‘lash hohishi yotadi. Korxona o‘z mahsulotiga baho belgilash uchun raqobatchi-mahsulotlar bo‘yicha xaridorlarda qanday qadr-qimmatga oid tasavvurlar borligini aniqlashi kerak. Buni xaridorlar yoki mutaxassis-ekspertlar o‘rtasida so‘rov o‘tkazish orqali amalga oshirish mumkin.

Ikkinchi yondashuvga ko‘ra quyidagilarni amalga oshirish mumkin: bozorda mavjud bo‘lgan o‘xshash tovarlarning bahosi va iste’mol xususiyatlari o‘rtasidagi yuzaga kelgan o‘zaro bog‘lanishni, munosabatni aniqlash; taklif qilinayotgan tovar ulardan qanchalik farq qilishini aniqlash; aniqlangan munosabat bo‘yicha o‘z tovariga baho belgilash.

Bunday holatda sotish bahosi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\mathbf{B_k = B_{baz} * (b_k / b_{baz})}$$

Bu yerda: B_k, B_{baz} – mos ravishda taqqoslash uchun olingan korxona mahsuloti va bazis mahsulot bahosi; b_k, b_{baz} – mos ravishda korxona mahsuloti va bazis mahsulotining sifat ko‘rsatigichlari bo‘yicha ballar.

Raqobatga yo‘naltirilgan holda bahoni shakllantirish (baho belgilash) usuli. Ushbu usul bilan baho belgilashda korxona faqatgina raqobatchi-tovarlarning bozordagi joriy baholaridan kelib chiqadi. Bahoni asosiy raqobatchilarning baholaridan bir oz yuqori yoki pastroq belgilash yoxud ular bilan bir xil belgilash mumkin.

Bahoni shakllantirishning ushbu usulini mahsulotni sof raqobat bozoriga

chiqarishda (qishloq xo‘jalik mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari, xom ashyo bozorlari) yoki oligopolistik bozorga (metal, alyuminiy, qog‘oz, kompyuter bozori) chiqarishda qo‘llash mumkin.

Yuqorida yoritilgan usullaridan foydalanib biznes-rejani ishlab chiquvchilar mahsulotning dastlabki bahosini hisoblaydilar.

Sanoat korxonasining baho taktikasi. Boshlang‘ich, dastlabki bahoni belgilash va uning maqsadiga muvofiq o‘zgarishi yo‘nalishlarini aniqlab olish bilan bahoni shakllantirish jarayoni to‘xtab qolmaydi. Bahoni belgilashda bozorni o‘zgarishini hisobga olib borish lozim, lekin mahsulotning bahosini (narxi) o‘zgarishi belgilangan bahoning yuqori va quyi chegarasida bo‘lishi kerak. Bozor talablariga ko‘ra bahoni to‘g‘rilab borish, ishlab chiqaruvchilar tomonidan bir qator qarorlar qabul qilishni ko‘zda tutadi. Natijada ma’lum bosqichdagi mahsulotning oxirgi bahosi o‘rnatiladi.

Korxonaning baho taktikasi yoki dastlabki bahoni to‘g‘rilab borish yo‘nalishlarining eng asosiylarini ko‘rib chiqamiz.

Uzoq muddatli bahoni belgilash. Iste’molchilarda ma’lum bir mahsulot to‘g‘risida va uning belgilangan bahosi to‘g‘risida tasavvurlar paydo bo‘lishi uchun baho o‘zgarmasdan qoladi hamda bozor o‘zgarishlariga berilmaydi. Bunday barqaror baholarni shunday mahsulotlarga qo‘yish kerakki, ularga bo‘lgan talab ham barqaror o‘zgarmas bo‘lsin.

O‘zgaruvchan (qayishqoq) baholarni belgilash. Mahsulot bahosi bozordagi talab va taklifning o‘zgarishiga ko‘ra belgilanadi. Baholar bir kunning ichida ham bir necha marta o‘zgarishi mumkin.

Diskriminatsiya baholarini belgilash. Diskriminatsion (bir xil bo‘lmagan) baholarni belgilashda korxona bir xil mahsulot yoki xizmat uchun turli xil shaklda, turli xil baho belgilaydi.

- xaridorlarning turli xilligini hisobga olgan holda. Masalan, talabalar, nogironlar, nafaqaxo‘rlar, veteranlar bir xil mahsulot uchun turli narx to‘laydilar;
- tovarning variantlarini hisobga olgan xolda.
- joyni hisobga olgan holda. Tovar turli joylarda ishlab chiqarish xarajatlari bir xil bo‘lsa ham turli baholarda sotiladi. Masalan, teatr pattasi tomoshabinlar qaysi joyni ko‘proq xoxlashlariga ko‘ra turli bahoda bo‘ladi.
- vaqtni hisobga olgan holda. Baholar mavsumga, kunga, xaftaga va sutkaning qaysi soatiga ko‘ra o‘zgarishi mumkin. Masalan, uyali aloqa xizmati kechasi va dam olish kunlari arzonroq bo‘lishi mumkin.

Psixologik jixatdan jozibador baholar belgilash. Bunda xaridorlar psixologiyasi hisobga olinadi. Bahoni butun son emas undan bir oz kamroq raqamlarda belgilanadi. Masalan, atirning bahosi 1000 so‘m emas 990 so‘m belgilanadi.

Tovar assortimentini baholarning bosqichma-bosqich o‘zgarishi asosida sotish. Korxonada odatda bir mahsulotning bir necha turlari va markalarini ishlab chiqiladi.Bunda alohida marka va modeldagi tovarlarga qo‘shiladigan baholarning o‘zaro bog‘liqligi muammosi tug‘iladi. Xaridor bir mahsulot sifat darajasining ikkinchisidan farqini aniq bilishi uchun baholar bir-biridan keskin farq qilishi kerak.

Qisqacha xulosalar

Sanoat iqtisodiyotining eng muhim muammolaridan biri bu tarmoq korxonalarida tayyorlanadigan mahsulot bahosini belgilashdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida baho sanoat tarmoqlari va korxonalarning moliyaviy ahvoliga yetarli (sezilarli) ta’sir etuvchi eng muhim sintetik ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Mahsulot bahosi juda ko‘p omillarga bog‘liq: mahsulotga bo‘lgan talab, ishlab chiqaruvchining taklifi, davlatning narx siyosati, xarajatlar, raqobat va h.k.lar.

Fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishda, mahsulot hajmini ko‘paytirishda va uning sifatini oshirishda, iste’molchilar ehtiyojini qondirishda baho bilan rag‘batlantirishning roli beqiyosdir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Baho siyosati - davlat iqtisodiy siyosatining ajralmas qismidir.
2. Baho va baholashning mohiyati, ahamiyati va mazmuni.
3. Baho funksiyalari.
4. Bahoning turlari.
5. Sanoat ishlab chiqarishida baholash tizimini yaxshilash yo‘llari.
6. Xorijiy mamlakatlarda baho va baholash.

Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro`yxati:

1. 2019 yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasi// https://president.uz/uz/lists/view/2228

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida» gi №PF-4947 sonli Farmoni. //Xalq so’zi. 2017 yil 8 fevral.

3. Sh. M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak . Tashkent : O‘zbekiston, 2017 y.,104 b.

4. Church J., and R.Ware. (CW) Industrial Organization. A Strategic Approach. Irwin. 2000.

5. Schmalensee, Richard, and Robert Willig, eds. (HB) Handbook of Industrial Organization. Vols. 1-2. North-Holland, 1989.

6. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.:”Sano-standart”, 2014.-304 b.

7. Qosimova M.S., Yusupov M.A., Ergashxodjayeva Sh.D. Marketing. Darslik. – T.: TDIU, 2010. 287 b.

8. www.webofscience.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi

9. www.search.ebscohost.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Raqobat to‘g‘risida»gi Qonuni //«Xalq so‘zi» gazetasi. 7 yanvar 2012 yil
3. O‘zbekiston Respublikasining «Xususiy korxonalar to‘g‘risida»gi Qonuni. Qonun va qarorlar. -T.: O‘zbekiston, 2011.
4. «Mas’uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 2001 yil 6 dekabr // Tadbirkorlikka oid qonun hujjatlari to‘plami. 1-tom. - T.: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2002.
5. «Xo‘jalik shirkatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining 2001 yil 6 dekabrdagi Qonuni.//lex.uz
6. «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 6 may, O‘RQ-370-sonli Qonuni // «Xalq so‘zi» 2014 yil 7 may, 88 (6018)-soni.
7. «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 2 may, O‘RQ-328-sonli Qonuni // «Xalq so‘zi» 2012 yil 3 may, 86 (5506)-son.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida" 2016 yil 28 oktyabrdagi PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 fevraldagi 66-son Qarori. //lex.uz
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. // Xalq so‘zi. 8 fevral 2017 yil.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28 iyuldagi 207-son “Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida” Qarori.//lex.uz
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 11 apreldagi «Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini yanada qisqartirish va soddalashtirish, shuningdek, biznes yuritish shart-sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5409-sonli Farmoni// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.04.2018 y., 06/18/5409/1059-son
12. 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida.. № PF-5308. 22.01.2018. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.05.2018 y., 06/18/5447/1269-son.
13. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 08.01.2019 yildagi PF-5614-son, Kuchga kirish sanasi 09.01.2019 Manba: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.01.2019 y.,
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 11 apreldagi «Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini

yanada qisqartirish va soddalashtirish, shuningdek, biznes yuritish shart-sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5409-sonli Farmoni// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.04.2018 y., 06/18/5409/1059-son

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 iyuldagi « Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining «Biznes yuritish» yillik hisobotida O‘zbekiston Respublikasining reytingini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3852li Qarori// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.07.2018 y., 07/18/3852/1503-son; 08.03.2019 y., 06/19/5687/2723-son

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 fevraldagi «Jahon banki va xalqaro moliya korporatsiyasining "Biznes yuritish" yillik hisobotida O‘zbekiston Respublikasining reytingini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4160-sonli Qarori// "Xalq so‘zi", 2019 yil 6 fevral

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so‘zi, 23 dekabr 2017 yil.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so‘zi, 29 dekabr 2018 yil.

19. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. (07.12.2016).

20. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. (2017-01-14) T.:- O‘zbekiston-2017.

21. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. / Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi.(2016 yil 14 dekabr kuni).

22. Church J., and R.Ware. (CW) Industrial Organization. A Strategic Approach. Irwin. 2000.

23. Schmalensee, Richard, and Robert Willig, eds. (HB) Handbook of Industrial Organization. Vols. 1-2. North-Holland, 1989.

24. Exploring Corporate Strategy. Seventh Edition. Gerry Johnson University of Strathclyde, Kevan Scholes Sheffield Hallam University, Richard Whittington Saïd Business School, University of Oxford. Seventh edition published 2005. R. 1070

25. Isobel Doole, Robin Lowe. International Marketing Strategy. Analysis, development and Implementation. 2008, Cengage Learning EMEA

26. Ansoff Matrix. Strategy Skills. 2013

27. Porter M. Mejdunarodnaya konkurensiya. - M.: Mejdunarodnie

otnosheniya, 1993. S. 51,

28. Porter M. Konkurensiya. – M.: Izdatelskiy dom «Vilyams», 2011.

29. Begattin P. – Becattini G. From Marshalls to the Italian «Industrial Districts»/ www.copetitivness.org. 2015

30. Marshall A. Prinsipi ekonomicheskoy nauki, t. I – III. Per. s angl. — M.:Izdatelskaya gruppa «Progress», 1993.

31. Enright M. Regional Clustersand Economic Development: A Research Agenda, in Staber, U., Schaefer, N. and Sharma, B., (Eds.) "Business Networks: Prospects for Regional Development, Berlin": Walter de Gruyter, pp. 190- 213.

32. BekmuradovA.Sh., YAng Son Be. Strategiya razvitiya tekstilnoy promishlennosti Uzbekistana. Klasterniy podxod– Tashkent, 2006 y.

33. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.:"Sano-standart", 2014.-304 b.

34. R.S. Muratov, I.A. Djalalova, S.Sh. Oripov. Korxona iqtisodiyoti. Darslik. – T.: «Fan va texnologiya», 2014, – 424 bet.

35. B.A. Adukarimov va boshq. Korxona iqtisodiyoti. Darslik. – T.: «Fan va texnologiya», 2012, – 368 bet.

36. Abdukarimov I.T. va boshqalar. Korxona iqtisodiy salohiyati tahlili. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2015, – 256 b.

37. A.Vahobov va boshq. Moliyaviy va boshqaruv tahlili: Darslik. – T.: "Sharq", 2015. – 480 b.

38. Maxmudov E.X., Isoqov M.Yu. Biznes - rejalashtirish. O'quv qo'llanma. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, – 160 b.

39. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006, – 208 b.

40. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. – Toshkent: Moliya, 1997. – B. 46.

41. Xotamov I., Aliev Y. "Innovatsion iqtisodiyot" fani bo'yicha ishchi daftar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018 yil,174 bet.

42. Xakimov Z.A. Yengil sanoat korxonalari raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish. Falsafa doktorlik dissertatsiyasi. – T.: TDIU, 2018.

43. Qosimova M.S., Yusupov M.A., Ergashxodjayeva Sh.D. Marketing. Darslik. – T.: TDIU, 2010. 287 b.

44. A.A.Kushnarev. Strukturnыe preobrazovaniya ekonomiki kak osobыy ob'ekt upravleniya: http://cyberleninka.ru/article/n/strukturnye-preobrazovaniya-ekonomiki-kak-osobyy-obekt-upravleniya

45. O'zbek tilining izohli lug'ati. M.: «Rus tili» nashriyoti. 1981. – B.17

46. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasini keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma./Nashr uchun mas'ul R.S. Qosimov. – T: "Ma'naviyat", 2018. - 320 bet.

47. O'zbekiston Respublikasining 2014-2018 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari. www.stat.uz.

Internet saytlari

1. www.webofscience.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi
2. www.search.ebscohost.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi
3. www.mineconomy.uz (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)
4. www.mehnat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi)
5. www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)
6. www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi)
7. www.ima.uz (O`zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi)
8. www.academy.uz (Fanlar akademiyasi)
9. www.semi.rssi.ru– Rossiya Federatsiyasi Markaziy-iqtisodiy matematika instituti sayti.
10. www.nber.com– AQSh iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosi sayti.
11. www.webofscience.com- Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.
12. www.scopus.com – Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.
13. www.elibrary.ru – Rossiya ilmiy maqolalar indeksi.
14. www.ereport.ru – обзорная информация по мировой экономике
15. www.stplan.ru – экономика и управление
16. www.catback.ru – научные статьи и учебные материалы по экономике
17. https://www.sciencedirect.com/search?qs=Consumers%20International&show=25&sortBy=relevance&origin=home&zone=qSearch
18. https://pdf.sciencedirectassets.com/271165/
19. ttps://pdf.sciencedirectassets.com/271164/1-s2.0-0956713519X00031/

MUNDARIJA

Kirish..... 3

1-BOB. «INDUSTRIAL IQTISODIYOT» FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI..... 5

1.1. «Industrial iqtisodiyot” fanining ob’ekti, sanoatning ta’rifi va tavsifi..... 5

1.2. «Industrial iqtisodiyot” fanining predmeti va boshqa fanlar bilan bog‘liqligi..... 7

1.3. «Industrial iqtisodiyot” fanini o‘rganish metodologiyasi va usullari..... 9

1.4. «Industrial iqtisodiyot” fanining vazifalari……. 10

2-BOB. SANOAT - MILLIY IQTISODIYOTNING YETAKCHI TARMOG‘I..... 13

2.1. Sanoatning milliy iqtisodiyot rivojidagi roli va o‘rni 13

2.2. Sanoat tarmoqlari va ularning rivojlanishi 19

2.3. Sanoat korxonalarining belgilari, funksiyalari va vazifalari..... 34

2.4. Sanoat korxonalarini tasniflash..... 35

2.5. Sanoat korxonalarini ta’sis etish va davlat tomonidan ro‘yxatga olinishi..... 39

2.6. Sanoat korxonalarini tugatish va qayta tashkil qilish..... 44

3-BOB. SANOAT TARMOQ TUZILMASI VA TARKIBIY SILJISHLAR..... 49

3.1. Tarkibiy siyosat, uning mohiyati va ahamiyati..... 49

3.2. Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning o‘rni 49

3.3. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va sanoat tarmog‘ining shakllanishi..... 52

3.4. Sanoatning tarmoq tuzilmasi va uni belgilovchi omillar..... 54

4-BOB. SANOATDA ZAMONAVIY BOSHQARUV TIZIMI..... 57

4.1.Boshqaruv ob’ektiv zaruriyat va maqsadga yo‘naltirilgan jarayon sifatida. 57

4.2.Boshqarishning asosiy tamoyillari va usullari..... 62

4.3. Sanoat korxonalari tuzilmasini belgilovchi omillar..... 68

4.4. Sanoat korxonalarida boshqaruv tuzilmalari shakllari va ularning xususiyatlari..... 70

4.5. Sanoatda boshqaruvning zamonaviy yangi organik tarkibiy shakllari..... 72

4.6. Boshqarishning tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari..... 73

5-BOB. SANOAT IShLAB CHIQARIShINING IQTISODIY VA IJTIMOIY SAMARADORLIGI..... 75

5.1. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida ishlab chiqarishining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini ta’minlashning ahamiyati. 75

5.2. Ishlab chiqarish samaradorlignning mohiyati, mezoni va ko‘rsatkichlari. Xarajatlarning umumiy va qiyosiy samaradorligi..... 79

5.3. Sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligi monitoringi va tahlilini o‘tkazish mezonlari..... 88

5.4. Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati samaradorligini baholash..... 91
5.5.Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning omillari va yo‘llari..... 97
6-BOB. SANOATDA FAN-TEXNIKA TARAQQIYOTI..... 99
6.1. Fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va ahamiyati..... 99
6.2. Fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari..... 100
6.3. Sanoatda innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi va xarajatlari dinamikasi..... 102
6.4. Sanoatda ilmiy va ilmiy-texnik salohiyat..... 103
6.5. Ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va litsenziyalash..... 105
6.6. Fan-texnika taraqqiyotining samaradorligini baholash..... 105
7- BOB. IShLAB CHIQARISHNI IJTIMOIY TASHKIL ETISH..... 107
7.1. Diversifikatsiyalash tushunchasi, mohiyati va iqtisodiy ahamiyati..... 107
7.2. Sanoat korxonalarida yangi tovar ishlab chiqarish, tovar diversifikatsiyasi. 108
7.3. Sanoat korxonalarida maxsulot tuzilmasi, nomenkulaturasi va assortimentining tahlili..... 110
7.4. Sanoatda kooperatsiya tushunchasi va uning shakllari..... 111
7.5. Ichki tarmoq va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi va uni kuchaytirishda kichik biznes imkoniyatlaridan foydalanish..... 112
7.6. Sanoatda ishlab chiqarishni mahalliylashtirish..... 115
7.7. “Klaster” nazariyasining mohiyati va uning rivojlanishi..... 118
7.8. Sanoatda klasterlarni tashkil etish bo‘yicha chet mamlakatlar tajribalari. 121
8-BOB. SANOATDA KADRLAR VA MEHNATGA HAQ TO‘LASH 126
8.1. Kadrlar siyosati va uning sanoat taraqqiyotidagi roli..... 126
8.2. Kadrlar, ularning tarkibi va strukturasi..... 128
8.3. Mehnat salohiyatidan foydalanish ko‘rsatkichlari tizimi, va aniqlash yo‘llari..... 129
8.4. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish..... 132
8.5. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash..... 133
8.6. Mehnatga haq to‘lashning funksiyalari va tamoyillari..... 134
8.7. Mehnatga haq to‘lashning tarif tizimi va uning elementlari..... 136
9-BOB. SANOAT ISHLAB CHIQARISHINING ASOSIY FONDLARI VA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARI..... 139
9.1. Sanoatda asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati, tarkibi va tuzilishi..... 139
9.2. Sanoat korxonalarida asosiy vositalarni baholash, ularni eskirishi..... 142
9.3. Sanoat korxonalari asosiy vositalarining xolati va ta’minlanganligi ko‘rsatkichlari..... 151
9.4. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlari va ularni oshirish yo‘nalishlari. 155
9.5.Ishlab chiqarish quvvati va ulardan foydalanishni yaxshilash yo‘llari..... 158

10-BOB. SANOATNING XOM ASHYO MANBAI VA TEJAMKORLIK STRATEGIYASI..... 163
10.1. Sanoatda xom ashyo, uning xususiyatlari va turkumlanishi..... 163
10.2. Sanoat ishlab chiqarishning mineral xom ashyo manbai..... 167
10.3. Resurslar tejamkorligining strategiyasi va taktikasi..... 170
11-BOB. SANOAT ISHLAB CHIQARISHNING AYLANMA MABLAG‘LARI..... 176
11.1. Aylanma mablag‘lar tushunchasi, iqtisodiy tabiati va ahamiyati..... 176
11.2. Aylanma mablag‘larning tuzilmasi va harakati..... 178
11.3. Aylanma mablag‘larni normalashtirish..... 181
11.4. Sanoat korxonalari aylanma mablag‘lari holati va ta’minlanganligi ko‘rsatkichlari..... 188
11.5. Sanoat korxonalarida aylanma mablag‘lari samaradorligi ko‘rsatkichlari va uni oshirish imkoniyatlari..... 190
12-BOB. SANOAT MAHSULOTINING SIFATI VA UNING RAQOBATBARDOSHLIGI..... 195
12.1. Sifat tushunchasi va sifatni oshirish zaruriyati..... 195
12.2. Mahsulotning sifat ko`rsatkichlari va ularni baholash usullari..... 196
12.3. Mahsulot sifatini boshqarish va uni oshirish yo`llari..... 198
12.4. Standartlashtirish, sertifikatlashtirish, attestatsiya va nazorat qilish..... 200
13-BOB. SANOATDA TANNARX, FOYDA VA ISHLAB CHIQARISH RENTABELLIGI..... 205
13.1. Qiymat va tannarx nazariyasi, ishlab chiqarish sarflarini kamaytirishning ilmiy asoslari..... 205
13.2. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlarni guruhlash..... 206
13.3. Foyda va rentabellik..... 212
13.4. Mahsulot tannarxini pasaytirishning manbalari va omillari..... 218
14-BOB.SANOAT IShLAB CHIQARISHIDA BAHO VA BAHONI SHAKLLANTIRISH..... 222
14.1.Baho-bozor munosabatlarining iqtisodiy kategoriyasi..... 222
14.2.Bahoning funktsiyalari va turlari..... 225
14.3. Sanoatda bahoni shakllantirish usullari va baho siyosatini ishlab chiqish bosqichlari..... 229
ADABIYOTLAR RO‘YXATI..... 234